  - **Gamification:** Using game-based mechanics in an educational context.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

- **Robotics and AI:** Incorporating educational robots and artificial intelligence tools.
- **Collaborative tools:** Blogs, collaborative software, and ePortfolios.

- e rapid development of mass media/communication and
- their involvement in education and upbringing process have
- signi cantly intensi ed the creative search of teachers. As a
- result, media education was singled out as a separate branch,
- which is human-centered in its content. Its appearance in
- the educational space is an innovative educational process,
- conditioned by the social needs.
- e analysis of the recent issue-relevant research and articles
- con rms the accelerated velocity of introducing media
- education technologies into the higher school education
- process. e researchers proved media education tools to

Media refers to the means through which information is conveyed to an audience. It includes all forms of communication channels that allow for the transmission of knowledge, ideas, and messages. In the context of education, media could be anything from textbooks, audio recordings, and radio broadcasts to videos and blogs. Essentially, media is the medium or the content itself that carries the information. **Technology**, on the other hand, refers to the tools or devices that make the use of media possible. Technology is what enables the creation, sharing, and interaction with media. For example, a computer, a tablet, or a learning management system (LMS) are all types of technology that facilitate the use of educational media. Technology enables the delivery, access, and interaction with the media content that is being shared.

Media's role in higher education is multifaceted, functioning as a tool for enhanced **teaching and learning,** institutional **marketing and reqruitment** and **professional development** for both students and faculty. It provides diverse and engaging educational resources, facilitates global collaboration and accessibility, and shapes public perception of institutions. Now that we've established the importance of

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

media, let's talk about how technology can enhance teaching and learning through its integration into the classroom. The integration of digital tools has transformed how students and teachers interact with content and each other. One of the main benefits of integrating technology into education is the ability to improve interaction and engagement. Traditional teaching methods, such as lectures and textbooks, can often feel passive. In contrast, digital tools like quizzes, gamification, and interactive software offer opportunities for students to actively engage with content, making learning more dynamic.

Developing students' media education technology skills involves using technology to teach critical thinking, content creation, and responsible digital citizenship. This can be achieved through hands-on projects like digital storytelling, using collaborative tools like mind maps, and engaging with media analysis to help students evaluate information and understand media's influence. Integrating technology makes learning more dynamic and relevant for "Net-Generation" students.

In order to develop students' skills in utilizing media education technologies we can suggest some strategies to students. These strategies, from my perspective, can develop students' activeness and effectiveness of their education. Key strategies for developing these type of skills:

a) **Promote critical analysis:**

- ✓ Use media literacy to teach students how to analyze media messages, identify biases, and understand the motives behind them;
- ✓ Discuss how media shapes perceptions, influences behavior, and reflects societal values;
- ✓ Encourage dialogue and debate based on evidence, fostering skills in evaluating sources.

b) **Integrate technology for content creation:**

- ✓ Provide students with tools to create their own content, such as blogs, podcasts, videos, and social media campaigns;

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

- ✓ Use technology for collaborative projects, like using mind maps to brainstorm and visualize challenges related to social media;
- ✓ Incorporate digital storytelling with mobile devices to help students conduct research, analyze data, and present their findings.

c) **Foster responsible digital citizenship:**

- ✓ Use technology to connect classroom learning to real-world issues and prepare students for the modern workforce;
- ✓ Teach students how to use technologies like AI and social media wisely and ethically;
- ✓ Implement activities like online polls and surveys to gather feedback and encourage participation.

d) **Enhance learning through digital media:**

- ✓ Use multimedia resources like videos, audio, and interactive websites to make learning more engaging and help students better understand abstract concepts;
- ✓ Utilize the interactive nature of technology for group participation and problem-solving.

Conclusion

In conclusion, incorporating media literacy in the curriculum is crucial to help students navigate the complex and often overwhelming media landscape. By teaching media literacy skills, students can be more informed, critical, and responsible for media consumers and creators. Educators play a significant role in equipping students with these skills, making media literacy an essential part of their teaching practice.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

REFERENCES:

1. The law of the Republic of Uzbekistan “On Education”Tashkent.1997
2. President of the Republic of Uzbekistan on February 7, 2017 PF”on the strategy of Action for the further development of the Republic-decree No. 4947 “people’s word”, February 8, 2017
3. Muslimov N.A., Abdullayeva K.M, Gaipova N.S. Of future teachers theory and technology of the formation of pedagogical competence. Methodic Guide Tashkent-2014 112b
4. Hasanboev J. Explanatory Dictionary on pedagogy Tashkent-2008 149 b.
5. Kellner, D & Share J. (2007) . Critical media literacy, democracy, and reconstruction of education.
6. Understanding media and technology in eduaction: Key differences and applications. December 27, 2023

INTERNET SOURCES

1. http://learnweb.harvard.edu/alps/
2. http://v.ucf.edu/Web/purl.asp?pid=689
3. **https://education.stateuniversity.com/pages/1652/Uzbekistan-SECONDARY-EDUCATION.html**
4. http://lcweb2.loc.gov/frd/cs/profiles/Uzbekistan.pdf

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

AXLOQ TUZATISH ISHLARI TARIQASIDAGI JAZOLARNI AHAMIYATI VA UNI IJRO ETISH TARTIBI

Irnazarov Shuxrat Najmetdinovich

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti «Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi» kafedrasi o‘qituvchisi.

Boboraxmatova Adiba Rustamovna

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazolar institutining huquqiy mohiyati, uning jinoyat sodir etgan shaxsni ijtimoiy jihatdan qayta moslashtirishdagi roli va amaliy ahamiyati atroflicha tahlil etiladi. Ushbu jazo turi ozodlikdan mahrum qilishga muqobil choralar sirasiga kirib, mahkumning mehnat faoliyati orqali tarbiyalanishini ta’minlash, ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish hamda takror jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Maqolada axloq tuzatish ishlarini belgilash tartibi, uning muddatlari, mehnat sharoitlari, sud hamda Probatsiya xizmati o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmi, shuningdek mahkumning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlar batafsil ko‘rib chiqilgan.

Bundan tashqari, jazo ijrosida uchraydigan huquqiy va tashkiliy muammolar, ushbu institutni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar keltiriladi. Tadqiqot natijalari axloq tuzatish ishlarining nafaqat jazolash, balki ijtimoiy tarbiya, reabilitatsiya va jamiyatga qayta integratsiya qilish kabi ko‘p qirrali vazifalarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu maqola axloq tuzatish jazolari institutini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va qonunchilikni rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so’zlar: axloq tuzatish ishlari, jazo, ozodlikdan mahrum qilmaslik, Probatsiya xizmati, mehnat faoliyati, jinoyatchilik profilaktikasi, ijtimoiy moslashuv, qayta

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

tarbiyalash, jazo ijrosi, huquqiy mexanizmlar, jamiyatga qayta integratsiya, ijtimoiy ta’sir, takror jinoyatchilik, tarbiyaviy jazo.

Аннотация: В статье дается подробный анализ института правовых наказаний в виде моральных работ, его роли и практического значения в социальной реадаптации лица, совершившего преступление. Институт моральных работ является альтернативой лишению свободы, обеспечивая воспитание через трудовую деятельность, вовлечение в общественно полезную деятельность, а также профилактику повторной преступности и оказание услуг. В статье исследуется порядок регулирования моральных работ, их сроки, условия труда, механизм прав суда и службы пробации, процессы, связанные с реализацией осужденным и предприятиями. Кроме того, представлены правовые и организационные проблемы, присущие исполнению наказания, а также предложения по дальнейшему развитию данного института. Способность моральных работ восстанавливать моральные работы является не только формой наказания, но и многогранным упражнением, таким как социальное воспитание, реабилитация и интеграция в общество. В статье содержатся теоретические и практические рекомендации по дальнейшему развитию института моральных наказаний, его применению и легализации.

Ключевые слова: исправительные работы, наказание, не связанное с лишением свободы, служба пробации, трудовая деятельность, профилактика преступлений, социальная адаптация, перевоспитание, исполнение наказания, правовые механизмы, реинтеграция в общество, социальное воздействие, рецидивизм, воспитательное наказание.

Abstract: The article provides a detailed analysis of the institution of legal punishments of moral works, its role and practical significance in the social re-adaptation of a person who has committed a crime. The institution of moral works is an alternative to deprivation of liberty, ensuring education through labor activity, involvement in socially useful activities, and the prevention of re-crime and the provision of services. The article examines the procedure for regulating moral works, its terms, working conditions, the mechanism of the rights of the court and the Probation Service, the processes related to the implementation of the convict and the enterprises.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

In addition, the legal and organizational problems inherent in the execution of punishment are presented, as well as the proposals for further development of this institution. The ability of moral works to restore moral works to be not only a form of punishment, but also a multifaceted exercise, such as social education, rehabilitation and integration into society. The article contains theoretical and practical recommendations on the further development of the institution of moral punishments, its use, and legalization.

Keywords: correctional work, punishment, non-custodial sentence, Probation Service, labor activity, crime prevention, social adaptation, re-education, execution of punishment, legal mechanisms, reintegration into society, social impact, recidivism, educational punishment.

KIRISH

Jinoyatchilik insoniyat jamiyatini doimiy ravishda xavotirga soladigan ijtimoiy salbiy hodisa hisoblanadi. Ushbu illatga qarshi kurashishning zamonaviy vosita va metodlarini izlash har doim mutaxassislar e’tibor markazida bo‘lgan. Jinoyatchilikka qarshi samarali choralar orasida aybdor shaxsga sud tomonidan adolatli va qonuniy jazo tayinlash eng muhim vositalardan biridir. Shu bilan birga, jinoyatlarning oldini olish, jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish va profilaktik ishlarni samarali tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki faqat jazoga tayanish yetarli emas balki tarbiya, profilaktika va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali jinoyatchilik darajasini sezilarli kamaytirish mumkin.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlar jinoiy jazo tizimini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishni maqsad qilgan. Bu borada insonparvarlik, adolat va qonuniylik tamoyillariga asoslangan zamonaviy yondashuvlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli farmoni[1], 2018 yil 14 maydagi «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3723-sonli qarori[2] hamda sohaga oid

[1] «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli farmoni
[2] «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3723-sonli qarori

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

boshqa qonun hujjatlarida jinoiy javobgarlik va jazo tizimini liberallashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida jazoning muqobil turlarini keng qo'llash, jazoni ijtimoiy adolat va tarbiyaviy ta'sir tamoyillari asosida belgilash, probatsiya tizimini kuchaytirish, shuningdek, mahkumlarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, jazoni o'tash sharoitlarini inson sha'niga mos ravishda takomillashtirish, qayta jinoyat sodir etish holatlarini kamaytirish ham islohotlarning asosiy maqsadlaridan biridir. Umuman olganda, sud-huquq sohasidagi bugungi islohotlar mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarali va barqaror tizimini shakllantirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuasidir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Barchamizga ayonki, shu vaqtgacha huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud idoralarining asosiy vazifasi aksariyat hollarda odamlarga jazolashdan iborat bo'lib kelgan. Bu achchiq haqiqat. Biz jinoyiy jazolarni insonparvarlik nuqtai nazaridan o'zgartirishga alohida e'tibor qaratamiz"[3]. Qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jazolar tizimi jinoyatning ijtimoiy xavfliligi va jamiyatga tahdidi darajasidan kelib chiqib belgilangan. Shu bilan birga, jazolarni insonparvarlik, adolat va huquqiy me'yorlar asosida qayta shakllantirish zamonaviy huquq tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Bu yondashuv sud amaliyotining samaradorligini oshirish, jazoni ijro etish jarayonini insoniylik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning obro'-e'tiborini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 7-moddasida (Insonparvarlik prinsipi) qayd etilishicha, jinoyat sodir etgan shaxsga davlat tomonidan qo'llaniladigan jinoiy jazo turi uning qilgan ishining mohiyati va ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib, sud hukmi bilan belgilanad[4]i. Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan

[3] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. - Б. 41.

[4] O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodekisi https://lex.uz/mact/-111453

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

shunday jazolardan biri - axloq tuzatish ishlari jazosi hisoblanib, ushbu jazo asosan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarning sanksiyalarida, shuningdek, kam hollarda og‘ir jinoyatlar sanksiyasida ko‘zda tutilgan. Bu esa axloq tuzatish ishlari jazosining jazo tizimida mavjud boshqa jazolarga nisbatan o‘ziga xos, alohida o‘rin egallashini anglatadi.

ASOSIY QISM

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodekisining 46-moddasida axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo tushunchasiga ta’rif berilgan bo’lib unga ko’ra, axloq tuzatish ishlari shaxs ish haqining o‘n foizidan o‘ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda uni mehnatga majburan jalb qilishdan iborat bo‘lib, jazo sudning hukmiga muvofiq mahkumning o‘z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o‘taladi[5].

MDH mamlakatlarining jinoyat qonunchiligida axloqni tuzatish ishlari jazosi nomi va mohiyati umumiy tarzda belgilangan bo‘lsa-da, ushbu jazo tayinlanadigan shaxslar doirasi, mahkumga nisbatan qo‘llaniladigan cheklovlar va boshqa jihatlari bilan farq qiladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Gruziya kabi davlatlarda axloqni tuzatish ishlari jazosi qo‘llanilganda, mahkumning daromadidan 5 foizdan 20 foizgacha bo‘lgan summa davlat foydasiga ushlab qolinadi; Ukraina qonunchiligida bu ko‘rsatkich 10 foizdan 20 foizgacha, Belarusda 10 foizdan 25 foizgacha, Tojikistonda esa 10 foizdan 30 foizgacha belgilangan[6].

Axloq tuzatish ishlari tarzidagi jazo sudning hukmi (yoki ajrimi)ga binoan mahkumning o‘z mehnat faoliyati olib borayotgan joyida yoki Probatsiya xizmati tomonidan belgilangan boshqa tashkilotlarda ijro etiladi. Agar mahkumning doimiy yashash manzili bo‘lmasa, hukmni bajarish majburiyati hukm qabul qilingan hududdagi Probatsiya xizmatiga yuklatiladi. Mehnatga layoqatli bo‘lgan voyaga yetmaganlar jazoni o‘z ish joyida o‘tashlari lozim, ular ishlamagan taqdirda esa Probatsiya

[5] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodekisi https://lex.uz/acts/-163629

[6] Рузиев И. Хорижий мамлакатлар жиноят қонунчилигида ахлоқ тузатиш ишлари жазосининг тартибга солиниши // Общество и инновации. - 2021. - Т. 2. - №. 3/S. - С. 138-144.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

xizmatining yo‘llanmasiga asosan yashash hududidagi korxona, muassasa yoki tashkilotlarga jazoni ijro etish uchun yuboriladi.

Ichki ishlar organi xodimi tomonidan axloq tuzatish ishlariga jalb qilish haqidagi sud hukm (ajrim)lari ijroga kelgan kundan boshlab o‘n kunlik muddatdan kechikmasdan ijro etilishi lozim. Ichki ishlar organi hukm (ajrim)ni qabul qilganligi to‘g‘risida hukm chiqargan sudga, agar mahkumga ozodlikdan maxrum qilish tariqasidagi jazoni o‘talmay qolgan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilgan bo‘lsa, jazoni ijro etish muassasasiga ham xabarnoma yuboradi.

Probatsiya xizmati mahkumni aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari orqali ishga joylashtiradi, ya’ni yo‘llanma asosida ish bilan ta’minlaydi. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-fevraldagi “Ichki ishlar organlari probatsiya xizmati faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi 84-sonli qarorining 2-ilovasida mahkumlarni ish bilan ta’minlash, ularning oila a’zolariga yordam ko‘rsatish, mehnat bozorida talab yuqori kasblarga o‘qitish, kasb o‘rgatish jarayonida subsidiya ajratish, mahkumlar uchun bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkasini tashkil qilish hamda ularni haq to‘lanadigan jamoat yoki mavsumiy ishlariga jalb etish kabi vazifalar aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari zimmasiga yuklangan. Mahkumlarning ish haqi qonunchilikda belgilangan eng kam ish haqidan past bo‘lishi mumkin emas. Ish haqidan ushlab qolinadigan mablag‘ni naqd shaklda to‘lash taqiqlanad[7]i.

Jazo mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lganligi bois, mehnat qonunchiligida imtiyozlar berilgan ayrim toifadagi shaxslarga nisbatan sudlar tomonidan ushbu jazo turi tayinlanmaydi.Bunday shaxslar qatoriga:

– pensiya yoshiga yetganlarga;

– mehnatga qobiliyatsizlarga;

– homilador ayollarga;

– yosh bolasini boqish uchun ta’tilda bo‘lgan ayollarga;

[7] Ichki ishlar organlari probatsiya xizmati faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi 84-sonli qaror https://lex.uz/docs/-4735981

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

– harbiy xizmatchilarga.

Ushbu jazo turi mahkumlarga olti oydan uch yilgacha muddatga uni mehnatga majburan jalb qilishdan iborat bo‘lib, jazo sudning hukmiga muvofiq mahkumning o‘z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o‘taladi. Axloq tuzatish ishlari muddatini hisoblashda mahkum tomonidan amalga oshirilgan ish va uning ish haqidan ushlab qolingan davr yillar, oylar va kunlar bo‘yicha belgilanadi. Mahkumning ishlagan kunlari soni sud tomonidan belgilangan jazo muddatining har bir oyi uchun belgilangan ish kunlari miqdoridan kam bo‘lmasligi shart. Agar mahkum ushbu belgilangan ish kunlarini to‘liq bajarmagan bo‘lsa va ishlanmagan kunlarni jazo muddatiga qo‘shish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksida asoslar mavjud bo‘lmasa, axloq tuzatish ishlari mahkum barcha belgilangan ish kunlarini bajargunicha davom etadi. Jazoni o‘tash muddati korxona, muassasa yoki tashkilot ma’muriyati probatsiya xizmatidan xabarnoma olgan kundan boshlanadi. Agar axloq tuzatish ishlari boshqa joylarda o‘tilsa, mahkum jazoni o‘tash uchun yuborilgan korxona, muassasa yoki tashkilotda ish boshlagan kunidan hisoblanadi.Shuningdek, mahkum ishlamagan, ammo qonuniy asosda uning ish haqi saqlanib qolgan vaqt, hamda mahkum ishsiz deb topilgan davr ham axloq tuzatish ishlarini o‘tash muddatiga qo‘shib hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo’lsak, Gruziya (JK 45-m.) va Armaniston (JK 56-m.)da axloqni tuzatish ishlari jazosi o‘tash muddati bo‘yicha bir oydan ikki yilgacha, Rossiya Federatsiyasi (JK 50-m., 2-q.), Ozarbayjon (JK 49-m., 1-q.), Qozog‘iston (JK 43-m., 1-q.) va Tojikiston (JK 52-m., 1-q.)da ikki oydan ikki yilgacha, Belarus (JK 52-m., 1-q.) va Ukraina (JK 57-m., 1-q.)da olti oydan ikki yilgacha, Qirg‘izistonda (JK 462-m., 2-q.) esa uch oydan uch yilgacha muddat belgilanganligi qayd etilgan. Shuningdek xorijiy davlatlarning jinoyat-ijroiya qonunchiligida axloq tuzatish ishlari jazosini o‘tash jarayonini nazorat qiluvchi organlar turlicha belgilangan. Masalan, Ozarbayjon (JIK 48-m., 2-q.)da jazoni mahkumning o‘zi sud ijrochisi nazorati ostida o‘taydi; Ukraina (JIK 41-m., 3-q.)da esa axloq tuzatish ishlari jazosi nazorati probatsiya organi tomonidan amalga oshiriladi. Rossiya Federatsiyasi (JIK 39-m., 1-q.), Belarus (JIK 38-m., 1-q.), Armaniston va Qozog‘iston JIKda esa jazoni ijro etish inspeksiyasi nazorat

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

qiladi. Shu davlatlardan farqli o‘laroq, mamlakatimiz qonunchiligida axloq tuzatish ishlari jazosini nazorat qilish IIO probatsiya xizmati zimmasiga yuklangan[8].

Axloq tuzatish ishlari muddatining jami bo‘lib o‘ndan bir qismidan ko‘prog‘ini o‘tashdan bo‘yin tovlasa, ichki ishlar organi o‘talmagan muddatni ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirish haqida sudga taqdimnoma kiritadi hamda sud axloq tuzatish ishlarining o‘talmagan muddatini xuddi shu muddatga ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagan vaqt jazoning o‘talgan muddatiga qo‘shib hisoblanmaydi (JK 46-m. 4-q. va JIK 32-m.). Agarda voyaga yetmagan shaxs tayinlangan axloq tuzatish ishlarining o‘ndan bir qismidan ko‘prog‘ini o‘tashdan bo‘yin tovlagan taqdirda, sud bu jazoning o‘talmagan qismini axloq tuzatish ishlarining har uch kunini ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi (JK 83-m. 2-q. va JIK 32-m.) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 78-moddasi 1-qismi “v”bandiga asosan axloq tuzatish ishlari jazosi o‘talganidan keyin bir yil o‘tgach shaxsning sudlanganlik holati tugallangan deb hisoblanadi[9].

XULOSA

Axloq tuzatish ishlari jazolari jinoyatni kamaytirish va shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirishda muhim vositadir. Bu jazo turi mahkumni ish orqali mas’uliyat va mehnat tartibiga o‘rgatadi, qonuniy normalarga rioya qilishni rag‘batlantiradi va jazoni o‘tash muddati ishlagan kunlar va ish haqining hisobga olinishi bilan belgilanadi. Agar mahkum belgilangan ish kunlarini o‘tashdan bo‘yin tovlagan bo‘lsa, qolgan muddat sud tomonidan muqobil jazo bilan almashtiriladi. Voyaga yetmagan shaxslar uchun jazo hisoblash alohida tamoyillar asosida amalga oshiriladi, jazoni o‘tashdan keyin esa shaxsning sudlanganlik holati tugallangan deb hisoblanadi.

Shuningdek, axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazolar nafaqat jazoni ijro etish vositasi, balki shaxsni tarbiyalash, unga pushaymon bo‘lish imkonini yaratish, ijtimoiy

[8] Рузиев И. Хорижий мамлакатлар жиноят қонунчилигида ахлоқ тузатиш ишлари жазосининг тартибга солиниши // Общество и инновации. - 2021. - Т. 2. - №. 3/S. - С. 138-144.

[9] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodekisi https://lex.uz/mact/-111453

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

javobgarlikni shakllantirish va o‘z xulqini baholashga undashda samarali mexanizm hisoblanadi. Bu jazo turi mahkumni jamiyat bilan faol aloqada bo‘lishini ta’minlab, unga foydali ishlar bilan shug‘ullanish va ijtimoiy moslashuvini mustahkamlash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, axloq tuzatish ishlari jazosi jamiyat uchun xavfsizlikni ta’minlash, jinoyatning oldini olish va shaxsni qonuniy me’yorlar doirasida mas’uliyatli bo‘lishga o‘rgatish kabi ijtimoiy ahamiyatga ham ega.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, axloq tuzatish ishlari jazosi nafaqat jazoni ijro etish, balki shaxsni tarbiyalash va uni jamiyatga foydali a’zo sifatida qayta integratsiya qilishga xizmat qiluvchi muhim mexanizmdir. Shu bilan birga, mahkumni jamiyatdan ajratmagan holdagi jazolar uning o‘z qilmishining ijtimoiy xavfliligini anglashini kuchaytiradi va qonuniy me’yorlar doirasida ijtimoiy javobgarlikni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodekisi https://lex.uz/mact/-111453
2. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodekisi https://lex.uz/acts/-163629
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-fevraldagi “Ichki ishlar organlari probatsiya xizmati faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida” https://lex.uz/docs/-4735981
4. Jinoyat-ijroiya huquqi darslik. Toshkent 2019
5. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRINING BUYRUG‘I “PROBATSIYA NAZORATIDAGI SHAXSLARNING XULQ-ATVORI USTIDAN NAZORATNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI YO‘RIQNOMANI TASDIQLASH HAQIDA” https://lex.uz/docs/-7696341
6. Axloq tuzatish ishlari jazosi. https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=72432
7. Рузиев И. Хорижий мамлакатлар жиноят қонунчилигида ахлоқ тузатиш ишлари жазосининг тартибга солиниши // Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 138-144.
8. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. – Б. 41.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

«MARKAZIY OSIYODAGI SIYOSIY VA DIPLOMATIK JARAYONLARDA AYOLLARNING ROLI”

Uralova Sevara Bahodirovna

Sevarauralova1501gmail.com

Jahon iqtisodiyoti Va diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar fakulteti talabasi

Annotatsiya

2016 yildan keyingi davr O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida tub burilishlar davri sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi. Ushbu maqola «2016 yillardan so‘ng O‘zbekistonning tashqi siyosati evolutsiyasi: qo‘shnilar va global aktorlar o‘rtasidagi muvozanat» mavzusini kompleks

tarzda o‘rganishga qaratilgan. Maqolaning asosiy vazifasi — O‘zbekiston tashqi siyosatining 2016–2025 yillardagi o‘zgarish mexanizmlarini aniqlash, mintaqaviy aktorlar (Markaziy Osiyo davlatlari, xususan Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston) bilan hamkorlikdagi asosiy yo‘nalishlar va global aktorlar (Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Turklar dunyosi) bilan muvozanatli o‘zaro munosabat strategiyasini tahlil qilishdan iborat. Maqolada siyosiy va iqtisodiy diplomatiya, mintaqaviy xavfsizlik, transport-logistika loyihalari, suv masalalari, energetika va Afg‘onistonning mintaqaga ta’siri kabi yo‘nalishlar o‘rganiladi.

Maqola muallifi tashqi siyosat o‘zgarishlarini bir tomondan ichki siyosiy modernizatsiya va iqtisodiy islohotlar bilan, boshqa tomondan esa geosiyosiy imkoniyatlar va tahdidlar bilan bog‘liq qilib ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston tashqi siyosati; Markaziy Osiyo; ko‘p vektorli diplomatiya; muvozanat siyosati; mintaqaviy integratsiya; qo‘shnichilik siyosati; global aktorlar; iqtisodiy diplomatiya; Afg‘oniston bilan munosabatlar; transport-logistika; suv resurslari; energetika hamkorligi; xavfsizlik siyosati; xalqaro tashkilotlar; investitsiyalar.

Mavzuning dolzarbligi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Geosiyosiy joylashuv va strategik afzalliklar

O‘zbekiston geografik jihatdan Markaziy Osiyoning qalbi hisoblanadi — uning yer maydoni, aholisi va transport-geografik joylashuvi mintaqaviy tranzit, logistika va energetika loyihalarida markaziy ahamiyatga ega. Bu o‘rin O‘zbekistonni mintaqaviy yetakchi sifatida faol bo‘lishga majbur qiladi: chegaraviy masalalarni hal qilish, tranzit yo‘llarini optimallashtirish va qo‘shni mamlakatlar bilan iqtisodiy integratsiyani kengaytirish orqali barqarorlik va iqtisodiy manfaatlarni ta’minlash mumkin. Shu jihatdan O‘zbekiston tashqi siyosatining 2016 yildan keyingi yo‘nalishlari mintaqaviy va global holat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, dolzarbdir.

Iqtisodiy islohotlar va investitsiya muhitining o‘zgarishi

2016 yildan keyingi islohotlar O‘zbekiston iqtisodiy modelini liberallashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratildi. Natijada iqtisodiy diplomatiya O‘zbekiston tashqi siyosatining markaziy vositasi bo‘lib qoldi: savdo, investitsiyalar, infratuzilma loyihalari va eksport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish tashqi aloqalarning ustuvor yo‘naligiga aylandi. Bu jarayon mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun muhim va shu bois dolzarbdir.

Mintaqaviy xavfsizlik va Afg‘oniston omili

Afg‘onistondagi siyosiy noaniqlik va xavfsizlik tahdidlari Markaziy Osiyo uchun bevosita xavf hisoblanadi. Qochqinlar, transmilliy jinoyatchilik, narkotik moddalar oqimi va radikal ekstremizm kabi xavf-xatarlar mintaqaviy barqarorlikni zaiflashtirishi mumkin. O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan konstruktiv aloqalar o‘rnatish va mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash yo‘lidagi tashabbuslari dolzarb muammo — chunki mintaqada barqarorlik yo‘q bo‘lsa, iqtisodiy rivojlanish va investitsiyalar xavf ostida qoladi.

Suv va energetika masalalari

Markaziy Osiyo davlatlari orasida suv resurslariga nisbatan raqobat va hamkorlik muammolari mavjud. O‘zbekiston, Tojikiston va Qozog‘iston o‘rtasida suv-energetika muammolari mintaqaviy siyosatda muhim mavzulardan biridir. Bu masala qishloq xo‘jaligi, energetika ta’minoti va ekologiya bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, shuning uchun

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

O‘zbekiston tashqi siyosatida suv resurslarini boshqarish va mintaqaviy kelishuvlarni ta’minlash strategik ahamiyat kasb etadi.

Global aktorlarning mintaqaga qiziqishi

Xitoyning «Bir makon — bir yo‘l» tashabbusi, Rossiyaning traditsion ta’siri, AQShning xavfsizlik yo‘nalishidagi ishtiroki va Yevropa Ittifoqining iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlari Markaziy Osiyoda ko‘p tomonlama geosiyosiy o‘yinni yuzaga keltirdi. O‘zbekiston ushbu global aktorlar bilan hamkorlik va muvozanat uchun yangi siyosiy formullarni ishlab chiqishi kerak bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan, 2016 yildan keyingi tashqi siyosatning dolzarbligi — mamlakatni global iqtisodiy va xavfsizlik tizimlariga integratsiya qilish va shu bilan birga milliy mustaqillikni saqlash muammosini hal qilishdir.

Ichki ijtimoiy-siyosiy islohotlarning tashqi siyosatga ta’siri

Ichki islohotlar siyosiy legitimlikni oshirish, fuqarolik jamiyatining faollashuvi va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish orqali tashqi siyosat uchun yangi resurslar yaratadi. O‘zbekistonning 2016 yildan keyin qilgan islohotlari — ichki ijtimoiy-madaniy yangilanishlar va demokratik institutlarni mustahkamlash — mamlakatga xalqaro hamjamiyat oldida ishonchli hamkor sifatida chiqish imkonini berdi. Bu esa tashqi siyosat uchun salohiyatni oshirib, mintaqaviy va global hamkorlar bilan munosabatlarni yangi darajaga olib chiqdi.

Tashqi siyosatni ilmiy o‘rganish zarurati

Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda, O‘zbekistonning 2016 yildan keyingi tashqi siyosatini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb va zarurdir. Nazariy tahlil va empirik ma’lumotlar asosida amalga oshirilgan tadqiqotlar siyosat ishlab chiquvchilarga strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi, shuningdek xalqaro ilmiy hamjamiyatga Markaziy Osiyo haqidagi bilimlarni boyitadi.

Markaziy Osiyo va ayniqsa O‘zbekiston uchun tashqi siyosatning dolzarbligi bir necha omillardan kelib chiqadi: geosiyosiy joylashuv, iqtisodiy transformatsiya, mintaqaviy xavfsizlik masalalari (shu jumladan Afg‘oniston inqirozi), suv va energetika resur-slari, transport va tranzit salohiyati hamda global aktorlarning mintaqaga bo‘lgan strategik

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

qiziqishi. 2016 yildan boshlab O‘zbekiston ichki siyosatda amalga oshirgan demokratik va iqtisodiy islohotlar, ochiqlik strategiyasi tashqi siyosatda ham yangi imkoniyatlar yaratdi. Shu jarayonning dolzarbligini bir nechta asosiy nuqtalarda ko‘rib chiqamiz.

Tadqiqot maqsadi

Ushbu bo‘limda maqolaning asosiy maqsadi va unga erishish uchun qo‘yilgan konkret vazifalar tizimli tarzda bayon qilinadi. Tadqiqot maqsadi aniqligi ilmiy ishning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki aniq belgilangan maqsad metodologiya va natijalarning ishonchliligini ta’minlaydi.

Asosiy maqsad

Ushbu ilmiy ishning asosiy maqsadi — 2016 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi evolyutsiyani tizimli va ilmiy-tahliliy asosda o‘rganish, mintaqaviy (qo‘shni davlatlar) va global aktorlar o‘rtasidagi muvozanatning shakllanish mexanizmlari hamda bu siyosat natijasida yuzaga kelgan amaliy, iqtisodiy va xavfsizlik jihatidagi o‘zgarishlarni aniqlashdir. Bu maqsad o‘z ichiga siyosiy qarorlar, diplomatik tashabbuslar, iqtisodiy hamkorlik shartnomalari, transport va tranzit loyihalari, hamda Afg‘oniston bilan aloqalar kabi kamchilik va imkoniyatlarni tahlil qilishni oladi.

Tadqiqotning aniq vazifalari

Asosiy maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy vazifalar belgilangan:

1. Nazariy bazani aniqlash va konseptual ramka ishlab chiqish. Ushbu vazifa doirasida ko‘p vektorli diplomatiya, geosiyosiy balans, mintaqaviy integratsiya va iqtisodiy diplomatiya kabi nazariy kontseptlarni o‘rganish va maqola kontekstida moslash kerak.

2. Tarixiy-qiyosiy tahlil o‘tkazish. O‘zbekistonning mustaqillikdan 2016 yilgacha bo‘lgan tashqi siyosat modellari bilan 2016–2025 yildagi yangi yozuvlarni taqqoslab, evolyutsiyning sabablari va mexanizmlarini aniqlash kerak.

3. Qo‘shni davlatlar bilan aloqalarning o‘zgarishini tahlil qilish. Bu vazifa O‘zbekiston–Qozog‘iston, O‘zbekiston–Qirg‘iziston, O‘zbekiston–Tojikiston, O‘zbekiston–Turkmaniston va O‘zbekiston–Afg‘oniston aloqalarining xususiyatlarini va amaliy natijalarini o‘rganadi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

4. Global aktorlar bilan muvozanat strategiyasini tahlil etish. Xitoy, Rossiya, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Turkiya bilan O‘zbekistonning munosabatlari qanday qurilgani, muvozanat qanday saqlangani va bu strategiyaning milliy manfaatlarga ta’siri ilmiy asosda baholanadi.

5. Iqtisodiy diplomatiya va investitsiyalar rolini o‘rganish. Ushbu vazifa investitsiyalar oqimi, eksport diversifikatsiyasi, transport va tranzit loyihalari hamda xalqaro iqtisodiy forumlardagi ishtirok natijalarini tahlil qiladi.

6. Xavfsizlik va mintaqaviy barqarorlik masalalarini tahlil qilish. Afg‘oniston ta’siri, ekstremizm, narkotrafik, migratsiya oqimlari kabi tahdidlarga qarshi ko‘rilgan chora-tadbirlar o‘rganiladi.

7. Siyosat tavsiyalarini ishlab chiqish. Tadqiqot yakunida O‘zbekiston uchun mintaqaviy va global hamkorlikda strategi-ya takliflari, tashqi siyosatni samaraliroq qilish bo‘yicha konkret tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot natijalari

Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyoda ayollarning siyosiy va diplomatik jarayonlardagi ishtiroki, ta’siri va o‘zgarish dinamikasini chuqur tahlil qilishga qaratildi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi 15–20 yil davomida mintaqa davlatlarida ayollarning siyosiy faolligida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, gender tengligi to‘liq ta’minlangan deb aytish hali erta. Ammo siyosiy institutlar, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalarining sa’y-harakatlari tufayli ayollarning siyosiy jarayonlarga kirib borish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Tadqiqotning birinchi natijasi sifatida ayollarning parlament va mahalliy kengashlardagi vakilligi barqaror oshib borayotgani qayd etildi. Masalan, Qozog‘istonda parlamentdagi ayollar ulushi 27% ga, O‘zbekistonda 32% ga, Qirg‘izistonda 20% dan oshdi. Tojikiston va Turkmanistonda bu ko‘rsatkich past bo‘lishiga qaramay, so‘nggi yillarda siyosiy islohotlar jarayonida ayollarning rolini kuchaytirish bo‘yicha qator qarorlar qabul qilindi. Ushbu tendensiya mintaqa davlatlarining gender siyosiy ishtirokini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga intilayotganidan dalolat beradi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Ikkinchi muhim natija shundan iboratki, Markaziy Osiyoda ayollar tashqi siyosat va diplomatiya sohasida faolroq ko‘rina boshladi. O‘zbekiston Tashqi ishlar vazirligida ayol diplomatlar soni 2 barobar oshgan, Qozog‘iston va Qirg‘izistonda esa ayol elchilar va oliy lavozimli diplomatlar soni yildan-yilga ko‘paymoqda. Tadqiqot jarayonida ma’lum bo‘ldiki, ayol diplomatlar tinchlik, muloqot va yumshoq kuch (soft power) diplomatiyasida samaradorlikni oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ularning mediatsiya, muzokara va xalqaro hamkorlikdagi ishtiroki ko‘plab tashkilotlar tomonidan yuqori baholanadi.

Tadqiqotning uchinchi natijasi mintaqa davlatlaridagi huquqiy-me’yoriy islohotlarning ayollar siyosiy ishtirokiga ijobiy ta’siri bilan bog‘liq. O‘zbekistonda “Xotin-qizlar qo‘mitasi”, “Gender tenglik komissiyasi”, Qozog‘istonda “Ayollar ishlari bo‘yicha milliy kengash”, Qirg‘izistonda “Gender egaligi strategiyasi – 2040” hujjatlari qabul qilindi. Ushbu huquqiy asoslar ayollarni siyosiy jarayonlarga jalb qilishni tizimlilashtirdi va ularning davlat boshqaruvidagi pozitsiyasini mustahkamladi.

Tadqiqotning to‘rtinchi natijasi ayollarning fuqarolik jamiyati va nodavlat tashkilotlar faoliyatidagi roli kuchaygani bilan bog‘liq. Mintaqadagi minglab NNTlar gender tengligi, oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurash, ayollar iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash, siyosiy yetakchilikni oshirish bo‘yicha ishlamoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aynan NNTlar ayollarning siyosiy faolligini oshirishning eng samarali vositasiga aylangan.

Tadqiqotning beshinchi natijasi — ayollar tinchlik jarayonlarida muhim diplomatik agent sifatida shakllanayotganidir. Afg‘oniston bilan chegaradosh davlatlar, xususan O‘zbekiston va Tojikiston ayol ekspertlar, mediatorlar va diplomatlarning ishtirokida bir qator muloqot platformalarini yaratmoqda. Xalqaro ekspertlar ayollarning tinchlik muzokaralaridagi ishtiroki barqarorlikni oshirishi va konfliktlarning qayta tiklanish xavfini kamaytirishini ilmiy jihatdan tasdiqlagan.

Xulosa

Tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkinki, Markaziy Osiyodagi siyosiy va diplomatik jarayonlarda ayollarning roli izchil o‘sib bormoqda va bu tendensiya mintaqaning siyosiy tizimlaridagi chuqur modernizatsiya jarayonlari bilan bevosita bog‘liq. Avvalo, mintaqa davlatlarida gender tengligi ijtimoiy rivojlanishning

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

ustuvor maqsadlaridan biriga aylangani siyosiy institutlarning isloh qilinishini tezlashtirdi. Ayollarni davlat boshqaruviga jalb qilish va ularning diplomat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish jarayoni mintaqa mamlakatlarining xalqaro imijini yanada mustahkamladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ayollar parlament, hukumat va mahalliy siyosiy tuzilmalar faoliyatida oldingiga nisbatan ancha faol ishtirok etmoqda. Ularning qaror qabul qilish tizimiga kirib borishi siyosiy jarayonlarning shaffofligini oshiradi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi, jamiyatda ishonch muhitini kuchaytiradi. Ayollar siyosiy boshqaruvga noziklik, moslashuvchanlik, muloqotga tayyorlik va konfliktlarni yumshatish qobiliyatini olib kirishi ko‘plab xalqaro tadqiqotlarda tasdiqlangan.

Diplomatiya sohasida ayollarning roli yanada yuqori baholanadi. Ular xalqaro munosabatlarda yumshoq kuch siyosatining asosiy drayverlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Ayol elchilar, konsullar, xalqaro tashkilotlardagi vakillar mintaqaning global maydondagi o‘rnini mustahkamlashga katta hissa qo‘shmoqda. Ayollarning ishtirokidagi muzokaralar ko‘proq barqarorlikka, ko‘proq ijtimoiy manfaatlarni hisobga olishga yo‘naltirilgani ilmiy isbotlangan.

Fuqarolik jamiyatida ayollarning roli kuchaygani siyosiy jarayonlarni demokratlashtirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, gender tengligi, ayollar huquqlari va iqtisodiy mustaqillikni kengaytirish bo‘yicha faoliyat yurituvchi nodavlat tashkilotlar jamiyatda ayollar mavqeining o‘sishiga hissa qo‘shmoqda.

Shu bilan birga, xulosa qilish lozimki, mintaqada ayollarning siyosiy faolligini cheklovchi omillar hali ham mavjud. Patriarxal tafakkur qoldiqlari, iqtisodiy tengsizlik, siyosiy partiyalar tizimida ayollar uchun imkoniyatlar yetarli emasligi kabi muammolar izchil islohotlarni talab qiladi. Agar davlat siyosati gender masalalariga izchil yondashishda davom etsa, ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki kelajakda yanada barqaror o‘sishi kutiladi.

Umuman olganda, Markaziy Osiyodagi siyosiy va diplomatik jarayonlarda ayollarning roli mintaqaviy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot, tinchlik siyosati va ijtimoiy inklyuzivlikka sezilarli hissa qo‘shmoqda. Mintaqa davlatlari gender tenglikni

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

rivojlantirishda xalqaro andozalarga moslashayotgani ushbu jarayonning kelajakda yanada chuqurlashishi uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UN Women. Women in Politics: Global Report, 2023.

2. OSCE. Gender and Security in Central Asia, Vienna, 2022.

3. World Bank. Gender Equality in Central Asia: Regional Overview, 2021.

4. Ibraeva, G. Women's Political Participation in Kyrgyzstan. Bishkek, 2020.

5. Khamidova, M. Gender Reforms in Uzbekistan: Modernization and Progress, Tashkent, 2022.

6. Laruelle, M. Central Asian Modernization and Gender Dynamics. George Washington University, 2021.

7. OECD. Enhancing Women's Leadership in Central Asia, Paris, 2022.

8. ADB. Central Asia Gender Assessment, 2023.

9. UNDP. Women, Peace and Security in Central Asia, 2020.

10. Toktosunova, A. Diplomacy and Women's Role in Central Asia, Journal of Eurasian Studies, 2021.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

O‘QUVCHILARNING MATEMATIK MATNNI TUSHUNISHIDAGI QIYINCHILIKLAR VA YECHIMLAR.

Jo’rayev Sherzod Chaqmoq o’g’li

Yo'ldoshev Botir Bo'ri o'g'li

Ramazonov O‘ralbek Abdurasul o‘g‘li

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarning matematik matnlarni o‘qish va tushunish jarayonida duch keladigan asosiy qiyinchiliklari, ularning psixologik hamda lingvistik omillari tahlil qilinadi. Tadqiqotda matematik terminologiyaning murakkabligi, matnning mantiqiy tuzilishi, ramz va formulalarning til bilan uyg‘unlashmaganligi, shuningdek o‘quvchilarning abstrakt tafakkur darajasi kabi faktorlar matematik matnni tushunishga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, bosqichma-bosqich izohlash, vizual modellar va kontekstual yondashuvni qo‘llash orqali ushbu qiyinchiliklarning samarali yechimlari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari matematika ta’limida o‘qish savodxonligini oshirish va o‘quvchilarning mavzuni chuqur anglashini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: matematik matn; o‘qish savodxonligi; tushunish qiyinchiliklari; matematik til; terminologiya; kognitiv jarayonlar; abstrakt tafakkur; o‘qitish metodlari; lingvistik omillar; didaktik yechimlar.

Kirish

Bugungi kunda matematika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning matematik matnni to‘g‘ri o‘qishi va mazmunan anglash qobiliyati alohida dolzarb masalaga aylanmoqda. Chunki matematik bilimlar faqat formula va amaliy mashqlar orqali emas, balki tushuntiruvchi matnlar, mantiqiy izohlar, ta’riflar, aksiyomalar va masala shartlarini chuqur tahlil qilish orqali o‘zlashtiriladi. Matematika fanining o‘ziga xos tili, undagi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

ramzlar, umumlashtirilgan tushunchalar va mantiqiy bog‘liqliklar o‘quvchilardan yuqori darajadagi tafakkur, aniqlik va ketma-ketlikni talab qiladi. Shuning uchun matematik matnni tushunish ko‘nikmasi matematika savodxonligining ajralmas qismi hisoblanadi. Ko‘plab o‘quvchilar matematik matnni o‘qishda bir qator muammolarga duch kelishadi: matnning murakkab sintaktik tuzilishi, mavhum tushunchalar, ramzlar bilan ifodalangan fikrlarning izchil talqini, terminlarning ko‘pligi va masala shartining noto‘g‘ri talqin qilinishi shular jumlasidandir. Ushbu qiyinchiliklar nafaqat o‘quvchilarning tushunchani o‘zlashtirishiga, balki masalalarni yechish jarayoniga ham bevosita ta’sir qiladi. Natijada o‘quvchilar topshiriqning mohiyatini noto‘g‘ri anglab, mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘yishadi.

Kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan qaralganda, matematik matnning murakkabligi o‘quvchilarning ishchi xotirasi yuklanishiga olib keladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan esa matematik tilning o‘ziga xos leksik-grammatik xususiyatlari matnni tushunishda qo‘shimcha qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli matematik matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish o‘qitishning muhim didaktik vazifasi hisoblanadi. Mazkur maqolada matematik matnni tushunishda uchraydigan qiyinchiliklarning asosiy sabab va omillari tahlil qilinadi, o‘quvchilarning matn bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodik yondashuvlar taklif etiladi. Tadqiqot natijalari matematika ta’limining sifatini oshirish, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi va matematik savodxonligini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Tadqiqot metodlari va usullari

Ushbu tadqiqot o‘quvchilarning matematik matnni tushunish jarayonidagi qiyinchiliklarini aniqlash hamda samarali yechimlarni ishlab chiqish maqsadida turli metod va yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, olingan ma’lumotlar ilmiy asosda umumlashtirildi.

1. Adabiyotlar tahlili. Matematik til, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, kognitiv jarayonlar hamda matematika o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy manbalar, maqolalar, darsliklar va zamonaviy pedagogik tadqiqotlar o‘rganildi. Ushbu tahlil matematik matnning o‘ziga xos lingvistik, mantiqiy va didaktik xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

2. Diagnostik so‘rovnoma. Tadqiqot doirasida 6–9-sinflarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar o‘rtasida maxsus tuzilgan so‘rovnoma o‘tkazildi. Savollar o‘quvchilarning: matematik matnni o‘qish odatlari, matnni tushunishdagi subyektiv qiyinchiliklari, murakkab termin va ta’riflarga munosabati, masala shartini talqin qilishdagi xatolari kabi jihatlarni aniqlashga qaratildi. So‘rovnoma natijalari statistik jihatdan qayta ishlanib, foiz ko‘rinishida umumlashtirildi.

3. Amaliy kuzatuv. Matematika darslari jarayonida o‘quvchilarning matn bilan ishlash faoliyati bevosita kuzatildi. Kuzatuv davomida o‘qituvchining izohlash uslubi, o‘quvchilarning savollari, matnni qay darajada tahlil qilishi va masalani noto‘g‘ri talqin qilish holatlari qayd etildi. Bu usul real o‘quv jarayonida sodir bo‘ladigan xatoliklarni amaliy jihatdan o‘rganishga yordam berdi.

4. Matn bilan ishlash bo‘yicha diagnostik topshiriqlar. O‘quvchilarga turli murakkablikdagi matematik matnlar, masala shartlari va ta’riflar berilib, ularning: asosiy g‘oyani ajratish, terminlarni talqin qilish, matndagi mantiqiy bog‘liqliklarni aniqlash,ramziy ifodalarni o‘qish, ko‘nikmalari baholandi. Topshiriqlar natijalari o‘quvchilarning qaysi bosqichlarda ko‘proq qiynalishini aniqlash imkonini berdi.

Overall, both quantitative and qualitative findings indicate that working memory capacity plays a critical role in vocabulary learning. Learners with higher working memory not only acquire and retain more vocabulary but also employ more effective cognitive strategies, resulting in better performance across recognition, recall, and contextual usage.

DISCUSSION:

The results of this study demonstrate a clear and significant relationship between working memory capacity and vocabulary learning outcomes among intermediate-level English learners. Quantitative findings revealed that learners with higher working memory (HWM) capacity outperformed those with lower working memory (LWM) in word recognition, meaning recall, and contextual usage. These findings are consistent with previous research suggesting that working memory plays a crucial role in processing, encoding, and retrieving new lexical items (Baddeley, 2003; Engle, 2002; Gathercole & Baddeley, 1993).

The observed differences in performance between HWM and LWM learners can be explained by the functional roles of the working memory components. The phonological loop supports the temporary storage and rehearsal of verbal material, allowing learners to consolidate pronunciation and orthographic forms of new words. The central executive enables learners to allocate attentional resources effectively, manipulate semantic information, and employ strategies such as chunking and contextual guessing (Miyake & Shah, 1999). The visuospatial sketchpad, although indirectly involved, contributed to vocabulary retention when visual aids or written representations were used. These findings align with prior studies highlighting the importance of multiple working memory components in language learning (Baddeley, 2012; Logie, 2011).

Qualitative observations further reinforced the quantitative data. HWM learners demonstrated greater engagement, strategic use of mnemonic techniques, and confidence when approaching complex vocabulary tasks, whereas LWM learners occasionally experienced cognitive overload, requiring additional guidance. This supports the view that

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

individual differences in cognitive capacity significantly influence learners' ability to adopt effective strategies and manage language processing demands (Hulstijn & Laufer, 2001; Linck, Osthus, Koeth, & Bunting, 2014).

The study's findings have important pedagogical implications. Teachers should consider learners' working memory capacities when designing vocabulary instruction, providing scaffolding for learners with lower working memory while challenging HWM learners with tasks that promote autonomy and strategic use of memory. Techniques such as spaced repetition, multimodal presentation of vocabulary, contextualized exercises, and mnemonic strategies can optimize vocabulary acquisition for diverse learners.

In conclusion, this study provides empirical evidence that working memory significantly influences vocabulary learning. By acknowledging and addressing individual cognitive differences, educators can enhance learning outcomes and develop more effective, learner-centered vocabulary instruction strategies. Future research may examine the longitudinal effects of working memory on vocabulary retention and investigate interventions that can support LWM learners in real classroom settings.

CONCLUSION:

The present study examined the role of working memory in vocabulary learning among intermediate-level English learners. The findings indicate that working memory capacity significantly affects learners' ability to acquire, retain, and use new vocabulary. Learners with higher working memory demonstrated superior performance in word recognition, meaning recall, and contextual usage, while learners with lower working memory showed more modest gains and occasionally experienced cognitive overload.

The qualitative findings further highlighted that high working memory learners employed effective strategies, such as mnemonic techniques, chunking, and contextual guessing, leading to higher engagement, autonomy, and confidence during vocabulary tasks. These results confirm the critical role of working memory components, including the phonological loop, central executive, and visuospatial sketchpad, in supporting vocabulary acquisition.

Pedagogically, the study underscores the need for educators to consider individual differences in working memory when designing vocabulary instruction. Strategies such as scaffolded exercises, multimodal presentation, and memory-enhancing techniques can help

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

optimize learning outcomes for all learners, particularly those with lower working memory capacity.

In conclusion, the study provides compelling evidence that working memory is a fundamental cognitive factor in vocabulary learning. Future research may explore longitudinal effects, intervention strategies for learners with limited working memory, and applications in diverse classroom contexts to further enhance vocabulary acquisition.

REFERENCES:

1. Engle, R. W. (2002). Working memory capacity as executive attention. Current Directions in Psychological Science, 11(1), 19–23.
2. Gathercole, S. E., & Baddeley, A. D. (1993). *Working memory and language.* Psychology Press.
3. Hulstijn, J. H., & Laufer, B. (2001). Some empirical evidence for the involvement load hypothesis in vocabulary acquisition. Language Learning, *51*(3), 539–558.
4. Linck, J. A., Osthus, P., Koeth, J. T., & Bunting, M. F. (2014). Working memory and second language comprehension and production: A meta-analysis. Psychonomic Bulletin & Review, *21*(4), 861–883.
5. Logie, R. H. (2011). The functional organization and capacity limits of working memory. Current Directions in Psychological Science, 20(4), 240–245.
6. Miyake, A., & Shah, P. (1999). Models of working memory: Mechanisms of active maintenance and executive control. Cambridge University Press.
7. Nation, I. S. P. (2001). Learning vocabulary in another language. Cambridge University Press.
8. Raghubar, K. P., Barnes, M. A., & Hecht, S. A. (2010). Working memory and mathematics: A review of developmental, individual difference, and cognitive approaches. Learning and Individual Differences, *20*(2), 110–122.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

LIMIT TUSHUNCHASI VA UZLUKSIZLIK NAZARIYASINING CHUQUR TAHLILI

Mamatova Xurshida Nematilloyevna

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada limit tushunchasi hamda funksiyalarning uzluksizlik nazariyasining matematik tahlildagi nazariy asoslari chuqur yoritiladi. Tadqiqotda limitning formal ta’rifi, uning ε–δ yondashuvi asosidagi mantiqiy tuzilishi, funksiyaning chegaraga intilishi jarayonidagi xususiyatlari hamda uzluksizlikning zarur va yetarli shartlari batafsil ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, uzluksizlikning algebraik xossalari, kompozitsion funksiyalar uchun uzluksizlik shartlari, shuningdek, limit mavjud bo‘lmagan holatlarning tahlili matematik misollar asosida asoslab beriladi. Maqolada nazariy qarashlar zamonaviy matematik tahlil amaliyotida qo‘llanishi, jumladan, differensial va integral hisobning fundamental teoremalarini asoslashdagi ahamiyati bilan bog‘lab o‘rganildi.

KALIT SO‘ZLAR: limit, ε–δ ta’rifi, chegaraga intilish, uzluksizlik, uzluksizlik shartlari, funksiyalar xossalari, matematik tahlil, limit mavjudligi

KIRISH

Matematik tahlilning eng muhim kategoriyalaridan biri bo‘lgan limit tushunchasi funksiyalar va ketma-ketliklarning xatti-harakatini chuqur o‘rganishga imkon beruvchi nazariy asos sanaladi. Limitning aniq va formal ta’rifi matematik tahlilni qat’iy mantiqiy tizimga keltirgan bo‘lib, u orqali funksiyaning ma’lum nuqtaga yaqinlashish jarayoni, o‘zgaruvchilar orasidagi chegaraviy bog‘lanishlar hamda turli matematik jarayonlarning uzluksizligi ilmiy asosda izohlab beriladi. Ayniqsa, ε–δ ta’rifining shakllanishi matematikaning aksiomatik yondashuvini kuchaytirib, limit va uzluksizlik nazariyalarida aniqlik va qat’iylik tamoyillarini ta’minladi. Funksiyaning uzluksizligi tushunchasi esa limit nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u funksiyaning ma’lum nuqtadagi yoki oraliqdagi barqaror xatti-harakatini tavsiflaydi. Uzluksizlik matematik modellashtirishning ko‘plab yo‘nalishlarida, xususan, fizik jarayonlarning ideal modellarida, differensial tenglamalar nazariyasida va funksional tahlilda asosiy rol o‘ynaydi. Uzluksizlikning zarur va yetarli shartlari, kompozitsion funksiyalar uzluksizligi, shuningdek, bo‘linib ta’riflangan funksiyalarning limit asosidagi tahlili matematik tahlilning fundamental masalalaridan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

biridir. Mazkur tadqiqotda limit va uzluksizlikning nazariy mohiyati chuqur tahlil qilinib, ularning matematik tahlil amaliyotidagi o‘rni, qo‘llanish sohasi hamda tatbiq mexanizmi yoritiladi.

METODLAR

Ushbu tadqiqotda limit tushunchasi va uzluksizlik nazariyasini chuqur tahlil qilish uchun bir nechta fundamental matematik va mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodlari quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oldi: Limitning ε–δ ta’rifi, funksiyaning nuqtadagi va oraliqdagi uzluksizlik shartlari hamda algebraik limit teoremalarining mantiqiy asoslari mavjud aksiomatik tizimga tayangan holda qayta ko‘rib chiqildi. Ushbu yondashuv limit mavjudligining zarur va yetarli shartlarini aniq asoslash imkonini berdi. Funksiyalarning chegaraviy xatti-harakatlari, uzluksizlikning algebraik xossalari, kompozitsion funksiyalar uzluksizligi va bo‘linib ta’riflangan funksiyalarning limit asosidagi tahlillari strukturali ko‘rinishda o‘rganildi. Har bir nazariy komponentning ichki bog‘liqliklari diagrammatik mantiqda tadqiq qilindi. Limit mavjud bo‘lgan va mavjud bo‘lmagan holatlar, shuningdek, uzluksiz va uzluksiz bo‘lmagan funksiyalar misollar orqali o‘zaro solishtirildi. Bu yondashuv uzluksizlikning buzilishiga olib keluvchi omillarni aniqlashga yordam berdi. Limitni aniqlash, funksiyaning muayyan nuqtadagi xatti-harakatini baholash, shuningdek, bo‘linib ta’riflangan funksiyalar uzluksizligini tekshirish uchun klassik matematik misollar qo‘llanildi. Misollar orqali nazariy qarashlar amaliy jihatdan asoslab berildi. Matematik modellashtirish elementi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida limit tushunchasi va uzluksizlik nazariyasining matematik tahlildagi asosiy xossalari, mantiqiy tuzilishi hamda qo‘llanish mexanizmi chuqur o‘rganildi va quyidagi ilmiy natijalarga erishildi: Tahlil shuni ko‘rsatdiki, limitning mavjudligi funksiyaning ma’lum nuqtaga yaqinlashishida “barqaror yaqinlik oralig‘i”ning mavjud bo‘lishi bilan belgilanadi. Aniqrog‘i, har qanday $\varepsilon > 0$ uchun mos keluvchi $\delta > 0$ ning mavjudligi funksiyaning lokal stabil xatti-harakatini kafolatlashi isbotlandi. Bu esa limitning intuitiv talqinidan tubdan farq qiluvchi qat’iy nazariy asos ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Uzluksizlikning zarur va yetarli shartlari matematik jihatdan to‘liq asoslandi. Funksiyaning nuqtadagi uzluksizligi uchun $\lim f(x) = f(a)$ tengligi nafaqat ta’rifiy, balki funksiyaning real xatti-harakatini belgilovchi fundamental shart ekanligi ko‘rsatildi. Shu

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

bilan birga: kompozitsion funksiyalarning uzluksizligi, algebraik amallar orqali hosil qilingan funksiyalarning uzluksizligi, bo‘linib ta’riflangan funksiyalarning chegaraviy muvofiqligi, matematik jihatdan sinchkovlik bilan isbotlab berildi. Limit mavjud bo‘lmaydigan holatlar mantiqiy jihatdan guruhlarga ajratildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra limitning mavjud bo‘lmasligiga olib keluvchi omillar quyidagicha tasniflandi: tebranishning cheklanmaganligi (masalan, sin(1/x) tipidagi funksiyalar), chegaraning infinito bo‘lishi, chap va o‘ng limitlarning mos kelmasligi, funksiyaning sakrashli uzluksizligi. Bu tasnif limit mavjudligini tekshirishda universal yondashuv bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi. Bo‘linib ta’riflangan funksiyalarda uzluksizlikning buzilishi va tiklanishi mexanizmi aniqlandi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari limit va uzluksizlik tushunchalarining matematik tahlildagi asosiy tayanch kategoriyalar sifatida mustahkam o‘rin egallashini yana bir bor tasdiqladi. Limitning ε–δ asosidagi formal ta’rifi real sonlar to‘plamining to‘liqlik xossasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, funksiyaning nuqtadagi xatti-harakatini qat’iy mantiqiy asosda tushuntirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv intuitiv talqinlardan farqli ravishda funksiyaning istalgan kichik yaqinlikda qanday barqarorlikka ega ekanini aniqlashga imkon yaratadi. Shunday qilib, limit nazariyasi matematik modellashtirishning barqarorlik tamoyillariga asos bo‘ladi. Uzluksizlikning zarur va yetarli shartlari bo‘yicha olingan natijalar limit nazariyasi bilan uzluksizlik nazariyasi o‘rtasida ichki mantiqiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Funksiyaning uzluksizligi, bir tomondan, nuqtadagi limit bilan belgilanadi, boshqa tomondan esa differensial va integral hisobning asosiy konstruksiyalariga asos bo‘ladi. Ayniqsa, kompozitsion funksiyalar uzluksizligi va algebraik amallar orqali hosil qilingan funksiyalarning uzluksizligi haqidagi teoremalar matematik modellar qurishda universal qoida sifatida xizmat qiladi. Limit mavjud bo‘lmaydigan holatlarning tasnifi funksiyalarning chegaraviy xatti-harakatlarini tahlil qilishda muhim metodologik yondashuv hisoblanadi. Tadqiqot davomida tebranuvchan funksiyalarning barqaror limitga ega emasligi, chap va o‘ng limitlarning mos kelmasligi, shuningdek, sakrashli uzluksizlik matematik jihatdan asoslab berildi. Ushbu kategoriyalar amaliy matematikada, xususan, signal tahlili, dinamik tizimlar va fizik jarayonlardagi keskin o‘zgarishlarni aniqlashda muhim amaliy ahamiyatga ega. Bo‘linib ta’riflangan funksiyalar misolida o‘tkazilgan tahlillar uzluksizlikning buzilish mexanizmini yanada aniqlik bilan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

tushuntirdi. Segmentsimon funksiyalar chegaralarida limitlarning mos kelishi uzluksizlikni ta’minlashi, aks holda sakrashli yoki burchakli uzluksizlik yuzaga kelishi isbotlandi. Bu yondashuv funksiyalarni modullashtirish, kompyuter grafikasi, chiziqli bo‘lmagan modellar va interpolatsiya jarayonlarida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Differensial va integral hisobdagi limit va uzluksizlikning ahamiyati bo‘yicha olingan natijalar matematik analizning umumiy strukturasini chuqurroq anglashga yordam berdi.

XULOSA

Tadqiqot davomida limit tushunchasi va uzluksizlik nazariyasining matematik tahlildagi o‘rni, nazariy mohiyati hamda amaliy ahamiyati keng qamrovli tarzda o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, limit matematik tahlilning markaziy kontseptsiyalaridan biri bo‘lib, funksiyaning nuqtadagi xatti-harakatini qat’iy mantiqiy asosda tushuntiradi. Limitning ε–δ uslubidagi ta’rifi matematik tahlilning aksiomatik va qat’iy tizimini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, funksiyalarning lokal stabilitetini aniqlashga imkon beradi. Uzluksizlik tushunchasining limit nazariyasi bilan uzviy bog‘liqligi uning differensial va integral hisobdagi fundamental rolini belgilaydi. Funksiyaning uzluksizligi nafaqat nuqtadagi chegaraviy moslik sifatida, balki matematik modellashtirishda jarayonlarning silliqligi, barqarorligi va izchil rivojlanishini ta’minlovchi asosiy shart sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda uzluksizlikning algebraik va strukturaviy xossalarining aniqlanishi, shuningdek, bo‘linib ta’riflangan funksiyalarning chegaraviy muvofiqligi amaliy matematikada keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan nazariy mezonlar ekanligi tasdiqlandi. Limit mavjud bo‘lmaydigan holatlar bo‘yicha olingan tasnif funksiyalar xatti-harakatining murakkablik darajasini baholashda samarali metodik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tebranuvchan, sakrashli yoki chegarasi cheklanmagan funksiyalarning tahlili limit nazariyasining chuqur qatlamlarini ochib berib, signal tahlili, dinamik tizimlar, iqtisodiy modellash va fizik jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot limit va uzluksizlikning real jarayonlarni matematik modellashtirishdagi o‘rni, ularning barqarorlik va silliqlik kabi fundamental xususiyatlarni ta’minlashdagi funksional rolini yoritib berdi. Bu esa mazkur nazariyaning nafaqat nazariy matematika, balki amaliy fanlar tizimidagi universal ahamiyatini ko‘rsatadi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To‘xtasinov, B., & Qodirov, A. Matematik analiz I qism. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2018.

2. Qayumov, U. Matematik analiz asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.

3. Ergashev, A. Chegaraviy masalalar va ularning tahlili. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2016.

4. Sobirov, R. Matematik analizdan ma’ruzalar to‘plami. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020.

5. Zorich, V. A. Matematik analiz kursi. 1–2 jild. Moskva: Nauka, 2002.

6. Kolmogorov, A. N., & Fomin, S. V. Funktsiyalar nazariyasi va funksional analiz. Moskva: Nauka, 1999.

7. Demidovich, B. P. Matematik analiz bo‘yicha masalalar to‘plami. Moskva: Nauka, 1986.

8. Niyozov, Sh., & Mamatov, O. Matematik tahlilning nazariy asoslari. Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2021.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

UMRBOD OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI IJRO ETISH

Melikov Asilbek Ahmadjon o'g'li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrasi talabasi

Ilmiy rahbar: Irnazarov Shuxrat Najmetdinovich

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrasi

jinoyat ijroiya fan o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Demokratik jamiyatda inson eng oliy qadriyat hisoblanadi. Insonning hayoti, sog'logi va erki uning eng asosiy boyligi hisoblanib, bu boylikni himoya qilish hukumatning asosiy va zifasi hisoblanadi. Ushbu qadriyatlarni himoya qilish maqsadida davlatimiz o'z qonunchiligini takomillashtirib, zamon va globallashuvtalablariga moslashtirib kelmoqda. Mazkur maqola umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining joriy etilish tarixi, uni o'tash tartibi haqida ma'lumot beradi va ushbu sohada yangilik bo'lishi mumkin bo'lgan takliflar kiritadi.

Kalit so'zlar: o'lim jazosi; umrbod ozodlikdan mahrum qilish; qatti, odatdagi, yengillashtirilgan saqlash sharoitlari; mahkumlarni mehnatga jalb qilish.

KIRISH

Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir.[i] Aybdorni jazolashdan ko'zlaniladigan maqsad mahkumni ahloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

yangi jinoyat sodir etishining oldini olishdir[ii]. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksida mavjud bo'lgan to'qqizta jazo turlaridan eng og'iri hisoblangan, faqatgina javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda odam o'ldirish va terrorizm uchun belgilanadigan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ham aynan shu maqsadda, o'ta shafqatsiz va demokratiya qoidalariga zid hisoblanuvchi o'lim jazosi o'rniga joriy qilingan.

Asosiy qism

1. O'lim jazosining bekor qilinishi va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining joriy qilinishi

O'lim jazosi dastlab o'ttiz uchta, keyin o'n uchta, keyinchalik esa ikkita turdagi jinoyatlar uchun qo'llanilgan bo'lib, uni o'tash mahkumni jazoni ijro etish muassasasida otib tashlash bilan amalga oshirilgan. O'zbkiston Republikasi demokratik davlat ekanligi, uning bosh qonuni hisoblangan konstitutsiyasida ham yashash huquqi insonning uzviy huquqi ekanligi belgilab qo'yilganligi o'lim jazosining hali ham mavjud bo'lishiga yo'l qo'ymas edi. Haqiqatan ham o'lim jazosi mahkumning xulqini tuzatish maqsadini amalga oshirmaydi. O'lim jazosiga hukm qilingan mahkum keyinchakim oqlangan taqdirda ham jazo ijro etilib , biologik jihatdan o'ldirilgan odam uchun bu yaxshi yakun bo'lmas edi. O'lim jazosining qonunchilikda mavjud bo'lishi xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyalashishga intilayotgan davlatimizning xalqaro obro'siga ham salbiy ta'sir qilar edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilinishi bilan bu jazo turining qonunchilikdan olib tashlanishiga zamin yaratildi. Shu bilan 2008-yil 1-yanvardan respublikamizda o'lim jazosi jazo turi sifatida bekor qilindi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi joriyetilishi belgilandi[iii].

2. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish

Umrbod ozodlikdan maxrum etishga hukm qilingan mahkumlar jazoni maxsus saqlash sharoitlarida o'taydilar. Ular kameralarga ko'pi bilan ikki kishidan joylashtiriladilar, ammo iltimoslariga ko'ra yoki zarurat bo'lganda bir kishidan joylashtirilishi ham mumkin. Har bir mahbusga ajratilgan yashash maydoni to'rt kvadrat metrdan kam bo'lmasligi kerak. Mahkumlarga kuniga bir yarim soatgacha sayr qilishga ruxsat etiladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Umrbod ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlar jazoni uch xil: qattiq, odatdagi va yengillashtirilgan saqlash sharoitlarida o'taydilar.

Qattiq tartibli saqlash sharoitida jazoning dastlabki 10 yili o'taladi. Mahkum shu o'n yil ichida intizomiy javobgalikka tortilmasa jazoni o'tash qattiq tartibli saqlash sharoitidan odatdagi saqlash sharoitiga o'tkaziladi. Qattiq tartibli koloniyalarda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlar

- o'z shaxsiy varag'ida mavjud bo'lgan mablag'dan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizigacha bo'lgan summaga oziq-ovqat va eng zarur bo'lgan mahsulotlarni sotib olish,
- yil mobaynida bitta qisqa muddatli uchrashuv,
- bir marta telefon orqali so'zlashuv,
- bitta posilka yoki yo'qlov,
- bitta banderol olish huquqiga ega.[iv]

Umrbod ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni odatdagi saqlash sharoitlarida o'tayotgan mahkumlar

- o'z shaxsiy hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'lardan qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 35,2 foizigacha miqdordagi summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish,
- yil mobaynida bir marta uzoq muddatliuchrashuv,
- bir marta qisqa muddatli uchrashuv,
- ikki marta telefon orqali so'zlashuv,
- ikkita posilka yoki yo'qlov,
- ikkita banderol olish huquqiga ega.[v]

Umrbod ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni yengillashtirilgan saqlash sharoitlarida o'tayotgan mahkumlar

- o'z shaxsiy hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'lardan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 52,7 foizigacha miqdordagi summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish,
- yil mobaynida bir marta uzoq muddatliuchrashuv,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

- ikki marta qisqa muddatli uchrashuv,
- uch marta telefon orqali so‘zlashuv,
- uchta posilka yoki yo‘qlov,
- uchta banderol olish huquqiga ega.[vi]

Qattiq tartibli	• o’z shaxsiy varag’ida mavjud bo’lgan mablag’dan mehnatga haq to’lash eng kam miqdorining 26,5 foizigacha bo’lgan summaga oziq-ovqat va eng zarur bo’lgan mahsulotlarni sotib olish, • yil mobaynida bitta qisqa muddatli uchrashuv, • bir marta telefon orqali so’zlashuv, • bitta posilka yoki yo’qlov, bitta banderol olish huquqiga ega
Odatdagi tartibli	• o‘z shaxsiy hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan mablag‘lardan qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 35,2 foizigacha miqdordagi summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish, • yil mobaynida bir marta uzoq muddatliuchrashuv, • bir marta qisqa muddatli uchrashuv, • ikki marta telefon orqali so‘zlashuv, • ikkita posilka yoki yo‘qlov, ikkita banderol olish huquqiga ega
Yengillashtirilgan tartibli	• o‘z shaxsiy hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan mablag‘lardan belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 52,7 foizigacha miqdordagi summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

	• yil mobaynida bir marta uzoq muddatliuchrashuv, • ikki marta qisqa muddatli uchrashuv, • uch marta telefon orqali so‘zlashuv, • uchta posilka yoki yo‘qlov, uchta banderol olish huquqiga ega

3. Umrbod ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning mehnatini tashkil etish

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksining 138-moddasiga muvofiq umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini odatdagi va yenillashtirilgan saqlash sharoitlarida o’tayotgan mahkumlarning mehnat qilishi uchun sharoit ish kameralarida tashkil etiladi. Jazoni qattiq tartibli saqlash sharoitida o’tayotgan mahkumlarning ishlashiga ruxsat etilmaydi. Ular jazoning dastlabki o’n yilini intizomiy jazolarsiz o’tab, odatdagi saqlash sharoitiga o’tmagunlarigacha o’zi yoki davlatga foyda keltiruvchi biror bir foydali ish qilish imkoniyatiga ega bo’lishmaydi.

4. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan mahkumni rag’batlantirish va afv qilish

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksining 102-moddasi birinchi qism ikkinchi-beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan ilgari qo‘llanilgan intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash; yorliq, qimmatli sovg‘a yoki pul mukofoti bilan taqdirlash; qo‘shimcha posilka, yo‘qlov yoki banderol olishga ruxsat etish; qo‘shimcha uchrashuv yoki telefon orqali so‘zlashuv huquqini berish [vii]tarzidagi rag’batlantirish choralaridan biri qo’llaniladi. Afv etish to’g’risida iltimosnoma esa umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosining yigirma besh yilini mahkum o’tab bo’lganidan so’ng berilishi mumkin. Bunning uchun mahkum ushbu yigirma besh yil davomida intizomiy jazo olmagan, mehnat va o’qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo’lib, tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etib haqiqatda tuzalish yo’liga kirgan bo’lishi kerak.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda o'lim jazosi bekor qilinib, uning o'rniga umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining joriy qilinishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan inson huquqlari va demokratiyaning mustahkamlanishiga katta hissa qo'shdi. Ushbu jazodan ozod etilish imkoniyatining ham mavjudligi hukm etilganlarning axloqan tuzalishi uchun katta turtki bo'ladi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarning mehnatini tashkil qilish va ularni afv etishda yana yengillik yaratish masqadida mahkumlar agarda haqiqatda tuzalish va davlatga, oilalariga yordam berish niyati bo'lgan taqdirda jazoning besh yilini o'tagandan so'ng o'zlarining takliflariga ko'ra qattiq tartibli koloniyalarda jazoni o'tayotgan mahkumlarning mehnatini tashkil qilish, bunday tartibda jazoning dastlabki o'n yilining besh yilini mehnat qilib o'tagan mahkumlarning mehnatini esa og'ir mahnat sharoitidagi yoki inson sog'ligi uchun xavfli yoki zararli bo'lgan sharoitlarda tashkil etish imkonini yaratish, shuningdek, ushbu sharoitlarda mehnat qilib jazoning yigirma yilini o'tagan mahkumlar haqiqatda tuzalish yo'liga kirgan, mehnatga va o'qishga vijdonan yondashgan, tarbiyaviy tadbirlarda faol ishirok etgan taqdirda afv etish uchun iltimosnoma berish imkoniyati yaratilishi taklif qilaman. Besh yil davomida qattiq tartibli koloniyada jazoni o'tagan mahkum haqiqatda tuzalish yo'liga kirib intizomiy jazoga tortilmgan taqdirda o'zi bergan iltimosnomaga ko'ra mehnatga jalb qilinishi va keyingi besh yilni ham shunday xulq bilan, mehnat qilib o'tkazishi moliyaviy jihatdan ham foydali bo'ladi. Shundan so'ng odatdagi tartibli koloniyada o'n yilni o'tashi kerak bo'lgan mahbus o'zining iltimosnomasiga ko'ra inson hayoti va sog'ligi uchun xavfli sharoitlarda mehnat qilib davlatga va oilasiga foyda keltirishni istasa unga shunday imkoniyatning yaratilishi ham foydali bo'lar edi. Bunday imkoniyatlarning mavjudligi mahkumlarning ozodlikka chiqishga, axloqan tuzalishga bo'lgan istagini qo'llab quvvatlaydi va boshqalar mahkumlar uchun ham yaxshi namuna bo'ladi deb o'ylayman.

[i] O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi 42-modda
[ii] O'bekiston Respublikasi jinoyat kodeksi 42-modda
[iii] . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi farmoni

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

[iv] O’zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi 137-modda
[v] O’zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi 137-modda
[vi] O’zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi 137-modda
[vii] O’zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi 102-modda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://lex.uz/ru/docs/-163629
2. O’zzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi(01.04.1995 yangilangan tahriri)
3. Ozbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi(01.10.1997 yangilangan tahriri)
4. Jinoyat ijroiya huquqi darslik (Toshkent – 2022, Taqrizchilar: O‘zbekiston Respublikasi IIV JIED boshlig‘ining o‘rinbosari polkovnik G.B.Kurambayev; yuridik fanlar doktori, professor B.B.Murodov, mualliflar: I.Ismailov, B.A.Saidov, A.A.Shodiyev va boshqalar)

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASHNING SAMARALI USULLARI

Rasulova Sarvinoz

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti ,, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ’’ yo‘nalishi 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirish, so‘z ma’nolarini anglash, nutq madaniyatini shakllantirish va ona tili darslarida lug‘at ustida ishlashning samarali metodlari yoritilgan. Lug‘at ishlarining o‘quv jarayonidagi o‘rni, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, nutqiy faollik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil etilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar asosida lug‘at ustida ishlashning takomillashgan usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: lug‘at ishi, so‘z boyligi, ona tili, metod, interfaol usullar, kommunikativ kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, nutq rivoji.

РОЛЬ ЛЕКСИЧЕСКОЙ РАБОТЫ В НАЧАЛЬНОМ ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация: В статье анализируются эффективные методы работы над словарем на уроках родного языка в начальных классах, значение лексической работы в развитии речи учащихся, расширении словарного запаса, формировании грамотной и связной речи. Рассматриваются современные педагогические технологии, инновационные подходы и роль учителя в организации лексических упражнений.

Ключевые слова: словарная работа, лексика, речь, метод, развитие, обучение, педагогические технологии.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

THE ROLE OF VOCABULARY WORK IN PRIMARY SCHOOL MOTHER TONGUE CLASSES

Annotation: This article analyzes effective methods of vocabulary development in primary school mother tongue lessons, focusing on improving students' lexical knowledge, speech skills, independent thinking, and communication competence. It also discusses modern pedagogical approaches, interactive strategies, and innovative techniques that enhance vocabulary learning in young learners.

Key words: vocabulary work, language learning, lexical competence, primary education, methodology, communication skills.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning nutq madaniyati, tafakkuri, idroki va mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadigan eng muhim davrdir. Aynan shu jarayonda lug‘at boyligini oshirish, so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi, to‘g‘ri talaffuzi va ma’nolarini anglashga katta e’tibor qaratiladi. Lug‘at ustida ishlash o‘quvchining savodxonligini oshiradi, nutqini boyitadi, matnni to‘g‘ri tushunib, o‘z fikrini ravon ifodalashiga yordam beradi.

Ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash o‘z-o‘zidan emas, balki metodik asoslangan, tizimli jarayon sifatida olib borilishi zarur. Chunki lug‘at ishi o‘quvchilarda bilim olishga qiziqish uyg‘otadi, ularda so‘zlar dunyosiga nisbatan e’tibor va ongli munosabatni shakllantiradi. O‘quvchi so‘zning ma’nosini chuqur anglashi orqali uning mazmuniy nozikliklarini tushunishni boshlaydi. Lug‘at ustida ishlashning samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining tanlagan metod va usullariga bog‘liq. An’anaviy metodlar bilan bir qatorda interfaol usullardan foydalanish o‘quvchilar lug‘at boyligini yanada tez va oson egallashlariga imkon yaratadi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Tabaqalashtirilgan o‘qitish”, “Baliq skeleti”, “Rolli o‘yin”, “So‘z o‘rni”, “Top o‘yinlari”, “Zanjirli so‘zlar” kabi metodlar bu jarayonni qiziqarli va samarali qiladi. Lug‘at ustida ishlashning metodik jihatlari o‘z ichiga ko‘plab yo‘nalishlarni oladi: yangi so‘zlar bilan tanishtirish, ularning ma’nosini izohlash, sinonim-antonym juftliklarini topish, ko‘chimli ma’nolarni aniqlash, iboralar ustida ishlash, matndan yangi so‘zlarni ajratish, tasviriy ifodalarni o‘rganish va hokazo. Ushbu usullar o‘quvchilarning nutqiy savodxonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun har bir yangi so‘z – bu yangi tushuncha, yangi tasavvurlar olamiga ochilgan eshikdir. Shu sababli o‘qituvchi so‘zlarni quruq yodlatish bilan cheklanmasdan, ularning mazmunini amaliy misollar, o‘yinlar, rasmlar, predmetlar va interfaol topshiriqlar orqali mustahkamlashi zarur.

Lug‘at ishlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari muhim o‘rin tutadi. 1-sinf o‘quvchilari uchun ko‘rgazmalilik asosiy metod bo‘lsa, 2–4-sinflarda mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlarga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Masalan, matndan yangi so‘zlarni topish, ularning ma’nosini lug‘atdan izlash, ma’no jihatdan mos bo‘lgan so‘zlarni tanlash, gap tuzish, kichik matn yaratish kabi topshiriqlar o‘quvchilarda faollik uyg‘otadi va mustaqillikni rivojlantiradi. Zamonaviy ta’lim tizimida lug‘at ustida ishlash jarayoni raqamli texnologiyalar bilan ham boyitilmoqda. O‘quv animatsiyalari, elektron lug‘atlar, multimediya platformalari o‘quvchining so‘zlarni tez eslab qolishiga yordam beradi. Masalan, Quizlet, LearningApps, Wordwall kabi platformalar lug‘at boyligini oshirishda juda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, “Milliy o‘quv dasturi”da lug‘at ustida ishlashning yangi yondashuvlari belgilangan. Unda so‘zlarni kontekstdan kelib chiqib o‘rganish, o‘quvchini faol fikrlashga undash, so‘zlar ustida mustaqil tahlilni kuchaytirish kabi talablar qo‘yilgan. Bu esa o‘qituvchidan yangicha yondashuv, ijodkorlik va metodik mahoratni talab etadi. Lug‘at ustida ishlash o‘quvchining nafaqat nutqiy rivojiga, balki ma’naviy dunyosiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Til – millatning ma’naviy qadriyatlarining asosiy ko‘zgusi bo‘lgani sababli, so‘zlarning mazmuni bilan chuqur tanishgan bola o‘z milliy qadriyatlarini ham teran anglay boshlaydi. Shu bois lug‘at ishlari nafaqat tilni o‘rgatadi, balki yosh avlodni tarbiyalaydi. Ona tili darslarida lug‘at ishlarining samarali tashkil etilishi o‘quvchilarning matnni to‘g‘ri tushunish, o‘z fikrini ravon, izchil, mantiqiy bayon etish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa kelajakda ular uchun muhim hayotiy ko‘nikma – kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Lug‘at ishlarida o‘qituvchi rahbar, yo‘l ko‘rsatuvchi, motivator sifatida ishtirok etadi. U o‘quvchida qiziqish uyg‘otishi, har bir so‘zni o‘rganish jarayonini hayotiy misollar bilan bog‘lashi zarur. Shunda lug‘at boyligi tabiiy, bosqichma-bosqich va mustahkam shakllanadi.

Boshlang‘ich sinflarda lug‘at ustida ishlash jarayoni nafaqat o‘quvchi lisoniy malakasini, balki uning tafakkuri, tasavvuri, diqqat-e’tibori, xotirasini ham rivojlantiradi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Bu jarayonning uzluksiz olib borilishi o‘quvchilarning umumiy o‘quv kompetensiyalarini boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, lug‘at ustida ishlash boshlang‘ich ta’limning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy metodlar, interfaol mashg‘ulotlar, innovatsion yondashuvlar lug‘at boyligini samarali oshiradi. O‘qituvchining mahoratli yondashuvi orqali o‘quvchilar tilning boyliklarini ongli ravishda egallaydi, mustaqil fikrlash va nutq madaniyatini rivojlantiradi. Tilni puxta o‘rgangan avlod esa millat taraqqiyotining asosiy tayanchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev nutqlari. — Toshkent, 2022.

2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. — Toshkent, 2020.

3. “Milliy o‘quv dasturi” hujjatlari. — Toshkent, 2021.

4. Sobirova M., Xo‘jayev M. Ta’lim va tarbiyaning nazariy asoslari. — Toshkent: BOOKMANY PRINT, 2023.

5. Rahmonova D. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. — Toshkent, 2019.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA LUG‘AT USTIDA ISHLASHNING ILMIY- METODIK ASOSLARI VA SAMARALI MERODLARI

Rasulova Sarvinoz

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti „ Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ’’ yo‘nalishi 1- bosqich magistranti

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishda lug‘at ustida ishlashning ilmiy-metodik asoslari yoritiladi. Lug‘at boyligini oshirishning psixologik va pedagogik talablari, dars jarayonida qo‘llaniladigan samarali interaktiv metodlar, o‘yin texnologiyalari, matn asosidagi mashqlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni tahlil etiladi. Lug‘at ustida ishlashning bosqichlari tizimli yondashuv asosida ko‘rib chiqilib, o‘quvchilarning faol nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: lug‘at, nutq madaniyati, interaktiv metodlar, o‘yin texnologiyalari, boshlang‘ich ta’lim, matn asosida ishlash, metodika.

Аннотация

В статье раскрываются научно-методические основы работы над словарём учащихся начальных классов в процессе формирования их речевой культуры. Анализируются психологические и педагогические особенности обогащения словарного запаса, эффективные интерактивные методы, игровые технологии, работа с текстом и современные цифровые платформы. Представлены этапы организации словарной работы и методические рекомендации, направленные на развитие активной речи младших школьников.

Ключевые слова: словарная работа, речевая культура, интерактивные методы, игровые технологии, начальное образование, работа с текстом, методика обучения.

Abstract

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

This article examines the scientific and methodological foundations of vocabulary development in primary school language classes. It analyzes pedagogical and psychological aspects of vocabulary enrichment, effective interactive strategies, game-based methods, text-centered activities, and the role of modern educational technologies. The stages of vocabulary instruction are outlined, and methodological recommendations aimed at developing students' active speech are provided.

Keywords: vocabulary development, speech culture, interactive methods, game-based learning, primary education, text-based activities, methodology.

Kirish

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarda nutq madaniyati, ravon o‘qish, aniq fikrlash va savodli yozish ko‘nikmalarining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash bu jarayonning markaziy yo‘nalishlaridan biridir. So‘z — o‘quvchi tafakkuri, dunyoqarashi va bilim doirasining asosiy ko‘rsatkichidir. Bola qancha ko‘p so‘z bilsa va ulardan ongli foydalana olsa, uning nutqi, o‘qish malakasi va matnni anglash darajasi shunchalik rivojlanadi. Lug‘at ustida ishlash alohida mavzu sifatida emas, balki darsning barcha bosqichlarida tabiiy ravishda amalga oshirilishi zarur. Yaxshi tashkil etilgan lug‘aviy mashqlar o‘quvchilarning so‘z boyligini nafaqat miqdoran, balki sifat jihatdan ham boyitadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z boyligi ularning o‘qigan matnni anglashida, nutqiy faolligida, fikrni ifoda etishida asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, 7–10 yoshli bolalar so‘z ma’nosini alohida holda emas, balki kontekstda, hodisa yoki vaziyat bilan bog‘liq holda tezroq anglaydi. Shu sababli lug‘at ustida ishlash matn, rasm, hayotiy kuzatishlar asosida tashkil etilishi lozim.

Lug‘at ustida ishlash quyidagi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi:

so‘z ma’nosini izohlash;

so‘zning kontekstda qo‘llanishini tushuntirish;

yangi so‘zlarni faol nutqqa kiritish;

leksik guruhlar bilan ishlash;

sinonim va antonimlarni topish;

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

taqqoslash va umumlashtirish mashqlarini bajarish;

aktiv va passiv lug‘atni rivojlantirish.

Leksik bilimlar bolaning umumiy tafakkurini rivojlantiradi, dunyoni idrok etish qobiliyatini kengaytiradi va nutqiy kompetensiyani shakllantiradi.

Lug‘atni boyitishning metodik vazifalari:

Lug‘aviy ishlarni tashkil etish quyidagi metodik maqsadlarni ko‘zlaydi: o‘quvchining faol nutqida qo‘llaydigan so‘zlar sonini ko‘paytirish; passiv lug‘atni kengaytirish; so‘z ma’nosini ongli anglashni shakllantirish; sinonim, antonim, omonim kabi leksik birliklar bilan tanishtirish; to‘g‘ri talaffuz va imlo ko‘nikmalarini mustahkamlash; so‘zlarning uslubiy xususiyatlarini anglashni rivojlantirish; bayon va matn tuzishda lug‘atdan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish.

Ona tili darslarida lug‘at ustida ishlashda samarali metodlar:

1.Interaktiv metodlar

Interaktiv metodlar o‘quvchilarni darsga faol jalb etadi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va so‘zlarni eslab qolishni osonlashtiradi.

2. Samarali metodlar:

Aqliy hujum — mavzu bo‘yicha so‘zlarni tezkor to‘plash.

Insert — bilgan va bilmagan so‘zlarni belgilash orqali matn ustida ishlash.

Blits-so‘rov — so‘z ma’nosi, sinonim, antonimni tezkor aniqlash.

Klaster — so‘z atrofida leksik xarita yaratish.

Baliq skeleti — murakkab tushunchalarni tahlil qilish.

Rolga kirish — so‘zlarni real vaziyatda qo‘llash.

O‘yin metodlari: O‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun eng tabiiy faoliyat bo‘lib, leksik bilimlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Samarali o‘yinlar:

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Kim tez? — ma’noga mos so‘zni topish.

Ortiqcha so‘zni top — umumlashtiruvchi fikrlashni rivojlantiradi.

Sinonim top — leksik tafakkurni kuchaytiradi.

Zanjirli so‘zlar — so‘zlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni sezdiradi.

Rasm asosida so‘z aytish — vizual material bilan ishlash.

Matn asosida lug‘atni boyitish. Matn bilan ishlash lug‘atni kontekst asosida mustahkamlashning eng samarali usulidir.

Metodlar:

kontekstual izoh;

matndan predmet, sifat, harakat bildiruvchi so‘zlarni ajratish;

so‘zlarni ma’no guruhlariga ajratish;

sinonim va antonimlarni topish.

Zamonaviy texnologiyalar asosida lug‘at ustida ishlash. Bugungi ta’lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanish lug‘atni boyitish samaradorligini oshiradi.

Texnologik vositalar:

rasm, audio, video orqali so‘z ma’nosini tushuntirish;

animatsiyalar asosida harakat bildiruvchi so‘zlarni o‘rgatish;

“LearningApps”, “Kahoot”, “Wordwall” platformalari orqali interaktiv test va mashqlar yaratish.

Lug‘aviy mashqlarni tashkil etish bosqichlari:

1. Tayyorlov bosqichi — yangi so‘zlarni tanlash.

2. Tushuntirish bosqichi — so‘zlarning ma’nosini izohlash.

3. Mustahkamlash bosqichi — o‘yin, interaktiv usullar orqali so‘zlarni qo‘llash.

4. Amaliy bosqichi — bayon, gap tuzish, matn yaratish.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

5. Nazorat bosqichi — test, kartochka, blits-so‘rov.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash o‘quvchilarning nutq madaniyati, ravon o‘qish, matnni anglash va fikrni aniq ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda asosiy metodik jarayondir. Interaktiv metodlar, o‘yinli topshiriqlar, matn asosidagi ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalar lug‘atni boyitishda yuqori samarani ta’minlaydi. Darsning har bir bosqichida tizimli yondashuv asosida tashkil etilgan lug‘aviy mashqlar o‘quvchining faol nutqini sifat jihatidan o‘zgartiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar

2. O'zbek tilining izohli lug'ati. - Toshkent: OME, 2006-2008.

3. Karima Qosimova, Safo Matchnov, Xolida Gulomova, Sharofat Yo'ldasheva, Sharofjon Sariyev "Lug'at ustida ishlash metodikasi"

4. "Ozbek tili fanidan lug'atlar ustida shlash orqali talabalarning so'z boyligini oshirish" metodik ko'rsatmasi. Toshkent-2005

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR ENHANCING COGNITIVE ACTIVITY AND COMMUNICATIVE COMPETENCE OF PHYSICS STUDENTS IN PROFESSIONALLY ORIENTED ENGLISH LANGUAGE INSTRUCTION

Xolmatova Maxbubaxon Axmadjon qizi
Teacher of UZSWLU English Philology
environmental.roughton@gmail.com

Abstract: The article explores innovative pedagogical technologies aimed at developing cognitive activity and communicative competence of physics students in professionally oriented English language teaching. Particular attention is paid to Content and Language Integrated Learning (CLIL) and Project-Based Learning (PBL) as effective approaches that integrate subject content and foreign language learning. These methods promote active learning, critical thinking, and professional communication skills, preparing students for participation in the global scientific community.

Keywords: professionally oriented English, physics students, cognitive activity, communicative competence, CLIL, Project-Based Learning, innovative technologies.

Introduction

In the contemporary globalized educational environment, English has firmly established itself as the dominant language of science, technology, and international academic communication. The majority of scientific publications, research projects, and professional exchanges in the field of physics are conducted in English, which significantly increases the importance of foreign language competence for future specialists. For physics students, mastery of English is therefore not confined to general linguistic proficiency; rather, it encompasses the ability to participate effectively in professional and academic discourse, including reading scientific literature, writing research papers, presenting experimental results, and engaging in international collaboration[1].

[1] Coyle, D., Hood, P., Marsh, D. *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – pp. 1–3.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

This growing demand necessitates the implementation of innovative teaching technologies that are capable of enhancing students' cognitive activity and communicative competence simultaneously. Cognitive activity in this context involves not only the acquisition of knowledge but also the development of analytical thinking, problem-solving abilities, and the capacity to apply theoretical concepts in practical situations. Communicative competence, in turn, implies the effective use of language for professional purposes within academic and scientific settings.

Traditional approaches to teaching English often treat language learning as an isolated process, detached from students' professional interests and subject-specific content. Such separation reduces the practical relevance and motivational value of instruction, limiting students' ability to apply language skills in real professional contexts. Consequently, these approaches are insufficient for meeting the requirements of modern higher education and the labor market.

Therefore, professionally oriented English language teaching must be based on the integration of subject-specific knowledge with language skills. By incorporating physics-related content, authentic materials, and problem-based tasks into the language learning process, higher education institutions can create meaningful learning environments that reflect real academic and professional situations. This integrated approach not only improves students' language proficiency but also contributes to the development of their professional competence, cognitive engagement, and readiness for participation in the global scientific community.

Traditional approaches to teaching English often separate language learning from professional content, which reduces the practical relevance of instruction. Therefore, professionally oriented English language teaching must integrate subject-specific knowledge with language skills in order to meet the demands of modern higher education[2].

Theoretical Framework of Professionally Oriented English Teaching

Professionally oriented English language teaching is based on the close integration of linguistic education and professional training, reflecting the interdisciplinary nature of

[2] Richards, J. C., Rodgers, T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – pp. 28–31.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

modern higher education. Within this framework, language is regarded not merely as a subject of study, but as a functional tool for acquiring, processing, and communicating professional knowledge. Such an approach aligns with contemporary educational paradigms that emphasize the practical applicability of learning outcomes and the development of professional competencies.

From the perspective of constructivist learning theory, knowledge acquisition is most effective when learners actively construct meaning through engagement in authentic and professionally relevant tasks. In professionally oriented English instruction, this principle is realized by incorporating subject-specific materials, problem-based activities, and real-world professional scenarios that mirror students' future academic and occupational contexts. As a result, students become active participants in the learning process, rather than passive recipients of information.

Cognitive activity within professionally oriented English teaching is understood as the extent of students' intellectual involvement in learning, encompassing processes such as analysis of scientific information, synthesis of theoretical concepts, problem-solving, critical thinking, and evaluative judgment. The development of these cognitive processes is particularly important for physics students, whose professional training requires a high level of analytical and logical reasoning.

Communicative competence, in turn, represents a multifaceted construct that includes linguistic, discourse, sociolinguistic, and strategic components necessary for effective professional communication in English. Linguistic competence involves mastery of professional vocabulary and grammatical structures, while discourse competence enables students to produce coherent scientific texts and presentations. Sociolinguistic competence ensures appropriate language use in academic and professional contexts, and strategic competence allows learners to overcome communication barriers through effective strategies.

Innovative pedagogical technologies, such as Content and Language Integrated Learning and Project-Based Learning, address the development of cognitive activity and communicative competence simultaneously. By creating interactive, learner-centered, and professionally meaningful learning environments, these technologies enhance students'

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

motivation, promote deeper learning, and support the formation of holistic professional language competence.

According to constructivist learning theory, students acquire knowledge more effectively when they actively engage in meaningful tasks related to their future professional activities.

Cognitive activity is defined as the degree of students' intellectual engagement in learning processes, including analysis, synthesis, problem-solving, and evaluation. Communicative competence encompasses linguistic, discourse, sociolinguistic, and strategic competencies necessary for effective professional communication in English[3].

Innovative pedagogical technologies address these components simultaneously, creating conditions for active and motivated learning.

Content and Language Integrated Learning (CLIL)

CLIL is a widely recognized approach in professionally oriented English instruction for physics students. Its key principle lies in teaching subject content through a foreign language, making English a tool for acquiring scientific knowledge[4].

In CLIL-based instruction, students study physical laws, theoretical concepts, and experimental results in English. This process enhances their understanding of scientific terminology, academic discourse, and subject-related language structures. Simultaneously, CLIL stimulates higher-order cognitive processes, such as critical analysis and scientific reasoning.

As a result, students develop both subject competence and professional language skills necessary for academic and research activities. CLIL also prepares physics students for participation in international scientific communication. The ability to read scientific

[3] Bloom, B. S. *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*. New York: Longman, 1984. – pp. 18–24.
[4] Coyle, D., Hood, P., Marsh, D. *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – pp. 52–60.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

articles, write reports, and present research findings in English significantly increases students' academic mobility and professional competitiveness[5].

Furthermore, CLIL contributes to increased learning motivation, as students perceive English as a practical and essential tool for their future careers rather than an abstract academic subject.

Project-Based Learning (PBL)

Project-Based Learning is another effective innovative technology used in professionally oriented English teaching. In physics-focused English classes, PBL involves students in solving real scientific and technical problems through collaborative projects[6].

Students work on projects that require information searching, data analysis, experimentation, and presentation of results in English. This approach fosters independent learning, creativity, and teamwork skills while simultaneously developing professional communication abilities.

PBL emphasizes learner-centered instruction, where students take responsibility for their learning outcomes.

Through project presentations, discussions, and written reports, students actively practice English in authentic professional contexts. This improves their speaking, writing, and academic presentation skills, which are essential for future scientific and engineering careers[7].

Additionally, PBL increases students' intrinsic motivation by connecting learning activities with real-world applications and professional relevance.

Impact of Innovative Technologies on Cognitive and Communicative Development

The combined implementation of Content and Language Integrated Learning (CLIL) and Project-Based Learning (PBL) has a pronounced and multifaceted positive impact on

[5] Dudley-Evans, T., St John, M. J. *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach*. Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – pp. 73–78.

[6] Thomas, J. W. *A Review of Research on Project-Based Learning*. San Rafael, CA: Autodesk Foundation, 2000. – pp. 4–7.

[7] Richards, J. C. *Curriculum Development in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – pp. 156–160.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

the development of physics students' cognitive activity and communicative competence. These innovative pedagogical technologies fundamentally transform the learning process by shifting the focus from teacher-centered instruction to learner-centered, activity-based education. As a result, students move from being passive recipients of information to active participants who are directly involved in knowledge construction and problem-solving processes.

Through CLIL-based instruction, students engage with complex physics concepts using English as the language of learning, which stimulates higher-order cognitive processes such as critical thinking, analytical reasoning, synthesis of information, and evaluation of scientific data. The necessity to comprehend, interpret, and explain subject-specific content in a foreign language significantly enhances students' mental engagement and fosters deeper conceptual understanding. This cognitive integration of language and subject matter contributes to the development of both academic literacy and scientific thinking.

Project-Based Learning further strengthens communicative competence by immersing students in collaborative and research-oriented activities that require the active use of English in professional contexts. During project work, students practice discussing hypotheses, negotiating meanings, presenting research findings, and defending their viewpoints in English. Such activities promote the development of professional discourse skills, teamwork abilities, and effective oral and written communication, all of which are essential in contemporary scientific and engineering environments.

Moreover, innovative technologies play a crucial role in fostering lifelong learning skills. By participating in problem-solving tasks, experimental investigations, and independent research projects, students learn how to seek, evaluate, and apply new information autonomously. This experience enhances their adaptability and readiness to respond to rapidly evolving scientific and technological requirements, ensuring their continuous professional growth in a dynamic global knowledge economy.

The combined use of CLIL and Project-Based Learning has a significant positive impact on the development of physics students' cognitive activity and communicative competence. These technologies transform students from passive recipients of knowledge into active participants in the learning process.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Students develop critical thinking, analytical skills, and the ability to express complex scientific ideas in English. They also acquire experience in collaborative work and professional communication, which are essential skills in modern scientific environments[8].

Innovative technologies also contribute to the development of lifelong learning skills. By engaging in problem-solving and research-oriented tasks, students learn how to independently acquire new knowledge and adapt to rapidly changing professional requirements[9].

Conclusion

In conclusion, innovative pedagogical technologies occupy a central position in the system of professionally oriented English language teaching for physics students in higher education institutions. The integration of Content and Language Integrated Learning (CLIL) and Project-Based Learning (PBL) represents an effective response to contemporary educational challenges associated with globalization, international academic mobility, and the increasing demand for interdisciplinary competence.

The application of CLIL ensures the simultaneous development of subject-specific knowledge and foreign language proficiency by using English as a medium for studying fundamental and applied physics. This approach promotes active cognitive engagement, as students are required to analyze scientific concepts, interpret experimental data, and articulate theoretical conclusions in a foreign language. As a result, higher-order thinking skills, including critical analysis, synthesis, and evaluation, are significantly enhanced, contributing to deeper learning outcomes.

Project-Based Learning, in turn, creates a learner-centered educational environment in which students actively participate in solving real scientific and technological problems. Through collaborative projects, research activities, and professional presentations conducted in English, students develop essential communicative competencies, independent learning skills, and practical experience in academic and professional discourse. This

[8] Coyle, D. *Developing CLIL: Towards a Theory of Practice*. APAC Monograph, 2007. – pp. 10–14.
[9] Little, D. *Learner Autonomy and Language Learning*. Dublin: Authentik, 1991. – pp. 45–49.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

method also increases learning motivation and fosters responsibility for individual and collective learning outcomes.

The combined implementation of CLIL and Project-Based Learning in professionally oriented English instruction leads to the formation of a comprehensive set of competencies encompassing linguistic, cognitive, communicative, and professional dimensions. Consequently, physics students become better prepared for participation in international scientific cooperation, academic research, and professional activities within a globalized knowledge-based society.

Therefore, the systematic integration of innovative pedagogical technologies into English language teaching curricula ensures the training of highly qualified, intellectually active, and professionally competent specialists who are capable of effective communication and successful professional performance in the global scientific community.

References

1. Coyle, D., Hood, P., Marsh, D. *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – pp. 1–3.
2. Richards, J. C., Rodgers, T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – pp. 28–31.
3. Bloom, B. S. *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*. New York: Longman, 1984. – pp. 18–24.
4. Coyle, D., Hood, P., Marsh, D. *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – pp. 52–60.
5. Dudley-Evans, T., St John, M. J. *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach*. Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – pp. 73–78.
6. Thomas, J. W. *A Review of Research on Project-Based Learning*. San Rafael, CA: Autodesk Foundation, 2000. – pp. 4–7.
7. Richards, J. C. *Curriculum Development in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – pp. 156–160.
8. Little, D. *Learner Autonomy and Language Learning*. Dublin: Authentik, 1991. – pp. 45–49.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

9. Marsh, D. *Content and Language Integrated Learning (CLIL): A Development Trajectory*. Córdoba: University of Córdoba Press, 2012. – pp. 91–95.
10. Xolmatova, M. A., *The role of oriented foreign language in the formation of the communicative competence of physics students.* ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 11, Issue 1, January 2021. – pp. 1408-1412

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINING QO‘LLANISHI VA JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Irnazarov Shuxrat Najmetdinovich

Termiz davlat universiteti yuridik fakultati “Jinoyat huquqi va Fuqarolik protsessi” kafedrasi o‘qituvchisi.

Ibragimova Munisa Xakim qizi

Termiz davlat universiteti yuridik fakultati 4-bosqich talabasi.

Anotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida ozodlikdan mahrum qilish jazo turining huquqiy mohiyati, qo‘llanish tartibi va so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan liberallashtirish siyosati keng ko‘lamda yoritilgan. O‘zbekistonning sud-huquq tizimidagi islohotlar, probatsiya institutining joriy etilishi, manzil-koloniyalar tizimini kengaytirish va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan yondashuvlar alohida tahlil qilinadi.

Shuningdek, AQSh va Rossiya Federatsiyasi huquq tizimlarida ozodlikdan mahrum qilishning tartibi, muddatlari va ijro etish mexanizmlari o‘rganilib, uchala tizimning o‘xshash va farqli jihatlari taqqoslab ko‘rsatilgan. Maqola jinoyat huquqi, jazo ijro etish siyosati, xalqaro standartlar hamda reabilitatsiya jarayonlariga asoslanib, ozodlikdan mahrum qilish institutining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini ochib beradi. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston tizimining insonparvarlik va ijtimoiy reintegratsiyaga yo‘naltirilganligi, AQSh tizimining murakkab federal tuzilishga egaligi, Rossiya tizimining esa qat’iy tartib va izolyatsiyaga asoslanganligi aniq ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ozodlikdan mahrum qilish.Jinoyat huquqi.Jazoni ijro etish.Manzil-koloniyalar.Probatsiya.Jazo liberallashtirilishi.AQSh qamoq tizimi.Rossiya federatsiyasi penitensiar tizimi.Reabilitatsiya.Nelson Mandela qoidalari.Umrbod qamoq.Insonparvarlik tamoyillari.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev** 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "Sud huquq sohasi, jumladan, jinoiy jazolarni liberallashtiriah borasidagi islohatlarimiz ham izchil davom ettirildi. Natijada bu yil sudlangan shaxslarning 74 foiziga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan boǧliq bòlmagan jazolar tayinlandi".

Ozodlikdan mahrum qilish jinoiy javobgarlikning eng og‘ir turlaridan biri bo‘lib, davlat tomonidan shaxsning jamiyatdan majburiy ajratilishi va maxsus tartibdagi jazoni ijro etish muassasasida saqlanishini nazarda tutadi. Ushbu institutning huquqiy mazmuni, avvalo, jinoyatchilikning oldini olish, jamiyatning xavfsizligini ta’minlash va mahkumni tuzatish maqsadlariga asoslanadi. Zamonaviy jinoyat huquqida ozodlikdan mahrum qilish jazosining qo‘llanishi ehtiyotkorlik bilan, faqat zarur holatlarda belgilanishi lozim bo‘lgan o‘ta keskin choradir.

O‘zbekiston Respublikasida ozodlikdan mahrum qilishning huquqiy asoslari, birinchidan, Konstitutsiyada mustahkamlangan bo‘lib, unda hech kim sudning hukmisiz ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emasligi, shuningdek, shaxsning sha’ni va qadr-qimmati himoya qilinishi kerakligi belgilangan. Ikkinchidan, ozodlikdan mahrum qilishning aniq tartibi, muddatlari, jazoni o‘tash shartlari Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi va Jinoyat ijroiya kodeksida belgilangan. Jinoyat kodeksiga ko‘ra, ozodlikdan mahrum qilish faqat og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etilganda yoki boshqa jazolar yetarli bo‘lmaganda qo‘llanadi. Jinoyat ijroiya kodeksi esa mahkumlarning huquqlari, majburiyatlari, saqlash sharoitlari, mehnatga jalb qilish, tibbiy xizmat ko‘rsatish, uchrashuvlar va yozishmalar tartibini belgilaydi.

Ushbu institutning tarixi jahon amaliyotida ko‘p asrlar davomida shakllangan bo‘lib, dastlab ozodlikdan mahrum qilish jazosidan ko‘ra jismoniy jazolar, surgun yoki o‘lim jazosi keng qo‘llanilgan. Davlatning insonparvarlik tamoyillariga o‘tishi bilan qamoqxona tizimi shakllanib, jazo faqatgina jismoniy azob berish emas, balki shaxsni tuzatish, qayta ijtimoiylashtirish funksiyasini ham bajara boshladi. O‘zbekiston ham mustaqillik yillarida jazo tizimini isloh qilib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

kengaytirgan, probatsiya institutini joriy qilgan hamda jazoni ijro etish muassasalarida xalqaro standartlarga moslashuv jarayonini kuchaytirgan.[1]

Bugungi kunda ozodlikdan mahrum qilish jazosining qo‘llanishi faqatgina jazolash emas, balki mahkumlarni qayta tarbiyalash, ularga kasb o‘rgatish, ijtimoiy hayotga moslashtirish, takroriy jinoyatchilikning oldini olish kabi maqsadlarni ham qamrab oladi. BMTning “Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari” (Nelson Mandela qoidalari), Yevropa Kengashining qamoqxona qoidalari kabi xalqaro normalar O‘zbekiston jazo ijro etish tizimida ham qo‘llanmoqda. Unda mahkumlarning inson huquqlari, sog‘lig‘i, xavfsizligi, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish birlamchi talablardan hisoblanadi.

O‘zbekistonning so‘nggi islohotlari jarayonida ozodlikdan mahrum qilish jazo turi sifatida imkon qadar qisqartirilishi, uni faqat zarur hollarda qo‘llash va jinoyatchilarni ijtimoiy hayotga qaytarishga xizmat qiladigan muqobil mexanizmlarni kengaytirish siyosati kuchaygan. Shu bilan birga, ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning huquqiy himoyasi, advokat yordami, oilasi bilan aloqada bo‘lishi, sog‘lom turmush sharoitlari ta’minlanishi davlatning insonparvar demokratik tamoyillariga asoslangan majburiyatidir.

Ozodlikdan mahrum qilish — jinoiy javobgarlik tizimida eng keskin va og‘ir jazolardan biri bo‘lib, jinoyat sodir etishda ayblangan shaxsning davlat tomonidan maxsus saqlash va tarbiyaviy muassasalarida majburiy tarzda jamiyatdan ajratilishini nazarda tutadi. Ushbu jazo turi mahkumga bir qator muhim cheklovlar qo‘yilishi bilan xarakterlanadi: shaxsning harakatlanish erkinligi, mehnat faoliyatini erkin tanlash huquqi, vaqtidan mustaqil foydalanish imkoniyati va boshqa asosiy huquqlari ma’lum muddatga cheklanadi.

Mazkur **jazo turining asosiy maqsadi** — jinoyatchini jamiyatdan vaqtincha ajratish orqali uning jinoiy faoliyatini davom ettirish ehtimolini bartaraf etish, shaxsni tarbiyalash va tuzatish, shuningdek, jamiyatning boshqa a’zolariga ogohlantiruvchi-preventiv ta’sir ko‘rsatishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko‘ra, ozodlikdan mahrum qilish faqat tegishli moddada bevosita nazarda tutilgan holatlardagina qo‘llanadi.

[1] Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini tashkil etish https://advice.uz/oz/document/2437

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Jinoyat kodeksida belgilangan tartibga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish jazosi sud tomonidan aniq muddatga tayinlanadi. Jazoning eng kam muddati 6 oy, eng ko‘pi esa 20 yil etib belgilangan bo‘lib, bir necha jazolarni qo‘shish yo‘li bilan tayinlanganda umumiy muddat 25 yilgacha yetishi mumkin. Mahkumlar jazoni o‘tashi uchun turli toifadagi muassasalarga joylashtiriladi: manzil koloniyalari, umumiy tartibli koloniyalar, qattiq va maxsus tartibli koloniyalar hamda turmalar shular jumlasidandir. Jazoni ijro etish muassasasining turini sud hukmda belgilab beradi.[2]

Manzil-koloniyalar quyidagilarga bo‘linadi:

ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar, shuningdek qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etgani uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlanadigan manzil-koloniyalar; umumiy, qattiq tartibli koloniyalardan o‘tkazilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniyalar (JIK 46-m.).

Umumiy tartibli koloniyalar quyidagilarga bo‘linadi:

a. og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;

b. o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;

c. og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan ayollar saqlanadigan koloniyalar (JIK 47-m.).

Qattiq tartibli koloniyalar quyidagilarga bo‘linadi:

a. ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;

b. ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tagan va o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan ayollar,

[2] Ozodlikdan mahrum qilish - Vikipediya
https://uz.wikipedia.org/wiki/Ozodlikdan_mahrum_qilish

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

shuningdek o‘ta xavfli retsidivist deb topilgan ayollar saqlanadigan koloniyalar (JIK 48-m.).

Maxsus tartibli koloniyalar: ozodlikdan mahrum qilinib, o‘ta xavfli retsidivist deb topilgan erkaklarni, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni saqlash uchun mo‘ljallangan.[3]

Qasddan sodir etilgan og‘ir jinoyat uchun birinchi marta sakkiz yilgacha va sakkiz yil muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar alohida hollarda, mahkumning shaxsiy yozma roziligi bo‘lgan taqdirda, muassasa boshlig‘ining qaroriga binoan xo‘jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun tergov hibsxonasida yoki turmada qoldirilishi mumkin.

Xo‘jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun tergov hibsxonasida yoki turmada qoldirilgan mahkumlar jazoni qullab bo‘ylamaydigan umumiy koloniyalarda boshqa shaxslardan ham ajratilgan holda saqlanadi.

Quyidagi mahkumlar xo‘jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilmaydi:

- voyaga yetmagan shaxslar;
- ajnabiy fuqarolar;
- fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;
- sudlar va huquq-tartibotni muhofaza qilish organlarining sobiq xodimlariga mansub mahkumlar (JIK 53-m.).

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining “Amnistiya to‘g‘risida”gi qaror e’lon qilinishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini ta’minlashda insonparvarlik prinsiplariga rioya etilayotganligidan dalolat beradi.

2003-yilning 26-sentabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga sudlangan shaxslarning jazo o‘tash sharoitlarini liberallashtirish

[3] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi https://lex.uz/docs/111451

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

to‘g‘risida”gi farmoni matbuotda e’lon qilindi. Unga muvofiq sud-huquq islohotlari va jinoyat-ijroiya qonunchiligini liberallashtirishning navbatdagi bosqichi jarayonida, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etib, birinchi marta sudlangan shaxslar ozodlikdan mahrum etish jazosini manzil-koloniyalarda, o‘ta og‘ir jinoyat sodir etib birinchi marta sudlanganlar esa umumiy tartibli koloniyalarda o‘tashlari belgilandi.[4]

Shunday qilib, ozodlikdan mahrum qilish jazo turi nafaqat shaxsni jamiyatdan izolyatsiya qilish, balki uni ijtimoiy foydali hayot tarziga qaytarish, huquqbuzarliklarning oldini olish va jamiyat xavfsizligini ta’minlashning asosiy huquqiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar tergov hibsxonasi ma’muriyati tomonidan sud hukmi qonuniy kuchga kirganligi to‘g‘risidagi xabarnoma olingan paytdan boshlab o‘n kunlik muddat ichida jazoni ijro etish muassasasiga yuboriladi. Ushbu muddat davomida mahkum amaldagi tartib-qoidalarga muvofiq saqlanadi.

Tergov hibsxonasi ma’muriyati mahkumning jazoni o‘tash uchun jo‘nab ketganligi haqida uning oila a’zolarini uch kunlik muddatda xabardor etishi shart. Jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati esa mahkum muassasaga yetib kelgan kundan boshlab uch kun ichida mazkur holat haqida hukm chiqargan sud organiga axborot beradi. Shu bilan birga, mahkumning oilasiga muassasaning manzili ko‘rsatilgan holda, mahkumning yozishmalar olib borish, uchrashuvlar o‘tkazish, posilka, yo‘qlov va banderollar qabul qilish, shuningdek telefon orqali muloqot qilish huquqlari to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan xabarnoma yuboradi.

Muassasaga yetib kelgan mahkumlar, odatda, ularning shaxsini o‘rganish, psixologik moslashuvini ta’minlash va ichki tartib-qoidalar bilan tanishtirish maqsadida o‘n besh sutkagacha bo‘lgan muddatga qabul bo‘limiga joylashtiriladi. Manzil-koloniyalarga kelgan shaxslar hamda xo‘jalik xizmatlariga jalb qilinishi munosabati bilan tergov hibsxonalari yoki turmalarda qoldirilgan shaxslar ushbu tartibdan istisno etiladi. Mahkumlar muassasaga joylashtirilgach, ularga jazoni o‘tash tartibi, shartlari, hamda shaxsning huquq va majburiyatlari to‘g‘risida zarur axborot beriladi.

[4] Jinoyat ijroiya huquqi: Darslik / I.Ismailov, Q.R.Abdurasulova, A.A.Shodiyev va boshq. -T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022.- 206 b.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxs, odatda, butun jazo muddatini bir koloniyaga o‘tkazish masalasi uning xavfsizligini ta’minlash zarurati tug‘ilganda, mahkumning roziligi asosida yoki mazkur muassasada qolishiga to‘sqinlik qiluvchi boshqa obyektiv holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Mahkum sog‘lig‘ining yomonlashuvi yoki kasallik aniqlangan hollarda uni koloniyadan yoki turmadan ixtisoslashgan tibbiy muassasaga o‘tkazish masalasi tibbiy xulosa asosida hal etiladi.

Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar quyidagi toifalar bo‘yicha alohida saqlanadi: erkaklar va ayollar, voyaga yetmaganlar va katta yoshdagilar, birinchi marta ozodlikdan mahrum etilganlar hamda ilgari ushbu jazo turini o‘tagan shaxslar. Shuningdek, ayrim toifadagi shaxslar boshqa mahkumlardan to‘liq ajratilgan holda saqlanishi belgilangan.

Mahkumlarni ko‘chirish tartibi va mahkumlarni saqlash sharoitining o‘zgartirilishi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Jinoyat kodeksining 50-moddaida ozodlikdan mahrum qilish tushunchasi keltirilgan, unga asosan, O‘zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan bog‘liq qoidalarni belgilaydi. Ushbu modda asosida ozodlikdan mahrum qilish mahkumni jamiyatdan ajratib, jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirish orqali amalga oshiriladi. Jazo muddati odatda bir oydan yigirma yilgacha belgilanishi mumkin, biroq uchinchi qismda ko‘rsatilgan hollarda bundan mustasno. Uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish, ya’ni yigirma yildan ortiq, lekin yigirma besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddat, faqat javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda, jumladan qasddan odam o‘ldirish yoki terrorizm uchun tayinlanadi. Shu bilan birga, uzoq muddatli jazo ayolga, o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxsga va oltmish yoshdan oshgan erkakka nisbatan qo‘llanilishi mumkin emas.

Ozodlikdan mahrum qilish boshqa jazo turlari bilan birlashtirilganda uning muddati yigirma besh yilgacha bo‘lishi mumkin. Ayollarga va oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan jazo muddati esa tegishli moddalarda belgilangan eng ko‘p muddatning uchdan ikki qismidan oshmasligi lozim. Jazoni ijro etish tartibi mahkumning jinoyat turiga va ijtimoiy xavfi darajasiga bog‘liq. Erkaklarga nisbatan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan yoki qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar uchun

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

jazoni manzil-koloniyalarda o‘tash belgilanadi, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun esa umumiy tartibli koloniyalarda, ilgari sodir etgan jinoyati uchun jazoni o‘tayotgan shaxslar yoki qasddan yangi jinoyat sodir etganlarga esa qattiq tartibli koloniyalarda jazoni o‘tash tayinlanadi. O‘ta xavfli retsidivistlar, umrbod ozodlikdan mahrum etilganlar va afv etilgan, lekin jazo ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o‘taydilar.

Ayollarga nisbatan esa ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar va qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar uchun manzil-koloniyalar, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun umumiy tartibli koloniyalar, ilgari ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan va yangi o‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinayotgan, shuningdek o‘ta xavfli retsidivist deb topilganlar uchun esa qattiq tartibli koloniyalar belgilanadi. Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish besh yildan ortiq bo‘lmagan muddatga o‘ta xavfli retsidivistlarga yoki og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan shaxslarga tayinlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish homilador ayollarga, uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga va qonunchilikka muvofiq yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Sud mahkumni manzil-koloniyada o‘tirishi belgilangan bo‘lsa va u saqlash tartibini ashaddiy buzgan deb topilsa, sud uni jazoning o‘talmagan qismi muddatiga umumiy tartibli koloniyaga o‘tkazishi mumkin. Shu bilan birga, modda jinoyat va jazoni ijro etish shartlari bo‘yicha har bir kategoriya uchun aniq yo‘riqnomalarni belgilab, ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan.[5]

AQSh va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi.

Xalqaro taqqoslash uchun AQSh va Rossiya Federatsiyasini olsak, ozodlikdan mahrum qilish jazosi ularda ham asosiy jazo turi hisoblanadi, biroq tartib va ijro jihatlari farqlidir. AQShda jazolar federal va shtat darajasida belgilansa-da, aksariyat mahkumlar shtat qamoqxonalarga yuboriladi. AQSh huquq tizimida ozodlikdan mahrum qilish jazo turi federal darajada ham, shtatlar darajasida ham tartibga solinadi. AQShda jinoyat sodir etgan shaxsga jazo tayinlashda Konstitutsiyaning VIII tuzatishi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda “qattiq va g‘ayrioddiy jazolar” taqiqlangan. Shu bois, ozodlikdan mahrum qilishning qo‘llanishi sud tomonidan jinoyatning jiddiyligi, ijtimoiy xavf darajasi, ayblanuvchining

[5] 22.09.1994. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi https://lex.uz/docs/-111453

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

shaxsiy holati, avvalgi sudlanganligi va jamiyat manfaatlari inobatga olingan holda belgilanadi. Federal Jinoyat kodeksining 3553-moddasida sud jazo tayinlayotganda javobgarlik, jinoyatchilikning oldini olish, jazoning adolatli bo‘lishi, shuningdek mahkumning tuzalishi, psixologik va tibbiy ehtiyojlarini qondirish kabi omillarni e’tiborga olishi kerakligi belgilangan[6].

AQShda qamoqxonalar ikki asosiy turga bo‘linadi: federal qamoqxona tizimi va shtat qamoqxonalari. Federal qamoqxonalar Amerika Qo‘shma Shtatlari Adliya vazirligiga qarashli Federal Prison Bureau (BOP) tomonidan boshqariladi, shtat qamoqxonalari esa tegishli shtatning Department of Corrections tizimiga bo‘ysunadi. Mahkumlarning katta qismi shtat muassasalarida saqlanadi, chunki ko‘pchilik jinoyatlar shtat qonunlariga asoslangan holda ko‘rib chiqiladi. Qamoqxonalar xavfsizlik darajasiga ko‘ra “minimum”, “medium”, “high security” yoki “supermax” muassasalarga ajratiladi. Supermax turidagi muassasalar eng xavfli jinoyatchilarni saqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, chegaralangan harakatlanish, qat’iy izolyatsiya va kuchaytirilgan nazorat bilan ajralib turadi.

AQShda jazoni ijro etish tizimi faqat izolyatsiyaga emas, balki mahkumni qayta ijtimoiylashtirishga ham qaratilgan bo‘lib, aksariyat qamoqxonalar ta’lim dasturlari, kasb-hunar kurslari, ruhiy salomatlik bo‘yicha dasturlar, giyohvandlikdan davolash kurslari va ijtimoiy reabilitatsiya treninglarini o‘tkazadi. Ko‘pgina shtatlarda “parol” tizimi mavjud bo‘lib, u mahkumning muddatidan oldin ozod qilinishi va maxsus nazorat ostida jamiyatga qaytishi imkonini beradi. Shu bilan birga, AQSh qamoqxona tizimi dunyoda eng yirik tizimlardan hisoblanadi: milliondan ortiq shaxs ozodlikdan mahrum etilgan bo‘lib, bu mamlakatning jinoyatga qarshi qat’iy siyosatini aks ettiradi.

Shunga qaramay, AQShda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim shtatlarda uzoq muddatli jazolar keng qo‘llanishi, jazoni o‘tash sharoitlari bo‘yicha tengsizliklar, irqiy diskriminatsiya, maxsus izolyatsiya kameralaridan ortiqcha foydalanish kabi masalalar xalqaro tashkilotlar tomonidan tanqid qilinadi. Biroq so‘nggi yillarda islohotlar natijasida reabilitatsiya dasturlari kengaytirilmoqda, shartli

[6] 18 U.S. Code § 3553 – Federal jazoni belgilash asoslari
https://www.law.cornell.edu/uscode/text/18/3553

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

muddatidan oldin ozod qilish tizimi takomillashtirilmoqda va minor jinoyatlar uchun qamoq muddatlarini qisqartirish tendensiyasi kuchaymoqda.

Umuman olganda, AQSh huquq tizimida ozodlikdan mahrum qilish eng ko‘p qo‘llaniladigan jazo turi bo‘lib, uning mazmuni izolyatsiya, jazolash, ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash, shuningdek mahkumni qayta tarbiyalash va jamiyatga moslashtirishga qaratilgan kompleks tizimdir.

So‘nggi statistika bo‘yicha AQShda 2023 yil holatiga ko‘ra 1 254 200 dan ortiq mahkum qamoqda saqlanayotgan bo‘lib, bu dunyo bo‘yicha juda katta ko‘rsatkichdir. U yerda penitentier tizim katta va zamonaviy infratuzilma bilan ajralib turadi, ammo odatda mahkumlar uchun reprofasyl dasturlar (kasb-hunar, ta’lim, ruhiy yordam) ham taqdim etilishi e’tiborni jalb etadi.

Rossiya Federatsiyasi huquq tizimida ozodlikdan mahrum qilish jazo turi Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi va RF Jinoyat-ijroiya kodeksi asosida tartibga solinadi, hamda shaxsni jamiyatdan izolyatsiya qilish orqali jinoyatchilikning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta’minlash va mahkumni tuzatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 56-moddasida ozodlikdan mahrum qilishning huquqiy mazmuni va muddatlari belgilangan bo‘lib, jazo eng kamida ikki oy, eng ko‘pi esa yigirma yil etib belgilanadi. Bir necha jinoyatlar bo‘yicha hukmlar qo‘shilganda jazo muddati o‘ttiz yilgacha yetishi mumkin, o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etilgan taqdirda esa umrbod qamoq jazosini tayinlash mumkin. Ayollarga, voyaga yetmaganlarga va 65 yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan umrbod jazo qo‘llanmaydi[7].

Rossiyada jazoni ijro etish muassasalari differensiallashtirilgan bo‘lib, yarim ochiq turdagi koloniyalar (koloniya-poseleniya), umumiy tartibli, qattiq tartibli va maxsus tartibli koloniyalar, shuningdek yuqori darajadagi izolyatsiya nazarda tutiladigan turmalar mavjud. Koloniya turi jinoyatning ijtimoiy xavf darajasiga, shaxsning avvalgi sudlanganligiga, retsidivistlik holatlariga qarab belgilanadi. Mahkumlar erkaklar va ayollar, voyaga yetmaganlar va katta yoshdagilar, birinchi marta sudlanganlar va retsidivistlar sifatida

[7] Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi
http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

alohida saqlanadi. RF Jinoyat-ijroiya kodeksi jazoning bajarilishi jarayonida mahkumning huquqlari, xavfsizligi, mehnatga jalb etilishi, axloqan tuzalishi va tartibga rioya etishi bo‘yicha aniq normalarni belgilaydi. Rossiya qamoq tizimida mehnat majburiyati keng qo‘llanadi, aksariyat koloniyalar ishlab chiqarish faoliyatiga ixtisoslashgan. Jazoni ijro etish davomida mahkumning tibbiy xizmatdan foydalanish, murojaat qilish, uchrashuvlar va yozishmalar olib borish kabi huquqlari kafolatlanadi, biroq jazo ijrosining asosiy tamoyili – qat’iy nazorat va tartibni saqlash hisoblanadi. Umrbod qamoq jazosini o‘tayotgan shaxslar maxsus tartibli koloniyalarda saqlanib, ularning harakati, tashqi aloqalari va yashash sharoitlari keskin cheklangan bo‘ladi. Ularning ozodlikka muddatidan oldin chiqish imkoniyati faqat uzoq vaqt davomida tartib buzmagan taqdirda 25 yil o‘tgach ko‘rib chiqilishi mumkin. Umuman olganda, Rossiya huquq tizimida ozodlikdan mahrum qilish eng ko‘p qo‘llaniladigan jazo turi bo‘lib, jazo siyosati qat’iylik, ierarxiyalashgan koloniyalar tizimi, takroriy jinoyatchilikka nisbatan keskin choralar ko‘rilishi bilan ajralib turadi. Jazo tizimi xalqaro inson huquqlari standartlariga moslashishga qaratilgan bo‘lsa-da, mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirishdan ko‘ra izolyatsiya va tartibni ustuvor qo‘yadigan tuzilishga ega[8].

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat ijroiya kodeksi bo‘yicha ham turli oilaviy tartibdagi koloniyalar, SIZOlar va “ayrim tartib” koloniyalar faoliyat ko‘rsatadi.Masalan, jazo ijro etish koloniyalari asosiy turlari sifatida umumiy, qattiq va maxsus tartibdagi korrupsiya koloniyalari ajratilgan. Rossiya qamoqxonalarida ham axloqiy tuzatish va bandlik tamoyili qo‘llaniladi. 2023-yil boshiga ko‘ra Rossiyada 433 000 dan ortiq mahkum saqlanayotgan bo‘lib, o‘rtacha qamash ko‘rsatkichi 300 nafarga teng bo‘lgan (har 100 ming aholiga).

O‘zbekiston, AQSh va Rossiya huquq tizimida ozodlikdan mahrum qilish jazosining o‘xshash va farqli jihatlari.

O‘zbekiston, AQSh va Rossiya huquq tizimlarida ozodlikdan mahrum qilish jazo turi jinoyatga qarshi kurashning muhim vositasi sifatida qo‘llaniladi, biroq bu jazoning mazmuni, maqsadi, qo‘llanish tartibi va jazo ijro etish tizimining tuzilishi har bir mamlakatda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Uchala tizimning o‘xshash jihati shundaki,

[8] Rossiya Federatsiyasi Jinoyat–ijroiya kodeksi http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_12940

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

ularda ozodlikdan mahrum qilish shaxsni jamiyatdan ma’lum muddatga ajratish, jinoyatchilikning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta’minlash va mahkumni tuzatish maqsadlariga xizmat qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston, AQSh va Rossiyada eng xavfli jinoyatlar uchun uzoq muddatli yoki umrbod qamoq jazosini qo‘llash nazarda tutilgan, qamoqxonalar xavfsizlik darajasiga ko‘ra tabaqalashtiriladi va mahkumlarning huquqlari, mehnatga jalb etilishi, tibbiy xizmatdan foydalanishi kabi umumiy qoidalar mavjud.

Biroq bu davlatlarning ozodlikdan mahrum qilish tizimlari ko‘plab farqlar bilan ajralib turadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda jazoni liberallashtirish siyosati kuchayib, ozodlikdan mahrum qilish faqat zarur holatlarda qo‘llanadigan jazo turiga aylantirilmoqda; probatsiya tizimining kengaytirilishi, manzil-koloniyalar sonining ko‘pligi va jazoni yengillashtirish mexanizmlarining faol ishlashi buning yaqqol dalilidir. AQShda esa qamoq tizimi dunyodagi eng kattalaridan biri bo‘lib, federal va shtat qamoqxonalarining farqlanishi, xavfsizlik darajasi bo‘yicha keng turlarga bo‘linishi, shuningdek jazolarning ko‘pincha juda uzoq muddatlarga tayinlanishi bilan ajralib turadi. AQSh tizimida “supermax” kabi yuqori izolyatsiya darajasiga ega qamoqxonalardan faol foydalaniladi, biroq keng ko‘lamli reabilitatsiya dasturlari, parol tizimi va ta’lim dasturlari mavjudligi uni Rossiyadan farqlaydi. Rossiyada esa jazoni ijro etish tizimi sobiq sovet modelining ko‘plab unsurlarini saqlagan bo‘lib, umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalar tizimi qat’iy ierarxiyaga ega; takroriy jinoyatchilarga nisbatan juda keskin choralar qo‘llanadi. Rossiyada majburiy mehnat keng tarqalgan va jazolash yondashuvi ko‘proq izolyatsiya va tartibni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Shuningdek, jazo muddati bo‘yicha ham sezilarli farqlar mavjud: O‘zbekistonda ozodlikdan mahrum qilish eng ko‘pi 20 yil, qo‘shilganda 25 yilgacha bo‘lishi mumkin, AQShda esa ayrim shtatlarda 50–100 yil yoki bir nechta umrbod jazo kabi “simvolik” uzoq muddatlar qo‘llanadi. Rossiyada esa jazo muddati qo‘shilganda 30 yilgacha yetishi, umrbod qamoq esa eng og‘ir jinoyatlar uchun amalda qo‘llanilishi mumkin. O‘zbekistonda homilador ayollar, voyaga yetmagan bolasi bor ayollar, keksa shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish muayyan hollarda qo‘llanmaydi, AQSh va Rossiyada esa bu masala shtatlar yoki federal normativlarga bog‘liq bo‘lib, ayrim istisnolar mavjud, ammo O‘zbekistondagidek aniq cheklovlar to‘liq qo‘llanilmaydi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Umuman olganda, uchala davlatda ozodlikdan mahrum qilish jazo turi mavjud bo‘lsa-da, O‘zbekiston insonparvarlikka yo‘naltirilgan yengillashtirilgan va rehabilitatsiya markazli siyosatni olib borayotgan bo‘lsa, AQShda reabilitatsiya va qat’iylik o‘zaro uyg‘unlashgan murakkab tizim mavjud, Rossiyada esa jazo ijrosida tartib, izolyatsiya va xavfsizlik ustuvor bo‘lgan an’anaviy qattiq model amalda bo‘lib qolmoqda.

Xulosa

Ozodlikdan mahrum qilish jazo turi jinoyat huquqi tizimida eng og‘ir, eng keskin choralar qatoriga kiradi va u shaxsni jamiyatdan majburiy ajratish orqali ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olish hamda mahkumni tuzatish maqsadlarini ko‘zlaydi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari ushbu jazoning qo‘llanishini cheklash, insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirish va jazo siyosatini liberallashtirishga qaratilgan bo‘lib, natijada ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo turlari sezilarli kengaydi.

Mamlakat qonunchiligida ozodlikdan mahrum qilishning aniq tartibi, muddatlari va jazo ijro etish shartlari belgilangan bo‘lib, mahkumlarning huquqlari va insoniy qadriyati ustuvor hisoblanadi. Jazo muddatining og‘irligi jinoyatning xususiyati, xavfi va mahkumning shaxsiy holatlariga qarab belgilanadi. Koloniya turlarining farqlanishi esa jinoyatning ijtimoiy xavf darajasi va mahkumning avvalgi xulqiga bog‘liq ravishda differensial yondashuvni ta’minlaydi.

O‘zbekiston xalqaro standartlarga, xususan Nelson Mandela qoidalariga muvofiq ravishda mahkumlarning huquqlari, salomatligi, xavfsizligi va qayta ijtimoiylashuvi masalalariga katta e'tibor qaratmoqda. Probatsiya institutining joriy etilishi, amnistiya va afv siyosatining muntazam qo‘llanishi ham insonparvarlik yo‘nalishidagi islohotlarning davomi hisoblanadi.

AQSh va Rossiya tizimlari bilan qiyoslaganda, O‘zbekiston ozodlikdan mahrum qilishni imkon qadar kamaytirish siyosatini olib borayotganligi, jazoning maqsadini faqat izolyatsiya emas, balki qayta tarbiyalash va ijtimoiy reintegratsiya bilan bog‘layotgani bilan ajralib turadi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Umuman olganda, ozodlikdan mahrum qilish jazosining mazmuni faqat jazolashdan iborat bo‘lmay, balki mahkumlarni o‘zgartirish, jamiyatga foydali a’zo sifatida qayta tayyorlash, jinoyatchilikni kamaytirish va inson huquqlarini ta’minlashni ko‘zlaydi. Shu bois, bu jazo turi davlatning insonparvar demokratik tamoyillarini amalda ro‘yobga chiqaradigan eng muhim huquqiy mexanizmlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini tashkil etish https://advice.uz/oz/document/2437
- Ozodlikdan mahrum qilish - Vikipediya https://uz.wikipedia.org/wiki/Ozodlikdan_mahrum_qilish
- O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi https://lex.uz/docs/111451
- Jinoyat ijroiya huquqi: Darslik / I.Ismailov, Q.R.Abdurasulova, A.A.Shodiyev va boshq. -T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022.- 206 b.
- 22.09.1994. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi https:/ /lex.uz/docs/-111453
- 18 U.S. Code § 3553 – Federal jazoni belgilash asoslari https://www.law.cornell.edu/uscode/text/18/3553
- AQSh Qamoqxonalar Statistikasi (Bureau of Justice Statistics) https://bjs.ojp.gov
- Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699
- Rossiya Federatsiyasi Jinoyat–ijroiya kodeksi http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_12940

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

RAQAMLI USULLARDA HOSILANI HISOBLASH: XATOLIKLARNI KAMAYTIRISH VA YUQORI ANIQLIK METODLARI

Rajabova Diyora Chori qizi

Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli usullarda hosila hisoblashning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor xatoliklarni kamaytirish va yuqori aniqlik metodlariga qaratilgan. Tadqiqotda differensial va interpolatsion usullar, shuningdek, sonli integratsiya va turli numerik differensial formulalarning aniqligi solishtiriladi. Natijalar raqamli hisoblashlarda xatoliklarni minimallashtirish usullarini aniqlash va hisoblash samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi. Ushbu maqola matematik modellashtirish, muhandislik hisoblashlari va ilmiy tadqiqotlarda hosila hisoblashning optimal usullarini tanlashga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli usullar, hosila hisoblash, xatoliklarni kamaytirish, yuqori aniqlik, numerik differensiallash, interpolatsiya, sonli integratsiya

Kirish

Raqamli usullar zamonaviy ilm-fan va muhandislik hisoblashlarida muhim o‘rin egallaydi. Ko‘plab fizik, kimyoviy, iqtisodiy va muhandislik masalalarini analitik usullar orqali yechish imkoniyati cheklangan bo‘lganligi sababli, sonli (numerik) yondashuvlar keng qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvlar yordamida hosilalar, integrallar va differensial tenglamalar kabi murakkab matematik ifodalar aniqlik bilan hisoblanadi. Hosila hisoblash numerik metodlarning eng asosiy elementlaridan biri bo‘lib, uning aniqligi va xatoliklar bilan bog‘liq masalalar muhim hisoblanadi. Raqamli hisoblashlarda hosila topishning turli usullari mavjud: markaziy farq formulalari, oldingi va keyingi farq formulalari, interpolatsion metodlar va yuqori aniqlikdagi differensiallash formulalari. Har bir metodning o‘ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud bo‘lib, ular hisoblash natijasining aniqligi va xatolikka sezuvchanligini belgilaydi. Shuningdek, xatoliklarni kamaytirish va hisoblashning yuqori aniqligini ta’minlash zamonaviy tadqiqotlar va dasturiy ta’minotlarda

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

dolzarb masala hisoblanadi. Bu esa nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki muhandislik loyihalari, iqtisodiy modellashtirish va texnik simulyatsiyalarda ham aniq natijaga erishish imkonini beradi. Ushbu maqola raqamli usullarda hosila hisoblashning asosiy metodlarini tahlil qilish, xatoliklarni kamaytirish strategiyalarini ko‘rsatish va yuqori aniqlik metodlarini taqdim etishga qaratilgan.

Tadqiqot materiali va usullari:

Ushbu tadqiqotda raqamli usullarda hosila hisoblashning turli metodlari tahlil qilindi va ularning aniqligi hamda xatolikka sezuvchanligi o‘rganildi. Tadqiqot materiali sifatida quyidagi elementlar ishlatildi: Matematik ifodalar va funksiyalar: Sinus, kosinus, eksponensial, polinom va murakkab kombinatsiyalangan funksiyalar. Bu funksiyalar turli hosila hisoblash formulalarining aniqligini baholashda ishlatiladi. Oldingi farq formulasi (Forward Difference Method). Keyingi farq formulasi (Backward Difference Method). Markaziy farq formulasi (Central Difference Method). Yuqori aniqlikdagi differensiallash formulalari (Higher-Order Derivative Methods). Interpolatsion metodlar (Lagrange va Newton interpolatsiyasi). Xatolik tahlili: Har bir metodning hisoblash natijalaridagi xatoliklar aniqlik darajasi bilan solishtirildi. Xatoliklarni kamaytirish uchun kichik qadam uzunliklari va adaptiv differensiallash yondashuvlari qo‘llanildi. Hisoblash vositalari: MATLAB va Python dasturiy muhitlarida raqamli metodlar orqali hosilalar hisoblandi. Bu dasturiy vositalar yuqori aniqlikdagi hisoblash imkoniyatlarini ta’minladi va metodlarning samaradorligini baholash imkonini berdi. Tadqiqotning metodologiyasi quyidagicha amalga oshirildi: tanlangan funksiyalar uchun barcha numerik formulalar bo‘yicha hosilalar hisoblandi, natijalar analitik hosilalar bilan solishtirildi va har bir metodning xatolik darajasi aniqlab chiqildi. Shu orqali, xatoliklarni kamaytirish va yuqori aniqlikni ta’minlash bo‘yicha optimal metodlar belgilandi.

Natijalar:

Tadqiqot jarayonida raqamli metodlar yordamida turli funksiyalarning hosilalari hisoblandi va ularning aniqligi hamda xatolik darajasi solishtirildi. Olingan natijalar raqamli hisoblashning samaradorligi, xatolik manbalari va yuqori aniqlikka erishish imkoniyatlarini batafsil ko‘rsatdi. Oldingi va keyingi farq formulalari soddaligi bilan ajralib turadi, ammo ularning aniqligi qadam uzunligiga juda sezgir. Kichik qadamlar aniqlikni oshirsa-da, hisoblash vaqtini oshiradi va katta sonli nuqtalarda hisoblash resurslarini talab qiladi. Shu

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

bilan birga, bu formulalarda yuqori o‘zgaruvchanlikka ega funksiyalarda xatolik sezilarli darajada oshishi kuzatildi. Markaziy farq formulasi esa hisoblashda muvozanatni ta’minlaydi: u nafaqat oddiy formulalarga nisbatan yuqori aniqlik beradi, balki hisoblash resurslariga ham maqbul talab qo‘yadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, markaziy farq usuli o‘rta va kichik qadamlar uchun xatolikni minimal darajaga tushiradi va tezkor natija beradi. Yuqori tartibli formulalar murakkab va tez o‘zgaruvchi funksiyalar uchun juda samarali ekanligi aniqlangan. Ushbu metodlar yordamida hosilalarni hisoblashda xatolik sezilarli darajada kamayadi, shuningdek, natijalar analitik qiymatlar bilan deyarli mos keladi. Bunday formulalar, ayniqsa, yuqori aniqlik talab qilinadigan ilmiy va muhandislik hisoblashlarida muhim hisoblanadi. Diskret nuqtalar bo‘yicha berilgan funksiyalar uchun Lagrange va Newton interpolatsiyasi metodlari qo‘llanildi. Tadqiqot natijalari interpolatsion metodlar diskret ma’lumotlar asosida hosilani yuqori aniqlik bilan hisoblash imkonini berishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, interpolatsiya darajasi oshgani sayin ortiqcha osilatlar va hisoblash murakkabligi ham oshadi, bu esa xatolik manbai bo‘lishi mumkin. Xatolik asosan qadam uzunligi, metodning tartibi, funktsiyaning o‘zgarish tezligi va nuqtalar soniga bog‘liq. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, adaptiv qadam va yuqori tartibli metodlarni qo‘llash xatoliklarni sezilarli darajada kamaytiradi. Shu tarzda, hosila hisoblash natijalari yuqori aniqlikka ega bo‘ladi va muhandislik yoki ilmiy hisoblashlar uchun ishonchli bo‘ladi. MATLAB va Python muhitida metodlar sinovdan o‘tkazildi. Markaziy farq va yuqori tartibli differensiallash formulalari optimal natijani ta’minladi: ular minimal xatolik bilan tezkor hisoblashni amalga oshirdi. Shu bilan birga, interpolatsion metodlar diskret ma’lumotlar uchun mos bo‘lsa-da, katta nuqtalar sonida hisoblash tezligi kamayadi.

Muhokama:

Tadqiqot natijalari raqamli usullarda hosila hisoblashning samaradorligi va aniqligi haqida bir nechta muhim xulosalarni beradi. Avvalo, xatoliklarni kamaytirish va yuqori aniqlikni ta’minlash metod tanloviga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Oddiy oldingi va keyingi farq formulalari hisoblash tezligi jihatidan afzallik berishiga qaramay, murakkab va tez o‘zgaruvchi funksiyalar uchun etarli aniqlikni ta’minlay olmaydi. Bu esa amaliy hisoblashlarda natijalar ishonchliligiga ta’sir qilishi mumkin. Markaziy farq formulasi esa balansli yechim sifatida ajralib turadi. Tadqiqot ko‘rsatdiki, u nafaqat kichik va o‘rta qadamlarda minimal xatolikni beradi, balki hisoblash resurslariga ham optimal talab

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

qo‘yadi. Bu metodni murakkab muhandislik va ilmiy hisoblashlarda keng qo‘llash mumkin. Yuqori tartibli differensiallash formulalari esa xatoliklarni sezilarli darajada kamaytiradi va natijalarni analitik qiymatlar bilan deyarli moslashtiradi. Biroq, yuqori aniqlik bilan birga hisoblash murakkabligi ham oshadi. Shu sababli, amaliy qo‘llanmada metodning tanlovi hisoblashning tezligi va aniqlik talablariga bog‘liq bo‘ladi. Interpolatsion metodlar, xususan Lagrange va Newton interpolatsiyasi, diskret ma’lumotlar bo‘yicha hosilani hisoblashda yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Biroq, interpolatsiya darajasi oshgani sayin ortiqcha osilatlar va hisoblash murakkabligi ortadi. Shu sababli, interpolatsion metodlarni qo‘llashda diskret nuqtalar soni va interpolatsiya darajasini muvozanatlash muhim hisoblanadi. Tadqiqot davomida xatolik manbalari tahlil qilindi: qadam uzunligi, metod tartibi, funksiyaning o‘zgarish tezligi va nuqtalar soni asosiy omillar sifatida aniqlangan. Shu nuqtai nazardan, adaptiv qadamlar va yuqori tartibli formulalar xatoliklarni minimallashtirishga eng samarali strategiya sifatida ko‘rsatildi. Muhokama shuni ko‘rsatadiki, raqamli hisoblashlarda hosila aniqligi nafaqat metodga, balki hisoblash sharoitlariga va parametrlarning tanloviga bog‘liq. Shu sababli, amaliy va ilmiy hisoblashlarda optimal natijaga erishish uchun metodlar kombinatsiyasini tanlash va xatolik manbalarini kuzatib borish muhimdir.

Xulosa:

Ushbu tadqiqot raqamli usullarda hosila hisoblashning samaradorligi, aniqligi va xatoliklarni kamaytirish imkoniyatlarini tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki: Metod tanlovi muhimligi: Hosila hisoblashda metodning tanlovi natijaning aniqligi va xatolik darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Oddiy oldingi va keyingi farq formulalari tezkor bo‘lishiga qaramay, murakkab funksiyalar uchun aniqlik yetarli emas. Markaziy farq formulasi samaradorligi: Markaziy farq formulasi nafaqat yuqori aniqlik beradi, balki hisoblash resurslari talabini ham maqbul darajada saqlaydi. Shu sababli u amaliy hisoblashlar uchun optimal metod sifatida tavsiya etiladi. Yuqori tartibli differensiallash formulalari: Bu metodlar murakkab va tez o‘zgaruvchi funksiyalar uchun eng yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Biroq hisoblash murakkabligi va resurslar talabi oshadi, shuning uchun ularni tanlashda balansni saqlash zarur. Interpolatsion metodlarning qo‘llanishi: Diskret nuqtalar bo‘yicha hosila hisoblashda Lagrange va Newton interpolatsiyasi yuqori aniqlik beradi. Shu bilan birga, interpolatsiya darajasi va nuqtalar soni hisoblash samaradorligini belgilaydi. Xatoliklarni minimallashtirish strategiyalari: Adaptiv qadam

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

uzunligi va yuqori tartibli formulalarni qo‘llash xatoliklarni sezilarli darajada kamaytiradi va natijalarni ishonchli qiladi. Umuman olganda, tadqiqot raqamli usullarda hosila hisoblashda yuqori aniqlikni ta’minlash va xatoliklarni kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi. Bu metodlar matematik modellashtirish, muhandislik hisoblashlari va ilmiy tadqiqotlar jarayonida natijalarni optimallashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Burden, R. L., & Faires, J. D. (2011). Numerical Analysis. Brooks/Cole.

2. Chapra, S. C., & Canale, R. P. (2015). Numerical Methods for Engineers. McGraw-Hill Education.

3. Atkinson, K. E. (1989). An Introduction to Numerical Analysis. John Wiley & Sons.

4. Sauer, T. (2012). Numerical Analysis. Pearson.

5. Gerald, C. F., & Wheatley, P. O. (2004). Applied Numerical Analysis. Addison-Wesley.

6. Stoer, J., & Bulirsch, R. (2002). Introduction to Numerical Analysis. Springer.

7. Burden, R. L., & Faires, J. D. (2005). Numerical Methods. Thomson Brooks/Cole.

8. Isaacson, E., & Keller, H. B. (1994). Analysis of Numerical Methods. Dover Publications.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

CHIZIQLI TENGLAMALAR SISTEMALARINI YECHISH USULLARI

Xo‘jayeva Hamida Fayzulla qizi

Termiz iqtisodiyot va servis Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada chiziqli tenglamalar sistemalarini yechishning zamonaviy raqamli usullari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor to‘g‘ridan-to‘g‘ri metodlar (Gauss, Gauss-Jordan) va iteratsion metodlar (Jacobi, Gauss-Seidel, relaxatsiya metodlari)ning samaradorligi va aniqligiga qaratilgan. Tadqiqotda turli usullar yordamida sistemalarning yechimlari hisoblandi, xatoliklar va hisoblash samaradorligi solishtirildi. Natijalar chiziqli tenglamalar sistemalarini yechishda metod tanlash va hisoblash samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi. Ushbu maqola matematika, muhandislik hisoblashlari va ilmiy tadqiqotlarda chiziqli tenglamalar sistemalarini samarali yechish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Chiziqli tenglamalar sistemi, Gauss metodi, Gauss-Jordan metodi, Jacobi metodi, Gauss-Seidel metodi, iteratsion metodlar, raqamli yechim, xatolik tahlili

Kirish

Chiziqli tenglamalar sistemalari (CTS) zamonaviy matematika va muhandislik hisoblashlarining ajralmas qismi bo‘lib, ular fizik, iqtisodiy, kimyoviy va texnik jarayonlarni modellashtirishda keng qo‘llaniladi. Katta o‘lchamli CTS’larni aniq va samarali yechish amaliy masalalarda bevosita natijalarning ishonchliligi va hisoblash resurslarining optimal ishlatilishiga bog‘liq. Shu sababli CTS’larni yechish metodologiyasi nafaqat matematik tahlil, balki algoritmik optimizatsiya va raqamli hisoblash yondashuvlarini o‘zida mujassamlashtiradi. An’anaviy to‘g‘ridan-to‘g‘ri metodlar, masalan, Gauss va Gauss-Jordan eliminatsiyasi, kichik va o‘rta o‘lchamdagi sistemalarda aniqlikni kafolatlaydi, ammo katta o‘lchamli va zich sistemalarda ularning hisoblash murakkabligi sezilarli darajada oshadi. Shu sababli iteratsion metodlar, xususan Jacobi, Gauss-Seidel va relaxatsiya metodlari, hisoblash samaradorligini oshirish, xotira talablari va xatoliklarni minimallashtirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

tashqari, CTS yechish jarayonida raqamli xatoliklar, shuningdek, algoritmlarning barqarorligi va konvergensiya tezligi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonlarni chuqur tahlil qilish va metodlarning aniqligi hamda hisoblash samaradorligini solishtirish amaliy va nazariy jihatdan katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola chiziqli tenglamalar sistemalarini yechishning turli metodlarini tahlil qilish, ularning samaradorligi va xatolik darajasini baholash, shuningdek amaliy qo‘llanilishi uchun tavsiyalar berishga qaratilgan.

Tadqiqot materiali va usullari:

Ushbu tadqiqotda chiziqli tenglamalar sistemalarini yechishning turli metodlari tahlil qilindi va ularning aniqligi, barqarorligi hamda hisoblash samaradorligi baholandi. Tadqiqot materiali sifatida turli o‘lchamdagi CTS’lar ishlatildi, jumladan: kichik (3–5 tenglama), o‘rta (10–20 tenglama) va katta o‘lchamli (50–100 tenglama) sistemalar. Ushbu tizimlar haqiqiy amaliy masalalardan olingan yoki tasodifiy generatsiya qilingan matritsalar yordamida sinovdan o‘tkazildi. Gauss eliminatsiyasi – sistemani yuqoridan pastga qayta ishlash orqali yechim topadi va analitik aniqlikka yaqin natija beradi. Gauss-Jordan metodi – matritsani to‘liq qayta ishlash orqali yechimni topadi va barcha o‘zgaruvchilarni bir vaqtning o‘zida aniqlaydi. Jacobi metodi – har bir o‘zgaruvchini oldingi iteratsiya qiymatlari asosida yangilaydi va tizim diagonalli yoki shartli shartlarga mos bo‘lganda samarali ishlaydi. Gauss-Seidel metodi – Jacobi metodining optimizatsiyalashgan shakli bo‘lib, iteratsiya davomida yangilangan qiymatlarni darhol hisoblashda qo‘llaydi. Relaxatsiya metodlari (SOR – Successive Over-Relaxation) – iteratsion jarayonni tezlashtirish va konvergensiyani oshirish uchun qo‘shimcha parametrlar bilan ishlaydi. Har bir metod bo‘yicha yechimlar aniqlik va xatolik darajasi bilan baholandi. Xatoliklarni kamaytirish uchun iteratsion metodlarda tolerans qiymatlari (ε) va maksimal iteratsiya soni optimallashtirildi. Shu bilan birga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri metodlar uchun matritsaning condition number qiymati aniqligi va barqarorlikni baholashda asosiy indikator sifatida ishlatildi. Tadqiqot MATLAB va Python (NumPy va SciPy kutubxonalari) dasturiy muhitlarida amalga oshirildi. Bu muhitlar katta o‘lchamli CTS’larni yechishda samaradorlik va aniqlikni ta’minlashga imkon berdi. Tadqiqotning asosiy metodologiyasi quyidagicha: turli o‘lchamdagi CTS’lar tanlandi, har bir metod yordamida yechimlar hisoblandi, natijalar

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

xatolik, konvergensiya tezligi va hisoblash samaradorligi nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Shu tarzda, metodlarning amaliy qo‘llanilishi va optimal yechim strategiyalari aniqlangan.

Natijalar: Tadqiqot jarayonida turli o‘lchamdagi chiziqli tenglamalar sistemalari (CTS) uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri va iteratsion metodlar yordamida yechimlar hisoblandi. Natijalar metodlarning aniqligi, konvergensiya tezligi va hisoblash samaradorligini aniq ko‘rsatdi. Gauss eliminatsiyasi kichik va o‘rta o‘lchamli sistemalarda yuqori aniqlik bilan yechim berdi. Katta sistemalarda hisoblash murakkabligi sezilarli oshdi, ammo yechim barqarorligida sezilarli pasayish kuzatilmadi. Gauss-Jordan metodi barcha o‘zgaruvchilarni bir vaqtning o‘zida topish imkonini berdi, natijalar aniq va xatolik darajasi minimal bo‘ldi. Shu bilan birga, katta o‘lchamli sistemalarda hisoblash vaqti sezilarli oshdi. Jacobi metodi kichik va o‘rta sistemalarda samarali ishladi, ammo katta sistemalarda konvergensiya sekinlashdi. Gauss-Seidel metodi Jacobi metodiga nisbatan tezroq konvergensiya ko‘rsatdi va xatolik minimal darajada saqlandi. Relaxatsiya metodlari (SOR) iteratsion jarayonni sezilarli tezlashtirdi, optimal relaxatsiya parametri tanlanganda katta sistemalar uchun ham yuqori aniqlik va tez konvergensiya ta’minlandi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri metodlar analitik yechimga yaqin natija berdi, lekin hisoblash resurslari talabini oshirdi. Iteratsion metodlarda xatolik darajasi parametrlar (tolerans, relaxatsiya koeffitsienti) bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlangan. Optimal parametrlar tanlanganda xatolik minimal bo‘ldi.Katta o‘lchamli CTS’larda iteratsion metodlar resurslarni tejash va yechim topish tezligini oshirishda samarali ekanligi ko‘rsatildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, CTS’larni yechishda metod tanlovi tizim o‘lchami, hisoblash resurslari va aniqlik talablari bilan belgilanadi.

Muhokama: Tadqiqot natijalari chiziqli tenglamalar sistemalarini yechishning turli metodlari samaradorligi va aniqligi haqida chuqur xulosalar beradi. Avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri metodlar (Gauss va Gauss-Jordan) kichik va o‘rta o‘lchamli sistemalarda yuqori aniqlik va barqaror yechim beradi, ammo katta sistemalarda hisoblash resurslari va vaqt talabini sezilarli oshiradi. Shu sababli ularning katta o‘lchamli amaliy masalalarda qo‘llanishi cheklangan. Iteratsion metodlar, xususan Jacobi, Gauss-Seidel va relaxatsiya (SOR) metodlari, katta o‘lchamli sistemalarda samarali yechim beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Gauss-Seidel va SOR metodlari iteratsion jarayonni tezlashtiradi, konvergensiya tezligini oshiradi va xatolikni minimal darajaga tushiradi. Shu bilan birga, iteratsion metodlarda parametrlarning (masalan, relaxatsiya koeffitsienti va tolerans

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

qiymati) optimal tanlovi yechim sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, CTS’larni yechishda metod tanlovi tizimning o‘lchami, zichligi, yechim aniqligi va hisoblash resurslari talablariga bog‘liq. Shu bilan birga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va iteratsion metodlarning kombinatsiyasi, masalan, kichik o‘lchamdagi sub-sistemalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, katta o‘lchamli sub-sistemalarni iteratsion metodlar yordamida yechish, hisoblash samaradorligini va aniqligini maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida xatolik manbalari batafsil tahlil qilindi. Xatoliklar asosan: qadam soni, iteratsiya chegaralari, relaxatsiya koeffitsienti va matritsaning condition number qiymatiga bog‘liq ekanligi aniqlangan. Shu nuqtai nazardan, CTS yechimlarini optimallashtirish uchun metod tanlovi va parametr sozlamalari muhim strategik ahamiyatga ega.

Xulosa: Ushbu tadqiqot chiziqli tenglamalar sistemalarini yechishning turli metodlarini tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki: To‘g‘ridan-to‘g‘ri metodlar (Gauss, Gauss-Jordan) kichik va o‘rta o‘lchamli sistemalarda yuqori aniqlik bilan yechim beradi, lekin katta sistemalarda hisoblash resurslari talabini oshiradi. Shu sababli, ular kichik va o‘rta o‘lchamli amaliy masalalarda maqbul hisoblanadi. Iteratsion metodlar (Jacobi, Gauss-Seidel, SOR) katta va zich sistemalarda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi. Optimal parametrlar tanlanganida, xatolik minimal bo‘ladi va konvergensiya tezligi oshadi. Shu bilan birga, iteratsion metodlar resurslarni tejash va hisoblash tezligini oshirish imkonini beradi. Metod tanlovi va parametr optimizatsiyasi yechimning aniqligi va hisoblash samaradorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Kichik sistemalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri metodlar, katta sistemalarda iteratsion metodlarning qo‘llanilishi amaliy jihatdan eng maqbul yondashuvdir. Umuman olganda, tadqiqot CTS yechishda metodlar tanlovi, xatoliklarni minimallashtirish va hisoblash samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi. Bu natijalar matematika, muhandislik hisoblashlari va ilmiy tadqiqotlarda CTS’larni samarali yechish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Burden, R. L., & Faires, J. D. (2011). Numerical Analysis. Brooks/Cole.

2. Chapra, S. C., & Canale, R. P. (2015). Numerical Methods for Engineers. McGraw-Hill Education.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

3. Atkinson, K. E. (1989). An Introduction to Numerical Analysis. John Wiley & Sons.

4. Gerald, C. F., & Wheatley, P. O. (2004). Applied Numerical Analysis. Addison-Wesley.

5. Saad, Y. (2003). Iterative Methods for Sparse Linear Systems. SIAM.

6. Isaacson, E., & Keller, H. B. (1994). Analysis of Numerical Methods. Dover Publications.

7. Stoer, J., & Bulirsch, R. (2002). Introduction to Numerical Analysis. Springer.

8. Golub, G. H., & Van Loan, C. F. (2013). Matrix Computations. Johns Hopkins University Press.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

BRUTSELLYOZ KASALLIGINING HAYVONLARDAN ODAMLARGA YUQISHI.

Azimjonov Mirjahon Azamatovich
TDTUTF talabasi
azimjonovmirjahon@gmail.com
Telefon raqami:+99893 990 10 21
Maxmudov Farhod Baxodir o`g`li
TerDMAU talabasi
farxodmaxmudov@gmail.com
Telefon raqami:+99893 215 53 06
To`lqinov O`rolbek Elbekovich
TDTUTF talabasi
tolqinovorolbek48@gmail.com
Telefon raqami:+99891 721 82 07
Isroilov Mirshod Xolmurodovich
TDTUTF talabasi
isroilovmirshod497@gmail.com
Telefon raqami:+99894 531 44 43

ANNOTATSIYA: *Mazkur ishda brutsellyoz (brusellyoz) kasalligi, uning tarixi, etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, yuqish yo‘llari va profilaktik choralari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Brutsellyoz — zoonoz kasallik bo‘lib, u Brucella turiga mansub bakteriyalar bilan chaqiriladi. Kasallik chorva hayvonlaridan odamlarga asosan ovqat, kontakt, nafas olish yoki vertikal yo‘llar orqali yuqadi. Kasallik uzoq davom etuvchi, ko‘p tizimli shikastlanish bilan kechadi hamda iqtisodiy va sanitariya jihatdan katta zarar yetkazadi.*

Ishda kasallikning qo‘zg‘atuvchilari, yuqish mexanizmi, klinik ko‘rinishlari, aniqlash usullari va oldini olish choralari keltirilgan. Profilaktika choralariga hayvonlarni emlash, kasal hayvonlarni ajratish, shuningdek sut mahsulotlarini qaynatish, shaxsiy gigiyena va mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish kiradi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Kalit so‘zlar: *Brutsellyoz, Brucella melitensis, zoonoz infektsiya, hayvonlardan odamlarga yuqish, patogenez, isitma, profilaktika, bakteriya, surunkali yallig‘lanish, emlash, gigiyena.*

Brutsellyoz (lot. brucellosis), qora oqsoq — zoonoz infektsiya, kasallangan hayvonlardan odamlarga yuqadi va inson organizmining a’zolari va tizimlariga ko’plab shikast yetkazishi bilan tavsiflanadi.1886 yilda ingliz olimi Devid Bryus tomonidan aniqlangan. Olimning sharafiga mikroblar brutsella, ular chaqiradigan kasallik esa brutsellyoz deb nomlangan. Brutsellyoz — bu zoonoz turdagi, ya’ni hayvonlardan odamga yuqadigan yuqumli kasallik bo‘lib, u Brucella turiga mansub bakteriyalar bilan chaqiriladi. Kasallik odamlarda va turli chorva hayvonlarida uchraydi, iqtisodiy zarar yetkazadi hamda sog‘liq uchun xavfli hisoblanadi. Brutsellyozning qo‘zg‘atuvchisi — Brucella bakteriyasi. Ular harakatsiz, sporalar hosil qilmaydigan, hujayra ichi parazitlardir. Brutsellyozning qo’zg’atuvchilari — brucella avlodiga mansub, hujayra ichida parazitlik qila oladigan grammanfiy bakteriyalardir. Brutsellyozning 6 tur qo’zg’atuvchisi va 17 ta biovari aniqlangan. Odamlar uchun uchtasi pathogen ya`ni yuqush ehtimoli baland hisoblanadi:

- Mayda shoxli mollar: echki, qo’ylar brutsellyozi qo’zg’atuvchisi (Brucella melitensis);

-Yirik shoxli qoramollar: sigir brutsellyozi qo’zg’atuvchisi (Brucella abortus);

-Cho’chqalar brutsellyozi qo’zg’atuvchisi (Brucella suis).

-ba’zi manbalarda itlar brutsellyozi qo’zg’atuvchilari (Brucella canis) ham inson uchun xavfli deb ko’rsatilgan.

Hayvonlar brutsellyoz bakteriyalarini sut, siydik, amniotik suyuqlik orqali tarqatadi. Stomaxys calcitrans pashshasi ham brutsellyoz tashuvchisi hisoblanadi. Asosan surunkali isitma, bo‘g‘im og‘rishlari, asab, jigar, yurak va reproduktiv tizim zararlanishi bilan kechadi.

Kasallik insonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita hayvonlardan yuqadi. Bunda brutsellyoz bilan kasallangan hayvondan insonga kasallangan hayvon mahsulotlari orqali yuqishi mumkin. Bundan tashqari misol qilib quydagilarni keltirishimiz mumkin: siydik, najas, urug‘ suyuqligi, tug‘ruq paytidagi oqimlar (yo‘ldosh, suyuqliklar) bilan ajratadi.

Odamga kasallikning asosiy yuqish yo‘llari:

1. Ovqat orqali (alimentar yo‘l):

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Eng keng tarqalgan yuqish yo‘li bo`lib qaynatilmagan sut yoki xom sutdan tayyorlangan mahsulotlar (qaymoq, pishloq, yogurt) orqali. Bu mahsulotlarda Brucella bakteriyasi sutda 10 kun, sovitilgan holatda esa 30 kungacha yashay oladi.

2. Teri orqali (kontakt yo‘l):

Kasal hayvonning qoni, najasi, yo‘ldoshi yoki tug‘ruq suyuqligi bilan qo‘l, yara yoki tirnalgan joy orqali.Bu yo‘l asosan veterinarlar, chorvadorlar, sog‘uvchilar, so‘yuvchilar orasida uchraydi.

3. Nafas yo‘li orqali (aerozol yo‘l):

Brucella bakteriyalari chang, hayvon terisi, jun, go‘sht bilan muomalada bo‘lganda havoga ko‘tarilib, nafas yo‘li orqali tanaga kirishi mumkin. Bu yo‘l laboratoriya xodimlari, so‘yish korxonalari ishchilari uchun xavfli.

4. Vertikal (ona va bola) yoki jinsiy yo‘l

Kam holatlarda kasal onadan bolaga tug‘ruq vaqtida yoki emizish orqali yuqadi. Shuningdek, erkaklardan ayollarga jinsiy aloqa orqali o‘tish holatlari ham aniqlangan.

Kasallik rivojlanish (patogenez). Brusellyoz yuqtirilgan odamda kasallik alomatlari odatda 1 haftadan 3 haftagacha (ba’zan 1 oygacha) vaqt o‘tgach sezila boshlaydi ya’ni, inkubatsion davri — 7 kundan 21 kungacha, ayrim hollarda 60 kungacha davom etadi. Bakteriya tanaga kirgach, limfa tugunlari orqali qon oqimiga o‘tadi. Qonda ko‘payib, jigar, taloq, suyak iligi, bo‘g‘imlar va asab tizimiga joylashadi. Bu joylarda surunkali yallig‘lanish o‘choqlari hosil qiladi. Natijada tana harorati ko‘tariladi, bo‘g‘im og‘rishlari, charchash, uyqusizlik, terlash paydo bo‘ladi. Odamlarda brutselyoz belgilari quydagicha kichadi:

- 38–40°C gacha isitma
- Bo‘g‘im, bel va mushak og‘rishlari
- Teri osti limfa tugunlarining kattalashishi
- Taloq va jigar kattalashishi
- Charchoq, bosh og‘rishi, uyqusizlik
- Ba’zida reproduktiv tizim (ayollarda abort, erkaklarda orxit) zararlanadi

Kasallik o‘tkir (1–2 oy) yoki surunkali (6 oydan ortiq) shaklda kechishi mumkin.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Kasallikni aniqlash usullari: Qon tahlili (Brucella antitellari yoki bakteriyasi), Serologik testlar (RA, RBT, ELISA), Madaniyat o‘stirish (bakteriologik aniqlash), PCR testi (eng aniq usul).

Hayvonlar orasida bu kasallikni oldini olish maqsadida Brutselyozga qarshi emlash (vaksinatsiya) – *Rev-1* yoki *S19* vaksinasi, kasal hayvonlarni ajratish va yo‘qotish, tug‘ruq, so‘yish va hayvon chiqindilarini dezinfeksiya qilish kabi chora tadbirlar ko`riladi.

Odamlar uchun esa sutni qaynatib yoki pasterizatsiya qilib iste’mol qilish, qo‘lqop, niqob, maxsus kiyim ishlatish (chorvadorlar, veterinarlar uchun), hayvonlar bilan ishlagandan so‘ng qo‘lni sovun bilan yuvish, laboratoriya xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya qilish kerak.

Bu kasallik O‘zbekistonda asosan cho‘l va tog‘ oldi hududlarida (suruvli chorvachilik joylarida) uchraydi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotiga ko‘ra, har yili dunyoda 500 mingdan ortiq odam brutselyoz bilan kasallanadi. Eng xavfli turi – *Brucella melitensis* (echkilardan yuqadigan) hisoblanadi.

Xulosa: Brutselyoz — bu hayvonlardan odamlarga yuqadigan, uzoq davom etuvchi, ko‘p tizimli kasallik bo‘lib, profilaktika choralari (sutni qaynatish, hayvonlarni emlash, gigiyena) uning oldini olishda asosiy omil hisoblanadi. Vaqtida aniqlansa, antibiotiklar bilan (tetratsiklin, rifampitsin va boshqalar) to‘liq davolash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Devid Bryus D. “The Discovery of Brucella melitensis”, *British Medical Journal*, 1887.
2. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). *Brucellosis in humans and animals*, Geneva, 2006.
3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. “Brutselyoz profilaktikasi bo‘yicha sanitariya qoidalari”, Toshkent, 2021.
4. Yuldashev A.A., To‘xtayev Sh.R. “Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiya”, Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
5. Axmadjonov M. va boshqalar. “Yuqumli kasalliklar”, Toshkent tibbiyot akademiyasi nashriyoti, 2020.
6. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). “Brucellosis (Brucella spp.) – Epidemiology and Prevention”, Atlanta, 2022.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK JIHATLARI

Xudayberdiyeva Zulfizar Muxtojon qizi – Nizomiy nomidagi O‘zMPU *“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (Boshlang’ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti*
zulfizarxudayberdiyeva5@gmail.com tel.(+998)-33-129-22-02

Annotatsiya: *Ushbu maqola boshlang'ich sinf matematika darslarida sun'iy intellektdan foydalanishning didaktik imkoniyatlari va metodologik jihatlarini kompleks tahlil qiladi. U Sun’iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, o'quvchilarning matematik tushunchalarini chuqurlashtirish va o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashdagi salohiyatini ko'rib chiqadi.*

Kalit so’zlar: *Boshlang‘ich sinf, shaxsiylashtirilgan ta’lim, zamonaviy dars, matematika, sun’iy intellekt, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, integratsiya, fanlararo integratsiya*

Аннотация: В статье представлен комплексный анализ дидактических возможностей и методических аспектов использования искусственного интеллекта на уроках начальной математики. Рассматривается потенциал инструментов искусственного интеллекта для персонализации образовательного процесса, углубления математических знаний учащихся и поддержки профессиональной деятельности учителей.

Ключевые слова: *Начальная школа, Ассоциация персонализированного обучения, современный урок, математика, искусственный интеллект, инновации, инновационные межпредметная интеграция.*

Annotation:*This article provides a comprehensive analysis of the didactic possibilities and methodological aspects of using artificial intelligence in elementary mathematics classes. It examines the potential of artificial intelligence tools to personalize the educational process, deepen students' mathematical understanding, and support teachers' professional activities.*

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Key words: Primary school, association of personalized education, modern lesson, mathematics, artificial intelligence, innovation, innovative technologies, integration, interdisciplinary integration.

Hozirgi axborot asrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri texnologik inqilobning shiddatli sur'atlarda rivojlanishi bo'lib, sun'iy intellekt bu jarayonning eng muhim harakatlantiruvchi omillaridan biridir. Ta'lim sohasida, xususan, boshlang'ich ta'limda Sun'y intellekt ning integratsiyasi o'quv jarayonini tubdan o'zgartirish va yangi didaktik imkoniyatlar yaratish salohiyatiga ega. Matematika ta'limi, o'zining abstrakttigi va mantiqiy fikrlashni talab qilishi bilan, Sun'iy intellekt vositalarini qo'llash uchun ayniqsa sermahsul maydon hisoblanadi. O'zbekistonning ta'lim tizimi ham ushbu global tendensiyalardan chetda qolmay, Sun'iy intellekt texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish yo'lida muhim qadamlar tashlamoqda. Ushbu maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf matematika darslarida sun'iy intellektdan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish, metodologik jihatlarni o'rganish hamda bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularning yechimlarini belgilashdir. Asosiy e'tibor Sun'iy intellektni shunchaki texnologik vosita sifatida emas, balki o'quvchilarning o'rganish tajribasini boyituvchi, ularning kognitiv va affektiv rivojlanishiga hissa qo'shuvchi didaktik resurs sifatida ko'rib chiqishga qaratilgan. Maqola, shuningdek, o'qituvchilarning Sun'iy Intellektni samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan kompetensiyalari va kasbiy rivojlanishining ahamiyatini yoritadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Sun'iy intellektning ta'limdagi didaktik salohiyati tobora ko'proq tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. Ko'plab adabiyotlar Sun'iyi ntellektga asoslangan vositalarning o'quv jarayonini shaxsiylashtirishda va o'quvchilarga moslashtirilgan ta'lim tajribalarini taqdim etishda katta imkoniyatlarga ega ekanligini ta'kidlaydi. Intelligent Tutoring Systems kabi tizimlar o'quvchilarga moslashtirilgan o'quv yo'nalishlarini taklif etadi, real vaqt rejimida moslashuvchan fikr-mulohazalar beradi va ularning matematik yutuqlarini kuzatib boradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu tizimlar, ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilar uchun o'quv samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Sun'iy intellekt platformalari murakkab matematik tushunchalarni oson tushuniladigan bosqichlarga ajratib, arifmetikadan tortib, murakkab hisoblashlargacha

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

bo'lgan mavzularni qo'llab-quvvatlaydi. Kamera orqali ishlaydigan yechim topuvchilar kabi innovatsion yondashuvlar vizual ma'lumotlar asosida bosqichma-bosqich yechimlarni taqdim etib, o'quvchilarga abstrakt g'oyalarni tushunishga yordam beradi. Ba'zi tizimlar hatto o'quvchilarga Sun'iy intellekt hamkasblariga muammolarni hal qilishda yo'naltirish imkoniyatini beradi, bu esa ularning tushunchalarini chuqurlashtiradi.

Milliy Matematika o'qituvchilari kengashi sun'iy intellektga asoslangan vositalar, ayniqsa generative sun'iy intellekt, o'quvchilarning fikrlash tarziga va qiziqishlariga javob berish, masalalarni shaxsiylashtirish va noto'g'ri javoblardan tushunchani aniqlash orqali matematika o'qitishni sezilarli darajada yaxshilashi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu vositalar o'qituvchi yordamchisi sifatida xizmat qilishi va turli xil baholash savollarini yaratish kabi vazifalarni soddalashtirishi mumkin. Shu bilan birga, Sun'iy Intellekt o'quvchilarning matematika bezovtaligini (matematika anksiyetasi) kamaytirishda, ularning o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini, nazorat hissini va matematikaga bo'lgan qadriyatini oshirishda yordam berishi mumkin. Bu esa o'qituvchi-o'quvchi o'zaro munosabatlarini o'zgartirib, samarali ta'lim tajribalariga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola boshlang'ich sinf matematika darslarida sun'iy intellektdan foydalanishning didaktik imkoniyatlari va metodologik jihatlarini o'rganish uchun mavjud ilmiy adabiyotlarni sintez qilish va tanqidiy tahlil qilishga asoslanadi. Maqola empirik tadqiqot natijalarini emas, balki nazariy konsepsiyalarni, mavjud texnologiyalar imkoniyatlarini va ekspert xulosalarini umumlashtirishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi: muammoni aniqlash, tegishli adabiyotlarni (ilmiy maqolalar, hisobotlar, ta'lim standartlari) tizimli ko'rib chiqish, Sun'iy intellektning didaktik salohiyatini tahlil qilish, Sun'iy Intellektni integratsiya qilishning metodologik yondashuvlarini ishlab chiqish, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi bo'yicha tavsiyalar berish hamda axloqiy va amaliy muammolarni baholash.

Sun'iy intellekt vositalarining matematika darslarida qo'llashning metodologik yondashuvlari:

Sun'iy intellektni boshlang'ich sinf matematika darslariga samarali integratsiya qilish bir qator metodologik yondashuvlarni talab qiladi. Birinchidan, Sun'iy Intellekt vositalarini o'quvchilarning shaxsiylashtirilgan o'rganish ehtiyojlariga javob beradigan tarzda qo'llash muhim. Intelligent Tutoring Systems kabi platformalar har bir o'quvchining o'zlashtirish

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

tezligini va uslubini hisobga olgan holda moslashtirilgan o'quv yo'nalishlarini yaratishi mumkin. Bu o'quvchilarga qiyin mavzularni o'zlashtirishda qo'shimcha yordam beradi va ularning matematik qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik imkoniyatlarning keng imkoniyatlarini taklif etadi. U shaxsiylashtirilgan ta’lim, moslashuvchan fikr-mulohaza, murakkab tushunchalarni soddalashtirish va o'qituvchilar uchun qimmatli tahliliy ma'lumotlar taqdim etish orqali o'quv jarayonini sezilarli darajada boyitishi mumkin. Sun’iy intellekt matematikaga bo'lgan bezovtalikni kamaytirish va o'quvchilarning o'z qobiliyatlariga ishonchini oshirishda ham salmoqli rol o'ynashi mumkin. Biroq, Sun’iy Intellektni muvaffaqiyatli integratsiya qilish o'qituvchilarning chuqur pedagogik, matematik va texnologik bilimlariga, shuningdek, ularning Sun’iy Intellekt mahsulotlarini tanqidiy baholash ko'nikmalariga bog'liqdir. Axloqiy masalalar, jumladan, tarafkashlik, tenglik va o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlariga ta'siri doimiy diqqat markazida bo'lishi kerak. Insonning professional ekspertizasi va o'qituvchining rahbarlik roli har qanday Sun’iy Intellekt yechimining markazida qolishi shart. Kelajak istiqbollari Sun’iy Intellektning boshlang'ich ta'limdagi rolini yanada chuqur o'rganishni talab etadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
2. Davletshin, M. G., va boshqalar. (2021). Matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan. (An’anaviy va zamonaviy matematika metodikasi).
3. I-IV- sinflar uchun matematikadan qiziqarli masala va topshiriqlar to‘plami o‘quv uslubiy qullanma // S.Meyliyev, M.Xolmuradova, S. Xolmuradov. Toshkent. “O‘qituvch” nashriyoti 2024y.-119b
4. Artificial intelligence in mathematics education: a systematic review – https://www.uniciencia.ac.cr/ojs/index.php/uniciencia/article/view/1745

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

5. Artificial intelligence in mathematics education: a systematic review – https://www.uniciencia.ac.cr/ojs/index.php/uniciencia/article/view/1745
6. Factors Influencing Artificial Intelligence Adoption in Primary Mathematics Education: An Integrated TAM and TPACK Model – https://doi.org/10.1186/s41239-024-00465-w
7. Beyond Hype: Critically Assessing AI in Education to Combat Mathematics Anxiety and Foster Pragmatic Solutions – https://doi.org/10.1007/s10639-022-11440-x
8. UNESCO (2019). AI and education: Guidance for policy-makers – https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000370416

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

ИЗУЧЕНИИ ГРАФИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИНЫ СТУДЕНТОВ ЗНАКОМСТВО ПРИНЦИПАМИ РАБОТ С AutoCAD

Хакимова Нилуфар Жураевна
старший преподаватель
Ташкентского Государственного Транспортного Университета,
Узбекистан, г. Ташкент

INTRODUCING STUDENTS TO AUTOCAD WORKING PRINCIPLES IN THE STUDY OF GRAPHICS

Nilufar Zhuraevna Khakimova
Senior Lecturer
Tashkent State Transport University,
Tashkent, Uzbekistan

АННОТАЦИЯ

Знакомство с принципами работы AutoCAD основными приемами использования меню, командной строки, панели инструментов, строки состояния. Использованию основных команд AutoCAD: Circle, Line, Offset, Mirror, Trim, Erase.

ABSTRACT

Introduction to AutoCAD operating principles, including basic menu usage, command line, toolbars, and the status bar. Basic AutoCAD commands: Circle, Line, Offset, Mirror, Trim, and Erase.

Ключевые слова: меню, командной строки, панели инструментов, строки состояния

Keywords: menu, command line, toolbars, status bar

Особенности дисциплины «Черчение и компьютерная графика» знакомство с принципами работы AutoCAD. При изучении графических дисциплин студент выполняет самостоятельно большой объем чертежей по индивидуальным заданиям. На эту работу затрачивается значительное учебное и внеучебное время. Поэтому

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

очень важно так организовать ее, чтобы при минимальных затратах времени получить надлежащие результаты.

Новый вид занятий для вчерашнего школьника.Занимает важное ведущее место в учебном процессе, так как дает первичную информацию о предмете и указания по его дальнейшему изучению.Теоретических положений,типовые задачи и примеры, советует, как организовать самостоятельную работу по углублению и расширению знания.Самый напряженный вид занятий.Особенно относится к графическим дисциплинам, так как внимание студентов распределяется по нескольким направлениям: слушать, смотреть на доску (плакаты, модели), записывать текстовый материал, вычерчивать и понимать.Короткое время обычно излагается большой материал, особенно графический. Опоздания на занятия и их пропуски приводят к непониманию последующего материала и к потере интереса к учебе, поскольку разрывается цепочка логической взаимосвязи частей предмета. К этому же приводят невнимательность и посторонние разговоры. Текст записывается авторучкой, а чертежи и обозначения на них выполняются карандашом марки "М".Графические элементы (линии, фигуры) обводятся красным карандашом.Необходимо также приносить циркуль, линейку и стирательную резинку.

Полноценный составляется не только на самих лекциях, но и дома, после них. Причем желательно заниматься этой работой в тот день, когда была прочитана данная лекция. Учитывая, что в большинстве потоков лекции читаются через неделю, важно своевременно закрепить изложенный материал, осмыслить все графические построения. Самостоятельная работа над конспектом заключается в следующем:

– поэтапно согласно плану внимательно просмотреть его и отметить неясные места (в изображениях, тексте, обозначениях);

– используя учебник, внести исправления и дополнения в текст, особенно в чертежах;

– мелкие неясные рисунки и наглядные изображения перечертить на чистых листах клетчатой бумаги, пронумеровать рисунки и подклеить в конспект.

Цель работы: знакомство с принципами работы AutoCAD основными приемами использования меню, командной строки, панели инструментов, строки состояния.По использованию основных команд AutoCAD: Circle, Line, Offset, Mirror, Trim, Erase. Изучение базовых технологий построения и редактирования рисунков в AutoCAD.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Запуск AutoCAD в среде операционных систем Windows После включения компьютера ОС Windows загружается автоматически, и на экране появляется рабочий стол. ОС Windows предлагает пользователю несколько способов запуска программы, простейшим из которых является двойной щелчок мышью на соответствующем ярлыке. Система загрузится, загрузит свое меню и может вывести на экран диалоговое окно Start Up (Запуск). Функционально аналогичное окно Create New Drawing (Создать новый чертеж) можно открыть через системное меню File –> New… (Файл –> Новый …) (рис.1). В этом окне можно выбрать одну из предлагаемых опций: – Use a Wizard (Использовать мастер) запускает процесс установки параметров чертежа под управлением специального мастера; – Use Template (Использовать шаблон) использует ранее созданный шаблон чертежа; – Start from Scratch (Без шаблона) позволяет начать новый чертеж спараметрами, которые AutoCAD устанавливает по умолчанию.



Рис. 1. Create New Drawing

Если предполагается продолжить работу с уже существующим чертежом, следует выбрать опцию Open a Drawing (Открыть чертеж). Рабочий экран AutoCAD На экране можно выделить четыре функциональные зоны (рис. 2).

Графическая зона. Это большая пустая зона в середине экрана. Именно в ней вы будете наносить элементы чертежа. Эта зона может иметь произвольные размеры. В левом нижнем углу графической зоны находится пиктограмма UCS (User Coordinate

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

System – Пользовательскаясистема координат), направление стрелки пиктограммы совпадает с положительным направлением системы координат.

Обратите внимание на две прямые линии в графической зоне экрана с небольшим прямоугольником в области их пересечения. Этот маленький прямоугольник называется прицелом, поскольку он служит для показа и выбора графических элементов чертежа. Пара же пересекающихся линий называется перекрестием. Подвигайте мышью и вы увидите, как на экране прицел и перекрестие отслеживают ваше движение в графической зоне.



Рис. 2. Рабочий экран AutoCAD

Строка состояния. В самом низу экрана находится строка состояния. Слева в строке состояния выведены текущие координаты ***X, Y*** перекрестия. Они изменяются по мере перемещения перекрестия с помощью мыши в пределах графической зоны экрана. Меню и панели инструментов. Вверху экрана находится строка заголовка, а сразу под ней строка системного меню. Ниже меню располагаются две строки,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

которые заняты панелями инструментов. Кроме того, имеются еще несколько панелей инструментов. Эти панели плавающие. Их можно переместить в любую удобную зону экрана. Панели инструментов позволяют запускать выполнение команд AutoCAD простым щелчком мыши на выбранной пиктограмме.

В AutoCAD имеются панелей инструментов. А если в их число включить выдвижные, то общее число вырастет до 50. При стандартной компоновке экрана перед вами только четыре панели инструментов – Standart (Стандартная), Object Properties (Свойства объектов), Draw (Рисование), Modify (Редактирование). Остальные могут быть открыты при необходимости. Командная строка. В нижней части экрана AutoCAD располагается отдельное окно, в котором умещается приблизительно три строки текста. Обратите внимание на слово Command: (Команда:). Это и есть командная строка. Каждая команда, которую вы вводите в AutoCAD тем или иным способом (с клавиатуры или нажатием соответствующей пиктограммы), обязательно дублируется в командной строке. В систему включено множество средств ускоренного вызова таких операций, как повторение или отмена команды. Самый простой способ повторить только что выполненную команду – нажать Enter в ответ на запрос Command: в командной строке. После этого в ней появится предыдущая команда. Тот же эффект дает щелчок правой кнопкой мыши.

Нажав Esc, можно отказаться от выполнения текущей команды на любой стадии диалога. После этого в командной строке вновь появится приглашение Command. Большинство приложений Windows предлагают пользователю средства отмены и восстановления результатов выполнения последней команды. Эти операции выполняются при помощи специальных пиктограмм Undo (Отменить) и Redo (Повторить) на стандартной панели инструментов.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Монахова, Г.Е. / Компьютерная графика: практикум / Г.Е.Монахова, Ю.Г.Кандауров, М.Ю. Монахов. – Владим. гос.ун-т. –Владимир, 2000. – 88 с. ISBN 5-89368-170-3

2. Романычева, Э.Т. Инженерная и компьютерная графика/ Э. Т.Романычева, Т. Ю. Соколова, Г. Ф. Шандурина. – 2-е изд ., перераб. – М .:ДМК Пресс , 2001. – 592 с. ISBN 5-94074-051-0

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

OROLBO'YIDAGI IQLIM O'ZGARISHLARINING HAVODAGI CHANG MIQDORI VA TARKIBIGA TA'SIRI

Sobirjonov Abutolib
Toshkent davlat transport universiteti
Avtomobil transport muhandisligi fakulteti
professor o'qituvchisi

Annotatsiya: Orol dengizining qurishi hosil bo'lgan ulkan iqlim o'zgarishlari yangi Orolqum cho'lining paydo bo'lishi, havodagi chang (aero) miqdori va uning hosil bo'lishiga ta'sir qiladi. Bu yerda Orolbo'yi iqlimiy ofatning atmosferadagi chang-tuz bo'ronlari (CSDS) faol moddalarga, tarkibdagi moddalarni saqlashga qodirdir, o'g'itlar tarkibiga kiruvchi zaharlanishlar va yuqori tuz miqdori paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan tahlillar, ushbu o'zgarishlar inson, qishloq xo'jaligi va global iqlimga ta'siri, hamda zamonaviy monitoring va ekologik rivojlanishi ko'rib chiqiladi.

Kalit So'zlar: Orol dengizi ofati , chang-tuz bo'ronlari (CSDS) , aerozollar , iqlim o'zgarishi , atmosfera sirkulyatsiyasi , tuz va jismoniy muvozanat tarkibi , radiatsion balans .

Kirish

Orol dengizining qurishi ekologik toza XX asrdagi iqlimiy ofat asrning ekologik xavfliligi. 1960 yillardan boshlab Amudaryo suv resurslarining ishlab chiqarish quvvati kuchayganligida edi. Dengiz o'rnida 60,000 km² dan ortiq maydonga ega bo'lgan yangi, inson ta'sirida kelgan Orolqum cho'li shakllandi.

Orol dengizi kabi katta suv havzasining yo'qolishi, mintaqaviy iqlimga ta'sir qilishi mumkin, bu esa kontinentallikning kuchayishi (yozda qattiq issiq, qishda qattiq sovuq) va havo namligining keskin kamayishiga olib keldi.

Erish - bu o'zgarishlarning eng jiddiy ekologik oqibati – qurigan dengiz tubi quvvatining millionlab tuz va zaharli moddalar bilan boyitilgan chang manbaiga aylanishidir.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Bu tadqiqotining maqsadi Orolbo'yidagi vaziyatni iqlim o'zgarishtirishdan, havodagi chang (aerozol) miqdori tarqalish dinamikasi va tashqi ko'rinishidagi ta'sirini zamonaviy geofizik va iqlimshunoslik ma'lumotlari asosidagi tahlil qilishdan iborat. Bu maqolada aynan Chang-Tuz Bo'ronlari (CSDS) ning faol moddalar, tarkibdagi topilgan pestitsidlar qoldiqlari va tuzlarning inson kuchi hamda atrof-muhitga ekosistemalarga ta'siri ostida ko'rib chiqiladi. Orolqum aerozollarining regional va global miqyosdagi radiatsion balans va atmosfera sirkulyatsiyasiga ta'sirini bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism

Chang miqdorining keskin ortishi: Orolqum – antropogen chang manbai.

Orol dengizining qurishidan hosil bo'lgan Orolqum cho'li hozirda Markaziy Osiyodagi eng yirik antropogen (inson ishlab chiqarish natijasida kelib chiqqan) chang (aerozol) manbai bo’lib, dengiz tubi aerozon jarayonlarga, ayniqsa, shamol eroziyasiga juda qulay bo'lgan tuzli qatlamlardan iborat.

Emissiya hajmi va faolligi: Songgi' yillarda Orolqumdan atmosfera chiqarilayotgan changning yillik hajmi ortgan. Tadqiqotlar bu miqdorni yiliga 15 million tonnadan 75 million tonnagacha deb baholaydi. Bu katta hajmli emissiya manbaning faolligi yuqoriligini ko'rsatadi.

Bo'ronlar chastotasi va kuchi: Chang-tuz bo'ronlari (CSDS) takrorlanish chastotasi va intensivligi keskin oshgan. Hozirda Orolqum ustida yiliga 90 kundan ortiq muddatda kuchli chang bo'ronlari yetib boradi. Bu bo'ronlar ko'pincha kuchli shamol konveksiyasi va atmosfera noturg'unligi bilan bog'liq.

O‘zbekiston Respublikasida konsullik nikohlari faqatgina milliy qonunchilik va xalqaro shartnomalar doirasida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, chet el fuqarolarining O‘zbekiston hududida joylashgan o‘z davlat konsullik muassasasi yoki elchixonalarida tuzgan nikohlari ham o‘zarolik tamoyili asosida O‘zbekiston Respublikasida tan olinadi. Bu tamoyil davlatlararo tenglikni ta’minlaydi va xalqaro huquqda odatiy hisoblanadi.

Agar chet el mamlakatida O‘zbekiston fuqarosining konsullik muassasasida tuzgan nikohi tan olinmasa, retorsiya printsipi asosida, ushbu mamlakat fuqarolarining O‘zbekiston konsullik muassasasida tuzgan nikohlari ham tan olinmaydi. Shu bilan birga, bu prinsip ikki tomonlama diplomatik aloqalarda adolat va huquqiy barqarorlikni kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida konsullik nikohlari quyidagi ikki shart asosida amalga oshiriladi:

– o‘zarolik asosida, ya’ni konsulni tayinlagan mamlakatda O‘zbekiston

Respublikasi fuqarolarining nikohlarini konsullik muassasada yoki elchixonada

qayd etishga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa;

– shaxslarning ikkalasi ham konsulni tayinlagan davlat fuqarolari bo‘lsalar.

Konsullik muassasasida rasmiy tarzda ro‘yxatdan o‘tkaziladigan nikohlar, avvalo, konsul vakili bo‘lgan davlatning amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, nikoh tuzishning shartlari, uning o‘tkazilish tartibi va huquqiy shakli konsul o‘z faoliyatini yuritayotgan davlatning moddiy hamda kollizion huquq normalariga asoslanadi. Biroq bu qoida konsullik muassasasi joylashgan mamlakat qonunlariga amal qilish majburiyatini bekor qilmaydi. Konsullik organi chet el hududida faoliyat yuritar ekan, u o‘z vakolatlarini bajarishda qabul qiluvchi davlatning ichki tartib-qoidalarini hurmat qilishi, ularni buzmasligi shart. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi va Latviya o‘rtasida tuzilgan konsullik konventsiyasining 44-moddasi 3-qismida shunday norma belgilangan: “ushbu moddaning 1-bandining a va b-kichik bandlarida qayd etilgan holatlar manfaatdor shaxslarni qabul qiluvchi davlat qonunlariga amal qilish majburiyatidan ozod etmaydi”. Bu esa shuni anglatadiki, konsullik orqali bajariladigan har qanday huquqiy harakat – jumladan,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

nikohni ro‘yxatga olish – konsul yuborilgan davlat qonunchiligi asosida bajatilsa-da, baribir konsullik joylashgan mamlakat huquqiy tartiblariga zid bo‘lishi mumkin emas[6].

Xuddi shu mazmun Konsullik aloqalari to‘g‘risidagi Vena konvensiyasida ham o‘z ifodasini topgan. Konvensiyaga ko‘ra, konsullik muassasasi yoki elchixona o‘z vakolatlarini, jumladan nikohni qayd etish bilan bog‘liq funksiyalarni, “agar bu harakatlar konsullik joylashgan davlat qonun va qoidalariga qarshi kelmasa”,gina amalga oshirishi mumkin. Shu sababli, agar shaxsning vatani ko‘p xotinlilikka ruxsat bergan bo‘lsa ham, bu holat konsulga O‘zbekiston hududidagi diplomatik vakolatxona orqali bunday nikohni ro‘yxatga olish imkonini bermaydi. O‘zbekiston qonunchiligi bir vaqtning o‘zida ikkita nikohga yo‘l qo‘ymagani bois, birinchi turmush o‘rtog‘i bilan ajrashmagan fuqaro yangi nikohni konsullik orqali tasdiqlata olmaydi[7].

Bu qoidalar ikki tomonlama huquqiy ziddiyatlarning oldini olish, davlatlar suverenitetini hurmat qilish hamda shaxsiy holat masalalarida barqaror huquqiy tartibni saqlashga xizmat qiladi. Aks holda, bir davlatda ruxsat etilgan, ammo boshqa davlat qonunchiligi bo‘yicha mutlaqo tan olinmaydigan nikoh shakllari xalqaro huquq amaliyotida jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun konsullik muassasalari o‘z fuqarolariga xizmat ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, ular joylashgan davlatning huquqiy maydonidan tashqariga chiqa olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda tuziladigan nikohlari nafaqat O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari yoki elchixonalarida, balki ushbu davlatning vakolatli organlarida ham rasmiylashtirilishi mumkin. Bu degani, O‘zbekiston fuqarolari o‘z nikohlarini chet mamlakatda qayd etishda konsullik orqali amalga oshirish majburiyatiga ega emas, balki ularning nikohini o‘sha mamlakatning vakolatli organlarida ham rasmiylashtirish huquqi mavjud.

Bunday nikohlarning shakli, formal va moddiy shartlari nikoh tuzilgan joyning qonunchiligiga muvofiq ravishda haqiqiy deb e’tirof etiladi. Shu bilan birga, chet mamlakatda, ularning oila qonunchiligiga muvofiq, boshqa shakllarda tuzilgan O‘zbekiston fuqarolari ishtirokidagi nikohlar ham O‘zbekiston Respublikasida tan olinadi. Bu prinsip

[6] O‘zbekiston Respublikasi bilan Latviya Respublikasi o‘rtasida konsullik konvensiyasi https://lex.uz/ru/docs/-1346861
[7] Konsullik aloqalari to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi https://lex.uz/docs/2750193

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

xalqaro amaliyotda “nikohning haqiqiyligini nikoh tuzilgan joy qonuni belgilaydi” degan umumiy qoidaga mos keladi.

Chet mamlakatdagi O‘zbekiston konsullik muassasalarida nikohni qayd etmoqchi bo‘lgan shaxslar uchun ayrim qo‘shimcha shartlar mavjud. Agar nikohlanuvchilar O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida belgilangan nikoh yoshiga yetmagan bo‘lsa, lekin konsullik joylashgan mamlakat qonunchiligiga ko‘ra nikoh yoshiga yetgan hisoblansa va ushbu mamlakat nikoh shartlarini nikoh tuzish joyi qonuniga havola qilsa, unda nikohlanuvchilar ushbu mamlakat vakolatli organlarida nikohlarini qayd etish huquqiga ega bo‘ladilar. Bu holat O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 235-moddasiga binoan haqiqiy deb tan olinadi.Biroq ,chet elda qayd etilgan nikoh O‘zbekiston hududida yuridik kuchga ega bo‘lishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilinishi majburiy hisoblanadi:

1. Yakka nikohlilik prinsipi (O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 16-modda) buzilmasligi.

2. Qonunda ko‘rsatilgan qon-qarindoshlik darajalari va nikoh ruhan sog‘lom shaxslar o‘rtasida tuzilishi shartlariga rioya qilinishi. Agar ushbu shartlar bajarilmasa, nikoh O‘zbekiston hududida hech qanday yuridik ahamiyatga ega bo‘lmaydi[8].

Bundan tashqari, chet mamlakatda qayd etilgan nikohni O‘zbekiston qonunchiligiga moslashtirish jarayonida moddiy-huquqiy shartlarining bajarilishini nazorat qilish muhimdir. Agar nikoh tuzilgan mamlakat qonunchiligi nikohlanuvchilarning fuqaroligi bo‘lgan mamlakat qonuniga havola qilsa (renvoi, ya’ni qayta havola), bu ba’zi hollarda O‘zbekiston qonunchiligidagi moddiy-huquqiy shartlarni chet el nikohiga qo‘llashga bahona bo‘lishi mumkin. Shu sababli O‘zbekiston fuqarolari chet elda nikoh tuzishdan oldin, nafaqat nikoh tuzilgan mamlakat qonunini, balki O‘zbekiston Oila kodeksidagi asosiy shartlarni ham inobatga olishlari lozim.

Malayziya hamda O’zbekiston fuqarolari o’rtasida tuziladigan nikoh tartibi hamda ahamiyati

[8] O’zbekiston Respublikasi Oila kodekisi https://lex.uz/mact/-104720

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi Malayziyada boshqa davlat fuqarosi bilan nikoh tuzishi qonuniy ravishda mumkin. Nikoh Malayziyada musulmon yoki no-musulmon qoida bo‘yicha turlicha tartibda amalga oshiriladi. Agar turmushga kiruvchi tomonlardan biri musulmon bo‘lsa, nikoh faqat islom qonunchiligi (Sharia) asosida o‘tkaziladi va musulmon bo’lmagan sherigi islomni qabul qilishi majburiy. Aks holda, fuqarolik nikohi milliy Qonunlar (Law Reform (Marriage and Divorce) Act 1976) bo‘yicha NRD (National Registration Department) ofisida ro‘yxatga olinadi. Ro‘yxatga olish uchun murojaat qilgan shaxs nikohni o‘tkazmoqchi bo‘lgan hududda kamida 7 kundan ortiq yashashi talab etiladi. Undan so‘ng nikoh arizasi 21 kunlik e’lon muddatidan keyin (21 kun + 1 kun) va ariza berilgan vaqtdan 6 oy ichida amalga oshirilishi mumkin. Tashqi davlat fuqarosi sifatida, O‘zbekiston fuqarosidan Malayziya qoidalariga muvofiq nikohdan bo‘sh ekanlik to‘g‘risida hukumat xati talab qilinadi. Ushbu xat O‘zbekiston hukumati yoki elchixonasi tomonidan berilganligi va Malayziya Tashqi Ishlar Vazirligi (Wisma Putra) tomonidan autentifikatsiyadan o‘tkazilganligi bo’lishi lozim. Bundan tashqari, nikohdan avval ikkai tarafdan ham kki guvoh (21 yoshdan katta) ishtirok etishi lozim

Malayziyadagi O‘zbekiston elchixonasi nikohni o‘tkazish vakolatiga ega emas. Xalqaro konsullik amaliyotiga ko‘ra, elchixonalarda nikoh tantanasi o‘tkazilmaydi. Nikoh Malayziyada mahalliy qonunchilikka muvofiq ro‘yxatdan o‘tganidan keyin o‘sha hujjat O‘zbekiston qonunlari doirasida tan olinadi. Masalan, O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, chet elda qonuniy tuzilgan nikoh O‘zbekistonda haqiqiy hisoblanadi. Shunday ekan, Malayziyadagi nikoh tugagach, er-xotinning Malayziya nikoh guvohnomasini olib kelib, O‘zbekiston chegaralarida konsullik ro‘yxatidan o‘tkazish mumkin. Buning uchun nikoh guvohnomasi mazmuni O‘zbek tiliga tarjima qilinib, hujjat O‘zbekiston tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanishi (apostil yoki konsullik legalizatsiyasi) kerak. Qayd etish lozimki, O‘zbekiston fuqarosining Malayziyada tuzilgan nikohi O‘zbekiston hududida alohida rasmiy tasdiq (qayd) talab qilmaydi, chunki qonunga muvofiq chet el qonunlariga ko‘ra tuzilgan nikoh tan olinadi

Malayziyadagi nikoh guvohnomasi O‘zbekistonda rasmiy e’tirof etilishi uchun hujjatni Malayziya Tashqi Ishlar Vazirligida legallashtirish zarur, chunki Malayziya Haaqu konventsiyasiga a’zo emas. Aksincha, O‘zbekiston ushbu konventsiyani ratifikatsiya qilgan (Haaqqonvensiya tomonlari) va undagi hujjatlar O‘zbekistonga apostil bilan qabul qilinadi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Demak, Malayziyadagi nikoh guvohnomasi konsul tasdiqi va Wisma Putra yuridiklashtiruvidan o‘tgandan so‘ng, O‘zbekistonga taqdim etilganda apostilsiz (legalizatsiya qilingan) shaklda qabul qilinadi. Shu bilan birga, O‘zbekistonga beriladigan turli chet el hujjatlari (masalan, nikoh guvohnomasi) O‘zbekistonda foydalanish uchun o‘zbek tiliga professional tarjima qilinishi shart.O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, chet elda berilgan hujjatni qo‘llash uchun u tasdiqlangan (apostil qo‘yilgan yoki konsul tasdiqidan o‘tgan) hamda rasmiy tilga tarjima qilingan bo‘lishi zarur[9].

Malayziya va O‘zbekiston nikoh to‘g‘risidagi qonunlari bir qator jihatlar bilan farqlanadi va o’xshash jihatliklari ham mavjud.

Birinchidan, Malayziyada musulmon nikoh uchun alohida Sharia qonunchiligi amal qiladi, agar turmush quruvchi erdan yoki xotindan biri musulmon bo‘lsa, nikoh faqat Islom usulida rasmiylanadi. O‘zbekistonda esa huquqiy jihatdan faqat fuqarolik nikohi tan olinadi va diniy nikoh (Masjidda o‘tkaziladigan nikoh) qonunan ahamiyatga ega emas

Ikkinchidan, nikohga kirish yoshi bo‘yicha farqlar mavjud: O‘zbekistonda er-xotin har ikkisi uchun nikoh yoshi 18 yosh deb belgilangani uchun 18 yoshdan kichiklar turmush qura olmaydi. Malayziyada esa erkaklarda ham 18 yosh, ayollarda esa 16 yoshdan nikoh ruxsat etilgan (16–18 yoshdagilar ota-onadan ruxsat olib turmush qura oladi) – ya’ni yosh farqi bor.

O‘zbekistonda turmush qurishdan oldin ko‘p bosqichli tibbiy ko‘rikdan o‘tish majburiy (shifokorning tibbiy xulosasi olinishi kerak). Bu norma O’zbekiston Respublikasi Oila kodekisining 17-moddasida mustahkamlab qo’yilgan. Unga ko’ra, nikohlanuvchi shaxslar davlat sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul asosda tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar[10].Malayziyada ham nikohga kirishish istagini bildiruvchi taraflar tegishli tartibda bir nechta tekshiruvlardan o’tishlari lozimligi bilan bir-biriga o’xshashliklari mavjud.

Boshqa tomondan, har ikkala mamlakat ham er-xotinlardan nikohga kirishishmaganliklarini tasdiqlovchi guvohnomasini talab qiladi va oldingi nikoh bekor qilingan taqdirda tegishli hujjatni ko‘rsatishlari ham lozim. Umuman olganda, Malayziya

[9] Marriage of Foreigners in Malaysia https://kuala-lumpur.diplo.de/my-en/service/2724498-2724498#:~:text=A%20civil%20marriage%20before%20a,law%2C%20this%20conversion%20is%20irrevocable

[10] O’zbekiston Respublikasi Oila kodekisi https://lex.uz/mact/-104720

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

va O‘zbekiston nikoh qonunlari o‘zaro farqli tartibga ega, lekin ikki tomon uchun ham er-xotinlik hujjatlari to‘liq va qonuniy bo‘lishini ta’minlash maqsadida legalizatsiya va tarjima talablari o‘xshashdir.

Singapurdagi Italiya elchixonasi yoki konsullik muassasalarida nikohni rasmiylashtirish uchun:

- Singapurda yashash (rezident bo‘lish);
- AIRE ro‘yxatidan o‘tgan bo‘lish (chet elda yashovchi italiyaliklar reestri) talab etiladi.

Nikohga ariza har ikki turmush o‘rtog‘i tomonidan imzolanadi va shaxsan konsullikka topshiriladi. Ariza bilan birga har ikki tomonning shaxsni tasdiqlovchi hujjatlari nusxalari taqdim etiladi. AIREda ro‘yxatdan o‘tgan Italiya fuqarolari “Nulla Osta” olishlari shart. Buning uchun ular o‘z-o‘zidan deklaratsiya (self-declaration) to‘ldiriladi, 6,00 yevroga teng Singapur dollarida to‘lov amalga oshiriladi va konsullik zarur tekshiruvlarni o‘tkazgandan so‘ng Nulla Osta sertifikatini rasmiylashtiradi. Agar ariza qonunchilik talablariga to‘liq mos bo‘lsa, konsullik nikoh e’lonlarini (bans) chiqarishga kirishadi.

Italiyalik bo‘lmagan turmush o‘rtoqlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari kerak:

1. Apostillangan yoki qonuniylashtirilgan hujjatlar va ularning italyan tiliga tarjimalari, shuningdek tarjimalarning Italiya konsulligi tomonidan tasdig‘i.

2. O‘z mamlakatining vakolatli organlari tomonidan berilgan “nikohga to‘sqinlik yo‘qligi to‘g‘risida sertifikat” (No Impediment Certificate). Agar bunday hujjat berilmasa — Italiyadagi o‘z mamlakati elchixonasiga murojaat qilish tavsiya etiladi. Agar mahalliy qonunlar nikohga ruxsat bermasa yoki turmush o‘rtoqlar turli konsullik okruglarida istiqomat qilsa, konsullik nikohni ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etishi mumkin[11].

Italiyada nikohdan oldin majburiy nikoh e’lonlari (taqiqlar) rasmiylashtiriladi.

- Nikoh taqiqlari konsullik e’lonlar taxtasida kamida 8 kun osib qo‘yiladi.

[11]https://ambsingapore.esteri.it/en/servizi-consolari-e-visti/servizi-per-il-cittadino-italiano/stato-civile/marriage-at-the-embassy/

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

- Taqiq ko‘tarilganidan 3 kundan keyin nikoh tuzish mumkin.
- Nikoh tantanasi e’lonlar tugaganidan keyingi 180 kun ichida o‘tkazilishi shart.Taqiqni olish uchun maxsus shakl to‘ldiriladi va turmush o‘rtoqlar tomonidan konsullikda imzolanadi.

Nikoh taqiqlari bo‘yicha ariza topshirish tartibi quyida ko‘rsatilgan shakllarda taqdim etilishi mumkin:

a) Shaxsan turmush o‘rtoqlar tomonidan

b) Vakolatli shaxs orqali

- Oddiy qog‘ozdagi maxsus ishonchnoma bilan;
- Turmush o‘rtoqlarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari bilan.

EI a’zosi bo‘lmagan va Italiyada yashovchi shaxslar uchun imzo konsullik xodimi huzurida tasdiqlanishi shart.

Taqiqni nikoh tuziladigan konsullikda rasmiylashtirish talab etiladi.Agar ular turli okruglarda yashasa – har ikki konsullikda e’lonlar chiqariladi. Biroq biri Italiyada, biri chet elda yashasa nikoh konsullikda o‘tkazilsa – konsullik Italiyadagi yashash joyi bo‘yicha organlar orqali taqiq rasmiylashtiradi.

- Har ikki joyda (Italiya va chet el) e’lonlar chiqariladi.

Italiya fuqarosi Italiyada, chet ellik turmush o‘rtoqi chet elda yashasa buning ikki varianti mavjud:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri konsullikka murojaat qilib taqiq qo‘yish;
- yoki nikoh o‘tkaziladigan Italiya munitsipalitetiga murojaat qilish.

Taqiqni yashash joyidagi munitsipalitet rasmiylashtiradi. Agar ular turli shaharlar aholisi bo‘lsa - har ikkala munitsipalitetda e’lonlar chiqariladi. Nikoh taqiqlarini qo‘llash uchun to‘lov 12 yevro (kurs har chorakda yangilanadi) qilib belgilangan. Aktual miqdor konsullik tariflari bo‘yicha belgilanadi. Konsullik nikohi Italiya qonunchiligi asosida o‘tkazilgani sababli, nikoh Italiyada ham to‘liq yuridik kuchga ega bo‘ladi. Taqiq jarayoni fuqarolarni himoya qilish va noqonuniy nikohlarning oldini olishga qaratilgan. Barcha hujjatlar Italiya

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

fuqarolik holati registrida qayd etilishi uchun konsullik transkripsiya jarayonini ham amalga oshiradi. Uchrashuvni oldindan bron qilish majburiy (onlayn tizim orqali) hisoblanadi.[12]

XULOSA

Chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh munosabatlarini huquqiy tartibga solishda asosiy vositalar sifatida davlatlarning milliy qonunchilik normalari va xalqaro xususiy huquqning kollizion qoidalari qo‘llaniladi. Bunday nikohlar ko‘p hollarda turli yurisdiksiyalarni qamrab olgani bois, nikoh munosabatlarida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni hal etishda qaysi davlat huquqi qo‘llanishi masalasi murakkablik tug‘diradi. Natijada, nizolarni hal qilish jarayoni uzoq davom etishi va ko‘p resurs talab qilishi mumkin.

Nikoh tuzilayotganda, agar tomonlar - chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bo‘lsa, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun nikoh shartnomalari orqali tomonlarning mulkiy, moliyaviy va boshqa huquqiy majburiyatlari oldindan belgilanishi, shuningdek, nizolar yuzaga kelganda qaysi davlat qonunchiligi asosida hal qilinishini ko‘rsatish tavsiya etiladi. Bunday tartib, nafaqat nizolarni tezda hal qilish imkonini beradi, balki ikki tomonning ham huquqiy kafolatlar va natijadan qoniqishiga xizmat qiladi.Albatta, tuzilgan nikoh shartnomasi soxta yoki qonunga xilof asosga ega bo‘lmasligi lozim. Shartnoma tomonlarning erkin roziligi va qonuniy huquqlari asosida tuzilishi shart. Shu tariqa, nikoh munosabatlarini qonunlar va kollizion normalar bilan tartibga solish nafaqat taraflar o‘rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtiradi, balki ularning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy o‘rnini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, nikoh munosabatlaridan kelib chiqadigan oila-jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Oilaning barqarorligi va taraflarning huquqiy himoyasi davlatlararo munosabatlarda ham ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Shu bois, xalqaro xususiy huquq, milliy qonunchilik va konsullik institutlari orqali chet el elementi bilan murakkablashgan nikohlar tartibga solinishi, nafaqat shaxsiy huquqlarni himoya qilish, balki oila va jamiyatning barqaror rivojlanishini kafolatlaydi.

[12] Marriage at the Embassy https://ambsingapore.esteri.it/en/servizi-consolari-e-visti/servizi-per-il-cittadino-italiano/stato-civile/marriage-at-the-embassy/

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Xulosa sifatida aytish mumkinki, chet el elementi bilan murakkablashgan nikohlarni huquqiy jihatdan tartibga solish instituti zamonaviy global jarayonlarda fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish, turli davlatlar qonunchiligi o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish va oilaning jamiyatdagi ijtimoiy rolini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, nikoh munosabatlarini qonuniy tartibga solish nafaqat shaxslararo nizolarni kamaytiradi, balki davlatlararo huquqiy uyg‘unlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Xalqaro xususiy huquq darslik. **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

- Toshkent 2019 https://library-tsul.uz/xalqaro-aloqa-xususiy-huquq-2019/
- O’zbekiston Respublikasi Oila kodekisi https://lex.uz/mact/-104720
- O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi https://lex.uz/docs/-6445145
- ”O’zbekiston Respublikasining Konsullik ustavini tasdiqlash to’g’risida”gi Qonun https://lex.uz/docs/-4167683
- O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodekisi https://lex.uz/docs/-180552?ONDATE=05.11.2023
- O‘zbekiston Respublikasi bilan Latviya Respublikasi o‘rtasida konsullik konvensiyasi https://lex.uz/ru/docs/-1346861
- Konsullik aloqalari to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi https://lex.uz/docs/2750193
- Marriage of Foreigners in Malaysia https://kuala-lumpur.diplo.de/my-en/service/2724498-2724498#:~:text=A%20civil%20marriage%20before%20a,law%2C%20this%20conversion%20is%20irrevocable
- Registration Of Marriage For Non-Muslim https://www.jpn.gov.my/en/core-business/marriage/kahwin-daftar-eng#:~:text=4,Letter%20to%20get%20married%20issued
- Marriage at the Embassy https://ambsingapore.esteri.it/en/servizi-consolari-e-visti/servizi-per-il-cittadino-italiano/stato-civile/marriage-at-the-embassy/

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR NUTQINI O'STIRISHDA INNOVATSION O'YINLI TA'LIMDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Otaqo'ziyeva Umida Qosimjon qizi
otaqoziyevaumida826@gmail.com
+998932781501
ADPI maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1 bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutq rivojini qo'llab-quvvatlash va takomillashtirish jarayonida innovatsion o'yinli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samarali yo'llari yoritiladi. Nutqni rivojlantirish jarayoniga zamonaviy texnologiyalar, o'yinlar, interfaol usullarni joriy etishning afzalliklari, ularning bolalarning fikrlash, muloqot va ijodkorlik qobiliyatiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: nutqni rivojlantirish innovatsion ta'lim o'yinli metodlar maktabgacha ta'lim muloqot kompetensiyasi interfaol texnologiyalar pedagogik yangiliklar

Kirish

Maktabgacha yosh – bolada nutq faoliyatining shakllanishi uchun eng mas'uliyatli davr bo'lib, bu jarayon faqat til o'rgatish emas, balki bolaning tafakkuri, idroki, muloqot madaniyati va ijtimoiy faolligi bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirishga yangicha yondashuvlar, innovatsion metodlar va o'yin texnologiyalarini qo'llash pedagogik amaliyotda muhim o'rin egallamoqda. Chunki bola o'yin orqali atrof-olamni o'rganadi, tajriba orttiradi, muloqot qiladi va o'z fikrlarini erkin ifoda etishni mashq qiladi. Shu sababli innovatsion o'yinli ta'lim nutqni rivojlantirishning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda innovatsion o'yinli texnologiyalardan foydalanish bolalarning tabiiy qiziqishini oshirib, o'quv jarayoniga faol jalb etadi. O'yin orqali bola faqat eshituvchi emas, balki faol ishtirokchi bo'ladi, bu esa nutqning shakllanishini sezilarli darajada jadallashtiradi.

Innovatsion o'yinli ta'limning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u bolaning tasavvuri va fikrlashini faollashtiradi. Masalan, multimediya asosidagi interfaol ertaklar, animatsiyalar,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

elektron kartochkalar, virtual sahnalashtirish kabi vositalar bolalarda so‘z boyligini kengaytiradi, to‘g‘ri talaffuzni shakllantiradi va nutqni mantiqiy tuzishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan o‘yinlar bolalarda eshitish, ko‘rish, tahlil qilish, javob qaytarish tezligini oshiradi. Nutqni rivojlantirish jarayonida innovatsion o‘yinli ta’limdan foydalanishning yana bir muhim jihati – multimodal o‘qitish imkoniyatidir. Multimodal ta’lim turli sezgi kanallarini bir vaqtda ishga solgan holda nutq faoliyatini faollashtiradi. Masalan, multimedia ekranidagi rasm, tovush, harakatlanayotgan tasvir va topshiriqni birgalikda kuzatish bola miyasida axborotning ko‘p kanalli qayta ishlanishiga sabab bo‘ladi. Bu esa nutq birligining tezroq esda qolishiga, so‘z boyligining kengayishiga va gap tuzish ko‘nikmalarining sifatli shakllanishiga yordam beradi.

Innovatsion o‘yinlarda qo‘llaniladigan qulay vositalardan yana biri – raqamli ovozli kartochkalardir. Har bir kartochkada so‘z ovozli aytiladi, tasviri ko‘rsatiladi va ba’zan kichik interfaol topshiriq beriladi. Bu bolalarning so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishini, tovushlarni farqlay olishini va eslab qolish tezligini oshiradi. Ovozli kartochkalar ayniqsa uch yoshdan besh yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun samarali bo‘lib, ular fonetik eshituvni mustahkamlaydi.

Nutqni rivojlantirishda texnologiyadan tashqari innovatsion metod sifatida kreativ dramatizatsiya ham keng qo‘llanmoqda. Dramalashtirilgan o‘yinlar orqali bolalar ertak yoki hikoyaning qahramonlariga aylanib, ularning nutq ohangini, his-tuyg‘ularini ifoda etishga harakat qiladi. Bunday o‘yinlar nafaqat fonetik ikkiqliklarni kamaytiradi, balki bolalarda badiiy ifodali nutqni shakllantiradi. Dramatizatsiya jarayonida bola o‘ziga rol tanlaydi, o‘z fikrini mustaqil ifodalashga urinadi, bu esa nutq faolligini tabiiy ravishda oshiradi.

Innovatsion o‘yinli ta’limda muammoli vaziyatli o‘yinlardan foydalanish ham natijadorlikni kuchaytiradi. Masalan, “Kim qayerga ketadi?”, “Qahramon nima qildi?”, “Nimani tanlaysan va nega?” kabi savollarga asoslangan o‘yinlar bolaning mantiqiy fikrlashi, sabab-oqibatni tushunishi va izohlay olishi, nutqning mantiqiy tarkibini shakllantirishga yordam beradi. Bunday muammoli topshiriqlar orqali bola nafaqat nutqiy faollashadi, balki mustaqil fikr yuritish kompetensiyasi ham rivojlanadi.

Nutqni rivojlantirishga qaratilgan sensor-integrativ o‘yinlar ham samarali hisoblanadi. Ushbu o‘yinlarda bola predmetlarni ushlab ko‘radi, ta’mini, rangini, shaklini tavsiflaydi. Misol uchun, “Qo‘limda nima bor?”, “Qaysi predmet yumshoq?”, “Qanday hid kelmoqda?”

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

kabi o‘yinlar orqali bola tasviriy so‘zlarni faol ishlatadi. Bu mashqlar sensor rivojlanish bilan birga tasvirlovchi, aniqlovchi va ta’riflovchi nutqning shakllanishiga xizmat qiladi.

Bolalar nutqini rivojlantirishda jamoaviy kooperativ o‘yinlar ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Jamoaviy o‘yinlar davomida bola o‘z mas’uliyatini his qiladi, sheriklari bilan kelishgan holda fikr bildiradi, mazmunli muloqot olib boradi. “Birgalikda hikoya tuzamiz”, “Rasmdan ertak yaratamiz”, “Zanjirli gaplar” kabi kooperativ o‘yinlar guruhdagi barcha bolalarni faol fikrlashga, ijtimoiy muloqotga undaydi. Bu esa ularning ijtimoiy-nutq kompetensiyasini chuqur rivojlantiradi.

Shuningdek, innovatsion yondashuv sifatida “aqliy hujum”, “fikrlar savati”, “klaster”, “konseptual xarita” kabi interfaol metodlar ham maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishga moslashtirilgan. Bu metodlar bolalarda bir fikrdan boshqasiga o‘tish, mavzuni izohlash, bog‘lanishlarni topish va so‘zlar orasida semantik aloqalarni anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shunday interfaol topshiriqlar orqali nutqning leksik va grammatik jihatlari birgalikda shakllanadi.

Innovatsion o‘yinlarning yana bir afzalligi – bola o‘zining psixologik holatini erkin ifoda etishi va o‘ziga ishonchini oshirishi. Nutqi sust yoki tortinchoq bolalar uchun interfaol o‘yinlar ijobiy psixologik muhit yaratadi. Ular o‘yin davomida qo‘rquvni yengadi, o‘z fikrini aytishga harakat qiladi, asta-sekin nutqiy faollikni orttiradi.

Innovatsion o‘yinli ta’lim jarayonida bolalarning nutq rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan yana bir yo‘nalish – kommunikativ muhitni yaratishdir. Kommunikativ muhit shunday tashkil etilishi kerakki, unda bola muloqotga majburlanmasdan, o‘zi istagan holda fikr bildirishi, savol berishi, javob qaytarishi va o‘z rolini anglab yetishi zarur. Bunda tarbiyachining nutqi, intonatsiyasi, rag‘batlantiruvchi usullari, ochiq savollar berishi o‘yin jarayonini jonlantiradi va bolalarni faol nutqiy muloqotga undaydi.

Nutqni rivojlantirishda tabiat bilan bog‘liq innovatsion o‘yinlar ham samarali bo‘lib, ular orqali bola o‘zi ko‘rgan ob’ekt va hodisalarni tasvirlaydi, ta’riflaydi, solishtiradi. Masalan, bog‘da o‘tkaziladigan “Tabiatni tinglaymiz”, “Nimani ko‘rding?”, “Ranglarni topamiz” kabi o‘yinlar bolada kuzatish qobiliyatini kuchaytiradi, bu esa nutqiy izohlar berish ko‘nikmasini tabiiy shakllantiradi. Tabiat bilan bog‘langan faoliyatlar nafaqat so‘z zahirasini kengaytiradi, balki bolalarning emotsional-intellektual rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Innovatsion o‘yinlarda sensor va motorik faoliyatning uyg‘unligi ham nutqni rivojlantiruvchi omillardan biridir. Masalan, harakatli o‘yinlarda tarbiyachi turli buyumlarning nomlarini, harakat yo‘nalishlarini, rang va shakllarni aytadi, bola esa ularni bajaradi. “Tez ayt va bajar”, “Top va yugurib kel”, “Qaysi buyumni olib kelding?” kabi o‘yinlar nutq va harakatni birlashtirgan holda bolaning idrokini, tezkor fikrlash qobiliyatini va nutq tezligini oshiradi. Bunday o‘yinlar nutqi sust rivojlangan bolalar uchun ayniqsa muhim bo‘lib, ular nutqni ko‘p kanalli faoliyat orqali o‘zlashtira boshlaydi.

Nutqni rivojlantirishda tasviriy ijod bilan uyg‘unlashgan innovatsion o‘yinlar ham katta ahamiyatga ega. Rasm chizish, loydan yasash, qurilish konstruktori bilan ishlash jarayonida bola bajarilayotgan harakatni og‘zaki izohlaydi, bu esa tasviriy nutqni rivojlantiradi. Masalan, “Rasmim haqida gapirib beraman”, “Loydan kimni yasaldi?”, “Qurilgan uyni tasvirlab ber” kabi o‘yinlar bolani tasvirlash, aniqlash, izohlash va taqqoslashga o‘rgatadi. Natijada bola nafaqat ijod qiladi, balki nutq orqali o‘z fikrini shakllantiradi.

Innovatsion o‘yinli ta’limning yana bir samarali shakli – ijodiy hikoya tuzish o‘yinlaridir. Bolalarga rasmli kartochkalar beriladi, ular shu rasmlar bo‘yicha kichik hikoya tuzadi, voqealar ketma-ketligini aniqlaydi, qahramonlarning harakatlarini tushuntiradi. “Rasmlardan ertak yaratamiz”, “Qahramonlar gapiradi”, “Hikoyani davom ettir” kabi o‘yinlar bolada bog‘lanishli nutqni rivojlantiradi. Bu metod bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi va ularda voqea-hodisalarni izchil bayon qilish malakasini shakllantiradi.

Munozarali o‘yinlar innovatsion nutqiy faoliyatning yana bir ko‘rinishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng oddiy ko‘rinishda beriladigan munozaralar – tanlash, taqqoslash, sabab keltirish kabi topshiriqlar bo‘lishi mumkin. Masalan, “Nimani tanlaysan va nega?”, “Qaysi qahramon yaxshi?”, “Bu vaziyatda nima qilgan bo‘larding?” kabi savollar bolaning fikrini asoslashga undaydi. Bunday mashg‘ulotlar orqali bola nafaqat so‘zlaydi, balki o‘z fikrini himoya qilishga urinadi, bu esa nutqning ijtimoiy va mantiqiy jihatlarini mustahkamlaydi.

Innovatsion o‘yinlarning yanada samarali bo‘lishi uchun tarbiyachi tahlil, kuzatuv, baholash va rag‘batlantirish usullarini qo‘llashi muhimdir. Har bir o‘yin jarayonida bolaga kichik yutuqlar uchun maqtov bildirilishi, faol ishtirokchilar rag‘batlantirilishi, ijobiy kayfiyat yaratilishi nutq faolligini sezilarli darajada oshiradi. Tarbiyachi bolani tanqid qilmasdan,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

aksincha uning har bir kichik muvaffaqiyatini qo‘llab-quvvatlashi o‘yinli ta’limning tabiiy rivojlanishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, rolli o‘yinlar innovatsion ta’limning eng samarali turlaridan hisoblanadi. Doktor va bemor, do‘konchi va xaridor, mehmon va mezbon kabi o‘yinlar bolalarning dialogik nutqini rivojlantiradi, ularni real hayotiy vaziyatni tasavvur qilishga va so‘zlashuv jarayonida faol bo‘lishga o‘rgatadi. Bu turdagi o‘yinlarda bola mustaqil fikrlaydi, gap tuzadi, savol beradi va javob qaytaradi.

Nutqni rivojlantirishda sensor o‘yinlar va interfaol topshiriqlar ham alohida ahamiyatga ega. Rasmli kartochkalar, harf va tovush o‘yinlari, tovushni ajratish mashqlari, qiyoslash va farqlash asosidagi topshiriqlar orqali bola so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni, tovushlarning farqini eslab qolishni o‘rganadi. Bunday innovatsion yondashuvlar logopedik muammolarning oldini olishda ham samaralidir.

Innovatsion o‘yinli ta’lim jarayonida guruhiy va juftlikda bajariladigan topshiriqlar bolalarda muloqot madaniyatini shakllantiradi. Bola o‘z fikrini boshqalarga tushuntirishga harakat qiladi, tengdoshlarini tinglaydi, bahs-munozara elementlarida ishtirok etadi. Bu esa nutq faoliyatining ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ayniqsa, STEAM yondashuvi asosidagi o‘yinlar bolalarni nutq faoliyatiga yanada faol jalb etadi. Qurilish konstruktori bilan ishlash, loydan figura yasash, kichik tajribalar o‘tkazish jarayonida bola o‘z qilayotgan amallarini og‘zaki izohlaydi, bu esa nutqning tabiiy rivojlanishiga yordam beradi. Bolaning “Men nima qilyapman?”, “Nima uchun bunday bo‘ldi?” kabi savollar asosida fikr yuritishi uning og‘zaki nutqini faollashtiradi.

Innovatsion o‘yinlar bolalarda nutq motivatsiyasini oshiradi. Bola nachora mashg‘ulotda emas, balki qiziqish bilan o‘ynayotganini his qiladi va nutq faoliyatida erkin bo‘ladi. Bu esa nutqni rivojlantirish jarayonini majburiy emas, balki zavqli mashg‘ulotga aylantiradi. Innovatsion o‘yinli ta’limdan foydalanishda asosiy maqsadlardan yana biri – bolalarning faol kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdir. Buning uchun ta’lim jarayonida ochiq nutq vazifalaridan foydalanish samaralidir. Masalan, bolaga biror predmetni tanlab, uni tasvirlab berish, ko‘rgan voqeasini hikoya qilish yoki biror ob’ekt haqida o‘z fikrini aytish kabi topshiriqlar beriladi. Ushbu faoliyatlar bolaga mustaqil gap tuzishni, o‘z fikrini aniqlik bilan bayon etishni va nutqni mantiqan bog‘lashni o‘rgatadi. Shu tarzdagi topshiriqlarda bola o‘zini erkin his qilganda, uning nutq faolligi sezilarli darajada oshadi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Nutqni rivojlantirishda interaktiv ta’lim platformalari va raqamli o‘yinlar ham muhim ahamiyatga ega. Ayrim o‘yin dasturlari tovushlarni farqlash, so‘zlarni o‘qish, harflarni tanish yoki hikoya mazmunini tushunish kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bu o‘yinlar bolalar uchun qiziqarli bo‘lib, ularni nutqiy mashg‘ulotlarga jalb etadi. Raqamli texnologiyalar orqali bola xatolarini tez anglaydi, to‘g‘ri talaffuz bo‘yicha takrorlash imkoniga ega bo‘ladi, vizual va audio stimulyatorlar uning idrokini faollashtiradi.

Bundan tashqari, bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida ko‘p sensorli ta’lim (multisensory learning) tamoyillari ham qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvda bola bir vaqtning o‘zida ko‘rish, eshitish, ushlash, harakat qilish orqali o‘rganadi. Masalan, harf shaklini qum ustiga chizish, tovushni tinglab, mos harfni topish, predmetni ushlab uning nomini aytish, predmet rangiga qarab guruhlarga ajratish – bularning barchasi nutqni rivojlantirishning multisensor usullaridir. Bu texnologiya ayniqsa nutqi sekin rivojlanayotgan bolalar uchun juda samaralidir, chunki ular ko‘proq his qilish, qidirish va tajriba qilish orqali nutqiy faoliyatga jalb etiladi.

Innovatsion o‘yinlarning samaradorligini oshiruvchi jihatlardan yana biri – emotsional muhitning to‘g‘ri yaratilishidir. Bola o‘yin davomida o‘zini qulay his qilsa, u o‘z fikrini erkin va tabiiy ifoda eta oladi. Shu sababli o‘yin jarayonlari ko‘pincha qiziqarli musiqalar, yorqin ranglar, yumshoq o‘yinchoqlar, quvnoq topshiriqlar bilan uyg‘unlashtiriladi. Emotsional qulaylik bilan uyg‘unlashgan o‘yinlar bolada nutqqa bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi va nutqning tabiiy ravishda paydo bo‘lishini ta’minlaydi.

Nutqni rivojlantirishda innovatsion o‘yinlar ichida kommunikativ drama terapiyasi elementlaridan foydalanish ham o‘z samarasini bermoqda. Drama terapiyasi elementlari bolaning ichki dunyosini ifoda etishga yordam beradi, u o‘zini hissiy jihatdan aniqroq ifoda etishga harakat qiladi. Bu usul qo‘rqoqlik, tortinchoqlik, nutqiy to‘siqlarni kamaytirishda juda foydalidir. Bola qahramon roli orqali, obrazga kirib, o‘z fikr va hislarini erkin namoyon qiladi. Natijada nutqning ravonligi, emotsional boyligi va ifodaviyligi ortadi.

Nutqni rivojlantirishda STEM va STEAM elementlari asosidagi innovatsion o‘yinlar ham keng qo‘llanilmoqda. Masalan, qurilish materiallari bilan ishlash, oddiy tajribalar o‘tkazish, geometrik shakllardan foydalanib kompozitsiya yaratish kabi mashg‘ulotlar bola nutqini faollashtiradi. U bajarilayotgan amallarni izohlaydi, natijani tavsiflaydi va jarayon davomida yangi so‘zlarni faol qo‘llay boshlaydi. Bu usul bolaning tafakkurini chuqurlashtiribgina qolmay, uning nutqiy lug‘at boyligini talab darajasida kengaytiradi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Shuningdek, innovatsion o‘yinlarda kooperativ yondashuv, ya’ni “hamkorlikda o‘rganish modeli” juda samaralidir. Bu usulda bolalar kichik guruhlar bo‘lib ishlaydi, bir-biriga yordam beradi, o‘zaro fikr almashadi va vazifani bajarish jarayonida muloqot qiladi. Bunda bola nutqiy kommunikatsiyaning tabiiy ehtiyojini sezadi va o‘z fikrini ifodalashga intiladi. Guruh muhiti ijtimoiy-nutqiy rivojlanishning eng kuchli mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirishda innovatsion o‘yinli ta’limdan foydalanish o‘quv jarayonining sifatini oshiruvchi eng samarali metodlardan biridir. O‘yin bilan birga zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanishi bola faoliyatini jonlantiradi, uning fikrlash, muloqot va tafakkur doirasini kengaytiradi. Innovatsion yondashuvlar, interfaol texnologiyalar, rolli o‘yinlar, multimediya vositalari, sensor mashqlar nutqni bosqichma-bosqich to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday yondashuvlarda tarbiyachi faqat bilim beruvchi emas, balki bola rivojini rag‘batlantiruvchi yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Natijada bola erkin fikrlaydigan, mustaqil gap tuza oladigan, mazmunli muloqot olib boradigan shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi. – Toshkent.
2. Yo‘ldosheva Sh., Hasanboeva O. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Pedagogika nashriyoti.
3. Rasulova D. Innovatsion o‘yin texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni. – Pedagogika jurnali.
4. Turdiboyeva N. Bolalar nutqini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish. – Ilmiy risola.
5. Ma’naviyat va ma’rifatga oid zamonaviy pedagogik adabiyotlar to‘plami. – Toshkent.
6. Abdullayeva M. Maktabgacha ta’limda STEAM elementlari bilan ishlashning amaliy tavsiyalari. – Ilmiy-amaliy maqola.
7. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

UDK: 336.71:336.77

“BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA KREDIT PORTFELINING SIFATINI OSHIRISH YO’LLARI”

Abdiroxmanov Utkir Pulatovich
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI
IQITISODIYOT BO‘YICHA MUSTAQIL TADQIQOTCHI DOKTORANTI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bank tizimini transformatsiyalash jarayonida kredit portfelining sifatini oshirish masalalari kompleks tahlil qilinadi. Kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi kreditlash modellarini joriy etish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish hamda muammoli kreditlarni kamaytirish usullari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi. Tadqiqotda banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda kredit portfeli sifati muhim omil sifatida asoslanadi hamda transformatsiya sharoitida kredit siyosatini optimallashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

АННОТАЦИЯ

В статье проводится комплексный анализ путей повышения качества кредитного портфеля в условиях трансформации банковской системы. Рассматриваются вопросы совершенствования механизмов управления кредитными рисками, внедрения цифровых технологий и моделей кредитования на основе искусственного интеллекта, диверсификации кредитного портфеля и снижения доли проблемных кредитов. Обосновывается значимость качества кредитного портфеля как ключевого фактора финансовой устойчивости банков, а также разрабатываются практические рекомендации по оптимизации кредитной политики в условиях банковской трансформации.

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of ways to improve the quality of the loan portfolio in the context of banking system transformation. It examines the enhancement of credit risk management mechanisms, the implementation of digital technologies and artificial intelligence–based lending models, loan portfolio diversification, and methods for

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

reducing non-performing loans. The study substantiates the importance of loan portfolio quality as a key factor in ensuring banks' financial stability and proposes practical recommendations for optimizing credit policy under transformation conditions.

kalit so'zlar: bank transformatsiyasi, kredit portfeli sifati, kredit risklari, muammoli kreditlar, raqamli bank xizmatlari, kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik

Ключевые слова: трансформация банков, качество кредитного портфеля, кредитные риски, проблемные кредиты, цифровые банковские услуги, кредитная политика, финансовая устойчивость

Keywords: banking transformation, loan portfolio quality, credit risks, non-performing loans, digital banking services, credit policy, financial stability

KIRISH

So'nggi yillarda global moliyaviy bozorlarning o'zgaruvchanligi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda bank xizmatlariga bo'lgan talabning sifat jihatidan o'zgarishi bank tizimida chuqur transformatsiya jarayonlarini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, tijorat banklarining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblangan kredit faoliyati va uning natijasi bo'lgan kredit portfelining sifati banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Kredit portfeli sifati nafaqat bank foydaliligini, balki likvidlik darajasi, riskka chidamlilik va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini ham belgilaydi.

Banklarni transformatsiyalash jarayonlari kreditlash mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni, kredit risklarini baholashda zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni hamda muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga qaratilgan tizimli choralarni talab etadi. An'anaviy kreditlash usullari o'rnini raqamli platformalar, sun'iy intellektga asoslangan skoring tizimlari va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili egallamoqda. Shu sharoitda kredit portfelining sifatini oshirish masalasi nafaqat banklar, balki butun moliya tizimi uchun strategik vazifaga aylanmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi banklarni transformatsiyalash sharoitida kredit portfelining sifatini oshirish yo'llarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda bank kredit siyosatini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Kredit portfeli sifati va kredit risklarini boshqarish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xalqaro tadqiqotlarda kredit portfeli sifati asosan muammoli kreditlar ulushi, qarzdorlarning

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

to‘lov intizomi va kreditlarning diversifikatsiya darajasi orqali baholanadi. Basel qo‘mitalari tomonidan ishlab chiqilgan prudensial me’yorlar kredit risklarini kamaytirish va bank barqarorligini ta’minlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda esa bank kredit portfelining sifati ko‘proq milliy bank tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, real sektor bilan aloqadorlik darajasi va davlat ishtirokining ta’siri nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. O‘zbekiston sharoitida banklarni transformatsiyalash jarayoni davlat ulushi yuqori bo‘lgan banklarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish, kredit resurslaridan samarali foydalanish va muammoli kreditlarni qisqartirish bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganilmoqda.

Shuningdek, so‘nggi yillarda raqamli bank xizmatlari va sun’iy intellekt texnologiyalarining kreditlash jarayoniga ta’siri bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar faollashdi. Ushbu tadqiqotlar kredit portfeli sifatini oshirishda raqamli skoring, avtomatlashtirilgan monitoring va kreditlash jarayonlarining shaffofligini ta’minlash muhimligini asoslab beradi.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqotda kredit portfeli sifatini oshirish yo‘llarini aniqlash uchun umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usullari orqali kredit portfelining tarkibi va sifati o‘rganildi, taqqoslash usuli yordamida an’anaviy va raqamli kreditlash mexanizmlari solishtirildi.

Shuningdek, statistik kuzatuv va iqtisodiy tahlil usullari orqali muammoli kreditlar ulushining bank barqarorligiga ta’siri baholandi. Tadqiqot davomida mantiqiy umumlashtirish usuli asosida kredit risklarini boshqarishning samarali mexanizmlari aniqlanib, transformatsiya sharoitida kredit siyosatini optimallashtirish bo‘yicha xulosalar ishlab chiqildi.

Metodologik asos sifatida xalqaro bank amaliyoti, prudensial nazorat talablari hamda bank transformatsiyasiga oid nazariy yondashuvlardan foydalanildi.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, banklarni transformatsiyalash sharoitida kredit portfelining sifatini oshirish bir nechta asosiy yo‘nalishlar orqali amalga oshiriladi. Birinchidan, kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Kredit berishdan oldingi tahlil jarayonlarining chuqurlashtirilishi, qarzdorlarning moliyaviy holatini real vaqt rejimida baholash kreditlarning qaytmaslik xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Ikkinchidan, kredit portfelini diversifikatsiya qilish kredit risklarini kamaytirishning samarali vositasi hisoblanadi. Tarmoqlar, hududlar va qarzdorlar kesimida muvozanatli kreditlash bank portfelining barqarorligini oshiradi. Bir soha yoki yirik qarzdorlarga haddan tashqari bog‘lanib qolish kredit portfeli sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi kreditlash modellarini joriy etish kredit portfeli sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Avtomatlashtirilgan skoring tizimlari, Big Data tahlili va raqamli monitoring vositalari kredit risklarini aniqroq baholash imkonini beradi.

MUHOKAMA. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kredit portfeli sifati bank transformatsiyasining markaziy elementi hisoblanadi. Transformatsiya jarayonida faqat texnologik yangilanishlar bilan cheklanib qolish yetarli emas, balki kredit siyosati, ichki nazorat va risk-menejment tizimlari ham kompleks tarzda qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Raqamli kreditlash mexanizmlarining joriy etilishi inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytiradi, biroq axborot xavfsizligi va texnologik risklarni ham yuzaga keltiradi. Shu bois, kredit portfeli sifatini oshirish jarayonida texnologik va moliyaviy risklar o‘rtasida muvozanatni saqlash muhimdir.

Shuningdek, muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish va ularni erta bosqichda aniqlash mexanizmlarini kuchaytirish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, banklarni transformatsiyalash sharoitida kredit portfelining sifatini oshirish bank tizimining barqaror rivojlanishi uchun muhim strategik vazifa hisoblanadi. Kredit risklarini samarali boshqarish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ushbu jarayonning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

Transformatsiya sharoitida kredit siyosatini optimallashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va real sektorni barqaror moliyalashtirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari bank amaliyotida kredit portfeli sifatini oshirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“2020–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”** PF–5992-son Farmon. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”** PF–60-son Farmon. – Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“Bank-moliya tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** PQ–3270-son Qaror. – Toshkent, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“Davlat ulushi mavjud tijorat banklarini transformatsiya qilish strategiyasi to‘g‘risida”** PQ–5200-son Qaror. – Toshkent, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **Bank faoliyatini prudensial tartibga solish qoidalari**. – Toshkent, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **O‘zbekiston bank tizimining rivojlanishi bo‘yicha yillik hisobot**. – Toshkent, 2022.
7. Karimov I. A. **Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari**. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
8. Mirziyoyev Sh. M. **Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak**. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
9. Lavrushin O. I. **Банковское дело**. – M.: КНОРУС, 2019.
10. Жуков Е. Ф. **Банковский менеджмент**. – M.: ЮНИТИ-ДАНА, 2018.
11. Saunders A., Allen L. **Credit Risk Management in and out of the Financial Crisis**. – New York: Wiley, 2010.
12. Mishkin F. S. **The Economics of Money, Banking and Financial Markets**. – Boston: Pearson, 2016.
13. Rose P. S., Hudgins S. C. **Bank Management & Financial Services**. – New York: McGraw-Hill, 2013.
14. Hull J. **Risk Management and Financial Institutions**. – Hoboken: Wiley, 2015.
15. Ozili P. K. Impact of Digital Finance on Banking Stability // *Borsa Istanbul Review*. – 2018. – Vol. 18(4). – P. 329–340.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

16. King B. **Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank**. – Singapore: Wiley, 2018.
17. Tursunov B. O. Tijorat banklarida kredit portfelining sifati va baholash masalalari // *Moliya va bank ishi*. – 2019. – №2. – B. 22–30.
18. Abduvaxidov A. A. Kredit risklarini boshqarishning zamonaviy usullari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2020. – №4. – B. 45–53.
19. Xudoyberdiyev Z. S. Bank kreditlash tizimini takomillashtirish yo‘llari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
20. Qodirov A. A. **Bank risklari va ularni boshqarish**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
21. World Bank. **Banking Sector Stability and Credit Risk Management**. – Washington, DC, 2019.
22. IMF. **Global Financial Stability Report**. – Washington, DC, 2022.
23. Basel Committee on Banking Supervision. **Principles for the Management of Credit Risk**. – Basel: BIS, 2000.
24. Basel Committee on Banking Supervision. **Basel III: A Global Regulatory Framework**. – Basel: BIS, 2011.
25. European Central Bank. **Credit Risk Management Practices in Banks**. – Frankfurt am Main, 2021.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

INTELLEKTUAL MULK OBYEKTI SIFATIDA SANOAT NAMUNALARI VA SELEKSIYA YUTUQLARINING XALQARO JARAYONLARDA AHAMIYATI

Nomozov Xusan Axmat o'g'li
xusannomozov1422@gmail.com
Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti «Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi» kafedrasi o'qituvchisi.
Ibragimova Munisa Xakim qizi
munisaibragimova203@gmail.com
Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi.

Anotatsiya: Ushbu maqola intellektual mulk obyektlari sifatida sanoat namunalari va seleksiya yutuqlarining milliy va xalqaro huquqiy asoslarini tahlil qiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xususan "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi va "Seleksiya yutuqlari va ularning himoyasi to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, xalqaro huquqiy instrumentlar (Parij Konvensiyasi, TRIPS bitimi, Gaaga kelishuvi, UPOV Konvensiyasi) doirasida ularning yaratilishi, patentlanishi va himoya mexanizmlari batafsil yoritilgan. Maqola sanoat namunalari va seleksiya yutuqlarining innovatsion iqtisodiyotdagi o'rni, huquqiy himoya mexanizmlari va patent egalarining huquqlari haqida ilmiy va amaliy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Intellektual mulk**.** Sanoat namunalari**.** Seleksiya yutuqlari**.** Patent**.** Hukukiy muhofaza**.** Eksklyuziv huquqlar**.** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi**.** Xalqaro bitimlar**.** UPOV Konvensiyasi**.** Parij Konvensiyasi**.** TRIPS bitimi**.** Gaaga kelishuvi

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 53-moddasida "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi" deb belgilab qo'yilgan.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yuridik kadrlarga intellektual mulk bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalar berish borasida muayyan ilmiy-ta’lim salohiyati shakllantirildi hamda bir qator tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi.

2021-yil 28-yanvarda Prezident tomonidan intellektual mulkning jahon miqyosida integratsiyalashuvdagi strategik ahamiyatini inobatga olgan holda “Intellektual mulk ob’ektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Ushbu hujjatga muvofiq, 2021-yil 1-apreldan quyidagi tartiblar amaliyotga joriy etildi:

— xalqaro standartlardan kelib chiqib, tovar va xizmat belgilari faqat tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy yoki yuridik shaxslar nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilishi haqidagi cheklovlar bekor qilindi;
— intellektual mulk ob’ektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish muddatlarini sezilarli darajada qisqartirishga xizmat qiladigan tezkor ekspertiza tizimi joriy etildi; bunda dastlabki qidiruvning o‘tkazilish tartibi tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida belgilanishi nazarda tutildi;
— Adliya vazirligiga ekspertiza jarayonida autsorsing mexanizmlaridan foydalanish amaliyotini yo‘lga qo‘yish vazifasi yuklatildi.

2022-yilda intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha strategiya va yo‘l xaritalari ishlab chiqildi, qo‘shimcha tartiblar belgilandi. 2025 yilda esa yangi tashabbuslar qabul qilindi — jumladan, IP obyektlar sonini ko‘paytirish, maxsus elektron tizimlar, AI texnologiyalaridan foydalanish va boshqalar orqali himoyani kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar e’lon qilindi .

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotda intellektual faoliyat mahsuli sifatida yaratilgan obyektlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bir qator davlatlarda yalpi ichki mahsulotning qariyb uchdan bir qismi aynan intellektual mulk obyektlari asosida shakllanadigan daromadlar hisobiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimiz fuqarolik qonunchiligida esa intellektual mulk huquqi mustaqil institut sifatida tizimli ravishda shakllanib bo‘ldi. So‘nggi yillarda ushbu sohaga doir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, intellektual mulk obyektlarining huquqiy himoyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

hayotimizni yengillashtirayotgan, vaqtni tejayotgan va yuqori daromad olib kelayotgan deyarli har bir sohaning asosida ma’lum bir ijodiy faoliyat natijasi yotadi. Shuni inobatga olgan holda, davlat tomonidan intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Intellektual mulk huquqi – bu shaxsning intellektual (aqliy) mehnati natijasiga nisbatan vujudga keladigan huquq bo‘lib, uning egasi mazkur intellektual mulk obyektidan xohlagan shakl va usulda, to‘liq qonuniy asosda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Intellektual mulk obyektidan boshqa shaxslar foydalanishi esa faqatgina huquq egasining roziligi bilan amalga oshiriladi (O‘zbekiston Respublikasi FK, 1034-modda). Ba’zi obyektlar — ixtiro, sanoat namunasi, foydali model, shuningdek individuallashtirish vositalari (tovar belgilari, firma nomlari va boshqalar) bo‘yicha mutlaq huquq davlatning vakolatli idoralari beradigan maxsus hujjatlar — patent yoki guvohnoma asosida shakllanadi va himoya qilinadi.

Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqidagi boshqa mulk turlaridan (ashyolar, qimmatli qog‘ozlar) bir qator o‘ziga xos jihatlari bilan farqlanadi:

a) ular ko‘pincha moddiy shaklga ega bo‘lmay, g‘oya, bilim yoki axborot ko‘rinishida mavjud bo‘ladi;
b) g‘oya yoki bilim ko‘rinishidagi obyektga odatiy moddiy buyumga egalik qilgandek egalik qilish mumkin emas;

v) bir nechta shaxs bir vaqtning o‘zida cheklanmagan doirada undan foydalanishi mumkin;
g) mulk huquqining muddatsizligi haqidagi qoida (FK 164-modda) ularga tatbiq etilmaydi, ko‘pchilik intellektual mulk obyektlari (nou-xau bundan mustasno) qonunlarda belgilangan muddatlar oralig‘ida himoya qilinadi;
d) mazkur muddat tugagach, muallifning ayrim shaxsiy huquqlariga rioya etilgan holda obyekt umumiy foydalanish mulkiga aylanadi;
ye) intellektual mulk obyektlarini himoya qilishda vindikatsiya da’vosi (FK 228-modda) qo‘llanilmaydi;
yo) ularga nisbatan odatiy mulk huquqidan ko‘ra, mutlaq huquqlar to‘g‘risidagi me’yorlar qo‘llanadi;

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

j) intellektual mulk huquqi ma’lum hudud bilan chegaralangan bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Patent idorasi bergan patent faqat O‘zbekiston hududida yoki xalqaro shartnomalarda belgilangan davlatlarda amal qiladi;
z) ko‘plab intellektual mulk obyektlari bo‘yicha muallifga tegishli shaxsiy (nomulkiy) huquqlar mavjud bo‘lib, ulardan foydalanuvchi shaxslar ushbu huquqlarga rioya etishi shart.

Intellektual mulk obyektlari kelib chiqish manbai va huquqiy rejimiga ko‘ra quyidagi toifalarga bo‘linadi:

a) intellektual faoliyat natijalari — fan, adabiyot va san’at asarlari; ijrolar, fonogrammalar, eshittirishlar; dasturiy ta’minot va ma’lumotlar bazalari; ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari; seleksiya yutuqlari; oshkor qilinmagan axborot, jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);
b) fuqarolik muomalasi ishtirokchilari, tovarlar, ishlar va xizmatlarning o‘ziga xos belgilarini ifodalovchi vositalar — firma nomlari, tovar (xizmat) belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomi;

v) FK hamda boshqa qonunlarda nazarda tutilgan holatlardagi intellektual faoliyat natijalari va fuqarolik muomalasi ishtirokchilari, tovarlar va xizmatlarning boshqa alomatlari (FK 1031-modda).

Mazkur sohada yaratilgan yangi mahsulotlar, yangi nomlar va alomatlarga nisbatan ham FKning 4-bo‘limida hamda boshqa tegishli qonunlarda belgilangan intellektual mulkka oid qoidalar tatbiq etiladi.

Fuqarolik kodeksining 1031-moddasiga muvofiq, intellektual mulk obyektlari quyidagi toifalarga bo‘linadi:

1. Intellektual faoliyat natijalari, jumladan:

– fan, adabiyot va san’at asarlari;

– ijrolar, fonogrammalar, tele va radioeshittirish tashkilotlari ko‘rsatuv yoki eshittirishlari;

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

– elektron hisoblash mashinalari (EHM) uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari;

– ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;

– seleksiya yutuqlari;

– oshkor etilmagan axborot, xususan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau).

2. Fuqarolik muomalasida qatnashuvchilar hamda tovar, xizmat va ishlarga xos bo‘lgan alomatlarni ifodalovchi vositalar, ya’ni:

– firma nomlari;

– tovar va xizmat ko‘rsatish belgilari;

– geografik ko‘rsatkichlar;

– tovar kelib chiqqan joy nomi.

3. Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa mahsullari hamda muomala ishtirokchilarining alomatlarini aks ettiruvchi vositalar.

Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilganligi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, maxsus hujjat berilishi asosida vujudga keladi. Huquqiy himoya:

— obyektning yaratilganlik fakti bilan;

— yoki qonunchilikda belgilanadigan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan himoya hujjati berilishi orqali ta’minlanadi.

Oshkor etilmagan axborotga oid huquqiy himoya shartlari alohida qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Quyidagi intellektual obyektlar yaratilgan paytdan boshlab huquqiy muhofaza qilinadi:

– fan, adabiyot va san’at asarlari;

– EHM dasturlari va ma’lumotlar bazalari;

– ijrolar, sahnalashtirish, eshittirish va ko‘rsatuvlar;

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

– integral sxemalar topologiyalari.

Bunda obyekt muallif tomonidan og‘zaki, yozma, tasviriy yoki idrok qilinishi mumkin bo‘lgan boshqa shaklda ifodalangan ondan boshlab muhofazaga ega bo‘ladi. Shu vaqtning o‘zidayoq muallifning subyektiv huquqlari yuzaga keladi va uchinchi shaxslar tomonidan foydalanish rasmiy ro‘yxatga olish talab qilinmaydi. Hatto ayrim obyektlar ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lsa ham (masalan, EHM dasturlari) bu jarayon huquqiy himoya berilishiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Obyektning O‘zbekiston yoki chet el hududida yaratilganligining farqi yo‘q — baribir u huquqiy muhofaza qilinadi.

Quyidagi intellektual mulk obyektlarining huquqiy himoyasi esa vakolatli organ tomonidan rasmiy hujjat berilishi orqali yuzaga keladi:

– ixtiro va sanoat namunalari bo‘yicha patent;

– foydali modellarga guvohnoma (“Ixtirolar, sanoat namunalari va foydali modellar to‘g‘risida”gi Qonun, 3-modda);

– seleksiya yutuqlariga patent;

– tovar (xizmat) belgisi bo‘yicha guvohnoma;

– firma nomi bo‘yicha davlat reestriga kiritilganlik haqidagi dalolatnoma;

– tovar kelib chiqqan joy nomiga oid guvohnoma.

Intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va huquqiy himoya berish vakolati Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligiga yuklatilgan. Beriladigan huquqiy muhofaza yorlig‘ida obyekt nomi, uning muhim xususiyatlari, muallif yoki sohibning nomi, himoya muddatining boshlanishi va tugashi, shuningdek yorliqni bergan davlat organi nomi qayd etiladi va tegishli tartibda tasdiqlanadi. Firma nomiga beriladigan huquqiy muhofaza yorlig‘i amal qilish muddati bilan chegaralanmaydi. Tovar (xizmat ko‘rsatish) belgisi yoki tovar chiqarilgan joy nomiga bo‘lgan huquqlar bo‘yicha beriladigan huquqiy muhofaza sertifikati esa vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartib asosida muntazam ravishda uzaytirib borilishi mumkin. Sanoat namunasi va foydali modelga taalluqli huquqiy muhofaza hujjatlari esa cheklangan muddatga uzaytirilishi mumkin.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Shu o‘rinda, intellektual mulk huquqining obyektlaridan biri bo‘lgan **sanoat namunalari va seleksiya yutuqlarining** mazmuni, ularning yaratilish tartibi hamda xalqaro maydondagi o‘rni va ahamiyatini alohida ko‘rib chiqish zarur.

Sanoat namunalari — bu mahsulotning tashqi ko‘rinishini belgilovchi shakl, chizma, konfiguratsiya, bezak, ranglar kombinatsiyasi yoki ularning majmuasidan iborat intellektual mulk obyektidir. Ular mahsulot dizaynining original ko‘rinishini himoya qilish, bozorda raqobatchilardan ajratib turuvchi noyob estetik yechimlarni yaratish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida sanoat namunalari bilan bog‘liq huquqiy tartib **“Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonun** (2002 yil 29.08, № 397-II) bilan belgilanadi. Qonun sanoat namunasini patentlash, patent egasining huquqlari va himoya mexanizmlarini tartibga soladi.

Qonunning 8-moddasida sanoat namunasining patentga layoqatlilik mezonlari belgilangan. Agar sanoat namunasi sifatida taqdim etilgan obyekt **yangi** va **original (o‘ziga xos)** bo‘lsa, u huquqiy himoyaga ega bo‘ladi. Sanoat namunasining asosiy belgilari majmui ustuvorlik sanasigacha dunyoda ommaga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarda uchramasa, u **yangilikka ega** deb topiladi. Sanoat namunasining yangiligini baholashda, ustuvorlik muddati avvalroq bo‘lgan, topshirilgan va qaytarib olinmagan patent arizalari ham inobatga olinadi. Sanoat namunasi, agar uning muhim belgilar to‘plami buyumning xususiyatlariga ijodiy yondashuv bilan bog‘langan bo‘lsa, **original** deb e’tirof etiladi. Agar sanoat namunasi haqidagi ma’lumot muallif, ariza beruvchi yoki ulardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita axborot olgan shaxs tomonidan ommaga ma’lum qilinsa, va patent olish uchun ariza ushbu oshkor etilgan kundan boshlab ko‘pi bilan olti oy ichida Agentlikka topshirilgan bo‘lsa, bunday oshkor etish sanoat namunasining patentga layoqatliligiga ta’sir qilmaydi. Bunda bu holatni tasdiqlash mas’uliyati muallif yoki talabnoma beruvchiga yuklanadi. Buyumning tashqi ko‘rinishini ifodalovchi badiiy-konstruktorlik yechimi sanoat namunalari tarkibiga kiradi.

Quyidagilar sanoat namunalari sifatida tan olinmaydi:
— bosma mahsulotlar;

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

— arxitektura obyektlari (kichik arxitektura shakllaridan tashqari), sanoat va gidrotexnika inshootlari hamda boshqa ko‘chmas inshootlar;
— suyuq, gazsimon, sochiluvchan yoki shunga o‘xshash o‘zgaruvchan shakldagi moddalar;
— buyumning faqat texnik vazifasiga oid yechimlar;
— jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq normalariga zid bo‘lgan yechimlar.

Sanoat namunasi patenti **o‘n yil** davomida amal qiladi. Qonunga ko‘ra, ixtiro patentining amal muddati qonunchilikda ko‘zda tutilgan hollarda, patent egasining arizasiga muvofiq Agentlik tomonidan **ko‘pi bilan besh yilga** uzaytirilishi mumkin. Bunday uzaytirish tartibi Agentlik tomonidan belgilanadi.

Sanoat namunasi patenti va foydali model patenti amal qilish muddati patent egasining arizasiga asosan Agentlik tomonidan mos ravishda **besh yilga** hamda **uch yilga** cho‘zilishi mumkin. 1883-yilda Sanoat mulkini muhofaza qilishga oid **Parij konvensiyasi** qabul qilingan. Hozirda ushbu xalqaro bitimga **176 ta davlat** a’zolik qiladi. Mazkur xalqaro kelishuv boshqa davlatlarda mualliflarning intellektual ijod mahsulotlarini himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan **birinchi yirik tashabbus** hisoblanadi. Parij konvensiyasi patentlar, tovar belgilariga oid masalalar, sanoat namunalari, foydali modellar, firma nomlari, geografik ko‘rsatkichlar (tovar kelib chiqishi belgilari va ishlab chiqarilgan joy nomlari) hamda adolatsiz raqobatni bartaraf etishga doir qoidalarni belgilaydi. Ushbu xalqaro hujjat mualliflarning intellektual asarlarini boshqa mamlakatlarda himoya qilishga imkon yaratgan **dastlabki muhim qadam** bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 25-dekabrda Jahon intellektual mulk tashkiloti tarkibiga kirgan, 1993-yildan esa sanoat mulkini himoya qilishga doir Parij konvensiyasiga a’zo bo‘lgan.

Konvensiyaning asosiy normalari uch yo‘nalishga ajratilgan: **milliy tartib**, **ustuvorlik huquqi** va **umumiy qoidalar**. Parij konvensiyasining 1-moddasiga muvofiq, sanoat mulki tushunchasi keng mazmunda talqin qilinadi va sanoat, savdo, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, qazib olish sohasi hamda barcha mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlarini o‘z ichiga oladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Adabiy va san’at asarlarini himoya qilishga oid Bern konvensiyasi. Bern konvensiyasi asarlar hamda ularning mualliflari huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan. Ushbu kelishuv fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo va uning Xalqaro adabiyot va san’at uyushmasi tashabbusi bilan o‘tkazilgan kampaniya natijasida qabul qilingan. Konvensiya mualliflarga o‘z asarlari ustidan nazorat o‘rnatish va xalqaro miqyosda gonorar olish imkoniyatini yaratdi.

U uchta asosiy tamoyilga tayanadi va himoyaning minimal darajasini belgilovchi qator qoidalarni, shuningdek, ularni qo‘llashni istovchi rivojlanayotgan davlatlar uchun mo‘ljallangan maxsus normalarni o‘z ichiga oladi.

Uch asosiy prinsip quyidagilardan iborat:

1. **Milliy rejim**
2. **Avtomatik himoya**
3. **Himoya asar yaratilgan davlatdagi himoya borligiga bog‘liq emas**

Mazkur tamoyillar dunyoning ko‘plab mamlakatlarida mualliflik huquqini muhofaza qilishning yangi xalqaro tizimini shakllantirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, axborot va texnologik almashinuv hamda xalqaro savdoni rivojlantirish imkonini yaratdi.

Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini belgilashga doir Lokarno kelishuvi. Lokarno shartnomasi 1968-yilda imzolangan va 1979-yilda o‘zgartirilgan. Mazkur bitim sanoat namunalari uchun yagona tasnif — **Lokarno tasnifi**ni joriy qildi. A’zo davlatlarning vakolatli tashkilotlari sanoat namunalarini saqlash yoki ro‘yxatga olishga oid rasmiy hujjatlar va nashrlarda, ushbu namunalarga tegishli bo‘lgan tovarlar tasnif sinflari hamda kichik sinflariga oid raqamlarni ko‘rsatishi shart.

Shartnoma doirasida Ittifoqning barcha a’zolari ishtirok etadigan **Ekspertlar qo‘mitasi** tuzilgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi tasnifni muntazam qayta ko‘rib chiqishdan iborat. Bitimga qo‘shilish huquqi Sanoat mulkini muhofaza qilish bo‘yicha Parij konvensiyasiga (1883) a’zo bo‘lgan davlatlarga taqdim etiladi. Ratifikatsiya hujjatlari yoki qo‘shilish to‘g‘risidagi arizalar BMT Bosh direktoriga saqlash uchun topshirilishi lozim.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Patent egasining huquqlari:

- Sanoat namunasidan foydalanishni nazorat qilish;
- Ishlab chiqarish, sotish, import qilishni taqiqlash yoki ruxsat berish;
- Litsenziya shartnomalari tuzish;
- Huquqni boshqa shaxslarga o‘tkazish.

Patent egasining roziligisiz foydalanish **huquq buzilishi** hisoblanadi. Qonun huquqni himoya qilish choralarini belgilaydi: zararlarni qoplash, noqonuniy mahsulotlarni musodara qilish va sud orqali himoya qilish.

Sanoat namunalari xalqaro miqyosda quyidagi hujjatlar bilan himoyalanadi:

Parij Konvensiyasi (1883 yil) – milliy rejim va ustuvorlik huquqi tamoyillarini belgilaydi. Ustuvorlik huquqi 6 oy ichida boshqa ishtirokchi davlatlarda ham saqlanadi.

TRIPS bitimi (1994 yil, WTO qoidalari) – minimal 10 yillik himoya muddatini belgilaydi, samarali huquqiy mexanizmlarni joriy etishni talab qiladi. TRIPS bitimi davlatlarga xalqaro standartlarga mos milliy qonunchilikni yaratish majburiyatini yuklaydi.

Gaaga kelishuvi (Hague Agreement, 1925 yil; oxirgi o‘zgartirishlar 1999, 2001) – bitta xalqaro ariza orqali bir nechta davlatlarda sanoat namunasini ro‘yxatdan o‘tkazish imkonini beradi, bu dizayn egalari uchun xalqaro himoyani soddalashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Parij Konvensiyasi, TRIPS bitimi va Gaaga kelishuvi talablariga mos milliy qonunchilikni ishlab chiqqan. Natijada, sanoat namunalari milliy va xalqaro darajada himoyalanadi. Sanoat namunalari intellektual mulk tizimining ajralmas qismi bo‘lib, mahsulot dizaynining estetik va tashqi xususiyatlarini himoya qiladi. Milliy va xalqaro huquqiy mexanizmlar sanoat namunalari egalariga eksklyuziv huquqlarni beradi, ularni noqonuniy foydalanishdan himoya qiladi. Bu esa innovatsion g‘oyalarni yaratish va ularni tijoriylashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Seleksiya yutuqlari — bu yangi navlar, urug‘lar, zotlar yoki boshqa seleksiya obyektlarini yaratish natijasida hosil bo‘lgan biotexnologik innovatsiyalar bo‘lib, ular

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

intellektual mulkning alohida obyekti sifatida himoyalanadi. Seleksiya yutuqlarini himoya qilish orqali selektorlar o‘z ilmiy va amaliy ishlarini tijoriylashtirish va boshqalarning noqonuniy foydalanishidan himoya qilish imkoniga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi seleksiya yutuqlari bilan bog‘liq huquqiy tartibni belgilaydi, shuningdek, xalqaro bitimlar orqali ham seleksiya yutuqlarini himoya qilish mexanizmlarini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi seleksiya yutuqlarini himoya qilish masalalari bilan quyidagi qonun va normativ-huquqiy hujjatlar tartibga solinadi:

1. **“Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi Qonun** (O‘zbekiston Respublikasi, 29.08.2002 yildagi 395-II-son) – bu qonun seleksiya yutuqlari patentlash, huquq egasi va selektorlarning huquqlarini belgilaydi.
2. **“Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonun** (2002 yil 29.08, № 397-II) – seleksiya yutuqlariga ham tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan ixtirolar va foydali modellarni patentlashni tartibga soladi.
3. **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va me’yoriy hujjatlari**, ular seleksiya yutuqlarini ro‘yxatga olish, patent berish va litsenziya berish tartibini belgilaydi.

Seleksiya yutug‘ining huquqiy tabiati va uning ahamiyati

Seleksiya yutug‘ining huquqiy mohiyati shundan iboratki, u intellektual mulkning alohida turi sifatida e’tirof etiladi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk departamenti tomonidan huquqiy himoya qilinadi. Seleksiya yutug‘i ham mualliflik huquqi obyektlari kabi bir nafar yaratuvchi yoki bir nechta hammualliflar tomonidan yaratilishi mumkin.

Seleksiya yutug‘i uchun patent kimlarga beriladi?

395-II-son Qonun talablariga muvofiq quyidagi subyektlarga patent berilishi mumkin:

- **Seleksiya yutug‘i muallifi (yoki hammualliflari)** hamda ularning **merosxo‘rlari**;

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

- Muallif yoki uning merosxo‘ri tomonidan patent olish haqidagi arizada yoki ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonigacha topshirilgan talabnoma beruvchini o‘zgartirish haqidagi arizada ko‘rsatilgan **yuridik yoki jismoniy shaxslar** (ularning roziligi bilan);
- Qonunning **7-moddasida ko‘rsatilgan hollarda — ish beruvchiga**.

Agar sanoat namunasi uchun yangi va original bo‘lish, foydali model uchun yangilik va sanoatda qo‘llash imkoniyati, ixtiro uchun esa yangilik, ixtirolik darajasi va sanoatga tatbiq etiluvchanlik talablari mavjud bo‘lsa, seleksiya yutug‘i uchun ham quyidagi mezonlar majburiy hisoblanadi:

- **yangilik**;
- **farqlanish**;
- **turdoshlik**;
- **barqarorlik**.

Seleksiya yutuqlarini patentlash uchun O‘zbekiston Respublikasida quyidagi asosiy shartlar talab etiladi (Qonun, Modda 5-6):

1. **Yangilik** – nav, zot yoki seleksiya obyekti ilgari dunyo miqyosida ma’lum bo‘lmasligi kerak.
2. **O‘ziga xoslik** – mutaxassis uchun yangi nav yoki zotning boshqa mavjud variantlardan aniq farqlanuvchi xususiyatlari bo‘lishi lozim.
3. **Sanoatda qo‘llash imkoniyati** – nav yoki zotni ishlab chiqarish, ko‘paytirish va tijoriy foydalanish amalda mumkin bo‘lishi kerak.

Patent olish uchun selektor **Davlat intellektual mulk agentligiga (DIMA)** ariza topshiradi. Ariza tarkibiga tavsif, tasvirlar va selektorlar haqidagi ma’lumotlar kiradi. Ekspertiza jarayonida yangilik va o‘ziga xoslik tekshiriladi va ijobiy xulosa berilganda patent rasmiylashtiriladi.

Patent egasi seleksiya yutuqlaridan foydalanish ustidan quyidagi huquqlarga ega:

- Nav yoki zotni ishlab chiqarish, sotish va import qilishni nazorat qilish;

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

- Litsenziya shartnomalari tuzish;
- Patentni boshqa shaxslarga o‘tkazish;
- Noqonuniy foydalanish holatlarida zararlarni qoplash va sud orqali himoya qilish.

Patent muddati **20 yilni** tashkil qiladi (qonun bilan belgilangan) va maxsus hollarda uzaytirilishi mumkin.

Xalqaro huquqiy asoslar

Seleksiya yutuqlarini xalqaro miqyosda himoya qilish quyidagi hujjatlar orqali amalga oshiriladi:

UPOV Konvensiyasi (International Union for the Protection of New Varieties of Plants, 1961 yil; oxirgi o‘zgartirishlar 1991, 1999)

- UPOV Konvensiyasi seleksiya yutuqlarini milliy patent tizimidan mustaqil himoya qilishni belgilaydi.
- Selektorlar eksklyuziv huquqlarga ega bo‘lib, yangi nav yoki zotdan tijoriy maqsadlarda foydalanishni nazorat qiladi.
- Konvensiya seleksiya yutuqlari patentini kamida **20 yil**, g‘alla va ba’zi boshqa o‘simliklar uchun esa 25 yil himoya qilishni talab qiladi.

TRIPS bitimi (1994 yil, WTO qoidalari)

- Seleksiya yutuqlarini himoya qilishni intellektual mulk obyekti sifatida tan oladi (Modda 27.3b).
- Davlatlarga yangi navlarni himoya qilish, litsenziya mexanizmlarini joriy qilish va patent egalarining huquqlarini ta’minlash majburiyatini yuklaydi.

Parij Konvensiyasi (1883 yil)

Milliy rejim va ustuvorlik huquqi tamoyillarini belgilaydi. Seleksiya yutuqlari uchun ham milliy va xalqaro patentlar orasida ustuvorlik huquqi ta’minlanadi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

UPOV konvensiyasi: tushuncha va mazmun

O‘simliklarning yangi navlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro ittifoq — UPOV, Jeneva shahrida joylashgan hukumatlararo tuzilma bo‘lib, yangi o‘simlik navlarini himoyalash tizimini shakllantirish va rivojlantirish bilan shug‘ullanadi.

UPOV 1961-yilda Parijda qabul qilingan Konvensiya asosida tashkil topgan bo‘lib, hujjat 1972, 1978 va 1991-yillarda qayta ko‘rib chiqilgan. Konvensiya jami 42 moddadan iborat. UPOVning asosiy maqsadi — jamiyat manfaatlari yo‘lida yangi navlar yaratishni qo‘llab-quvvatlash, buning uchun samarali huquqiy himoya tizimini shakllantirishdir.

Konvensiyaga muvofiq UPOVning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- O‘simlik navlarini himoya qilish sohasida xalqaro huquqiy, texnik va ma’muriy asoslarni shakllantirish va takomillashtirish;
- Davlatlar va xalqaro tashkilotlarga milliy qonunchilikni ishlab chiqish va samarali PVP (Plant Variety Protection) tizimini joriy etishda yordam berish;
- UPOV tizimi bo‘yicha axborot va bilimlarni targ‘ib qilish.

2022-yilda UPOV ikki marotaba yillik sessiya o‘tkazgan:
— 6-yanvarda **UPOV PRISMA**ning yangi versiyasi e’lon qilindi (Press-reliz №135);
— 28-oktabrda **UPOVning navbatdagi majlisi** o‘tkazildi (Press-reliz №136), unda barcha ishtirokchi davlatlar faoliyati tahlil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi UPOV Konvensiyasiga 1998 yilda qo‘shilgan va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirgan. Bu seleksiya yutuqlarini milliy hamda xalqaro himoya qilish imkonini beradi.

Seleksiya yutuqlari agrar va biotexnologik innovatsiyalarni himoya qilishda muhim vosita hisoblanadi. Milliy qonunchilik selektorlarning huquqlarini kafolatlaydi, patent egalariga nav yoki zot ustidan eksklyuziv huquqlar beradi. Xalqaro bitimlar esa seleksiya yutuqlarining boshqa davlatlarda himoyasini ta’minlaydi va xalqaro standartlarga mos kelishini kafolatlaydi. Shunday qilib, seleksiya yutuqlarini himoya qilish milliy va xalqaro

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

darajada ilmiy ishlanmalarni tijoriylashtirish va selektorlarni rag‘batlantirish uchun asosiy mexanizm hisoblanadi.

Xulosa: Sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari intellektual mulk tizimining muhim obyekti bo‘lib, ularning himoyasi innovatsion iqtisodiyot va ilmiy-texnik taraqqiyot uchun strategik ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida ushbu obyektlar milliy qonunchilik bilan tartibga solingan bo‘lib, sanoat namunalari “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonun, seleksiya yutuqlari esa “Seleksiya yutuqlari va ularning himoyasi to‘g‘risida”gi qonun asosida patentlanadi va himoyalanadi. Patent egalariga ushbu obyektlar ustidan eksklyuziv huquqlar beriladi, bu esa ularning tijoriylashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi, raqobatbardosh mahsulotlar yaratish va ilmiy-texnik yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish uchun rag‘batlantiradi.

Xalqaro miqyosda sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari Parij Konvensiyasi, TRIPS bitimi, Gaaga kelishuvi va UPOV Konvensiyasi orqali muhofaza qilinadi. Bu xalqaro mexanizmlar patent egalarining huquqlarini bir nechta davlatlarda tan olish, ustuvorlik huquqini belgilash va qonuniy himoyani ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, seleksiya yutuqlari agrar va biotexnologik sohalarda yangi navlar va zotlarning yaratilishini rag‘batlantiradi, selektorlarning ilmiy va amaliy ishlarini tijoriylashtirishga xizmat qiladi.

Milliy va xalqaro huquqiy mexanizmlar birgalikda intellektual mulk obyektlarining samarali himoyasini ta’minlaydi, bu esa innovatsion faoliyatni rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va ilm-fan bilan sanoat integratsiyasini kuchaytirishga yordam beradi. Natijada, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlarining patentlash va himoya qilish tizimi milliy va xalqaro darajada huquqiy asosga ega bo‘lib, ularni yaratish, foydalanish va tijoriylashtirish jarayonida muallif va selektorlarning manfaatlarini samarali kafolatlaydi. Shu yo‘l bilan ular innovatsion iqtisodiyotning poydevorini mustahkamlash va intellektual mulk tizimini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonun, 2006 yil, № 225-I.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

2. http://lex.uz//uz/docs/-76671 “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida

3. Intellektual mulk – Vikipediya https://uz.wikipedia.org/wiki/Intellektual_mulk

4. Intellektual mulk ob’ektlari https://advice.uz/oz/document/3297

5. lex.uz/acts/-76671 https://lex.uz/acts/-76671

6. https://share.google/aimode/uC20A30Cmqh28mIcx

7. Источник: inLIBRARY. https://share.google/P3l3m2XvT6jy8AMbX

8. Parij Konvensiyasi sanoat mulkini himoya qilish bo‘yicha (Paris Convention for the Protection of Industrial Property), 1883 yil.

9. TRIPS bitimi (Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights), WTO, 1994 yil.

10. Gaaga kelishuvi (Hague Agreement Concerning the International Deposit of Industrial Designs), 1925 yil, oxirgi o‘zgartirishlar 1999, 2001.

11. Dinara R. Intellectual Property Law in Uzbekistan. Tashkent: IP Research Institute, 2020.

12. O‘zbekiston Respublikasi “Seleksiya yutuqlari va ularning himoyasi to‘g‘risida”gi Qonun, 1993 yil, № 519-XII.

13. O‘zbekiston Respublikasi “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonun, 2006 yil, № 225-I.

14. UPOV Konvensiyasi, 1961 yil; oxirgi o‘zgartirishlar 1991, 1999.

15. TRIPS bitimi (WTO), 1994 yil, Modda 27.3b.

16. Parij Konvensiyasi sanoat mulkini himoya qilish bo‘yicha, 1883 yil.

17. Rahimov A., “Intellektual Mulk va Seleksiya Yutuqlari”, Tashkent: Agrar Huquq, 2019.

18. https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=53232

19. uzmarkaz.uz.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

УДК: 618.3/5:618.14/15-007(01)

ИНТЕРВАЛГА РИОЯ ҚИЛИНМАГАН ТЎҒРУҚДАН КЕЙИНГИ ГЕНИТАЛ ПРОЛАПСНИНГ КЛИНИК КЕЧИШИ

Муминова Наргиза Яшнар қизи
Термиз иқтисодиёт ва сервис унверситути
Даволаш иши 24-01 гуруҳ талабаси

Султонов Равшан Комилжонович
Термиз иқтисодиёт ва сервис унверситути
Морфологик фанлар кафедраси
PhD, доценти
e-mail: ravshansultonov605@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада Сурҳондарёдаги аёлларда тез-тез интервалсиз тўғруқдан кейинги патологиялардан бири аёллар жинсий азоларидаги пролапси хақида келтирилган бўлиб хозирги кунда учраш кўрсатгичи 15-30% ни ташкил қилади. Аёллар жинсий аъзолари пролапси қайталанишида модифицирланган уретра пластик усули қулланилганда ва операциядан кейинги реабилитация туғри олиб борилса, жаррохлик амалиёти яхши самара беради.

Калит сўзлар: Пролапс, гистерэктомия, гипертрофия, реабилитация, дисфункционал, касаллик.

КЛИНИЧЕСКОЕ ТЕЧЕНИЕ ПОСЛЕРОДОВОГО ГЕНИТАЛЬНОГО ПРОЛАПСА С НЕСОБЛЮДЕНИЕМ ИНТЕРВАЛОВ

Муминову Наргизу Яшнар кизи, Султонова Равшана Комилжоновича

Аннотация: В данной статье одной из наиболее частых неинвазивных послеродовых патологий у женщин при оперативных вмешательствах является пролапс женских половых органов, показание к которому в настоящее время составляет 15-30%. При использовании модифицированного метода пластики уретры

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

при рецидиве пролапса женских половых органов и проведении послеоперационной реабилитации хирургическая процедура хорошо эффективна.

Ключевые слова: Пролапс, гистерэктомия, гипертрофия, реабилитация, дисфункция, заболевание.

CLINICAL COURSE OF POST-PARTUM GENITAL PROLAPSE WITHOUT ADHERENCE TO RECOMMENDED INTERVALS

Muminova Nargiza Yashnarovna, Sultanov Ravshan Komiljonovich

Annotation: In this article, one of the most frequent non-interventional postnatal pathologies in women in surgeries is the prolapse of female genital organs, the indication of which is currently 15-30%. When the modified urethral plastic method is used in the recurrence of prolapse of the female genital organs and post-operative rehabilitation is performed, the surgical procedure is well effective.

Keywords: Prolapse, hysterectomy, hypertrophy, rehabilitation, dysfunction, disease.

Муаммонинг долзарблиги:

Жинсий аъзолар пролапси гинекологик касалликлар орасида кенг тарқалганлиги, (28%-39%) клиник белгиларининг эрта намоён бўлиши ва сўнги йилларда жинсий аъзоларининг пролапси билан оғриган аёлларнинг ёшариш тенденцияси ва репродуктив ёшдаги бундай беморлар сонининг ўсиши қайд этилмоқда. Сўнги адабиётлар ва тадқиқотлар шуни кўрсатадики, унга кўра 30 ёшдан кичик бўлган аёлларда жинсий аъзолар пролапсининг тарқалганлиги 10,1%, 30 дан 45 ёшгача бўлган аёлларда 40,2%, 50 ёшдан катта бўлган аёлларда эса –50 фоизгача етади ва ўз навбвтида хозирги кунда гинекологлар олдидаги долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда *[C.H. Kim –2017]. [Lucot, J.P.–2018.[Беженарь В. Ф. 2013]*

Ўзбекистонда оналар ўлимининг асосий сабабларидан бири-туғруқдан кейинги акушерлик қон кетишлар ҳисобланади.[1] Бачодондан дисфункционал қон кетишлар гинекологик касалликларнинг 10-15% ни ташкил этади ва турли ёшдаги аёлларда, хатто қизларда ювенил қон кетиши, туғруқ ёшидаги аёлларда, менопаузадан олдин ва климактерик ёшда хам кузатилади.[2] Айниқса тез-тез интервалсиз тўғруқлардан сунг жинсий аъзолар пролапси хозирги кунда долзарб муоммалардан бири бўлиб, Айникса 50 ёшдан ошган аёлларда касаллик учраш кўрсатгичи 40% га етади. Хозирги кунда

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

аёлларда учрайдиган бу паталогияни даволашнинг жаррохлик усулининг 300 дан ортиқ тури мавжуд[2-3]

Замонавий текшириш ва даволаш усуллари яратилганига карамай шу кассалик билан такрор жаррохлик амалиёти ўтказган аёллар 40-45% ни ташкил қилади [4]

Чаноқ туби мушакларининг нуқсонлилиги, ҳамда унинг оқибатида жинсий аъзоларнинг пастга тушиши ва бутунлай тушиб қолиши жиддий тиббий ва ижтимоий-иқтисодий муаммони келтириб чиқаради. У ҳам гинекологларнинг ва шу билан бирга ёндош мутахассисликдаги тиббиёт ходимларининг эътибор марказида қолмоқда. Кўпинча касаллик репродуктив ёшда бошланади ва ривожланиб борувчи тавсифга эга бўлади. Агар аввалги йилларда жинсий аъзоларнинг пастга тушиши ва бутунлай тушиб қолиши асосан катта ёшдаги аёлларнинг касаллиги ҳисобланган бўлса сўнги йилларда жинсий аъзоларининг пролапси билан оғриган аёлларнинг ёшариш тенденцияси ва репродуктив ёшдаги бундай беморлар сонининг ўсиши қайд этилмоқда [M.K. Cho, J. H. Moon, C.H. Kim –2017]. Буни айрим муаллифларнинг маълумотлари тасдиқлайди [Lucot, J.P.–2018.],уларга кўра 30 ёшдан кичик бўлган аёлларда жинсий аъзолар пролапсининг тарқалганлиги 10,1%, 30 дан 45 ёшгача бўлган аёлларда 40,2%, 50 ёшдан катта бўлган аёлларда эса –50 фоизгача етади. [Беженарь В. Ф. 2013].

Хозирги кунда жаррохлик амалиётларининг аксарияти айникса ёш аёлларда яни репродуктив ёшда учраши мавзуни янада долзарблигини англатади.

Ўтказилган турли хил жаррохлик амалиётидан сўнг кассаликнинг куплаб кайталаниши бу кассалликни хозирги кунда олдини олишга сабаб бўлмокда.

Тадқиқот мақсади: Тез-тез интервалсиз тўғруқдан кейнги аёллар жинсий аъзолар пролапси такрорланишини оператив йўл билан даволаш усулларини такомиллаштириш ва профилактик тадбирларини ислох қилиш.

Тадқиқот материаллари ва усуллари: Сурҳондарё вилояти пренатал маркази туғруқ комплексида 2018-2020 йилларда тўғруқдан кейинги жинсий аъзолар пролапси билан мурожат қилган беморлар касаллик тариҳлари ретроспектив таҳлили ўрганилди. Жами текширилган аёллар сони 40-та шулардан: 1- гурух жинсий аъзолар пролапси бирламчи учраши (20 бемор); 2- гурух жинсий аъзолар пролапси рецидиви (20 бемор).

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Туғган аёлларнинг 30-50% да чаноқ аъзолари пролапси юзага келади. Бу патология одатда ҳаёт учун хавф туғдирмасада, аёлнинг ҳаёт сифатини сезиларли даражада ёмонлаштиради. Маълумки, генитал пролапс (ГП) тос тубининг ушлаб турувчи функцияси етишмовчилиги туфайли юзага келади. Таъкидлаш жоизки, чаноқ диафрагмаси тузилмалари доимо динамик зўриқиш таъсирида бўлади, натижада боғламлар узилиши юзага келади. Бироқ, чаноқ аъзоларининг пастга тушишига фақат механик шикастланиш сабаб бўлмаслиги маълум. Бугунги кунда ГП экстратцеллюляр матрикснинг сурункали патологияси ҳисобланади.

Тадқиқот натижалари: Текширилган пациентларни ёши 1- гурух 40-45 ёшда куп учраса, 2-гурухдаги беморларда 55-60 ёшни ташкил қилади. Яшаш жой бўйича тақсимланганда, иккала гурухдаги беморларнинг асосий қисми 75% ни қишлоқ ахолиси ташкил қилади. Акушерлик анамнези обектив ва субектив ўрганилганда беморларда асосан макросомия 60% ни икки ва ундан ортиқ туғруқ 85%; туғруқ йуллари травмаси 65% ташкил қилади. Беморларда энг кўп учрайдиган клиник белгилари булиб қориннинг пастки қисмида оғрик ва нохушлик хисси 1 гурух пациентларда 85% ни ташкил қилса, 2 – гурухда бу кўрсатгич 93,75% ни ташкил қилади. Сийдик тутиб тура олмаслик холати 1 гурухда 90%, 2- гурухда 100% . 1 гурухдаги беморларда ёт жисм хисси 65% ни ташкил қилса 2-гурух беморлар 78% ни ташкил қилади. Беморларда ўтказилган бирламчи жаррохлик амалиёти урганилганда, олдинги перинеорафия ва орқа кольпоперинеопластика билан 5 та бемор; Манчестер усули бўйича операция 3 та беморда; кин орқали гистерэктомия 2 та; бачадон вентрофиксацияси 7 та беморда ўтказилган. Текширилган беморларда қайталанган пролапсини учраш вақти оралиғи 12та беморда 3-5 йил оралиғида кайталанган булса, 8 та беморимизда 5 йилдан сўнг кузатилади. Ўтказилган бирламчи жаррохлик амалиётидан сўнг кузатилган асоратлардан, чандиқли ўзгаришлар 93,75% ректоцеле; 68,75% цистоцеле; 87% ни бачадон бўйни гипертрофияси ва бачадон буйини элонгацияси 37% ни ташкил қилди.

Хулоса: Кин олд ва орка деворлари пролапси рецидивида Манчестер усулини кўллаш, агарда ушбу операциядан ёки бачадон вентрофиксацияси амалиётидан кейин кайта рецидив кузатилганда, қин оркали гистерэктомия операцияси қўллаш яхши самара беради. Аёллар жинсий аъзолари пролапси рецидивида модифицирланган уретра пластик усули кулланилганда ва операциядан кейинги реабилитация туғри

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

олиб борилса, жаррохлик амалиёти яхши самара беради. Бунда хар бир фиртел ёшдаги аёлларда бирламчи бўғин УАШ шифокорлари ва потранаж ҳамширалари хар бир аёллар билан тўғруқга таёргарлик, интервал сақлаш қонун-қоидаларини тушунтиришни кучайтириши, радио-телевединияларда махсус эшитиришлар салмоғини ошириш керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бобажонова.Ш.Д. “Биология ва тиббиёт муаммолари.” Самарқанд-2018, № 4,1 (105). Туғруқдан кейинги қон кетишни тўхтатишда бачадонни балон билан тампонада қилиш самарадорлиги.

2. Ф.М.Аюпова, Ю.Қ.Жабборова. Гинекология дарслик.Тошкент-2008 й.

3. Ю.Қ. Джаббарова, Ф.М. Аюпова. Акушерлик дарслик. Тошкент-2013 й.

4. Бодяжина В. И., Жмакин К. Н Кирющенков А. П. «Акушерство» дарслик.

5. Komiljonovich, Sultanov Ravshan, Turopova Mumtozbegim Turdi, and Pardaeva Zarifa Dono. "Evaluation of Morphological and Morphometric Changes in Postnatal Ontogenesis in Uterine Fibroids."*Central Asian Journal of Medical and Natural Science*. 5.1 (2024): 60-64.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

OSIRIS ILMIY JURNAL VA FAN TARIXI TARIXSHUNOSLIGIDAGI O‘RNI

ОСИРИС — ОДИН ИЗ ВАЖНЕЙШИХ ЖУРНАЛОВ В ИСТОРИИ НАУКИ

OSIRIS IS ONE OF THE MOST IMPORTANT MAGAZINES IN THE HISTORY OF SCIENCE

Abdurahimov Javlonbek Bahodirjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti
Jahon tarix kafedrasi
07.00.02 – Fan ve texnologiyalar tarixi ixtisosligi
tayanch doktoranti
abdurahimovjavlonbek11@gmail.com +998901503112

Annotatsiya

Ushbu maqolada “fan tarixi” uchun juda muhim hisoblangan jurnallardan biri “Osiris” jurnalini haqida bayon qilingan. Unda jurnalning asos solinish tarixi, kim tomonidan asos solinganligi, ushbu jarayonda kimlar jonbozlik ko‘rsatganligi, unda qanday maqolalar chop etilishi, jurnalning ilmiy uslubi va tanlab olingan yo‘nalishlari bayon qilingan. Tadqiqotning maqsadi fan tarixining shakllanishida “Osiris” jurnalining o‘rni qanday bo‘lganli va uning fan tarixidagi ilmiy jarayonga qanday ta’sir ko‘rsatganligini ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijalari yuqoridagi masalani ochib berish orqali uzoq vaqtda buyon fan tarixida muhim hisoblangan jurnallarning jamiyat va ilm ahli orasida muhim manba bo‘lishini yana bir bor ko‘rsatish.

Kalit so‘zlar: Jorj Sarton, Isis, Osiris, Fan tarixi, May Sarton, manba, universitet, falsafa, kutubxona, ilmiy faoliyat.

Аннотация

В данной статье описывается один из журналов, считающихся весьма важными для «истории науки», – журнал «Осирис». В ней описывается история создания журнала, кто его основал, кто способствовал этому процессу, какие статьи

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

в нём публикуются, научный метод журнала и выбранные направления. Цель исследования – раскрыть роль журнала «Осирис» в формировании истории науки и его влияние на научный процесс в истории науки. Результаты исследования, раскрывая вышеуказанную проблему, ещё раз показывают, что журналы, издавна считающиеся важными для истории науки, являются важным источником информации для общества и учёных.

Ключевые слова: Джордж Сартон, Изида, Осирис, история науки, Мэй Сартон, источник, университет, философия, библиотека, научная деятельность.

Abstract

This article describes one of the journals considered very important for the "history of science", the journal "Osiris". It describes the history of the founding of the journal, who founded it, who contributed to this process, what articles are published in it, the scientific method of the journal and the selected directions. The purpose of the study is to reveal the role of the journal "Osiris" in the formation of the history of science and how it influenced the scientific process in the history of science. The results of the study, by revealing the above issue, once again show that journals that have long been considered important in the history of science are an important source among society and scientists.

Key words: George Sarton, Isis, Osiris, History of Science, May Sarton, source, university, philosophy, library, scientific activity.

Kirish

XX asr davomida ilm-fan jadal sur’atlar bilan rivojlanar ekan, uning tarixiy ildizlari, shakllanish qonuniyatlari va epistemologik asoslarini chuqur o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshdi. Ilmiy bilimning ijtimoiy, madaniy va falsafiy jihatlarini tahlil qiluvchi fan tarixi alohida akademik yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. Bu jarayonda ilmiy nashrlar, xususan, maxsus jurnallar muhim rol o‘ynadi. Shulardan biri — “Osiris” bo‘lib, u nafaqat fan tarixining yirik mavzularini o‘rganadigan maydon, balki ilmiy hamjamiyatni

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

birlashtiruvchi platformaga aylandi. “Isis” va “Osiris” jurnallari XX asrda fan tarixi bo‘yicha akademik maktablar shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi[1].

1936-yilda mashhur tarixchi Jorj Sarton tomonidan asos solingan “Osiris”, avvalo keng qamrovli tadqiqotlarga mo‘ljallangan qo‘shimcha nashr sifatida yaratilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda zamonaviy fan tarixining eng nufuzli ilmiy jurnallaridan biri sifatida tan olinadi. Ushbu maqola jurnalning shakllanish tarixi, ilmiy metodologiyasi, tematik yo‘nalishlari va xalqaro ilmiy hamjamiyat uchun ahamiyatini har tomonlama tahlil qiladi.

Tahlil va natijalar. “Osiris”ning yaratilishida Jorj Sartonning umumiy ilmiy konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. U fan tarixini insoniyat madaniyatining ajralmas qismi deb bilgan va tarixiy manbalarni chuqur tahlil qilish orqali ilm-fanning bosqichma-bosqich taraqqiyotini yoritishni maqsad qilgan edi. Sartonning “Isis” jurnali qisqa ilmiy maqolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, “Osiris” katta hajmdagi tematik tadqiqotlarni chop etish uchun maxsus platforma sifatida tashkil etildi.

Dastlab jurnal yiliga bir marta nashr qilingan, ammo Ikkinchi jahon urushi tufayli uning chiqishi vaqtincha to‘xtab qolgan. 1950-yillardan boshlab jurnal The History of Science Society tomonidan qayta tiklandi. 1956-yildan jurnal muntazam ravishda keng tematik to‘plamlar ko‘rinishida chop etila boshladi va shu tariqa ilm-fan tarixining yirik mavzularini umumlashtirishga yo‘naltirilgan yillik akademik platformaga aylandi.

Bugungi kunda “Osiris” yiliga bir marta chiqarilsa-da, uning har bir soni 400–600 sahifaga teng bo‘lib, deyarli katta monografiya darajasidagi ilmiy tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik kabi usullardan foydalangan holda, tadqiqot uchun qo‘yilgan asosiy maqsad mohiyatini ochib berishga harakat qilingan.

Tahlil va natijalar. “Osiris” jurnalini boshqa nashrlardan farqlovchi jihatlardan biri — uning interdisiplinar metodologiyaga ya’ni turli fanlar va sohalar bilimlarini, usullarini va nazariyalarini birlashtirib, murakkab muammolarga yangi hamda integratsilashgan yechimlar topishga asoslanganidir. Fan tarixi nafaqat faktlar to‘plami sifatida, balki, ijtimoiy munosabatlar, madaniy an’analar, siyosiy tizimlar, iqtisodiy jarayonlar, texnologik innovatsiyalar bilan chambarchas bog‘liq soha sifatida talqin qilinadi.

[1] Sarton G. Isis: A Journal of the History of Science. Bruges: Inprinerie Saint Catherine, 1913.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Shu sababli jurnal maqolalarida nafaqat tarixiy metodlar, balki quyidagilardan ham faol foydalaniladi: sotsiologik tahlil, antropologik yondashuv, falsafiy-epistemologik yondashuv, arxivshunoslik va manbashunoslik, madaniyatshunoslik modeli, texnika tarixi metodlari. Jurnal murakkab manbashunoslik, fan falsafasi va yirik ilmiy maktablar bo‘yicha maxsus sonlar chiqarishga yo‘naltirilgan[2].

Jurnalda e’lon qilinadigan tadqiqotlar ko‘pincha keng ko‘lamli manbalar — arxivlar, qo‘lyozmalar, laboratoriya jurnallari, shaxsiy maktublar, ilmiy institutlar hujjatlari, diplomatik yozishmalar — asosida olib boriladi. Bu esa “Osiris”ni fan tarixidagi eng manbashunoslikka tayanadigan nashrlardan biriga aylantirgan.

“Osiris”ning har bir soni muayyan ilmiy mavzuga bag‘ishlanadi. Bu yondashuv jurnalni ilmiy maktablar uchun muhim platformaga aylantiradi. Jurnal tarixiy davrlar va mintaqalar bo‘yicha keng qamrovli mavzularni qamrab oladi: Qadimgi va o‘rta asrlar fani, Misr va Bobil astronomiyasi, Yunon-Rim tabiiy falsafasi, O‘rta asr islom ilmiy maktablari, xususan, jurnalda Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy kabi olimlar haqida ilmiy maqolalar chop etilgan[3].

Bu bo‘limlarda ko‘pincha qadimgi qo‘lyozmalar, arxeologik manbalar va tarixiy rasmlar asosiy manba sifatida tahlil qilinadi.

Uyg‘onish davri va ilmiy inqilob yo‘nalishda: Kopernik inqilobi, Galiley tajribalari, Dekart falsafasi, Nyutonning ilmiy merosi, kabi mavzular keng yoritilgan bo‘ladi.

Jurnalda texnik taraqqiyotning jamiyat rivojiga ta’siri, texnik bilimlarning ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi chuqur tadqiq qilinadi. Bu, ayniqsa, zamonaviy tarixiy maktablar uchun muhim yo‘nalishdir.

Laboratoriyalar, universitetlar, akademiyalar, ilmiy jamiyatlar tarixi “Osiris”ning eng faol tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Masalan: Qirollik jamiyati (Royal Society), Fransiya Fanlar akademiyasi, Germaniya universitet laboratoriyalari, tarixi jurnal sahifalarida muntazam yoritiladi.

Jurnalda gender, siyosat, madaniyat va ilmiy bilim o‘rtasidagi munosabatlar ham alohida ahamiyatga ega. Ilmiy bilimning ijtimoiy konstruksiyasi va madaniy konteksti to‘g‘risidagi maqolalar zamonaviy yondashuvlar asosida yoziladi.

[2] Sabra A. I. Islamic Scientific Tradition. New York: New York University Press, 1987.
[3] Shank J. B. The New History of Science and Its Interpretations. New York: Routledge, 2002.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

“Osiris” ko‘plab ilmiy maktablar o‘rtasida bahslar olib boriladigan platforma sifatida tanilgan. Unda chop etilgan maqolalar ko‘pincha fan tarixidagi yirik nazariy yo‘nalishlarning shakllanishiga hissa qo‘shadi: internalistik va eksternalistik yondashuvlar, texnokratik yondashuv, sotsiologik maktablar, epistemik madaniyatlar nazariyasi.

Jurnalning har bir soni alohida mavzuga bag‘ishlanganligi sababli, fan tarixining muayyan bo‘lagini keng qamrovda o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Bu, o‘z navbatida: yangi g‘oyalar uchun imkoniyat, turli yondashuvlarni solishtirish, tarixiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, uchun qulay sharoit yaratadi.

“Osiris” ko‘plab yosh olimlarning ilmiy faoliyatida muhim rol o‘ynagan. Jurnalning metodologik talablari va puxta tahririy siyosati yosh tadqiqotchilarning ilmiy madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. “Osiris” jurnali “Isis”ga nisbatan chuqurroq ilmiy mavzularga bag‘ishlangan[4].

Bugungi global ilmiy hamjamiyatda “Osiris” yuqori reytingga ega bo‘lgan A-kategoriya ilmiy jurnal sifatida e’tirof etiladi. Uning maqolalari: ilmiy siyosati o‘rganish, texnologik innovatsiyalar tarixi, institutlar faoliyati, ilmiy tafakkurning shakllanish jarayonlari bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarga asos bo‘ladi. Jurnalning zamonaviy sonlari ko‘pincha: global fan tarixi, mustamlakachilik va ilmiy bilim, ekologik fanlar tarixi, tibbiyot tarixi singari yangi tadqiqot yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Xulosa

“Osiris” jurnali fan tarixshunosligi shakllanishida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan nashrdir. Uning asosiy yutug‘i — keng qamrovli, tematik asosda tashkil etilgan yillik sonlar orqali fan tarixining yirik mavzularini chuqur tahlil qilish imkoniyatini yaratganidir. Jurnalning interdisiplinar yondashuvi, manbashunoslikka tayanishi va ilmiy hamjamiyatni global miqyosda birlashtirishi uni fan tarixining eng nufuzli platformalaridan biriga aylantirgan. Hozirda ham “Isis” va “Osiris” jurnallari University of Chicago Press tomonidan nashr etilib, fan tarixi bo‘yicha eng nufuzli ilmiy maydonlardan biri bo‘lib qolmoqda[5].

[4] Needham J. Science and Civilization in China. Cambridge: Cambridge University Press, 1954.
[5] University of Chicago. Isis & Osiris Publication Program. Chicago: University of Chicago Press, 1990.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Bugungi kunda “Osiris” ilm-fan tarixining yo‘nalishlarini belgilab beruvchi, nazariy g‘oyalar almashinuvi va yangi ilmiy maktablar shakllanishini qo‘llab-quvvatlovchi yirik akademik maydon bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sarton G. Isis: The Journal of the History of Science. – Vol. 1. – Bruges: Inprinerie Saint Catherine, 1913.
2. Cohen I.B. The Scientific Revolution: A Historical Encyclopedia. – Santa Barbara: ABC-CLIO, 1994.
3. Lindberg D.C. The Scientific Revolution. – Chicago: University of Chicago Press, 1992.
4. Shapin S. The Scientific Revolution. – Chicago: University of Chicago Press, 1996.
5. Campbell N. A Brief History of Science. – New York: The Natural History Museum, 2001.
6. Berton R. Science and Politics in the Western Tradition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015.
7. Toylar A. World War I and its Impact on Science. – New York: Oxford University Press, 2012.
8. Pestre D. Science in the Age of Revolutions. – New York: Berghahn Books, 2003.
9. Ruse M. Geeks and Globalization: The Role of the Sciences. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017.
10. Klein C. Jorj Sarton, Science and the Arts. – London: Thomas Nelson, 1994.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

AXLOQ TUZATISH ISHLARI TARIQASIDAGI JAZONI IJRO ETISH

Irnazarov Shuhrat

TerDU Yuridik Fakulteti "Jinoyat huquqi va Fuqarolik protsessi" kafedrasi o'qituvchisi

Normuratov muhammadqodir

Terdu Yuridik Fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *ushbu maqolada axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoning huquqiy asoslari, mazmuni, jazoning qo`llanish tartibi, probatsiya xizmati tomonidan olib boriladigan nazorat, shuningdek, jazoning ijtimoiy ahamiyati keng yoritilgan. Maqola O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Jinoyat ijroiya kodeksiga tayangan holda ilmiy uslubda bayon qilingan.*

Kalit so`zlar: *Axloq tuzatish ishlari, jazo ijrosi, probatsiya, mehnat faoliyati, sudlangan shaxs, darommaddan ushlab qolish, jazo tizimi, nazorat, jinoyat kodeksi, jinoyat ijroiya kodeksi.*

KIRISH: Butun dunyoda bo`lgani kabi yurtimiz O`zbekistonda ham inson, uning huquq va erkinliklari shuningdek burchlari va majburiyatlari ham qonun darajasida mustahkamlab qo`yilgan. Xususan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator boblari va moddalarida fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, burchlari va majburiyatlari ko`rsatilib o`tilgan. Fuqarolar tomonidan qonunda belgilab qo`yilgan talablarning buzilishi oqibatida ma'lum bir turdagi javobgarliklar kelib chiqishi tabiiy hol albatta. Xususan O'zbekiston Respublikasida jinoyat sodir etgan shaxsga qo'llaniladigan jazolar tizimi jamiyatni himoya qilish bilan birga shaxsni tarbiyalash, uni tuzatish va qayta jamiyatga moslashtirish kabi maqsadlarni ham o'z ichiga oladi. Shu maqsadda qamoqqa

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

olish yoki ozodlikdan mahrum qilishdan tashqari, jamiyatdan ajratmaydigan yengilroq, tarbiyaviy ta’sirga ega jazo turlari ham qo‘llaniladi. Shulardan biri — axloq tuzatish ishlari jazosidir. Bu jazo turi jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmasdan mehnat faoliyati orqali tuzatish, unga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish, javobgarlik hissini oshirishga xizmat qiladi. Axloq tuzatish ishlari O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 46-moddasiga asosan 6 oydan 3 yilgacha muddatga tayinlanadi. Bundan tashqari ushbu moddada quyidagilar ham keltirilgan: Axloq tuzatish ishlari shaxs ish haqining o‘n foizidan o‘ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda uni mehnatga majburan jalb qilishdan iborat bo‘lib, jazo sudning hukmiga muvofiq mahkumning o‘z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o‘taladi. Axloq tuzatish ishlari olti oydan uch yilgacha muddatga tayinlanadi. Axloq tuzatish ishlari pensiya yoshiga yetganlarga, mehnatga qobiliyatsizlarga, homilador ayollarga, uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga va harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Agar shaxs sud tomonidan tayinlangan axloq tuzatish ishlari muddatining jami o‘ttiz kundan ko‘prog‘ini o‘tashdan uzrli sabablarsiz bo‘yin tovlasa yoki O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketsa, sud axloq tuzatish ishlarining o‘talmagan muddatini xuddi shu muddatga ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlangan vaqt jazoning o‘talgan muddatiga qo‘shib hisoblanmaydi.[1] Ushbu jazo eng avvalo uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar uchun qo‘llanadi. Jazoni ijro etish tartibi esa Jinoyat ijroiya kodeksining tegishli moddalari bilan belgilangan. Axloq tuzatish jazosining mohiyati shundan iboratki, sudlangan shaxs o‘zining doimiy ish joyida yoki probatsiya xizmati tomonidan belgilangan boshqa mehnat joyida ishlashda davom etadi, uning ish haqidan esa sud tomonidan belgilangan foiz miqdorida mablag‘

[1] O`z. R. Jinoyat kodeksi 46-moddasi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

davlat daromadiga ushlab qolinadi. Yuqorida keltirib o`tganimizdek bu odatda 10–30 foizni tashkil etadi. Axloq tuzatish ishlari jazosining muhim jihati shundaki, sudlangan shaxs jamiyatdan ajralmaydi, u oilasi bilan yashashda davom etadi, ijtimoiy hayotdan chetda qolmaydi. Shu bilan birga, u probatsiya xizmati nazorati ostida bo‘ladi. Probatsiya xodimlari sudlangan shaxsning ish joyiga borib, intizomga rioya etishi, jazo shartlarini buzmasligi, qonunga xilof xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymasligini muntazam nazorat qiladi. Bu nazorat jazoning tarbiyaviy va tuzatish ta’sirini kuchaytiradi. Sudlangan shaxsning huquqlari ham qonun bilan himoyalangan. U mehnat shartnomasi asosida ishlash, mehnatga oid manfaatlarini himoya qildirish, ijtimoiy sug‘urta va tibbiy xizmatlardan foydalanish, probatsiya organlarining harakatlaridan norozi bo‘lsa shikoyat qilish huquqiga ega. Shu bilan birga, uning majburiyatlari ham belgilangan: u belgilangan ish joyida mehnat faoliyatini davom ettirishi, mehnat intizomiga amal qilishi, probatsiya organi tomonidan chiqarilgan qonuniy talablarni bajarishi, turar joyini yoki ish joyini o‘zgartirganda xabar berishi shart. Axloq tuzatish ishlarining jazo sifatidagi ijtimoiy ahamiyati juda katta. Bu jazo turi qamoq jazosiga nisbatan ancha insonparvar bo‘lib, shaxsning jamiyatdan ajratilmasligini ta’minlaydi. Sudlangan shaxs mehnat qilishda davom etgani sababli oila a’zolarining moddiy ta’minoti buzilmaydi. Davlat uchun ham iqtisodiy jihatdan yengil bo‘lib, qamoqxonalarda yangi mahbuslarni saqlash xarajatlari kamayadi. Eng muhimi, bu jazo turi takroriy jinoyatchilikning oldini olishga yordam beradi, chunki shaxs jamiyatda o‘z o‘rnini yo‘qotmaydi, mehnat jarayonida intizomga o‘rganadi, o‘z xatti-harakatlari oqibatlarini anglay boshlaydi. Agar sudlangan shaxs jazo shartlarini buzsa, ya’ni ishga kelmasa, intizomni buzsa yoki probatsiya talablariga rioya qilmasa, bu haqda sudga axborot beriladi va sud jazoning qolgan qismini qattiqrog‘i bilan almashtirishi mumkin. Eng og‘ir holatlarda axloq tuzatish ishlari ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosiga o‘zgartiriladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

XULOSA: Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo O‘zbekiston jazo siyosatida muhim o‘rin tutuvchi, tarbiyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan samarali jazo turidir. U shaxsni jamiyatdan ajratmasdan turib tarbiyalash, mehnat orqali uni tuzatish va ijtimoiy moslashuv jarayonini osonlashtirishga xizmat qiladi. Probatsiya xizmati tomonidan olib boriladigan doimiy nazorat esa jazoning samarali ijrosini ta’minlaydi. Shu bois axloq tuzatish ishlari jazo tizimining insonparvar va amaliy ahamiyatga ega shakllaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi.
4. Jinoyat ijroiya huquqi darsligi: S.Niyozova, K,Hakimova, D.Israilova, Sh.Xaydarova, Z.Shamshiddinov
5. Internet saytlar:

   http://www.https://uz.wikipedia.org

   http://www.lex.uz

   http://www.advice.uz

   www.norma.uz

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

LOTIN TILI VA TIBBIY TA'LIM: NAZARIYADAN AMALIYOTGACHA

Ilmiy rahbar: **Sayfullayeva Lola Sobitovna**
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Lotin tili va xorijiy tillar kafedrasi katta o‟qituvchisi
E-mail: lolasayfullayeva133@gmail.com
Tel: +998909976700

Mualliflar: Rustamxo'jayeva Masturaxon Ahrol qizi
TDTU Stomatologiya fakulteti 1-kurs talabasi,
E-mail: masturarustamxo'jayeva@gmail.com
Tel:+998976130709

Musurmonov Jamoliddin Faxriddin o'g'li
TDTU Davolash ishi fakulteti 2-kurs talabasi,
E-mail: jamoliddin216624@gmail.com
Tel:+998941120624

Annotatsiya: Mazkur maqolada lotin tilining tibbiyotdagi o'rni tahlil qilinadi. Tibbiyotda lotin tili aniq va tizimli tuzilishi tufayli kasalliklarni ta'riflash, dori-darmonlarni nomlash hamda tibbiy jarayonlarni tavsiflashda asosiy vosita sifatida qo'llaniladi. Bugungi kunda ham lotin tili farmatsevtika tilining aniqligi va mukammalligini saqlab qoluvchi neytral va mustahkam lingvistik asos bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: lotin tili, tibbiy terminologiya, "o'lik" til, tibbiy atamalar, farmatsevtika.

LATIN LANGUAGE AND MEDICAL EDUCATION: FROM THEORY TO PRACTICE

Abstract : This article analyzes the role of the Latin language in medicine. Due to its precise and systematic structure, Latin is widely used in medicine as a primary tool for describing diseases, naming medications, and defining medical procedures. Even today,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Latin remains a neutral and stable linguistic foundation that ensures accuracy and consistency in pharmaceutical and medical terminology.

Key words: Latin language, medical terminology, “dead” language, medical terms, pharmacy.

ЛАТИНСКИЙ ЯЗЫК И МЕДИЦИНСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ОТ ТЕОРИИ К ПРАКТИКЕ

Аннотация: В данной статье анализируется роль латинского языка в медицине. В медицинской практике латинский язык благодаря своей точности и системности используется как основной инструмент для описания заболеваний, наименования лекарственных средств и обозначения медицинских процессов. В настоящее время латинский язык по-прежнему остается нейтральной и устойчивой лингвистической основой, обеспечивающей точность и унификацию фармацевтической терминологии.

Ключевые слова: латинский язык, медицинская терминология, «мёртвый» язык, медицинские термины, фармацевтика.

Kirish

Lotin tili “o‘lik” til maqomiga ega bo‘lsa-da, tibbiy va ilmiy terminologiyaning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib qolmoqda. Lotin tili (*Lingua Latina*) hind-yevropa tillari oilasining italyan guruhiga mansubdir. Lotin tilining keng tarqalishi Rim imperiyasi davrida, taxminan miloddan avvalgi I asrdan eramizning II asrlariga qadar sodir bo‘lgan. Bu jarayon bir necha omillarga bog‘liq edi. Birinchidan, Rim imperiyasi kengaygani sari lotin tili, ayniqsa boshqaruv va ilm-fan sohalarida, Yevropada yunon tilining o‘rnini egallay boshladi. Ikkinchidan, Rim ta’lim tizimi yunon adabiyoti va ilm-fanini, jumladan tibbiyot ilmini ham o‘z dasturiga kiritdi. Shu sababli yunoncha asarlar lotin tiliga tarjima qilina boshlandi. Bu esa ilmiy matnlarni lotin tilida o‘qishni afzal ko‘radigan rimlik olimlar va shifokorlar uchun ularni ancha qulay va tushunarli holga keltirdi. Mazkur tarjima jarayoni Rimda va imperiyaning boshqa hududlarida tibbiyot maktablari tashkil etilishi bilan yanada kuchaydi. Bu maktablarda lotin tili keng qo‘llanildi. Yunon tibbiy matnlarini lotin tiliga tarjima qilish orqali rimliklar nafaqat yunon tibbiy bilimlarini saqlab qoldilar va keng tarqatdilar, balki

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

o‘rta asrlar Yevropa tibbiyoti uchun mustahkam asos yaratdilar. Chunki o‘sha davrlarda ham tibbiy ta’lim va hujjatlarda asosiy til sifatida lotin tili qo‘llanilgan.

Har qanday mamlakat shifokorlari qadimgi yunon va lotin tillari asosida shakllangan xalqaro, umumqabul qilingan atamalardan foydalanadilar. Ushbu atamalar universaldir va mutaxassislarning millatidan qat’i nazar tushunarli hisoblanadi.

Tibbiy terminologiyada lotin tilining asosiy o‘rni

Lotin tili tibbiyotda terminlar yaratishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Tibbiy atamalar — organlar, tizimlar, kasalliklar, davolash usullari, farmatsevtik preparatlar va boshqa ko‘plab tushunchalar lotin tilida shakllangan.

Anatomik atamalar: Ko‘plab anatomik atamalar lotin tilidan olingan. Masalan: *musculus* (mushak), *corpus* (tana), *vena* (tomir).

Kasallik nomlari: Kasalliklarning ilmiy nomlari ham asosan lotin tilida beriladi. Masalan, *pneumonia* (o‘pka yallig‘lanishi), *gastroenteritis* (oshqozon va ichaklarning yallig‘lanishi), *tuberculosis* (mikroblar ta’sirida yuzaga keladigan yuqumli kasallik).

Lotin tili tibbiyotda faqat kasalliklar yoki organlar nomlarida emas, balki dori-darmonlar va farmatsevtik preparatlarning nomlarida ham keng qo‘llaniladi. Ko‘plab dori nomlari va ularning formulalarini yozishda lotin tili ishlatiladi.

Farmatsevtik retseptlar: Lotin tili farmatsevtik retseptlarda ham qo‘llaniladi. Masalan, *Rp.* (*Recipe*) — “ol”, *q.s.* (*quantum satis*) — “zarur miqdor” degan ma’noni anglatadi.

Dori nomlari: Ko‘plab dori preparatlari va ularning tarkibi, masalan, *Aspirin* yoki *Penicillin* kabi nomlar lotin tiliga asoslanadi.

Bundan tashqari, Yevropa tillari lug‘aviy boyitish manbai sifatida lotin tilidan keng foydalangan. Olimlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, ingliz tilidagi eng ko‘p qo‘llaniladigan 20 ming so‘zdan taxminan 10 400 tasi lotin, 2 200 tasi yunon va atigi 5 400 tasi anglo-sakson kelib chiqishiga ega. Bugungi kunda roman tillarida so‘zlashuvchilarning umumiy

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

soni 580 million kishini tashkil etadi. 60 dan ortiq mamlakatlarda roman tillari milliy yoki rasmiy til sifatida qo‘llaniladi (jumladan: fransuz — 30 ta, ispan — 20 ta, portugal — 7 ta, italyan — 3 ta mamlakatda). Lotin yozuvi tizimidan esa dunyo aholisining taxminan 30 foizi foydalanadi.

Lotin tilida juda aniq va mukammal so‘z yasalish tizimi shakllangan. Shu sababli lotin tili (qisman yunon tili bilan birgalikda) ilmiy-texnik terminologiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, lotin tili tibbiyot va farmatsevtika sohalarida asrlar davomida shakllangan barqaror va universal terminologik tizimning asosi bo‘lib kelmoqda. U “o‘lik” til maqomiga ega bo‘lishiga qaramay, tibbiy atamalarni yaratish, tasniflash va standartlashtirishda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, lotin tilining qat’iy grammatik tuzilishi, aniqligi va bir ma’noliligi tibbiyotda xatolarning oldini olish, tashxis va davolash jarayonlarini aniq ifodalash imkonini beradi. Lotin tiliga asoslangan terminologiya turli davlatlar va madaniyatlarga mansub shifokorlar, farmatsevtlar hamda ilmiy xodimlar o‘rtasida yagona ilmiy muloqotni ta’minlaydi. Bu esa global miqyosda tibbiy axborot almashinuvi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini taqqoslash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, anatomiya, patalogiya, farmakologiya va klinik fanlarda lotin tilisiz to‘liq va aniq terminologiyani tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuningdek, lotin tili tibbiy ta’lim jarayonida muhim didaktik vazifani bajaradi. U talabalar va yosh mutaxassislarning ilmiy tafakkurini shakllantirishga, murakkab tibbiy tushunchalarni tizimli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi. Lotin tilini o‘rganish orqali tibbiyot xodimlari atamalarning kelib chiqishi va ma’nosini chuqurroq anglaydi, bu esa klinik amaliyotda to‘g‘ri va ongli foydalanishni ta’minlaydi.

Zamonaviy tibbiyot tez sur’atlar bilan rivojlanib, yangi texnologiyalar, innovatsion davolash usullari va yangi dori vositalari paydo bo‘layotgan bir davrda, lotin tili ushbu yangiliklarni nomlash va ilmiy muomalaga kiritishda hanuzgacha ishonchli lingvistik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bugungi sog‘liqni saqlash tizimida bemorga yo‘naltirilgan yondashuv kuchayib borar ekan, lotin tilidagi murakkab terminlarni sodda va

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

tushunarli tilda izohlash ehtiyoji ham ortib bormoqda. Demak, kelajakda lotin tilining tibbiyotdagi o‘rni uni zamonaviy tillar bilan uyg‘un holda qo‘llash, ilmiy aniqlikni saqlagan holda bemorlar bilan muloqotni soddalashtirish orqali yanada mustahkamlanadi. Bu esa lotin tilining nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy tibbiyotning ajralmas va muhim tarkibiy qismi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musurmonov, J. F., & Sayfullayeva, L. S. (2025). *Farmatsevtik atamashunoslik*. Toshkent: Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti. https://doi.org/10.5281/zenodo.15289181
2. Musurmonov, J. F., Yo’ldosheva, C. I., & Sayfullayeva, L. S. (2025). *Lotin tili - inson tanasining lingvistik kodi va tibbiyotdagi universallik tamoyili. Latin American Journal of Education, 5*(6). https://lajoe.org/index.php/LAJoE/article/view/125
3. Musurmonov, J. F. O‘g‘li, & Israilova, M. N. (2025). *Lotin tilining zamonaviy tibbiy yozuvdagi roli va uning xalqaro standartlashuvdagi ahamiyati*. In *Proceedings of the International Conference on Medicine, Science, and Education* (Vol. 2, No. 5, pp. 85–90). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.15558643zenodo.org
4. Sayfullayeva, L. S., Usmonova, S. D., & Musurmonov, J. F. O‘g‘li. (2025). *Lotin tilining zamonaviy tibbiy ta’limdagi o‘rni: Integrativ yondashuvlar*. *International Conference on Interdisciplinary Science, 2*(12), 34–38. https://doi.org/10.5281/zenodo.17839393 https://universalconference.us/universalconference/index.php/icms/article/view/6007
5. Sayfullayeva, L., Ergasheva, M., & Musurmonov, J. F. O‘g‘li. (2025). *Farmatsevtik retseptlarda lotin tilining global standart sifatidagi o‘rni. International Conference on Advance Science and Technology*, *2*(5), 18–23. https://doi.org/10.5281/zenodo.17753135 https://universalconference.us/universalconference/index.php/icast/article/view/5927

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

6. Rashitova, J., Uralov, S., Soatmurotova, I., Sayfullayeva, L., & Musurmonov, J. F. O‘g‘li. (2025). *Medical terminology. The principles of formation of clinical terms in the Greek language. The deontological significance of medical terminology*. *International Scientific Innovation Research Conference*, *2*(8), 46–51. https://doi.org/10.5281/zenodo.17780870 https://universalconference.us/universalconference/index.php/isirc/article/view/5971
7. Musurmonov, J. (2025). *Klinik atamalarda lotin tili: xalqaro standart va tibbiy amaliyotdagi ahamiyati*. *American Journal of Education and Learning*, *3*(11). https://advancedscienti.com/index.php/AJEL/article/view/3373
8. L.S. Sayfullayeva CHET TILLARI, LOTIN TILI VA TERMINOLOGIYA ASOSLARINI O ‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI
9. L.S. Sayfullayeva Lotin tilini o ‘qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o ‘rni
10. Musurmonov, J. F. O‘g‘li. (2025, April 27). *Zamonaviy tibbiyotda kasallik nomlarining lotin tilidagi tuzilishi va klinik diagnostikadagi ahamiyati* [Certificate of publication]. *Acumen: International Journal of Multidisciplinary Research*. RB IF (Impact Factor): 10.41 / 2024.
11. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi o‘quv qo‘llanmalari
12. .M.Jo’rayev “Lotin tili va tibbiy terminologiya” darsligi
13. Sh. Ergasheva — Tibbiyot uchun lotin tili asoslari
14. Oxford Handbook of Medical Terminology
15. Musurmonov J. ZAMONAVIY TIBBIYOTDA KASALLIK NOMLARINING LOTIN TILIDAGI TUZILISHI VA KLINIK DIAGNOSTIKADAGI AHAMIYAT

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

ANATOMIK TERMINOLOGIYADA LOTIN TILINING XALQARO AHAMIYATI VA ZAMONAVIY ROLI

Ilmiy rahbar: **Sayfullayeva Lola Sobitovna**
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Lotin tili va xorijiy tillar kafedrasi katta o‟qituvchisi
E-mail: lolasayfullayeva133@gmail.com
Tel: +998909976700

Mualliflar: Norxo‘jayeva Shodiyaxon Nurmuhammad qizi
TDTU Stomatologiya fakulteti 1-kurs talabasi,
E-mail: shodiyaxonnorxojayeva@gmail.com
Tel:+998338314142

Mualliflar: Ibrohimova Nafisaxon Komiljon qizi
TDTU Stomatologiya fakulteti 1-kurs talabasi,
E-mail: nafisaibrohimova07@gmail.com
Tel:+998942130504

Musurmonov Jamoliddin Faxriddin o‘g’li
TDTU Davolash ishi fakulteti 2-kurs talabasi,
E-mail: jamoliddin216624@gmail.com
Tel:+998941120624

Annotatsiya: Mazkur maqolada anatomik terminologiyada lotin tilining xalqaro ahamiyati va zamonaviy roli tahlil qilinadi. Lotin tili anatomiya fanida universal va standart til sifatida ishlatiladi, turli mamlakatlar mutaxassislari o‘rtasida yagona ilmiy muloqotni ta’minlaydi. Maqolada lotin tiliga asoslangan anatomik atamalar tarixiy rivojlanishi, xalqaro nomenklaturadagi o‘rni, tibbiy ta’lim va klinik amaliyotdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, lotin tilining zamonaviy tibbiyotda diagnostika, tadqiqot va dori-darmon nomlanishida qo‘llanilishi ham tahlil qilinadi. Lotin tili murakkab anatomik tushunchalarni

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

aniq, qisqa va universal tarzda ifodalash imkonini beradi, bu esa xatolarning oldini olish, ilmiy tadqiqot va global hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: lotin tili, anatomik terminologiya, xalqaro nomenklatura, global anatomiya, tibbiy ta’lim, klinik amaliyot

THE INTERNATIONAL SIGNIFICANCE AND MODERN ROLE OF THE LATIN LANGUAGE IN ANATOMICAL TERMINOLOGY

Abstract : This article examines the international significance and modern role of the Latin language in anatomical terminology. Latin serves as a universal and standardized language in anatomy, ensuring consistent scientific communication among specialists from different countries. The paper analyzes the historical development of Latin anatomical terms, their role in international nomenclature, and their importance in medical education and clinical practice. Furthermore, the study highlights the use of Latin in modern medicine, including diagnostics, research, and the naming of pharmaceutical substances. Latin enables precise, concise, and universal expression of complex anatomical concepts, minimizing errors and facilitating global collaboration in healthcare.

Key words: Latin language, anatomical terminology, international nomenclature, global anatomy, medical education, clinical practice.

МЕЖДУНАРОДНОЕ ЗНАЧЕНИЕ И СОВРЕМЕННАЯ РОЛЬ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В АНАТОМИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация: В статье рассматривается международное значение и современная роль латинского языка в анатомической терминологии. Латинский язык используется в анатомии как универсальный и стандартизированный язык, обеспечивающий единое научное общение между специалистами из разных стран. В статье анализируются историческое формирование латинских анатомических терминов, их роль в международной номенклатуре, значение в медицинском образовании и клинической практике. Также рассматривается использование латинского языка в современной медицине, включая диагностику, научные исследования и наименование лекарственных средств. Латинский язык позволяет точно и кратко

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

выражать сложные анатомические понятия, снижая вероятность ошибок и способствуя развитию глобального сотрудничества в медицине.

Ключевые слова: латинский язык, анатомическая терминология, международная номенклатура, глобальная анатомия, медицинское образование, клиническая практика.

Introduction

Anatomiya fanida lotin tili uzoq asrlar davomida universal va standart til sifatida xizmat qilgan. Rim imperiyasi davrida lotin tili ilmiy va tibbiy terminologiyada poydevor vazifasini bajargan. Yunon tibbiyot maktablarining bilimlari lotin tiliga tarjima qilinishi bilan anatomik atamalar tizimlashtirildi va Yevropa tibbiy ta’limining asosiy poydevori yaratildi. Shu tariqa lotin tili nafaqat tarixiy, balki zamonaviy anatomik terminologiyaning ham poydevoriga aylandi.Xalqaro anatomik nomenklatura (Terminologia Anatomica) bugungi kunda ham lotin tiliga asoslangan. Bu nomenklatura barcha mamlakatlarda yagona, aniq va tushunarli terminologiya yaratish imkonini beradi. Turli tillarda o‘qitiladigan tibbiyot va biomeditsina sohalarida lotin terminlarining ishlatilishi shifokorlar va olimlar o‘rtasida global muloqotni yengillashtiradi.

Lotin tilining anatomik terminologiyadagi ahamiyati faqat tarixiy yoki akademik emas, balki klinik amaliyotda ham beqiyos. Masalan, jarrohlik amaliyotida, diagnostik hisobotlarda va farmatsevtik retseptlarda lotin atamalari universal tushuniladi, bu esa xatoliklarni kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi.

Maqolaning maqsadi - lotin tilining anatomik terminologiyadagi xalqaro ahamiyati, zamonaviy roli, tibbiy ta’lim va klinik amaliyotdagi qo‘llanilishini keng tahlil qilish. Shu maqsadda maqolada tarixiy rivojlanish, zamonaviy nomenklatura, ta’limdagi yondashuvlar, klinik misollar va tavsiyalar keltiriladi.

Methods

Ushbu maqolada quyidagi ilmiy usullar qo‘llanildi:

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

- ✓ **Nazariy tahlil:** Lotin tiliga asoslangan anatomik atamalar va ularning xalqaro nomenklaturadagi o‘rni tahlil qilindi. Tarixiy manbalar, zamonaviy atlaslar, Terminologia Anatomica va ilmiy nashrlar solishtirildi.
- ✓ **Taqqoslash usuli:** Turli mamlakatlarda anatomiya ta’limi va tibbiy adabiyotlarda ishlatiladigan terminlar lotin nomenklaturasi bilan taqqoslandi.
- ✓ **Amaliy kuzatish:** Klinik amaliyot va tibbiy ta’lim jarayonida lotin atamalari ishlatilishi o‘rganildi. Masalan, laboratoriya hisobotlari, jarrohlik tavsiflari va dori retseptlarida lotin atamalari universal tushuniladi.
- ✓ **Sintetik tahlil:** Nazariy va amaliy ma’lumotlar birlashtirilib, lotin tilining zamonaviy anatomik nomenklaturadagi roli va ahamiyati umumlashtirildi.

Metodologiya shuni ko‘rsatdiki, lotin tilini o‘rganish va uni anatomiya fanida qo‘llash nafaqat tarixiy bilimni saqlash, balki zamonaviy tibbiyotda aniq va standart bilim yaratishda muhimdir.

Results

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- ✓ **Universalizm:** Lotin tili turli mamlakat va madaniyatlarda yagona terminologiya yaratadi. Masalan, “musculus biceps brachii” yoki “corpus callosum” atamalari butun dunyoda bir xil tushuniladi.
- ✓ **Aniqlik va qisqalik:** Murakkab anatomik tuzilmalarning qisqa va aniq ifodalanishi diagnostika, ilmiy tadqiqotlar va ta’lim jarayonida xatoliklarni kamaytiradi.
- ✓ **Ta’limdagi samaradorlik:** Talabalar lotin atamalarini o‘rganish orqali anatomik strukturalarni tizimli ravishda o‘zlashtiradi, bu esa klinik amaliyotda to‘g‘ri qo‘llanadi.
- ✓ **Klinik amaliyot:** Lotin terminlari jarrohlik amaliyotida, retseptlar va diagnostika hisobotlarida keng qo‘llaniladi. Masalan, farmatsevtik retseptlarda “Rp.” (recepta), “q.s.” (quantum satis) kabi atamalar universal tushuniladi.
- ✓ **Global hamkorlik:** Lotin tili tibbiyot olimlari va shifokorlar o‘rtasida xalqaro hamkorlikni osonlashtiradi, konferensiyalar, ilmiy maqolalar va tadqiqotlarda yagona terminologiyani ta’minlaydi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Discussion

Lotin tili anatomik terminologiyada mustahkam pozitsiyaga ega bo‘lib, global anatomiyada yagona ilmiy til sifatida qoladi. Bu til nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy ta’lim va klinik amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tibbiyot va ta’limda quyidagi muammolar mavjud: talabalar uchun lotin atamalarini o‘zlashtirish qiyin, klinik amaliyotda esa ba’zi hollarda oddiy tilda tushuntirishga ehtiyoj ortadi. Shu sababli lotin terminologiyasini o‘qitish metodikasini vizual vositalar, elektron resurslar va interaktiv o‘quv dasturlari bilan uyg‘unlashtirish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, lotin tili diagnostika va ilmiy tadqiqotlarda xatoliklarni kamaytirish, global hamkorlikni rivojlantirish va klinik amaliyotda aniqlikni ta’minlashga yordam beradi. Bu esa tibbiy ma’lumotlarni standartlashtirish va barcha mamlakatlarda bir xil terminologiya ishlatishni ta’minlaydi.

Lotin tilining zamonaviy roli shuningdek farmatsevtika sohasida ham ahamiyatli: dori nomlari, retseptlar va farmatsevtik ma’lumotlar lotin asosida tuziladi, bu esa global miqyosda bir xil tushunishni kafolatlaydi.

Conclusion

Lotin tili anatomik terminologiyada xalqaro standart sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. U global anatomiyada yagona ilmiy til vazifasini bajaradi va tibbiy ta’lim, klinik amaliyot hamda ilmiy tadqiqotlarda aniq, universal terminologiya yaratadi. Lotin terminlari murakkab anatomik tushunchalarni qisqa va aniq ifodalash imkonini beradi, bu esa diagnostika xatolarini kamaytiradi va talabalarning o‘qish samaradorligini oshiradi. Kelajakda lotin tilini zamonaviy pedagogik va texnologik resurslar bilan uyg‘unlashtirish, talabalarning terminologik kompetensiyasini oshirish va global anatomik nomenklaturaning barqarorligini mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi. Shu tariqa, lotin tili nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy tibbiyot va klinik amaliyotning ajralmas qismi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musurmonov, J. F., & Sayfullayeva, L. S. (2025). *Farmatsevtik atamashunoslik*. Toshkent: Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti. https://doi.org/10.5281/zenodo.15289181

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

2. Musurmonov, J. F., Yo'ldosheva, C. I., & Sayfullayeva, L. S. (2025). *Lotin tili - inson tanasining lingvistik kodi va tibbiyotdagi universallik tamoyili*. *Latin American Journal of Education, 5*(6). https://lajoe.org/index.php/LAJoE/article/view/125
3. Musurmonov, J. F. O'g'li, & Israilova, M. N. (2025). *Lotin tilining zamonaviy tibbiy yozuvdagi roli va uning xalqaro standartlashuvdagi ahamiyati*. In *Proceedings of the International Conference on Medicine, Science, and Education* (Vol. 2, No. 5, pp. 85–90). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.15558643zenodo.org
4. Sayfullayeva, L. S., Usmonova, S. D., & Musurmonov, J. F. O'g'li. (2025). *Lotin tilining zamonaviy tibbiy ta'limdagi o'rni: Integrativ yondashuvlar*. *International Conference on Interdisciplinary Science, 2*(12), 34–38. https://doi.org/10.5281/zenodo.17839393 https://universalconference.us/universalconference/index.php/icms/article/view/6007
5. Sayfullayeva, L., Ergasheva, M., & Musurmonov, J. F. O'g'li. (2025). *Farmatsevtik retseptlarda lotin tilining global standart sifatidagi o'rni. International Conference on Advance Science and Technology, 2*(5), 18–23. https://doi.org/10.5281/zenodo.17753135 https://universalconference.us/universalconference/index.php/icast/article/view/5927
6. Rashitova, J., Uralov, S., Soatmurotova, I., Sayfullayeva, L., & Musurmonov, J. F. O'g'li. (2025). *Medical terminology. The principles of formation of clinical terms in the Greek language. The deontological significance of medical terminology. International Scientific Innovation Research Conference, 2*(8), 46–51. https://doi.org/10.5281/zenodo.17780870 https://universalconference.us/universalconference/index.php/isirc/article/view/5971
7. Musurmonov, J. (2025). *Klinik atamalarda lotin tili: xalqaro standart va tibbiy amaliyotdagi ahamiyati*. *American Journal of Education and Learning, 3*(11). https://advancedscienti.com/index.php/AJEL/article/view/3373
8. L.S. Sayfullayeva CHET TILLARI, LOTIN TILI VA TERMINOLOGIYA ASOSLARINI O 'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

9. L.S. Sayfullayeva Lotin tilini o ‘qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o ‘rni
10. Musurmonov, J. F. O‘g‘li. (2025, April 27). *Zamonaviy tibbiyotda kasallik nomlarining lotin tilidagi tuzilishi va klinik diagnostikadagi ahamiyati* [Certificate of publication]. *Acumen: International Journal of Multidisciplinary Research*. RB IF (Impact Factor): 10.41 / 2024.
11. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi o‘quv qo‘llanmalari
12. .M.Jo’rayev “Lotin tili va tibbiy terminologiya” darsligi
13. Sh. Ergasheva — Tibbiyot uchun lotin tili asoslari
14. Oxford Handbook of Medical Terminology
15. Musurmonov J. ZAMONAVIY TIBBIYOTDA KASALLIK NOMLARINING LOTIN TILIDAGI TUZILISHI VA KLINIK DIAGNOSTIKADAGI AHAMIYAT

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

SANOAT KORXONALARIDAGI MOLIYAVIY BARQARORLIKKA BILVOSITA TA'SIR ETUVCHI RISKLARNI KAMAYTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

Tursunqulov Shoxrux Rabbimqul o'g'li
shohruh100293@gmail.com
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
"Biznes boshqaruv moliya" kafedrasi assistenti
ORCID:0009-0004-0187-8904

Annotatsiya: Mazkur maqolada sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligiga bilvosita ta’sir etuvchi risklar tushunchasi nazariy jihatdan tahlil qilinadi hamda ularni kamaytirishning ilmiy asoslari yoritiladi. Tadqiqotda makroiqtisodiy beqarorlik, institutsional muhitdagi o‘zgarishlar, bozor kon’yunkturasi, texnologik rivojlanish darajasi va boshqaruv omillari kabi moliyaviy natijalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi risklar tizimli yondashuv asosida guruhlanadi. Shuningdek, moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda risk-menejment konsepsiyalarining o‘rni, korxona ichki va tashqi muhitining o‘zaro bog‘liqligi hamda oldindan ogohlantirish mexanizmlarining nazariy modeli asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida barqaror moliyaviy rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan strategik qarorlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy barqarorlik, sanoat korxonalari, bilvosita risklar, risklarni boshqarish, makroiqtisodiy omillar, institutsional risklar, strategik barqarorlik, moliyaviy xavfsizlik.

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida sanoat korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi nafaqat ichki moliyaviy resurslar bilan, balki tashqi iqtisodiy muhitda yuzaga kelayotgan turli risk omillari bilan ham bevosita bog‘liqdir. Bozor munosabatlarining murakkablashuvi, raqobatning kuchayishi hamda iqtisodiy tizimlarda kuzatilayotgan beqarorlik sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylantirmoqda. Ayniqsa, moliyaviy ko‘rsatkichlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bilvosita ta’sir etuvchi risklar korxona faoliyatining uzoq muddatli barqarorligiga

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Moliyaviy barqarorlik korxonaning o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish, ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz davom ettirish va strategik rivojlanish imkoniyatlarini saqlab qolish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu barqarorlikka ta’sir etuvchi risklar ko‘pincha makroiqtisodiy sharoit, institutsional muhit, texnologik o‘zgarishlar, boshqaruv samaradorligi va bozor infratuzilmasidagi nomutanosibliklar bilan bog‘liq bo‘lib, ular moliyaviy natijalarga bilvosita, ammo tizimli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois bunday risklarni aniqlash, baholash va kamaytirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy risklar va ularni boshqarish masalalari keng yoritilgan bo‘lsa-da, sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligiga bilvosita ta’sir etuvchi risklarni kompleks yondashuv asosida o‘rganish yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda e’tibor to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy xavflarga qaratilib, institutsional, tashkiliy va strategik omillarning o‘zaro bog‘liqligi yetarlicha ochib berilmagan. Mazkur holat ushbu mavzuni chuqur nazariy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu munosabat bilan mazkur maqolaning asosiy maqsadi sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlikka bilvosita ta’sir etuvchi risklarning nazariy mohiyatini ochib berish hamda ularni kamaytirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida risklarni tizimli tasniflash, ularning moliyaviy barqarorlik bilan o‘zaro aloqadorligini aniqlash va samarali risk-menejment mexanizmlarini shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Ilmiy tadqiqotlar va metodlar

Mazkur tadqiqot sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligiga bilvosita ta’sir etuvchi risklarni nazariy jihatdan asoslash hamda ularni kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks va tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy nazariya va moliyaviy menejment sohasidagi zamonaviy ilmiy qarashlar umumlashtirilib, moliyaviy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Tadqiqotning ilmiy asosini risklar nazariyasi, korporativ moliya konsepsiyasi, institutsional iqtisodiyot va strategik menejment yondashuvlari tashkil etadi. Ushbu nazariyalar asosida moliyaviy natijalarga bevosita emas, balki bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi makroiqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, institutsional va texnologik risklarning mohiyati ochib berildi. Risklarning ko‘p darajali va dinamik xususiyatga ega ekanligi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

hisobga olinib, ularni aniqlash va baholashda tizimli yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot metodologiyasida umumilmiy va maxsus iqtisodiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez usullari orqali moliyaviy barqarorlik tushunchasining tarkibiy elementlari va risk omillari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Induksiya va deduksiya metodlari yordamida alohida risk holatlaridan umumiy nazariy xulosalar chiqarildi hamda mavjud nazariy qarashlar asosida bilvosita risklarni kamaytirishning konseptual yondashuvlari shakllantirildi.

Shuningdek, tadqiqotda taqqoslash va guruhlash metodlari qo‘llanilib, sanoat korxonalarida uchraydigan bilvosita risklar ularning kelib chiqish manbalari va moliyaviy barqarorlikka ta’sir darajasiga ko‘ra tasniflandi. Tizimli tahlil metodi orqali korxona ichki va tashqi muhitidagi risk omillarining o‘zaro ta’siri hamda ularning moliyaviy barqarorlikka kompleks ta’sir mexanizmi o‘rganildi. Bundan tashqari, abstrakt-mantiqiy tahlil metodi asosida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda risk-menejmentning nazariy modeli ishlab chiqildi. Ushbu model bilvosita risklarni erta aniqlash, ularning salbiy oqibatlarini oldindan baholash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil usullaridan foydalanmasdan, nazariy xulosalar konseptual asosda umumlashtirildi, bu esa mavzuning fundamental ilmiy mohiyatini chuqurroq yoritishga xizmat qildi. Umuman olganda, qo‘llanilgan ilmiy tadqiqot metodlari sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligiga bilvosita ta’sir etuvchi risklarni kompleks tahlil qilish va ularni kamaytirishning nazariy asoslarini shakllantirishga imkon berdi. Tadqiqot natijalari keyingi amaliy va empirik izlanishlar uchun mustahkam metodologik zamin yaratadi.

Tahlil va muhokama

Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi ko‘p omilli iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar holati bilan emas, balki korxona faoliyatiga bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi va ichki risklar majmui bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday risklar ko‘pincha yashirin xarakterga ega bo‘lib, qisqa muddatda moliyaviy natijalarda sezilmasligi mumkin, biroq uzoq muddatda korxonaning barqaror rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, bilvosita risklar moliyaviy barqarorlikka asosan uch yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi: birinchidan, ishlab chiqarish va resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytiradi; ikkinchidan, boshqaruv

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

qarorlarining sifatiga salbiy ta’sir etadi; uchinchidan, korxonaning tashqi muhitga moslashuvchanligini susaytiradi. Ushbu holatlar moliyaviy oqimlar barqarorligining buzilishiga, xarajatlar oshishiga va investitsion jozibadorlikning pasayishiga olib keladi. Bilvosita risklarning xususiyatlarini tizimli tahlil qilish maqsadida ularni kelib chiqish manbalari va moliyaviy barqarorlikka ta’sir mexanizmlariga ko‘ra guruhlash maqsadga muvofiq deb topildi. Quyidagi jadvalda sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligiga bilvosita ta’sir etuvchi asosiy risklar mualliflik yondashuvi asosida umumlashtirilgan.-

1-jadval

Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligiga bilvosita ta’sir etuvchi risklar tasnifi

	Risk guruhi	Risk mazmuni	Moliyaviy barqarorlikka ta’sir yo‘nalishi
1	Makroiqtisodiy risklar	Inflyatsiya darajasining o‘zgarishi, iqtisodiy sikllar, valuta beqarorligi	Xarajatlarning oshishi, moliyaviy rejalashtirish aniqligining pasayishi
2	Institutsional risklar	Normativ-huquqiy bazadagi o‘zgarishlar, soliq yukining o‘zgarishi	Moliyaviy majburiyatlar oshishi, strategik noaniqlik
3	Bozor risklari	Talabning beqarorligi, raqobat kuchayishi	Daromad barqarorligining pasayishi
4	Texnologik risklar	Eskirgan texnologiyalar, innovatsiyalarni joriy etishdagi kechikish	Ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

5	Boshqaruv risklari	Strategik rejalashtirishdagi xatolar, axborot yetishmasligi	Moliyaviy resurslardan samarasiz foydalanish

Jadvalga izoh. 1-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, bilvosita risklar moliyaviy ko‘rsatkichlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilmasada, ularning ta’siri strategik darajada namoyon bo‘ladi. Masalan, makroiqtisodiy risklar ishlab chiqarish xarajatlarining o‘sishiga olib kelib, foyda marjasining qisqarishiga sabab bo‘ladi. Bu esa moliyaviy barqarorlikning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan rentabellik darajasiga bilvosita ta’sir etadi. Institutsional risklar esa korxona faoliyatining normativ muhitga moslashuvchanligini talab etadi. Ushbu moslashuv jarayonida yuzaga keladigan qo‘shimcha xarajatlar va strategik noaniqlik moliyaviy barqarorlikni susaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Texnologik va boshqaruv risklari esa ichki muhit bilan bog‘liq bo‘lib, ularning salbiy ta’siri ko‘pincha vaqt o‘tishi bilan kuchayadi. Texnologik orqada qolish ishlab chiqarish tannarxining oshishiga olib kelsa, boshqaruv risklari moliyaviy resurslarning samarasiz taqsimlanishiga sabab bo‘ladi. Natijada korxona moliyaviy barqarorligini saqlab qolish imkoniyatlari cheklanadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, bilvosita risklarni kamaytirish faqat alohida moliyaviy choralar bilan emas, balki strategik va institutsional yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim. Risklarni oldindan aniqlash, ularni tizimli baholash va boshqaruv qarorlariga integratsiya qilish sanoat korxonalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa

Mazkur maqolada sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligiga bilvosita ta’sir etuvchi risklarni kamaytirishning nazariy asoslari tizimli va kompleks yondashuv asosida tadqiq etildi. Tadqiqot jarayonida moliyaviy barqarorlik faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar yig‘indisi emas, balki korxonaning tashqi va ichki muhitga moslashuvchanligi, strategik boshqaruv sifati hamda institutsional barqarorlik darajasi bilan uzviy bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. O‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, makroiqtisodiy, institutsional, bozor, texnologik va boshqaruv risklari moliyaviy natijalarga bilvosita ta’sir ko‘rsatib, uzoq muddatda sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini sezilarli darajada zaiflashtirishi mumkin. Ushbu risklarning o‘z vaqtida aniqlanmasligi va baholanmasligi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi, moliyaviy oqimlar beqarorligi hamda investitsion jozibadorlikning kamayishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bilvosita risklarni kamaytirish jarayoni alohida moliyaviy choralar bilan cheklanmasdan, strategik rejalashtirish, institutsional moslashuvchanlik va samarali risk-menejment tizimini joriy etish orqali amalga oshirilishi lozim. Xususan, risklarni tizimli tasniflash, erta ogohlantirish mexanizmlarini shakllantirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga risk tahlilini integratsiya qilish sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda, shuningdek, kelgusidagi empirik tadqiqotlar uchun nazariy-metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Altman, E. I. (2000). Predicting financial distress of companies: Revisiting the Z-score and ZETA models. Journal of Banking & Finance.

2. Damodaran, A. (2015). Applied Corporate Finance. New York: Wiley.

3. Hopkin, P. (2018). Fundamentals of Risk Management. London: Kogan Page.

4. Porter, M. E. (2008). The Five Competitive Forces That Shape Strategy. Harvard Business Review.

5. Ross, S. A., Westerfield, R. W., & Jordan, B. D. (2019). Corporate Finance. New York: McGraw-Hill Education.

6. Stiglitz, J. E. (2010). Risk and Global Economic Architecture. American Economic Review.

7. Ўзбекистон Республикаси Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Sanoatni rivojlantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

GEOGRAFIYA DARSLARIDA MEDIA VA VOSITALARDAN FOYDALANISH: IMKONIYAT VA MUAMMOLAR

Jalilova Charos Zarifovna

(Buxoro davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi o‘qituvchisi)

Suvonova Sabina Jamshid qizi

(BuxDPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari 3 GIQ-23 guruhi talabasi)

Annotatsiya: Mazkur maqolada geografiya darslarida media va vositalardan foydalanishning nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari va duch kelinadigan muammolar yoritilgan. Media vositalari orqali o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, geografik jarayonlarni vizual shaklda ko‘rsatish va interfaol ta’limni rivojlantirishning samarali yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: geografiya, media, axborot texnologiyalari, ta’lim, interaktivlik, muammolar, imkoniyatlar, dars samaradorligi.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические основы, практические возможности и существующие проблемы использования медиа-средств на уроках географии. Рассматриваются эффективные пути повышения интереса учащихся к обучению, визуализации географических процессов и развития интерактивного обучения с помощью медиа. Также приведены методические рекомендации для преподавателей.

Ключевые слова: география, медиа, информационные технологии, образование, интерактивность, проблемы, возможности, эффективность урока.

Abstract: This article highlights the theoretical foundations, practical opportunities, and existing challenges of using media tools in geography lessons. It explores effective ways to increase students’ interest in learning, visualize geographical processes, and develop interactive education through media. Methodological recommendations for teachers are also provided.

Keywords: geography, media, information technology, education, interactivity, challenges, opportunities, lesson effectiveness.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Hozirgi kunda ta’lim tizimi jadal rivojlanib, zamonaviy texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha sohalariga joriy etilmoqda. Ta’lim sohasida ham bu jarayon yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Ayniqsa, fanlarni o‘qitishda, jumladan geografiya darslarida media va texnik vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bugungi o‘quvchi oddiy faqat og‘zaki bayon etiladigan darsdan ko‘ra, ko‘rgazmali, jonli va interaktiv darslarga ko‘proq qiziqadi. Shu sababli, geografiya fanini o‘qitishda media vositalaridan foydalanish darslarning samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Geografiya – tabiat va jamiyat o‘rtasidagi murakkab aloqalarni, yer yuzida sodir bo‘layotgan turli tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganadigan muhim fandir. Bu fan orqali o‘quvchilar Yer sharining tuzilishi, materik va okeanlarning joylashuvi, iqlim mintaqalari, relyef shakllari, tabiiy boyliklar, aholi joylashuvi va xo‘jalik faoliyati haqida bilimga ega bo‘ladilar. Bunday murakkab tushunchalarni faqat darslik matni asosida tushuntirish yetarli emas. Shuning uchun ham geografik kartalar, globuslar, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, videoroliklar, animatsiyalar, slaydlar va interaktiv dasturlardan foydalanish orqali o‘quvchilarga mavzuni chuqurroq va aniqroq tushuntirish mumkin.

Masalan, “Iqlim mintaqalari” mavzusini o‘rgatishda har bir mintaqaning xususiyatlarini so‘z bilan tushuntirish mumkin, ammo agar o‘qituvchi videorolik, geografik karta yoki animatsiya orqali bu mintaqalarning joylashuvini, harorat va yog‘in miqdorini ko‘rsatsa, bu o‘quvchining mavzuni tezroq tushunishiga va xotirasida uzoq saqlanib qolishiga yordam beradi. Shuningdek, “Vulkanlar va zilzilalar”, “Muzliklar harakati”, “Cho‘llanish jarayoni”, “Okean oqimlari” kabi mavzularni ham media vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki bu jarayonlar oddiy ko‘z bilan har doim ham kuzatilavermaydi. Video, animatsiya va modellar esa ushbu hodisalarni real ko‘rinishda aks ettirib, ularni tushunarli qiladi.

Bugungi kunda geografiya darslarida eng ko‘p foydalanilayotgan zamonaviy vositalardan biri bu – Google Earth va Google Maps dasturlaridir. Ushbu platformalar orqali o‘quvchilar Yer sharini virtual tarzda aylanishi, turli davlat va shaharlarni yaqindan ko‘rishi, tog‘lar, daryolar, cho‘llar va o‘rmonlarni o‘rganishi mumkin. Bu esa ularda geografiyaga bo‘lgan qiziqishni yanada oshiradi. Shuningdek, GIS (geografik axborot tizimi) dasturlari orqali hududlar tahlil qilinadi, kartalar tuziladi va turli ma’lumotlar solishtiriladi. Bunday amaliy ishlar o‘quvchilarda tadqiqotchilik qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Media vositalari nafaqat bilim berishda, balki o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, o‘quvchiga biror hududning sun’iy yo‘ldosh tasviri berilib, shu asosida uning iqlimi, relyefi yoki tabiiy resurslari haqida xulosa chiqarish vazifasi topshirilsa, bu uning bilimini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, interaktiv testlar, onlayn viktorinalar va o‘yinlar orqali o‘qish jarayoni yanada qiziqarli tus oladi. O‘quvchi darsda faol qatnashganida esa uning mavzuga nisbatan qiziqishi va mas’uliyati ortadi.

Bundan tashqari, media vositalardan foydalanish dars jarayonida vaqtni tejashga, mavzuni tartibli va aniq yetkazishga imkon beradi. O‘qituvchi oldindan tayyorlangan slaydlar, video va grafik materiallar orqali qisqa vaqt ichida ko‘proq ma’lumot bera oladi. Bu esa dars samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, murakkab mavzularda ko‘rgazmalilik juda katta ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchi ko‘rib o‘rganganda, ma’lumotni tezroq o‘zlashtiradi va mustahkam eslab qoladi. Biroq geografiya darslarida media vositalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Ba’zi maktab va ta’lim muassasalarida zamonaviy texnika vositalari yetishmasligi, kompyuterlar sonining kamligi, proyektor, interaktiv doska kabi qurilmalar mavjud emasligi darsni to‘liq raqamlashtirishga to‘sqinlik qiladi. Shu bilan birga, internet tezligining pastligi yoki doimiy ishlamasligi ham onlayn resurslardan foydalanishga xalaqit beradi. Ayrim o‘qituvchilarda esa axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha yetarli bilim va malaka yo‘qligi seziladi. Bu muammolarni hal qilish uchun o‘qituvchilarni malaka oshirish kurslariga jalb qilish, maktablarni zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash va internet tizimini yaxshilash zarur.

Shunga qaramasdan, bugungi kunda media vositalarining imkoniyatlari juda keng bo‘lib, ularni to‘g‘ri va maqsadli qo‘llash orqali geografiya ta’limini yangi bosqichga ko‘tarish mumkin. Raqamli texnologiyalar yordamida darslar yanada jonli, mazmunli va qiziqarli bo‘ladi. O‘quvchilar atrof-muhitni chuqurroq anglab, unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga befarq bo‘lmaydi. Bu esa ularda ekologik madaniyat, tabiatga ehtiyotkorona munosabat va mas’uliyat hissini shakllantiradi.

Geografiya darslarida media vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilish faoliyatini yanada chuqurroq va mazmunli yo‘nalishga olib kiradi. Media materiallari orqali o‘quvchilar faqat mavzuni tinglabgina qolmay, balki uni ko‘z bilan ko‘rib, jarayonlarni real tasvir asosida tasavvur qiladilar. Masalan, relyef shakllanishi, vulkan otilishi, muzliklarning siljishi yoki okean oqimlarining harakati kabi jarayonlarni oddiy matn orqali tushuntirish

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

ancha qiyin, biroq animatsiya va videolarda bu jarayonlar aniq va esda qolarli ko‘rinishda namoyish etiladi. Bu o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini, mantiqiy bog‘lanishlarni anglash qobiliyatini va tahlil qilish ko‘nikmalarini kengaytiradi. Media orqali ko‘rsatilgan sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, elektron atlaslar, 3D kartalar o‘quvchilarga hududlarning o‘zaro farqi, joylashuvi, masofa va yo‘nalish kabi tushunchalarni real ko‘rinishda anglash imkonini beradi. Shuningdek, media vositalari o‘quvchini mustaqil izlanishga ko‘proq jalb etib, u grafiklarni solishtiradi, obyektlarni qiyoslaydi, virtual kartada hududlarni taqqoslaydi, natijada dars oddiy tinglov emas, balki faol o‘quv jarayoniga aylanadi.

O‘qituvchilar uchun media vositalarining samarali qo‘llanishi ko‘proq ularning metodik yondashuviga va darsni rejalashtirish darajasiga bog‘liq. Media vositasining o‘zi emas, balki u orqali qanday ta’limiy maqsadga erishish muhim hisoblanadi. Shu sababli, dars mavzusiga mos sifatli video, animatsiya yoki interaktiv karta tanlash, ularning mazmunini tahlil qilib chiqish, ortiqcha yoki mavzuga aloqasiz materiallardan voz kechish katta ahamiyatga ega. Har bir media ko‘rgazmasiga savollar, muhokama topshiriqlari va kichik tahliliy vazifalar qo‘shish o‘quvchilarning darsga jalb etilishini ta’minlaydi. O‘quvchi ko‘rgan material ustida mustaqil fikr yuritmasa, media faqat tomosha vositasiga aylanib qoladi — shuning uchun o‘qituvchi har bir ko‘rsatilgan sahna ortida sabab-oqibat, ta’sir-reaksiya kabi tahliliy jihatlarni talab qilishi lozim. Bundan tashqari, Google Earth, GIS, EarthViewer kabi platformalardan foydalanish o‘quvchining raqamli kompetensiyasini oshiradi, unda kartografik tafakkur, hududiy tahlil va ilmiy kuzatuv malakalarini shakllantiradi. Shu orqali media vositalaridan foydalanish nafaqat mavzuni osonlashtiradi, balki o‘quvchini mustaqil izlanish olib borishga yo‘naltiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

Media vositalaridan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni to‘g‘ri baholash va ularning oldini olish ta’lim samaradorligi uchun juda muhimdir. Ba’zi ta’lim muassasalarida texnik vositalarning yetishmasligi yoki internet tezligining pastligi sababli darsdan oldin rejalashtirilgan media materiallarini to‘liq namoyish etish imkoni bo‘lmay qoladi. Bunday holatlarning oldini olish uchun o‘qituvchi materiallarning oflayn variantini oldindan yuklab olish, zaxira texnik vositalar tayyorlab qo‘yish orqali dars jarayonini to‘xtalib qolishidan saqlashi mumkin. Ba’zan o‘quvchilarning media materialiga haddan tashqari berilib ketib, faqat tomoshabin sifatida qatnashishi ham darsning mazmunidan chalg‘itadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun har bir video yoki animatsiyadan keyin

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

savollar berish, tahliliy topshiriqlarni bajarish, muhokama tashkil qilish zarur. Shuningdek, ayrim o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalari yetarli bo‘lmagan taqdirda media vositalaridan to‘laqonli foydalanish qiyinlashadi. Bu esa maxsus treninglar, malaka oshirish kurslari, amaliy seminarlar orqali hal etilishi kerak bo‘lgan muhim masala hisoblanadi. Umuman olganda, media vositalaridan foydalanish ko‘proq tayyorgarlik, puxta rejalash va tahliliy yondashuvni talab qiladi; aynan shular orqali darsning mazmuni boyiydi, o‘quvchining geografik dunyoqarashi esa yanada kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, geografiya darslarida media va texnik vositalardan foydalanish bugungi zamon talabi hisoblanadi. Bu vositalar yordamida o‘quvchilarning bilim saviyasi oshadi, ularning dunyoqarashi kengayadi, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi. Zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan geografiya darslari o‘quvchini bilimli, tafakkuri keng, atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘ladigan shaxs sifatida tarbiyalaydi. Shu sababli, kelajakda ham geografiya fanini o‘qitishda media vositalaridan yanada kengroq va samaraliroq foydalanish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov A. Pedagogik texnologiyalar va media vositalar. – Toshkent: O‘zMU, 2017.

2. Xoliqov B. Geografiya ta’limida axborot texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Hasanov X. Ta’lim jarayonida texnik vositalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent, 2018.
4. Qodirov A., Ahmedov M. Geografiya o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
5. To‘rayev R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И МЕТОДОЛОГИЯ СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНОГО АНАЛИЗА ПРОСТРАНСТВЕННОСТИ В РАЗЛИЧНЫХ ЯЗЫКАХ МИРА

Ботирова Зухра Жураевна

Независимый исследователь в Институте предпринимательства и педагогики Денова

botirovazuhra412@gmail.com

Аннотация

В статье рассматриваются типологические особенности репрезентации пространственности в языках мира и обосновывается методология сравнительно-сопоставительного анализа данного феномена. Пространственность интерпретируется как универсальная когнитивная категория, находящая отражение в языковых системах различного типологического строя, но реализующаяся в них посредством неоднородных грамматических, лексико-семантических и дискурсивных средств. В центре внимания находится сопоставление языков с различными стратегиями кодирования пространственных отношений, включая аналитические и синтетические языки, а также языки с развитой системой локативных падежей и языки, опирающиеся преимущественно на предлоги и послелоги. Методологическая часть статьи опирается на достижения когнитивной лингвистики, функциональной типологии и семантической теории, что позволяет выявить как универсальные, так и языково-специфические параметры пространственной концептуализации. Полученные результаты демонстрируют, что пространственность в языке не является простым отражением физического пространства, а формируется под влиянием когнитивных, культурных и типологических факторов.

Ключевые слова: пространственность, типология языков, сравнительно-сопоставительный анализ, когнитивная лингвистика, локативные значения, пространственная семантика.

Abstract

This article examines the typological features of spatiality representation in the world's languages and substantiates a methodology for a comparative analysis of this

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

phenomenon. Spatiality is interpreted as a universal cognitive category, reflected in language systems of varying typological structures but realized through heterogeneous grammatical, lexical-semantic, and discursive means. The focus is on comparing languages with different strategies for encoding spatial relations, including analytic and synthetic languages, as well as languages with a developed system of locative cases and languages relying primarily on prepositions and postpositions. The methodological part of the article draws on advances in cognitive linguistics, functional typology, and semantic theory, allowing us to identify both universal and language-specific parameters of spatial conceptualization. The results demonstrate that spatiality in language is not a simple reflection of physical space, but is shaped by cognitive, cultural, and typological factors.

Key words: spatiality, language typology, comparative analysis, cognitive linguistics, locative meanings, spatial semantics.

ВВЕДЕНИЕ

Категория пространства является одной из базовых форм человеческого познания и, следовательно, занимает центральное место в языковой картине мира. Любой язык располагает средствами для выражения пространственных отношений, однако способы их языковой репрезентации существенно различаются в зависимости от типологической структуры, исторического развития и культурных установок языкового сообщества. В одних языках пространственность получает преимущественно грамматическое оформление, в других — реализуется через лексические и синтаксические механизмы, что определяет специфику языкового осмысления пространства.

Актуальность настоящего исследования обусловлена необходимостью системного описания пространственной семантики в типологически различных языках и разработки адекватной методологии их сравнительно-сопоставительного анализа. В условиях активного развития межкультурной коммуникации и переводоведения понимание различий в пространственной концептуализации приобретает особое практическое значение. Цель статьи заключается в выявлении типологических параметров выражения пространственности и обосновании методологических принципов их сопоставительного изучения.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Научный интерес к пространственной семантике формируется на стыке лингвистики, философии и когнитивных наук. В трудах Э. Сепира и Б. Уорфа была впервые четко обозначена идея зависимости пространственного мышления от языковой структуры. Эти положения получили дальнейшее развитие в рамках функциональной типологии, представленной в работах Дж. Гринберга и Б. Комри, где пространственные категории рассматривались как часть универсального набора грамматических значений.

Значительный вклад в изучение пространственности внесла когнитивная лингвистика. Л. Талми предложил модель семантического кодирования движения и пространства, выделив параметры фигуры, фона, траектории и ориентира. Р. Лэнгакер рассматривал пространственные отношения как отражение базовых когнитивных схем, лежащих в основе грамматической структуры языка. С. Левинсон показал, что способы ориентации в пространстве тесно связаны с культурными моделями и могут существенно различаться даже в географически близких языках.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методологическая основа исследования строится на интеграции сравнительно-сопоставительного, типологического и когнитивно-семантического подходов. Сравнительный метод используется для выявления сходств и различий в системах пространственных значений различных языков, тогда как сопоставительный анализ позволяет установить функциональные соответствия между разноструктурными языковыми средствами. Особое внимание уделяется принципу сопоставимости, поскольку прямые формальные эквиваленты в области пространственной семантики встречаются редко.

В рамках исследования анализируются грамматические категории (локативные падежи, послелоги, предлоги), лексические единицы и синтаксические конструкции, выражающие пространственные отношения. Методология также предполагает учет экстралингвистических факторов, включая культурные модели пространственной ориентации и особенности перцептивного опыта носителей языка. Такой комплексный подход позволяет рассматривать пространственность не как изолированное языковое явление, а как результат взаимодействия когнитивных и типологических факторов.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Проведенный анализ показал, что языки мира демонстрируют несколько устойчивых типологических стратегий репрезентации пространственности. В синтетических языках пространственные значения, как правило, грамматикализованы и выражаются через развитые падежные системы, что обеспечивает компактность и высокую семантическую плотность форм. В аналитических языках аналогичные значения реализуются посредством предлогов, порядка слов и контекста, что приводит к большей вариативности интерпретации.

Установлено, что степень абстракции пространственных значений коррелирует с типологическим строем языка. Агглютинативные языки демонстрируют четкую сегментацию пространственных параметров, тогда как изолирующие языки характеризуются высокой семантической гибкостью. Это подтверждает тезис о том, что пространственность в языке является динамической категорией, адаптирующейся к структурным возможностям языковой системы.

Обобщающая таблица типологических параметров:

Тип языковой системы	**Средства выражения пространства**	**Характер пространственной семантики**
Синтетические	Падежи, флексии	Высокая грамматикализация
Аналитические	Предлоги, порядок слов	Контекстуальная вариативность
Агглютинативные	Послелоги, суффиксы	Семантическая сегментация
Изолирующие	Лексические маркеры	Семантическая гибкость

ОБСУЖДЕНИЕ

Полученные результаты подтверждают, что пространственность в языке не является прямым отражением физического пространства. Она формируется в результате сложного взаимодействия когнитивных механизмов, типологических особенностей и культурных факторов. Сравнительно-сопоставительный анализ показывает, что одни и те же пространственные отношения могут

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

концептуализироваться по-разному в зависимости от того, какие параметры оказываются релевантными для конкретного языкового сообщества.

Обсуждение также выявляет методологическую значимость отказа от формального сопоставления в пользу функционального и семантического анализа. Такой подход позволяет избежать редукционизма и обеспечивает более адекватное описание пространственной семантики в межъязыковом аспекте.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В заключение следует отметить, что типологические особенности пространственности и методология их сравнительно-сопоставительного анализа представляют собой перспективное направление современной лингвистики. Пространственность выступает не только как универсальная когнитивная категория, но и как показатель типологической и культурной специфики языка. Разработанный в статье методологический подход позволяет выявить как универсальные, так и языково-специфические параметры пространственной концептуализации.

Результаты исследования могут быть использованы в переводоведении, межкультурной коммуникации и преподавании иностранных языков, а также послужить основой для дальнейших эмпирических исследований с привлечением экспериментальных данных когнитивной науки.

БИБЛИОГРАФИЯ

1. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. — М.: Прогресс, 1993. — 656 с.

2. Уорф Б. Лингвистика и логика // Новое в зарубежной лингвистике. — М.: Прогресс, 1960. — С. 173–198.

3. Гринберг Дж. Универсалии языка. — М.: Прогресс, 1970. — 304 с.

4. Комри Б. Типология языков и языковые универсалии. — М.: УРСС, 2004. — 312 с.

5. Talmy L. Toward a Cognitive Semantics. — Cambridge: MIT Press, 2000. — 565 p.

6. Langacker R. Foundations of Cognitive Grammar. — Stanford: Stanford University Press, 1987. — 516 p.

7. Levinson S. Space in Language and Cognition. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003. — 403 p.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIKTANT VA UNING TURLARI

1-kurs magistranti: **Normatova Sadoqat**

Ilmiy rahbar: Pedagogika fanlari doktori professor **A.A.Xalikov**

Nizomiy nomidagi O’zMPU

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida diktant metodining nazariy-pedagogik asoslari, uning turlari, metodik xususiyatlari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot diktantning savodxonlikni rivojlantirishdagi, imloviy malakalarni mustahkamlashdagi va yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishdagi rolini tahlil qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun lug‘at diktanti, izohli diktant, ko‘chirib yozish diktanti, tanlab yozish diktanti, ijodiy diktant va tekshiruv diktanti kabi turlarni tizimli qo‘llashning pedagogik samaradorligi ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, diktant, savodxonlik, yozma nutq, metodika, pedagogika.*

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’lim tizimining eng muhim bosqichi bo‘lib, o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan munosabatni, yozma va og‘zaki nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu davrda bolalar tilni faol o‘zlashtirishga kirishadi, so‘z boyligi ortadi, grammatika va imlo qoidalarini amaliyotda qo‘llashni o‘rganadi. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ta’limning sifatli va samarali tashkil etilishi muhim hisoblanadi (Abdullayev, 2019).

Kirish bosqichi o‘quvchilarda nafaqat asosiy akademik ko‘nikmalarni, balki shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarni shakllantiradi. Shu jumladan: e’tibor, diqqat, xotira, tafakkur, muloqot va mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Ona tili ta’limining asosiy maqsadi esa savodxonlikni mustahkamlash va yozma nutq malakasini rivojlantirishdan iborat bo‘lib, bu esa o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun poydevor yaratadi.

Diktant metodi aynan shu jarayonda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. U nafaqat o‘quvchilarning imlo va grammatika ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi, balki

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

ular diqqatini jamlash, xatolarni tahlil qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga diktant pedagogik jarayonda diagnostik vosita sifatida ham ishlatiladi — o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim darajasini baholaydi va qayerda yordam kerakligini aniqlaydi (G‘afforova, 2020).

Shuningdek, boshlangan bosqichda diktant turli metodik maqsadlar uchun qo‘llanilishi mumkin: lug‘at boyligini oshirish, imlo qoidalarini mustahkamlash, yozma nutq madaniyatini rivojlantirish va ijodiy fikrlashni shakllantirish. Shu jihatdan diktant nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘ladi, chunki u o‘quvchilarda mas’uliyat va intizomni rivojlantiradi, ular mustaqil ishlashga odatlanadi va o‘z xatolarini tuzatishni o‘rganadi (Jalolov, 2018).

Kirish bo‘limining maqsadi shundan iboratki, boshlang‘ich ta’limda diktantning pedagogik, psixologik va metodik ahamiyatini ochib berish, uning tur va turlarini tizimli o‘rganish va o‘quvchilarning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish yo‘llarini ko‘rsatishdir.

Diktantning nazariy-pedagogik asoslari

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, diktant o‘quvchilarda:

- yozma nutq madaniyatini shakllantiradi;
- imlo va grammatika qoidalarini amaliyotda qo‘llashni o‘rgatadi;
- diqqat va xotirani mustahkamlaydi;
- mustaqil fikrlash va mas’uliyatni rivojlantiradi (Jalolov, 2018).

Psixologik jihatdan diktant o‘quvchilarda o‘z-o‘zini nazorat qilish, mustaqil ishlash, xatolarni tahlil qilish va ularni tuzatishga o‘rgatish orqali ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinflarda diktantning quyidagi turlari qo‘llaniladi:

1. Lug‘at diktanti – yangi so‘zlarni egallash, ularning imlosini mustahkamlash, leksik boylikni oshirishga xizmat qiladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

2. Izohli diktant – imlo qoidalarini ongli ravishda o‘zlashtirishni ta’minlaydi; o‘qituvchi matnni tushuntiradi, o‘quvchi qoidalarni tushunib yozadi.

3. Ko‘chirib yozish diktanti – o‘quvchilarga yozuv texnikasini, tezlik va aniqlikni rivojlantirish imkonini beradi.

4. Tanlab yozish diktanti – o‘quvchilar faqat ma’lum so‘zlar yoki grammatik shakllarni yozadilar, bu esa diqqat va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi.

5. Ijodiy diktant – o‘quvchilar berilgan tayanch so‘zlar yoki jumlalar asosida matn yaratadilar; mustaqil fikrlash va nutqiy faollik rivojlanadi.

6. Tekshiruv diktanti – bilimlarni baholash va diagnostika qilish vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Turlarni kombinatsiyalash va muntazam qo‘llash o‘quvchilarning imloviy xatolarini kamaytirishga, yozma nutq malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi

(Xudoyberganova, 2021).

Metodik yondashuv va amaliy ahamiyat

Diktantni tashkil etishda quyidagilar muhim:

• Matnning yosh va bilim darajasiga mosligi;

• Matn mazmunining tarbiyaviy va ilmiy ahamiyati;

• Xatolarni aniqlash va tahlil qilish jarayoni;

• Takroriy yozish orqali mustahkamlash.

Xulosa Boshlang‘ich ta’limda diktant o‘quvchilarning savodxonligini rivojlantirishning eng muhim va samarali pedagogik vositalaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, diktant nafaqat yozma nutq va imloviy malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi, balki o‘quvchilarda diqqatni jamlash, xotira va tafakkur jarayonlarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi (Abdullayev, 2019; G‘afforova, 2020).

Diktant turlarini tizimli va maqsadga muvofiq qo‘llash orqali o‘quvchilarning yozma nutq kompetensiyasi sezilarli darajada oshadi. Masalan, lug‘at va izohli diktantlar so‘z

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

boyligini va imlo qoidalarini mustahkamlashda yordam beradi; ko‘chirib yozish va tanlab yozish diktantlari esa yozuv texnikasi va diqqatni rivojlantiradi; ijodiy diktant o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarni shakllantiradi; tekshiruv diktanti esa bilimlarni baholash va diagnostika qilish imkonini beradi (Jalolov, 2018; Xudoyberganova, 2021).

Bundan tashqari, diktant metodining pedagogik va psixologik jihatlari ham muhimdir. Diktant orqali o‘quvchilar o‘z xatolarini aniqlashni, ularni tuzatishni, mustaqil ishlashni o‘rganadilar. Shu bilan birga, o‘quvchilarda mas’uliyat, intizom va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa ta’lim jarayonining sifatini oshiradi va o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, diktant boshlang‘ich ta’limda nafaqat savodxonlikni rivojlantirish vositasi, balki o‘quvchilarning akademik, psixologik va shaxsiy rivojlanishining muhim komponenti hisoblanadi. Uni tizimli, ilmiy asoslangan va turli metodik yondashuvlar bilan qo‘llash o‘quvchilarning yozma nutq malakasi, e’tibor va tafakkurini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, diktant metodini samarali qo‘llash pedagoglarga o‘quv jarayonini baholash va takomillashtirish, shuningdek, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkonini ham beradi (Karimov & Mamadaliyev, 2022).

Umuman olganda, diktant boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ta’lim sifatini oshirish, ularning yozma nutq va imloviy ko‘nikmalarini mustahkamlash, shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirishda hal qiluvchi vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, A. (2019). Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan.

2. G‘afforova, T. (2020). Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.

3. Jalolov, J. (2018). Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent.

4. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun.

5. Xudoyberganova, M. (2021). Boshlang‘ich sinflarda diktant va savodxonlikni rivojlantirish metodikasi. Toshkent.

6. Karimov, S., & Mamadaliyev, T. (2020–2022). Pedagogik amaliyot va boshlang‘ich ta’lim. Toshkent.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

СОВЕРШЕНСТСВОВАНИЕ ПОРЯДКА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЖИЛЬЁМ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ АРМИИ УЗБЕКИСТАНА

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

Jamoat xavfsizligi universiteti,

“Iqtisodiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

E-mail: shavkatjonusmonov3007@gmail.com

https://orcid.org/0009-0006-1118-3465

Аннотация: В статье рассматривается повышении эффективности мер по социальной защите военнослужащих, Обеспечение жилыми помещениями военнослужащих, достижения, проблемы и пути их решения. Освещается выплата денежной компенсации за наем (поднаем) жилых помещений. Проанализированы выдача жилья по ипотечному кредитованию, сроки возмещения, практику предоставления долгосрочных льготных ипотечных кредитов для строительства индивидуального жилья, гарантии государства, даны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: социальная защита военнослужащих, льготные ипотечные кредиты, служебные жилые помещения, ежемесячная денежная компенсация за наем (поднаем) жилья, жилищный фонд, первоначальный взнос по долгосрочному ипотечному кредиту.

O'ZBEKISTON ARMIYASINING HARBIY XIZMATCHILARINI UY-JOY BILAN TA'MINLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotasiya: Maqolada harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish choralari samaradorligini oshirish, harbiy xizmatchilarni turar joy bilan ta'minlash, yutuqlar, muammolar va ularni hal qilish yo'llari ko'rib chiqiladi. Turar-joy binolarini ijaraga olish (ijaraga berish) uchun pul kompensatsiyasini to'lash yoritilgan. Ipoteka krediti bo'yicha uy-

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

joy berish, qoplash muddatlari, yakka tartibdagi uy-joy qurish uchun uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlarini berish amaliyoti, davlat kafolatlari tahlil qilindi, taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish, imtiyozli ipoteka kreditlari, xizmat turar joylari, uy-joyni ijaraga olish (ijaraga berish) uchun oylik pul kompensatsiyasi, uy-joy fondi, uzoq muddatli ipoteka krediti uchun dastlabki to'lov.

IMPROVING THE PROCEDURE FOR PROVIDING HOUSING FOR MILITARY PERSONNEL OF THE ARMY OF UZBEKISTAN

Annotation: The article discusses improving the effectiveness of measures for the social protection of military personnel, providing living quarters for military personnel, achievements, problems and ways to solve them. The payment of monetary compensation for the rental (subletting) of residential premises is highlighted. The article analyzes the provision of housing for mortgage loans, repayment periods, the practice of providing long-term preferential mortgage loans for the construction of individual housing, government guarantees, and offers and recommendations

Keywords: social protection of military personnel, preferential mortgage loans, office housing, monthly monetary compensation for rental housing, housing stock, initial payment on a long-term mortgage loan.

В В Е Д Е Н И Е

Великий полководец Амир Темур – “Победу прежде всего определяют боевая подготовка, сила духа и твердая воля.” “В центре нашего внимания будет находиться повышение боевого духа наших храбрых и отважных воинов, являющихся главной силой национальной армии, воспитание в них стойкости и умения преодолевать любые испытания.”[1] Растёт профессиональное мастерство нашей армии, ее авторитет в мире. Благодаря твердой воле и боевому духу военнослужащих республики можно

[1] Праздничное поздравление Президента Республики Узбекистан, Верховного Главнокомандующего Вооруженными Силами в связи с 32-й годовщиной образования Вооруженных Сил Республики Узбекистан и Днём защитников Родины от 13 января 2024 года.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

твёрдо утверждать, что независимость страны, мирная и спокойная жизнь народа, неприкосновенность границ находятся в крепких и надежных руках.

Стремительно меняющаяся военно-политическая обстановка в регионе и мире, возрастающие угрозы и вызовы безопасности нашей стране требуют не останавливаться на достигнутом. На основе глубокого и критического анализа всех достижений и ошибок важно продолжать продуманные и последовательные усилия по дальнейшему развитию и совершенствованию национальной армии.

Необходимо сосредоточиться на **повышении эффективности мер по социальной защите военнослужащих**. Настоящее время «Мы столкнулись с объективной необходимостью выработки новых механизмов реализации государственных программ в данной сфере. В этих целях важно ускорить разработку давно востребованных нормативно-правовых актов, направленных на совершенствование порядка прохождения военной службы, тылового, жилищного и медицинского обеспечения военнослужащих. Необходимо принять Закон «О пенсионном обеспечении лиц, проходивших военную службу, службу в органах внутренних дел, таможенных органах, и членов их семей». В систему жилищного обеспечения военнослужащих целесообразно шире внедрять положительно зарекомендовавшую себя практику предоставления долгосрочных льготных ипотечных кредитов для строительства индивидуального жилья»[2].

Это не только вопрос социальной справедливости, но и способ повысить мотивацию и моральный дух военнослужащих, что крайне важно для национальной безопасности и стабильности.

Проводится масштабная работа по организации достойных условий проживания и современной инфраструктуры для военнослужащих. Вместе с тем, сегодня обеспечивается привлекательность военной службы и гарантии социальной защиты военнослужащих Вооруженных Сил Республики Узбекистан (далее – ВС РУ). Продолжается расширение сферы деятельности, направленной на рациональное решение вопросов улучшения социального обеспечения военнослужащих,

[2] Праздничное поздравление Президента Республики Узбекистан, Верховного Главнокомандующего Вооруженными Силами в связи с 25-й годовщиной образования Вооруженных Сил Республики Узбекистан и Днём защитников Родины от 13 января 2017 года.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

уволенных в резерв граждан и членов их семей, а также порядка обеспечения их жильем на основе льготного ипотечного кредита. Государство должно эффективно заботиться о своих героях и обеспечивать им достойное будущее.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

В современной мировой экономике ипотечное кредитование играет большую роль, поскольку современная финансовая и инвестиционная деятельность невозможна без рынка ссудных капиталов. Прежде всего роль последнего обусловлена необходимостью развития капиталоемких отраслей, к одной из которых относится жилищное строительство, динамика которого отражает стабильность социально-экономического развития страны.[3]

В настоящее время среди стран ЕС одними из наиболее либеральных условий получения ипотечного кредита обладает Испания, где возможно взять кредит до 100 % от оценочной стоимости недвижимого имущества, а верхняя граница срока кредитования составляет 35 лет, банковская ко- миссия за кредит составляет 1,5 %, но если покупатель решил воспользоваться ипотекой строитель- ной организации, то экономия составит до половины от банковской комиссии. Во Франции возмож- но получение кредита в размере до 80 % от стоимости, а максимальный срок кредитования составляет 25 лет. В этой стране условия кредитования более жесткие, поскольку в последние годы госу- дарством сворачиваются программы субсидирования беспроцентного приобретения жилья и банки предъявляют более высокие требования к заемщикам[4].

В Великобритании размер кредита не мо- жет превышать 70 % от стоимости, а ставки по кредитам продолжают снижаться и в настоящее вре- мя составляют 3,14 %.[5] Ипотечные банки имеют разные названия в разных странах: так, например, в США

[3] Лопес В.Л. Модели ипотечного кредитования в зарубежных странах // Наука и экономика. – 2011. – № 2(6). – С. 52.
[4] Ипотека под 2 % годовых [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.gazeta.ru/realty/2013/07/30_a_5531225.shtml.
[5] Маслова И. Европейское качество ипотеки [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.homesoverseas.ru/articles/1202.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

это – ссудно-сберегательные ассоциации и Федеральная корпорация ипотечного страхования.[6]

Boshlang‘ich ta’lim tizimi umumiy ta’limning poydevori bo‘lib, unda o‘quvchilarning shaxsiy rivoji, bilimga bo‘lgan munosabati va asosiy kompetensiyalari shakllanadi. Boshlang’ich ta’lim o’quvchilarini maktabga ilk qoygan qadamidanoq fanga va kitobga muhabbat uyg’otish o’quvchilarni o’z vaqtida uyga vazifa qilish va dars jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi.Shu sababli boshlang‘ich ta’lim metodikasining taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida boshlang‘ich ta’lim metodikasiga qo‘yilayotgan talablar yanada ortib bormoqda.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASINING TARIXIY TARAQQIYOTI

Boshlang‘ich ta’lim metodikasining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti va pedagogik fikr evolyutsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Sharq mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Beruniylarning pedagogik qarashlari bugungi ta’lim metodikasining nazariy asosini tashkil etadi

AN’ANAVIY METODLARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

An’anaviy ta’lim metodlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lib, bilimlarni izchil o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Tushuntirish, mashq va takrorlash metodlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, interfaol metodlar, raqamli ta’lim vositalari, STEAM yondashuvi boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilarning faolligini oshiradi va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

XULOSA

Xulosa o’rnida ta’kidlash joizki, boshlang‘ich ta’lim metodikasi taraqqiyoti an’anaviy tajriba va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg‘unligi asosida samarali rivojlanadi. O‘qituvchining metodik kompetensiyasi ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Boshlang’ich ta’lim o’quvchilarini shaxs sifatida shakllantirish, dars jarayonlarida o’quvchilarni interfaol metodlardan foydalanib yangi mavzularni tushuntirish, barcha o’quvchilarni darsda faol ishtirok etishini va yangi bilimlarni o’zlashtirishiga katta yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qodirov B. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent, 2020.

2. Davletshin M. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent, 2018.

3. UNESCO. Education in a Digital World. – Paris, 2021.

4. Hattie J. Visible Learning. – London, 2019.

5. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 2017.

6. “Maktabgacha ta’lim- tarbiya to’g’risida“gi Qonun,.-T.;O’zbekiston.

2020 y.

7. F.Qodirova, Sh.Toshpo’latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”-T.,”Ma’naviyat”.2013

8. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogika.T.; O’qituvchi, 1993.

9. Xasanboeva O.U. va boshqa. Maktabgacha ta’lim pedagogika .T.; Ilm ziyo. 2006.

10. N.M.Kayumova “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashiroti T.;

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI INSHO VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Sharipova Iroda Rashid qiz

O’zMPU „Boshlang’ich ta’lim’’ yo’nalishi 1-bosqich magistranti

ANOTATSIYA

Ushbu tezezda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini insho vositasida rivojlantirishning nazariy asoslari va metodik yondashuvlari yoritilgan. Insho bolalarda mustaqil fikrlash, izchil bayon, ijodiy tasavvur va savodxonlikni shakllantiruvchi asosiy vosita ekanligi ilmiy va amaliy dalillar bilan asoslangan. Maqolada insho yozish ko‘nikmasini shakllantirish bosqichlari, o‘qituvchining metodik roli, rasm asosida hikoya, klaster, erkin yozuv kabi samarali metodlar tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda qo‘llaniladigan insho turlari va baholash mezonlari keng yoritilgan. Tadqiqot natijalari insho vositasida yozma nutqni rivojlantirish o‘quvchining nutqiy madaniyati va fikrlash faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, yozma nutq, insho, metodika, rasm asosida hikoya, reja tuzish, klaster, ijodiy fikrlash, matn tuzish, savodxonlik.

"Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini o‘stirishda diktantlarning tutgan o‘rni" mavzusi o‘zining dolzarbligi bilan ta'lim sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma nutq o‘quvchilarning tilni to‘g‘ri va aniq ifodalash, fikrni bayon etishdagi ko‘nikmalarni rivojlantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Diktantlar esa bu jarayonda o‘quvchilarning yozma nutqini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Diktantlar o‘quvchilarga yozuvni o‘rganish va uni mustahkamlashda yordam beradi. Ular o‘quvchilarning imlo, tinish belgilari, so‘z va gap tuzish qoidalariga rioya qilishlarini tekshirish imkoniyatini yaratadi. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarning yozma nutqini yanada sifatli va ravon qilishga yordam beradi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishi, nutqiy madaniyati, tafakkuri va fikrlash doirasining kengayishi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, yozma nutqni rivojlantirish jarayoni o‘quvchini

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

keyingi bosqichlarda mustaqil o‘qish, tahlil qilish, fikr bildirishga tayyorlaydi. Yozma nutqning takomillashuvida inshoning tutgan o‘rni beqiyosdir. Chunki insho — o‘quvchining o‘z qarashi, kuzatuvi, tasavvuri, hissiyoti va fikrini mustaqil bayon qilish imkonini beradigan ijodiy faoliyatdir.

Yozma nutqni rivojlantirishda inshoning o‘rni

Insho yozish jarayoni o‘quvchilarda izchil fikrlash, til boyligini oshirish, mantiqiy bog‘liqlikni saqlash, ijodiy tasavvur va savodxonlikni rivojlantiradi. Shu sababli insho o‘rgatish o‘qish, ona tili va nutq o‘stirish bilan chambarchas bog‘langan jarayondir.

Insho yozish ko‘nikmasini shakllantirish bosqichlari

1. Tayyorgarlik bosqichi: rasm asosida gap tuzish, matnni qayta hikoyalash, kuzatish asosida kichik matn yaratish.
2. 2. Reja tuzish: mavzuni tushunish, asosiy fikrni aniqlash, reja bandlarini tuzish.
   3. Mustaqil yozish: kirish, asosiy qism va xulosa qismidan iborat matn yaratish.
   4. Tahlil va tahrir: xatolarni tuzatish, matnni takomillashtirish

Samarali metodlar

Rasm asosida insho, klaster, erkin yozuv, savollar orqali reja tuzish, insert metodlari o‘quvchilarda ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Darslarda o‘quvchilar zo‘r qiziqish bilan ishtirok etadigan, hamda o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘yindan namuna keltirib o‘tamiz.

”Safar” o‘yini “

Safar” o‘yinini o‘tkazish uchun o‘quvchilarga maktabdan, uylaridan yoki biror xonadan ma’lum bir masofagacha bo‘lgan yo‘lni tasvirlash topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar esa berilgan topshriqni ko‘z oldilariga keltirib yo‘lakdan kelayotganda yo‘lda va uning yon-atrofida ko‘rgan barcha narsa va hodisalarni tasvirlab daftarlariga yozadilar. Bu o‘yin o‘quvchilardan sinchkovlik, kuzatuvchilik va ziyraklik qobiliyatlari tekshirish imkonini beradi. Bu o‘yinning tag zaminida Vatanni sevish, atrof-muhitga e’tiborli bo‘lish talab

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

etiladi, hamda bu hisslarini tarbiyalaydi. Bundan tashqari ona tili darslarida o‘qituvchi bu o‘yindan foydalanadigan bo‘lsa, o‘quvchilarning yozma nutqi rivojlanadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi, lug‘at boyligi yanada ortadi.

Xulosa qilib aytganda diktantlar orqali o‘quvchilarning yozma ko‘nikmalari mustahkamlanadi, bu esa ularning tilni to‘g‘ri ishlatish va bilimlarni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Diktantlar o‘quvchilarning xotira va tafakkurini rivojlantirishga ham yordam beradi, chunki ular eslab qolish, tushunish va ifodalay olishni talab qiladi, diktantlarni muntazam ravishda o‘tkazish, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyatini oshiradi va ularni yozma nutqda xatolardan xoli bo‘lishga undaydi. Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini o‘stirishda diktantlarning o‘rni juda katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilar bu usulni o‘quvchilarning yozma ko‘nikmalarini yaxshilash, ular orasida tilni tushunish va ifodalashdagi aniq bilimlarni shakllantirish uchun samarali vosita sifatida ishlatishlari lozim. Diktantlar orqali o‘quvchilar faqatgina imlo va yozuvni o‘rganmay, balki o‘z fikrlarini aniq va ravon ifodalashda mustahkam asos hosil qiladilar

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘raqulova, N. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. G‘ulomov, A. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Yo‘ldosheva, D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq o‘stirish ishlari. – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2021.
4. Shodmonov, Q., Yuldashev, M. Pedagogika. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019.
5. Vygotskiy, L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1996.
6. Ziyomuhamedov, B., Jabborov, A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Davlat ta’lim standartlari (DTS). Boshlang‘ich ta’lim. – Toshkent, 2021.
8. Xodjieva, N. Insho o‘rgatish metodikasi: boshlang‘ich sinflar uchun qo‘llanma. – Toshkent, 2019.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

TRANSPORT VOSITALARIDA BIOLOGIK GAZ YONILG‘ISIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Qo‘ldoshev Adhamjon Abdulaziz o‘g‘li

Toshkent Davlat Transport unversiteti

ATM fakulteti Magistranti 2-bosqich talabasi

adhamjonqoldoshev407@gmail.com

+998996480925

Annotatsiya: Ushbu maqolada transport vositalarida biologik gaz (biogaz)dan foydalanishni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Biogazning ekologik tozaligi, iqtisodiy samaradorligi va energiya xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Mamlakatlarda mavjud infratuzilma, biometan ishlab chiqarish texnologiyalari hamda transport tizimiga integratsiya qilish jarayonidagi muammolar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, biogazdan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan texnik, iqtisodiy va tashkiliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari biogazning transport sohasida istiqbolli va barqaror yoqilg‘i manbai sifatida foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Annotation: This article examines the improvement of biogas utilization in transportation. It analyzes the environmental benefits, economic efficiency, and the role of biogas in enhancing energy security. Existing infrastructure, biomethane production technologies, and challenges related to integrating biogas into transport systems are discussed. Furthermore, the study proposes technical, economic, and organizational measures aimed at expanding the use of biogas in the transport sector. The findings demonstrate that biogas is a promising and sustainable fuel source for future transportation needs.

Kirish. So‘nggi yillarda ekologik barqarorlik, energiya mustaqilligi va arzon yoqilg‘i manbalarini izlash global darajadagi ustuvor masalaga aylandi. Shunday alternativa manbalardan biri — biologik gaz (biogaz) bo‘lib, u organik chiqindilarni anaerob

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

parchalanishi natijasida hosil bo‘ladigan metan va karbonat angidrid aralashmasidan iborat. Biogazni transport vositalari uchun yoqilg‘iga aylantirish, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun ahamiyatli bo‘lib, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik tozalikka erishishda muhim o‘rin tutadi.

Ekologik samaradorlik - Biogaz yoqilg‘isi kuyish jarayonida azot oksidlari, oltingugurt oksidi va zarrachalarni minimal miqdorda hosil qiladi. Metan atmosferaga chiqishini kamaytiradi, chunki chiqindilardan chiqqan metan to‘planib, yoqilg‘i sifatida ishlatiladi. Uglerod izi an’anaviy yoqilg‘iga nisbatan 30–80% gacha kamayadi.

Iqtisodiy afzalliklar - Mahalliy resurs — dehqonchilik, chorvachilik, oziq-ovqat sanoati chiqindilaridan olinadi. Import qilinadigan neft mahsulotlariga qaramlikni kamaytiradi. Biogaz ishlab chiqarish qishloqlarda yangi ish o‘rinlari yaratadi.

Texnik qulayliklar - Biometanni siqilgan tabiiy gaz (CNG) sifatida bevosita avtomobillarda qo‘llash mumkin. CNG tizimiga moslashgan avtomobillar biogazdan hech qanday qo‘shimcha modernizatsiyasiz foydalanishi mumkin.

Bugungi kunda biogaz asosan: jamoat transporti (avtobuslar), kommunal xizmat texnikalari, yengil avtomobillar, uchun yoqilg‘i sifatida sinovdan o‘tkazilmoqda. Yevropa, Xitoy, Hindiston kabi davlatlar biometan ishlab chiqarish va transport tarmoqlarini kengaytirishga katta mablag‘lar ajratmoqda. Ko‘plab shaharlar avtobus parklarini CNG/biometan tizimlariga o‘tkazmoqda. Ammo biogazning transportda keng qo‘llanilishi uchun bir qator muammolar mavjud.

Infratuzilmaning yetishmasligi - Biometanni tozalash, siqish va saqlash stansiyalarining kamligi. Gaz quyish shoxobchalari sonining cheklanganligi.

Biogaz sifatining standartlashtirilmaganligi - Metan ulushi bir xil bo‘lmagan biogaz dvigatelning samaradorligiga ta’sir qiladi. Yevropadagi kabi yagona biometan sifati bo‘yicha standartlar ko‘p joylarda mavjud emas.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Moliyaviy va texnologik to‘siqlar - Biogaz ishlab chiqarish uskunalari qimmat. Mahalliy korxonalar uchun kreditlar yetarli emas. Chiqindilarni yig‘ish va tashish tizimi zaif.

Infratuzilmani rivojlantirish yani, biometan tozalash va siqish inshootlarini ko‘paytirish, yirik shaharlar va magistrallarda biometan yoqilg‘i shoxobchalari qurish, mavjud CNG stansiyalarini biometan qabul qilishga moslashtirish.

Biogaz ishlab chiqarishni kengaytirish - Qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan faol foydalanish: go‘ng, o‘simlik qoldiqlari, silos. Kommunal chiqindilarni saralash orqali organik massani ko‘paytirish. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida maxsus biogaz reaktorlarini joriy etish.

Standartlarni joriy qilish - Biometanning metan ulushi, tozaligi, bosimi bo‘yicha milliy standartlar yaratish. Yoqilg‘i sifatini nazorat qiluvchi laboratoriyalar tarmog‘ini kengaytirish.

Transport parkini modernizatsiya qilish - Avtobus parklarini bosqichma-bosqich CNG/Bio-CNG tizimiga o‘tkazish. Yangi transport vositalarini ekologik standarti yuqori dvigatellar bilan jihozlash. Xususiy avtoulov egalariga subsidiya va soliq imtiyozlari berish.

Iqtisodiy rag‘batlantirish - Biogaz ishlab chiqaruvchi korxonalarga kreditlar, grantlar ajratish. Biogazdan foydalangan transport korxonalariga soliq imtiyozlari. Qishloqlarda kooperatsiya asosida biogaz stansiyalarini tashkil qilish.

Xulosa

Biogaz transport yoqilg‘isi sifatida katta istiqbolga ega bo‘lib, ekologik toza va iqtisodiy samarali yechim hisoblanadi. Uni takomillashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini kengaytirish, gaz sifati standartlarini joriy etish, transport parkini modernizatsiya qilish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar majmuaviy ravishda amalga oshirilishi zarur. To‘g‘ri strategiyalar qo‘llansa, biogaz asosidagi transport tizimi kelajakda an’anaviy yoqilg‘ilarni sezilarli darajada almashtira oladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, Sh., Usmonov, B. Muqobil energiya manbalari va ularning transportda qo‘llanilishi. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
2. Karimov, I. “O‘zbekiston transport sohasida ekologik toza yoqilg‘idan foydalanishni kengaytirish masalalari”. Transport va logistika jurnali, №4, 2022, 45–53-betlar.
3. Biogas Handbook: Science, Production and Applications. Ed. A. Wellinger, J. Murphy, D. Baxter. — Elsevier, 2013.
4. European Biogas Association (EBA). Biomethane in Transport: Technical and Policy Overview. Brussels, 2020.
5. International Energy Agency (IEA). Outlook for Biogas and Biomethane: Prospects for Clean Energy Transition. Paris, 2021.
6. Murphy, J., McKeogh, E. “Technical, economic and environmental analysis of energy production from municipal solid waste.” Renewable Energy, Vol. 29, 2004.
7. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. Biogaz texnologiyalari va qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha metodik qo‘llanma., Toshkent, 2022.
8. FAO (Food and Agriculture Organization). Biogas Technology: A Training Manual for Extension. Rome, 2019.
9. Saidov, R. “Biometanning yoqilg‘i sifatidagi afzalliklari va dvigatel ishlash jarayoniga ta’siri.” O‘zbekiston muhandislik jurnali, №2, 2023.
10. UNDP Uzbekistan. Renewable Energy for Sustainable Development: Biogas Projects in Rural Areas. Toshkent, 2020.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

EPIDEMIOLOGY OF THE TUBERCULOSIS CAUSANT

Bo'riyev Muhammadali G'ayrat o'g'li
Termez University of Economics and Service
Department of Medical Preventive Sciences, Lecturer in Microbiology
Bo'riyevmuhammad14@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-4483-9082

Ahmadova Lola Abdukhalil qizi
Termez University of Economics and Service
Student of the Faculty of Medicine
e-mail: axmadovalola599@gmail.com

Termez University of Economics and Service, Termez city, Farovan massif, house **43B, e-mail: esadir_74@rambler.ru**

Annotation: The article analyzes the epidemiology of Mycobacterium tuberculosis, the causative agent of tuberculosis (TB). The prevalence and risk factors of tuberculosis, including social, economic conditions and the state of the healthcare system, are considered. Based on statistical data, the global distribution of the disease, high-risk groups (for example, those with weakened immune systems) and regions are identified.

The article also discusses the resistance of M. tuberculosis to treatment, vaccine effectiveness and new diagnostic methods. Global and local strategies for the prevention of TB, as well as ways to overcome the disease are proposed.

Keywords: Tuberculosis, Mycobacterium tuberculosis, epidemiology, spread of infection, risk factors, resistance to treatment, vaccine, diagnostics, risk groups, health system, global strategies.

ЭПИДЕМИОЛОГИЯ ВОЗБУДИТЕЛЯ ТУБЕРКУЛЕЗА

Термезский университет экономики и обслуживания
Кафедра профилактической медицины, преподаватель микробиологии
Бўриев Мухаммадали Ғайрат угли

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Bo'riyevmuhammad14@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-4483-9082

Термезский университет экономики и обслуживания
Студент медицинского факультета
Ахмадова Лола Абдухалил кизи
e-mail: axmadovalola599@gmail.com

Термезский университет экономики и обслуживания, город Термез, массив Фарован, дом **43Б, e-mail: esadir_74@rambler.ru**

Примечание: В статье анализируется эпидемиология Mycobacterium tuberculosis, возбудителя туберкулеза (ТБ). В статье рассматриваются распространенность и факторы риска туберкулеза, включая социально-экономические условия и состояние системы здравоохранения. На основе статистических данных определяется глобальное распространение заболевания, группы высокого риска (например, лица с ослабленным иммунитетом) и регионы.

Также обсуждаются устойчивость M. tuberculosis к лечению, эффективность вакцин и новые методы диагностики. Предлагаются глобальные и локальные стратегии профилактики туберкулеза, а также пути преодоления заболевания.

Ключевые слова: туберкулез, Mycobacterium tuberculosis, эпидемиология, распространение инфекции, факторы риска, устойчивость к лечению, вакцина, диагностика, группы риска, система здравоохранения, глобальные стратегии.

TUBERKULOZ QO'ZG'ATUVCHISINING EPIDEMIOLOGIYASI

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti
Tibbiy profilaktik fanlar kafedrasi Mikrobiologiya fani o'qituvchisi
Bo'riyev Muhammadali G'ayrat o'g'li
bo'riyevmuhammad14@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-4483-9082

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tibbiyot fakulteti talabasi
Ahmadova Lola Abduxalil qizi
e-mail: axmadovalola599@gmail.com

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz shahar Farovon massiv, **43B uy, e-mail: esadir_74@rambler.ru**

Annotatsiya: Maqolada tuberkuloz (TB) kasalligini keltirib chiqaruvchi Mycobacterium tuberculosis ning epidemiologiyasi tahlil qilinadi. Tuberkulozning tarqalishi va xavf omillari, jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlar va sog'liqni saqlash tizimining holati ko'rib chiqiladi. Statistik ma'lumotlar asosida kasallikning dunyo bo'ylab tarqalishi, yuqori xavf guruhlari (masalan, immun tizimi zaiflashganlar) va hududlar aniqlanadi.

Maqola, shuningdek, M. tuberculosis ning davolashga qarshi chidamliligi, vaksina samaradorligi va yangi diagnostika usullari haqida ham so'z yuritadi. TB ning oldini olish uchun global va mahalliy strategiyalar, shuningdek, kasallikni yengish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Tuberkuloz, Mycobacterium tuberculosis, epidemiologiya, infeksiya tarqalishi, xavf omillari, davolashga chidamlilik, vaksina, diagnostika, xavf guruhlari, sog'liqni saqlash tizimi, global strategiyalar.

Mavzu dolzarbligi:

Tuberkuloz Qo'zg'atuvchisining Epidemiologiyasi Tuberkuloz (TB) bugungi kunda butun dunyoda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Har yili millionlab odamlar bu kasallikka chalinib, juda ko'p odamlar hayotini yo'qotadi. Kasallikning tarqalishi faqat sog'liqni saqlash tizimiga emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy omillarga ham bog'liq. Asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, aholisi zich va gigiena sharoitlari zaif hududlarda tuberkulozning yuqishi tezlashgan. So'nggi yillarda Mycobacterium tuberculosis ning davolashga chidamliligi ortishi, yangi diagnostika va davolash usullarining rivojlanishi zaruriyatni yanada kuchaytirdi. Xavf guruhlarini aniqlash va epidemiyalarni oldini olish uchun zamonaviy strategiyalarni ishlab chiqish juda muhim.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Shuningdek, tuberkulozning global miqyosdagi tarqalishi va unga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu sababli, tuberkulozning epidemiologiyasini o'rganish va uning oldini olish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni belgilash dolzarb vazifalardan biridir.

Mavzuning maqsadi:

Sil (tuberkulyoz) qo‘zg‘atuvchisining epidemiologiyasini o‘rganish orqali kasallikning tarqalish manbalari, yuqish yo‘llari, xavf omillari hamda profilaktika choralarini tahlil qilish va sil kasalligiga qarshi samarali kurashish bo‘yicha ilmiy tushunchalarni shakllantirishdan iborat.

Mavzuning vazifalari:

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: Sil qo‘zg‘atuvchisi — *Mycobacterium tuberculosis* ning biologik va epidemiologik xususiyatlarini o‘rganish. Sil infeksiyasining asosiy manbalari va yuqish mexanizmlarini tahlil qilish. Aholi orasida sil kasalligining tarqalishiga ta’sir etuvchi xavf omillarini aniqlash. Sil kasalligining epidemiologik holatini baholash va global hamda mahalliy ko‘rsatkichlarni ko‘rib chiqish. Dori vositalariga chidamli sil shakllarining epidemiologik ahamiyatini o‘rganish. Sil kasalligini oldini olishda profilaktik choralarning (emlash, erta tashxis, sanitariya-ma’rifiy ishlar) ahamiyatini yoritish. Silga qarshi kurashda sog‘liqni saqlash tizimi va jamiyatning o‘rnini asoslab berish.

Kirish: Tuberkulyoz (TB) hozirgi kunda ham global sog‘liqni saqlash tizimida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Kasallik *Mycobacterium tuberculosis* tomonidan chaqirilib, asosan havo-tomchi yo‘li orqali yuqadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, tuberkulyoz kasallanishi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, immun tanqislik holatlari va sog‘liqni saqlash xizmatlarining sifati bilan chambarchas bog‘liq. Tuberkulyoz qo‘zg‘atuvchisining epidemiologik xususiyatlarini o‘rganish kasallikning tarqalish mexanizmlarini tushunish, xavf guruhlarini aniqlash va samarali profilaktika choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolaning maqsadi *Mycobacterium tuberculosis* ning epidemiologik xususiyatlarini tahlil qilishdir.

Tadqiqot metodlari:

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Tadqiqot va yondashuv: **Mazkur tadqiqot tuberkulyoz qo‘zg‘atuvchisining epidemiologik xususiyatlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib,** retrospektiv, tavsifiy va solishtirma epidemiologik tahlil **asosida amalga oshirildi. Tadqiqot dizayni kasallikning tarqalish xususiyatlari, yuqish mexanizmlari hamda aholi guruhlari bo‘yicha farqlarni aniqlashga yo‘naltirildi. Tadqiqotda ikkilamchi epidemiologik ma’lumotlarni tizimli ravishda umumlashtirish usuli qo‘llanildi.**

Tadqiqot materiali va tanlash tartibi: Tahlil uchun tuberkulyoz bilan bog‘liq epidemiologik ko‘rsatkichlar jamlangan statistik materiallar tanlab olindi. Dastlabki bosqichda 120 dan ortiq turli hajm va mazmundagi ma’lumotlar ko‘rib chiqildi. Tanlash jarayonida mavzuga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqador bo‘lmagan, takroriy yoki yetarli statistik axborot bermaydigan materiallar chiqarib tashlandi. Natijada yakuniy tahlilga **48 ta to‘liq va ishonchli statistik material** kiritildi.

Tadqiqot materiallarini tanlash bosqichlari

Tanlash bosqichi	**Materiallar soni**	**Ulushi %**
Dastlab ko’rib chiqilgan	**124**	**100%**
Takroriy materiallar chiqarildi	**36**	**29%**
Mavzuga mos kelmaganlari chiqarildi	**40**	**32.3%**
Yakuniy tahlilga kiritilgan	**48**	**38.7%**

O‘rganilgan ko‘rsatkichlar majmuasi

Tadqiqot doirasida tuberkulyoz epidemiologiyasini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar tizimli ravishda o‘rganildi. Ular quyidagilardan iborat:

- kasallanish darajasi va dinamikasi;
- infeksiya manbalarining tarkibi;
- kasallik yuqish yo‘llarining nisbiy ulushi;
- aholi guruhlari bo‘yicha kasallanish farqlari;
- dori vositalariga chidamli shakllarning uchrash chastotasi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Tuberkulyoz yuqish yo‘llarining epidemiologik taqsimlanishi

Yuqish mehanizmi	**Ulushi %**
Havo – tomchi yo’l	88%
Ovqat – hazm qilish yo’li	7%
Kontakt yo’li	3%
Vertika yuqish	2%

Xavf guruhlarini aniqlash va baholash **Aholi qatlamlari bo‘yicha tuberkulyoz bilan kasallanish darajasi alohida tahlil qilindi. Xavf guruhlariga mansub shaxslar kasallanish ko‘rsatkichlari asosida ajratildi. Natijalarga ko‘ra, tuberkulyoz bilan kasallanganlar orasida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar va immuniteti pasaygan shaxslar ustunlik qilishi aniqlandi**

Tuberkulyoz bilan kasallanganlar orasida xavf guruhlarining nisbiy ulushi

Aholi guruhi	**Ulushi %**
Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar	38/0%
OIV bilan yashovchilar	27.0%
Bolalar va keksalar	14.0%
Tibbiyot hodimlari	4.0%
Boshqa aholi qatlamlari	17.0%

Statistik ishlov berish usullari: To‘plangan epidemiologik ko‘rsatkichlar tavsifiy statistik tahlil yordamida qayta ishlanib, asosiy e’tibor nisbiy chastotalar va foiz ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratildi. Natijalar jadval va matn shaklida tizimlashtirildi. Hisob-kitoblar elektron statistik dasturlar yordamida amalga oshirildi.

Ma’lumotlarning ishonchliligi va cheklovlar: Tahlil qilingan ma’lumotlar umumlashtirilgan statistik ko’rsatkichlarga asoslangan bo’lib, ayrim hududlar yoki aholi guruhlari bo‘yicha tafsilotlar cheklangan bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, tanlangan materiallar tuberkulyoz epidemiologiyasining asosiy tendensiyalarini aks ettiradi va umumiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Etik jihatlar **Tadqiqot jarayonida shaxsga oid ma’lumotlardan foydalanilmadi. Tahlil faqat umumiy epidemiologik ko‘rsatkichlar asosida olib borildi, shu sababli tadqiqot etik me’yorlarga to‘liq mos keladi.**

Natijalar

Tuberkulyoz qo‘zg‘atuvchisining epidemiologik jarayoni tavsifi: Mazkur tadqiqot natijalari tuberkulyoz qo‘zg‘atuvchisining epidemiologik jarayoni murakkab va ko‘p omilli xarakterga ega ekanini ko‘rsatdi. O‘rganilgan ma’lumotlar asosida kasallikning tarqalishi, yuqish mexanizmlari, aholi guruhlari bo‘yicha farqlari hamda dori vositalariga chidamli shakllarning uchrash chastotasi o‘zaro uzviy bog‘liq ekani aniqlandi. Tahlil qilingan epidemiologik ko‘rsatkichlar tuberkulyozning asosan faol o‘pka shaklida namoyon bo‘lishini va infeksiya manbai sifatida kasallikning faol bosqichidagi bemorlar muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqladi. Kasallanish ko‘rsatkichlarining yillar davomida barqaror yuqori darajada saqlanib qolishi epidemiologik vaziyatning to‘liq nazorat ostiga olinmaganini ko‘rsatadi.

Kasallanish dinamikasi va tarqalish xususiyatlari: Yillar kesimida o‘tkazilgan solishtirma tahlil natijalariga ko‘ra, tuberkulyoz bilan kasallanish darajasida ayrim davrlarda nisbiy pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, umumiy tendensiya barqarorlik bilan almashib turgan. Bu holat kasallikka qarshi olib borilayotgan profilaktik va davolash tadbirlarining samaradorligi turli omillarga bog‘liqligini ko‘rsatadi.Aholi zich joylashgan hududlarda, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari past bo‘lgan qatlamlar orasida kasallanish darajasi yuqoriroq ekani aniqlandi. Epidemiologik jarayonda havo-tomchi mexanizmi asosiy yetakchi rolni o‘ynab, kasallikning tez tarqalishiga sabab bo‘layotgani qayd etildi.

Yuqish mexanizmlari va xavf guruhlarining roli: Olingan natijalar tuberkulyozning yuqishida havo-tomchi yo‘li mutlaq ustun ekanini ko‘rsatdi. Boshqa yuqish yo‘llari nisbatan kam uchrasa-da, ular epidemiologik jarayonning umumiy shakllanishida ma’lum darajada ahamiyatga ega. Aholi guruhlari bo‘yicha tahlil tuberkulyoz bilan kasallanish ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, immuniteti pasaygan shaxslar, shuningdek OIV bilan yashovchilar orasida yuqori ekanini aniqladi. Bu guruhlar epidemiologik jihatdan eng xavfli qatlamlar sifatida baholandi.**Dori vositalariga chidamli shakllarning**

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

epidemiologik ahamiyati: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, dori vositalariga chidamli tuberkulyoz shakllari umumiy kasallanish tarkibida sezilarli ulushni tashkil etdi. Mazkur holat kasallikni davolash jarayonining murakkablashishiga, davolash muddatining uzayishiga va epidemiologik xavfning ortishiga olib kelishi mumkin. Dori vositalariga sezgir shakllar ustun bo‘lishiga qaramay, chidamli shakllarning mavjudligi tuberkulyozga qarshi kurash strategiyalarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Quyidagi jadvalda tadqiqot davomida olingan asosiy epidemiologik natijalar umumlashtirilgan holda keltirilgan.

Tuberkulyoz qo‘zg‘atuvchisining asosiy epidemiologik ko‘rsatkichlari

Ko’rsatkichlar	**Qiymat % yoki daraja**
O’pka tuberkulozining uluishi	82.0%
Ekstrapulmonar shakllar	18.0%
Havo – tomchi yuqish yo’li	88.0%
Ovqat hazm qilish orqali yuqishi	7.0%
Kontakt va vertikal yuqish	5.0%
Ijtimoiy himoyaga muhtoj shahslar	38.0%
OIV bilan yashovchilar	27.0%
Bolalar va keksalar	14.0%
Dori vositalariga chiamli shakllari	24.0%
Dori ta’siriga sezgir shakllari	76.0%

Natijalarning umumiy bahosi: O‘tkazilgan tahlil natijalari tuberkulyoz qo‘zg‘atuvchisining epidemiologik jarayoni yuqori darajada barqaror ekanini va aholi salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘dirishda davom etayotganini ko‘rsatdi. Xususan, yuqishning asosiy mexanizmi, xavf guruhlarining mavjudligi va dori vositalariga chidamli shakllarning uchrashi kasallikni nazorat qilishda kompleks va tizimli yondashuv zarurligini asoslab beradi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Muhokama: Mazkur tadqiqot natijalari tuberkulyoz qo‘zg‘atuvchisining epidemiologiyasi murakkab va ko‘p omilli jarayon ekanini tasdiqladi. Olingan ma’lumotlar kasallikning aholi orasida saqlanib qolayotgan yuqori epidemiologik ahamiyatini, shuningdek, uni nazorat qilishda mavjud muammolarni yaqqol namoyon etdi.

Epidemiologik jarayonning barqarorligi va dinamikasi: Tahlil natijalariga ko‘ra, tuberkulyoz kasallanishi yillar davomida to‘liq barqaror pasayish tendensiyasini namoyon etmagan. Ayrim davrlarda kuzatilgan qisqa muddatli pasayishlar epidemiologik vaziyatning umumiy yaxshilanishini anglatmaydi. Bu holat tuberkulyoz qo‘zg‘atuvchisining aholi orasida doimiy aylanishda ekanini va infeksiya manbalari yetarlicha nazorat qilinmayotganini ko‘rsatadi. Kasallanishning bunday barqaror saqlanishi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, aholi zichligi, sanitariya-gigiyena sharoitlari hamda tibbiy yordamga murojaat qilishning kechikishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, yashirin va kech aniqlanadigan holatlar epidemiologik jarayonni uzluksiz qo‘llab-quvvatlovchi omil sifatida baholanadi.

Yuqish mexanizmlarining ustunligi va ularning ahamiyati: Olingan natijalarda havo-tomchi yuqish mexanizmining mutlaq ustunligi aniqlandi. Bu holat tuberkulyoz qo‘zg‘atuvchisining asosiy epidemiologik xususiyatini tasdiqlaydi va kasallikning tez tarqalishiga sharoit yaratadi. Ayniqsa, yopiq binolar, gavjum joylar va shamollatilishi yetarli bo‘lmagan muhitlar infeksiya tarqalishida muhim rol o‘ynaydi. Ovqat hazm qilish, kontakt va vertikal yuqish yo‘llarining nisbatan past ulushi ularning ikkilamchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Biroq bu mexanizmlar, ayniqsa bolalar va immuniteti pasaygan shaxslarda, klinik va epidemiologik jihatdan e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

Xavf guruhlarining epidemiologik roli: Tadqiqot natijalari tuberkulyoz bilan kasallanish ayrim aholi guruhlari orasida ancha yuqori ekanini ko‘rsatdi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar va OIV bilan yashovchilar eng asosiy xavf guruhlari sifatida ajralib turdi. Bu guruhlarda kasallanishning yuqori bo‘lishi immunitetning pasayishi, yashash sharoitlarining qoniqarsizligi hamda tibbiy nazoratning yetarli emasligi bilan izohlanadi. Bolalar va keksalar orasida tuberkulyozning sezilarli ulushi aniqlangani ushbu yosh guruhlarining fiziologik zaifligi bilan bog‘liq. Tibbiyot xodimlari orasida kasallanish

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

nisbatan past bo‘lsa-da, ularning doimiy infeksiya manbai bilan aloqada bo‘lishi kasbiy xavfni saqlab qolmoqda.

Dori vositalariga chidamli tuberkulyoz muammosi: Dori vositalariga chidamli tuberkulyoz shakllarining aniqlanishi epidemiologik jarayonni murakkablashtiruvchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu shakllarning mavjudligi davolash samaradorligini pasaytiradi, kasallikning davomiyligini uzaytiradi va infeksiya tarqalish xavfini oshiradi. Chidamli shakllarning shakllanishi ko’pincha davolash rejimiga rioya qilinmasligi, davolashni muddatidan oldin to‘xtatish yoki noto‘g‘ri dori tanlash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli bu muammo nafaqat klinik, balki epidemiologik va ijtimoiy ahamiyatga ega deb baholanadi.

Umumiy ilmiy talqin: Umuman olganda, tadqiqot natijalari tuberkulyoz qo‘zg‘atuvchisining epidemiologiyasi barqaror, ammo nazorat qilish murakkab bo‘lgan jarayon ekanini ko‘rsatdi. Yuqish mexanizmlarining ustunligi, xavf guruhlarining mavjudligi va dori vositalariga chidamli shakllarning uchrashi kasallikka qarshi kurashda kompleks va tizimli yondashuv zarurligini asoslaydi. Mazkur natijalar profilaktika, erta aniqlash, xavf guruhlarini muntazam skriningdan o‘tkazish va davolash strategiyalarini takomillashtirish muhimligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Xulosa: O‘tkazilgan epidemiologik tadqiqot natijalari tuberkulyoz qo‘zg‘atuvchisining aholi orasida keng tarqalgan va barqaror epidemiologik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Tahlil qilingan ma’lumotlar tuberkulyoz kasallanishi ayrim davrlarda nisbatan pasaygan bo‘lsa-da, umumiy tendensiya kasallikning to‘liq nazorat ostiga olinmaganini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida tuberkulyozning asosan faol o‘pka shaklida uchrashi va infeksiyaning yetakchi yuqish mexanizmi sifatida havo-tomchi yo‘li ustunlik qilishi aniqlandi. Bu holat kasallikning tez va keng tarqalishiga sabab bo‘lib, ayniqsa aholi zich joylashgan va yopiq muhitlarda epidemiologik xavfni oshiradi. Aholi guruhlari bo’yicha olib borilgan tahlil tuberkulyoz bilan kasallanish ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, OIV bilan yashovchilar, shuningdek bolalar va keksalar orasida yuqori ekanini ko‘rsatdi. Ushbu guruhlar epidemiologik jihatdan eng xavfli qatlamlar sifatida baholanadi va alohida e’tibor talab qiladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Olingan natijalar va epidemiologik tahlil asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- **Profilaktik tadbirlarni kuchaytirish**: Aholi orasida, ayniqsa xavf guruhlariga mansub shaxslar o‘rtasida muntazam profilaktik ko‘riklar va skrining tadbirlarini kengaytirish zarur.
- **Erta aniqlash tizimini takomillashtirish**: Tuberkulyozni erta bosqichlarda aniqlashga qaratilgan diagnostik choralarni kuchaytirish, yashirin va kech aniqlanadigan holatlar ulushini kamaytirishga xizmat qiladi.
- **Xavf guruhlariga yo‘naltirilgan yondashuv**: Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, OIV bilan yashovchilar, bolalar va keksalar uchun maxsus epidemiologik nazorat va tibbiy kuzatuv dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiq.
- **Dori vositalariga chidamli shakllar ustidan nazorat**: Dori vositalariga chidamli tuberkulyoz holatlarini erta aniqlash va ularning tarqalishini cheklash uchun davolash rejimlariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash zarur.
- **Aholining sanitariya-ma’rifiy savodxonligini oshirish**: Tuberkulyozning yuqish yo‘llari, belgilari va oldini olish choralariga oid ma’lumotlarni keng targ‘ib qilish orqali aholi orasida kasallik haqida xabardorlikni oshirish lozim.
- **Kompleks va tizimli yondashuvni joriy etish**: Tuberkulyozga qarshi kurashishda tibbiy, ijtimoiy va profilaktik choralarning o‘zaro uyg‘unlashgan holda olib borilishi epidemiologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beknazarov, A. (2020). *Tuberkulyoz va uning profilaktikasi*. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
2. Axmedov, U., & Qo‘qonov, S. (2018). Tuberkulyoz epidemiologiyasi va kasallanish dinamikasi. *Tibbiyot ilmiy maqolalari*, 3(2), 45–53.
3. World Health Organization. (2021). *Global Tuberculosis Report* [Tarjima: Tuberkulyoz bo‘yicha global hisobot]. Toshkent: Sog‘liqni saqlash vazirligi nashriyoti.
4. Karimova, N. (2019). Dori vositalariga chidamli tuberkulyoz: epidemiologik tahlil. *O‘zbekiston Tibbiyot Jurnali*, 6(1), 12–20.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

5. Sultonov, R., & Tursunov, M. (2017). Tuberkulyozning havo-tomchi yo‘li orqali yuqishi va profilaktik choralari. *O‘zbekiston Pediatriya Jurnali*, 5(3), 34–41.
6. World Health Organization. (2019). *Compendium of WHO guidelines on tuberculosis* [Tarjima: Tuberkulyoz bo‘yicha WHO qo‘llanmalari to‘plami]. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
7. Rasulov, D. (2021). Yuqori xavf guruhlarda tuberkulyoz tarqalishining epidemiologik xususiyatlari. *Tibbiyot va Sog‘liqni Saqlash Ilmiy Jurnali*, 7(2), 25–33.
8. Global Fund. (2020). *Tuberculosis Program Guidelines* [Tarjima: Tuberkulyoz dasturi bo‘yicha ko‘rsatmalar]. Toshkent: Sog‘liqni saqlash vazirligi nashriyoti.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-12

SURXONDARYO VILOYATIDA AHOLI DAROMADLARI DINAMIKASI VA HUDUDIY TAFOVUTLAR TAHLILI

Abdunazarova Shahnoza Norqo‘chqor qizi
Termiz davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti
shahnoza.abdunazarova1530@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida aholi daromadlarining so‘nggi yillardagi o‘sish dinamikasi va tumanlar kesimidagi hududiy tafovutlar tahlil qilindi. Tadqiqotda rasmiy statistik ma’lumotlar asosida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichlarining o‘zgarish sur’atlari tahlil qilib chiqildi. Natijalar aholi daromadlarining viloyat ichida sezilarli farqlanishini, ayrim tumanlarda o‘sish sur’atlari pastligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ta’lim darajasi, bandlik va urbanizatsiya darajasi daromadlarning asosiy determinantlari sifatida aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Aholi daromadi, hududiy tafovut, iqtisodiy tengsizlik, Surxondaryo viloyati.

Annotation: This study examines the dynamics of income growth and regional disparities across districts in Surxondaryo region over recent years. Based on official statistical data, the analysis focuses on changes in per capita income indicators and their growth rates. The findings reveal significant intra-regional differences in household incomes, with some districts demonstrating relatively lower growth rates. Furthermore, education level, employment, and urbanization are identified as key determinants of income variation. The research outcomes provide practical recommendations aimed at reducing interregional economic disparities and enhancing income equality within the region.

Keywords: Household income, regional disparity, economic inequality, Surxondaryo region.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Daromadlar

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-12

miqdori nafaqat aholining moddiy farovonligi va iste’mol imkoniyatlarini aks ettiradi, balki iqtisodiy faollik, mehnat bozori holati hamda ijtimoiy tenglik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu boisdan aholi daromadlari dinamikasini o‘rganish, ularning shakllanish manbalari va hududlar bo‘yicha taqsimlanishidagi tafovutlarni tahlil qilish mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda bozor islohotlarining chuqurlashuvi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kengayishi, shuningdek, xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining rivojlanishi natijasida aholining real daromadlari izchil o‘sib bormoqda. Biroq bu o‘sish barcha hududlarda bir xil sur’atda kechmayapti — iqtisodiy faollik darajasi, bandlik tuzilmasi, investitsiya oqimlari va infratuzilma rivoji bo‘yicha farqlar aholi daromadlarining hududlararo tafovutini keltirib chiqarmoqda.

Viloyat iqtisodiyotining asosini qishloq xo‘jaligi, savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari tashkil etadi. Shu bilan birga, tumanlar o‘rtasida ishlab chiqarish salohiyati, infratuzilma ta’minoti, bandlik imkoniyatlari hamda aholi daromadlarining shakllanish manbalari bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Ayrim tumanlarda aholi daromadlarining o‘sish sur’atlari nisbatan past bo‘lib, bu iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligining bir xil emasligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — Surxondaryo viloyatida aholi daromadlarining o‘sish dinamikasini o‘rganish, tumanlar o‘rtasidagi daromad tafovutlarini aniqlash va ushbu tafovutlarga ta’sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qilishdan iboratdir. Shu maqsadda rasmiy statistika ma’lumotlari asosida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlarning o‘zgarish sur’atlari, o‘rtacha qiymatlari, median daromadlar, shuningdek, iqtisodiy tengsizlikni aks ettiruvchi Gini indeksi hisoblab chiqiladi. Tadqiqot natijalari viloyatda iqtisodiy tenglikni ta’minlash, hududlararo tafovutlarni kamaytirish hamda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan amaliy siyosatni takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Materiallar va metodlar

Ushbu tadqiqotda aholi daromadlarining hududiy tafovutlariga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillar empirik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi statistik ma’lumotlarning tizimli tahliliga, taqqoslash va guruhlash usullariga yondashuvlariga asoslanadi.

Tahlil jarayonida 2015–2024 yillar oralig‘idagi rasmiy davlat statistika ma’lumotlari, jumladan, Surxondaryo viloyati va uning tumanlari kesimidagi aholi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-12

daromadlari, bandlik darajasi, kichik tadbirkorlik faolligi, xizmat ko‘rsatish hajmi va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari kabi omillar o‘rganildi.

Tadqiqotda panel ma’lumotlar bazasi shakllantirilib, u asosida ekonometrik regressiya modellaridan foydalanildi. Shu orqali hududlar o‘rtasidagi daromad tafovutlariga ta’sir etuvchi asosiy omillar (iqtisodiy faollik, bandlik, ishlab chiqarish ulushi va boshqalar) miqdoriy baholandi.

Olingan natijalar asosida Surxondaryo viloyati tumanlarida aholi daromadlarining shakllanishi va ularning differensiallashuv jarayonlarini tahlil qilish hamda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni takomillashtirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar va muhokamalar

Quyida Excel dasturidan foydalanib 2015-2024 yillar oralig‘ida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad dinamikasi tahlilini ko‘rib chiqamiz. Qayd etib o’tilgan tahlil orqali xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, 2015–2024 yillar oralig‘ida Surxondaryo viloyatida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha daromad barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon qilgan.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-12

1-rasm. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar dinamikasi[1]

2015 yilda aholi jon boshiga daromad 5,8 mln so‘m atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 12,5 mln so‘m gacha yetgan, ya’ni 3,2 baravar o‘sish kuzatilgan.

Bosqichma-bosqich tahlil qiladigan bo‘lsak quyidagicha holat yuzaga keladi:

- 2015–2018 yillar: Daromadlarning o‘sish sur’ati nisbatan past bo‘lgan (yiliga o‘rtacha 8–9%). Bu davrda viloyat iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligiga tayanib, xizmat sohasi ulushi past bo‘lgan.
- 2019–2021 yillar: Xizmatlar sohasi va kichik biznes faoliyati kengaygani natijasida daromadlar o‘sishi 12–13% gacha tezlashgan.
- 2020 yilda pandemiya ta’siri sezilgan bo‘lsa-da, iqtisodiy faollik qisqa muddatda tiklangan.
- 2022–2024 yillar: Barqaror o‘sish davri kuzatilib, aholining ijtimoiy daromadlari, ish haqlari va tadbirkorlik faoliyatidan tushumlar ortgan.

$$F_i(x_1, \dots, x_n, u, p_1, \dots, p_n) = 0, \quad p_k = \frac{\partial u}{\partial x_k}$$

ko‘rinishida qaralib, uning analitik yechimga ega bo‘lish shartlari tahlil qilindi. Keyingi bosqichda xarakteristikalar usuli yordamida sistema oddiy differensial tenglamalar sistemalariga keltirildi va bu usulning chegaralari aniqlab berildi. Metodik jihatdan misollar tanlashda soddadan murakkabga tamoyili asos qilib olindi.

NATIJALAR

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, oldindan aniqlangan birinchi tartibli sistemalar uchun yechimning mavjudligi, avvalo, sistema tenglamalarining o‘zaro mosligiga bog‘liq. Agar sistema kompatibil shartlarni qanoatlantirmasa, umumiy yechim mavjud bo‘lmaydi yoki faqat maxsus yechimlar bilan cheklanadi. Xarakteristikalar usuli esa chiziqli va kvazichiziqli sistemalar uchun samarali bo‘lib, nochiziqli hollarda qo‘shimcha cheklovlarni talab etadi. Quyidagi jadvalda birinchi tartibli sistemalarning asosiy turlari va yechim usullari qiyosiy tarzda keltiriladi:

Sistema turi	**Asosiy xususiyat**	**Yechimda qo‘llaniladigan usul**
Chiziqli	Hosilalar chiziqli kiradi	Xarakteristikalar, superpozitsiya
Kvazichiziqli	Eng yuqori hosilalar chiziqli	Xarakteristikalar
Nochiziqli	Hosilalar nochiziqli	Maxsus usullar, transformatsiya

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Kompatibil emas	Moslik sharti buzilgan	Umumiy yechim yo‘q

Tadqiqot davomida olingan nazariy va tahliliy natijalar shuni ko‘rsatdiki, oldindan aniqlangan xususiy hosilali birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemalarida yechimning tuzilishi masalasi ko‘pincha tenglamalarning algebraik bog‘liqligi bilan emas, balki ularning differensial mosligi bilan belgilanadi. Xususan, hosilalar orqali berilgan tenglamalar sistemasi uchun integral yuzaning mavjudligi moslik shartlarining bajarilishi bilan bevosita bog‘liq ekani aniqlashtirildi. Agar berilgan sistemada aralash hosilalar tengligi shartlari buzilsa, hatto rasmiy jihatdan to‘g‘ri ko‘ringan sistema ham yechimga ega bo‘lmasligi mumkin. Bu holat nazariy jihatdan differensial operatorlarning o‘zaro kommutativ emasligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari xarakteristikalar usulining imkoniyatlari va chegaralarini aniq belgilab berdi. Aniqlanishicha, kvazichiziqli sistemalar uchun bu usul yechimni konstruktiv tarzda topish imkonini bersa-da, nochiziqli hollarda xarakteristikalar o‘zaro kesishib ketishi yoki singulyar nuqtalar hosil qilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda klassik yechim tushunchasi o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlaydi va zaif yoki umumlashgan yechimlarga murojaat qilish zaruriyati tug‘iladi. Natijada, birinchi tartibli sistemalarni o‘rganishda faqat analitik apparat yetarli emasligi, balki funksional tahlil elementlarini ham jalb etish zarurligi aniqlanadi.

Olingan natijalar, shuningdek, birinchi tartibli sistemalarning geometrik talqini muhim ekanini ko‘rsatdi. Integral yuzalarning mavjudligi masalasi yechimning fazoviy ko‘rinishi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, bu holat sistema yechimining fizik yoki mexanik mazmunini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, birinchi tartibli tizimlarda yechimni faqat formulalar orqali emas, balki geometrik obyekt sifatida talqin qilish ilmiy natijalarning mazmunan boyishiga olib keladi.

MUHOKAMA

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, birinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemalarini o‘rganishda faqat texnik hisoblashlar bilan cheklanish ilmiy jihatdan yetarli emas. Masalaning geometrik mazmunini, ya’ni integral yuzalar va ularning fazodagi joylashuvini tushunish nazariy bilimlarni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, amaliy masalalarda ko‘pincha ideal shartlar bajarilmaydi va bu hollarda klassik yechim tushunchasi

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

umumlashgan yechimlar bilan almashtiriladi. Bu esa mazkur mavzuning zamonaviy matematik tahlil bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalarni muhokama qilish jarayonida shuni alohida ta’kidlash joizki, oldindan aniqlangan xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemalari nazariyasida klassik va zamonaviy yondashuvlar o‘rtasida ma’lum darajada tafovut mavjud. Klassik yondashuv, asosan, yechimning mavjudligi va aniqligini mahalliy sharoitlarda tahlil qilishga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlar ko‘proq global xatti-harakat, singulyarliklar va yechimlarning barqarorligi masalalariga e’tibor qaratadi. Bu tafovut mazkur maqolada keltirilgan natijalarning talqinida ham o‘z aksini topadi.

Muhokama jarayonida aniqlanganki, birinchi tartibli sistemalarning ko‘plab amaliy tatbiqlarida ideal moslik shartlari bajarilmaydi. Xususan, fizik va texnik modellashtirishda boshlang‘ich va chegaraviy shartlar real muhit ta’sirida buzilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda an’anaviy analitik yechimlar o‘rnini sonli va approksimatsion usullar egallaydi. Shunga qaramay, aynan nazariy natijalar ushbu sonli usullarning to‘g‘riligini asoslashda va ularning yaqinlashuvini baholashda fundamental rol o‘ynaydi. Demak, birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemalarining qat’iy nazariy tahlili amaliy hisoblashlar uchun metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

Yana bir muhim muhokama qilinadigan jihat shundan iboratki, bu turdagi sistemalar oliy matematika ta’limida ko‘pincha murakkab va tushunish qiyin mavzu sifatida qaraladi. Tadqiqot materiallari shuni ko‘rsatadiki, agar mazkur mavzu izchil mantiqiy asosda, geometrik talqin bilan boyitilgan holda bayon etilsa, talabalar tomonidan qabul qilinishi sezilarli darajada osonlashadi. Demak, muhokama qilingan natijalar nafaqat ilmiy, balki didaktik jihatdan ham ahamiyatlidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oldindan aniqlangan xususiy hosilali birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemalari matematik analizning muhim va murakkab bo‘limlaridan biri bo‘lib, ularni chuqur o‘rganish nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, bunday sistemalarda yechimning mavjudligi va tuzilishi ko‘p jihatdan moslik shartlariga va tanlangan yechim usuliga bog‘liq. Mazkur maqola oliy matematika kurslari, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda amaliy modellashtirish masalalarida nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Umumiy xulosani kengaytirgan holda aytish mumkinki, oldindan aniqlangan xususiy hosilali birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemalari matematik tahlilning faqat nazariy emas, balki metodologik asoslarini ham shakllantiradigan muhim yo‘nalish hisoblanadi. Tadqiqot davomida keltirilgan qo‘shimcha natijalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur sistemalarda yechim masalasini muvaffaqiyatli hal etish uchun algebraik, differensial va geometrik yondashuvlarning uyg‘unligi zarur. Har bir yondashuv alohida olinganda cheklangan bo‘lsa-da, ularning kombinatsiyasi masalaning mohiyatini chuqurroq yoritadi.

Xulosalarning yana bir muhim jihati shundaki, birinchi tartibli sistemalarni o‘rganish keyingi tartibli xususiy hosilali tenglamalar nazariyasi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Aynan ushbu sistemalarda ilgari surilgan moslik g‘oyalari, xarakteristikalar apparati va integral yuzalar tushunchasi keyingi murakkab modellarni tushunishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, bu mavzuning oliy ta’lim va ilmiy tadқиқotlarda chuqur va tizimli o‘rganilishi alohida ahamiyatga ega.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, oldindan aniqlangan birinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar kelgusida matematik modellashtirish, mexanika, fizikada to‘lqin jarayonlari va boshqaruv nazariyasi kabi sohalarda yanada kengroq qo‘llanilish imkoniyatiga ega. Mazkur qo‘shimcha tahlillar maqolaning ilmiy qiymatini oshiradi va uni fundamental matematik yo‘nalishlar bo‘yicha izlanishlar uchun ishonchli nazariy manba sifatida baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Courant R., Hilbert D. *Methods of Mathematical Physics. Vol. II.* – New York: Wiley-Interscience, 1962. – 830 p.

2. Evans L. C. *Partial Differential Equations.* – Providence: American Mathematical Society, 2010. – 749 p.

3. Petrovskii I. G. *Lectures on Partial Differential Equations.* – Moscow: Nauka, 1984. – 315 p.

4. Smirnov V. I. *Kurs vysshey matematiki. Tom 4.* – M.: Nauka, 1974. – 463 s.

5. Tikhonov A. N., Samarskii A. A. *Equations of Mathematical Physics.* – New York: Dover Publications, 2011. – 765 p.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALAR O‘QUV MOTIVATSIYASINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Abdurasulova Mehrigul Abdurashid qizi

Termiz Davlat Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya 3-bosqich 123-guruh talabasi

Annotatsiya: Inkyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim olishida uzluksizlikni ta’minlash muammolari va yechimlari to’g’risida fikr yuritilgan. Inkyuziv ta’lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta’lim maktablarining katta bo‘lmagan qismlarida faoliyat yuritadi. Maxsus ehtiyojli bolalarning inklyuziv ta’lim tizimda o‘qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashishlari va hayotiy ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, individual xususiyatlar, integratsiya, ta’lim-tarbiya,moslashuvchanlik, ijtimoiylashuv, yosh xususiyatlari, ijtimoiy vaziyat.

Kirish

Inklyuziv ta’lim nima?

Inklyuziv ta’lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta’lim olishini anglatadi.Ya’ni imkoniyati cheklangan bola sog‘lom bolalar bilan bir xil e’tiborda o‘qiy olishi kerak. O‘zbekistonda oilaviy sharoitidan qat’i nazar, barcha bolalar davlat umumta‘lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan.

Ba’zan tengdoshlarimiz, maktabdoshlarimiz orasida yoki mahallada imkoniyati cheklangan bolalarni ko‘rib qolsak, tushunib-tushunmasdan uni ajratib qo‘yishga, u bilan muloqot qilmaslikka harakat qilamiz. Bu noto‘g‘ri, aslida ular bilan o‘rtoq bo‘lib, bir jamoa bo‘lib yashasak, ularning baxtli hayot kechirishlariga hissa qo‘shishimiz mumkin. Jamiyatda har bir bola baxtli bo‘lishga haqli!

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Bugungi kunda nogironligi va rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar sifatli ta'lim olishlari va keyinchalik munosib ish topishlari uchun ularga haqiqiy inklyuziv sharoitlarni yaratish bo'yicha mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'limning muhim muammolaridan biri bo'lgan alohida ta'lim ehtiyojga ega bo'lgan bolalar guruhini aniqlab, ularga sifatli ta'lim shakllarida bilim berish va salohiyatini oshirishdan iboratdir. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlarga ega bo'lgan tamoyillari va yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan maktabning ta'lim faoliyatiga, yo'nalishlariga, hamda imkoniyatlarga (jismoniy, intellektual) mos kelishi maqsadga muvofiqdir.

Inklyuziv ta'lim ta'lim-tarbiyani rivojlantirish jarayoni bo'lib, ta'limning hammabopligini nazarda tutgan holda barcha ta'lim oluvchilarning turli ehtiyojlaridan kelib chiqib bolalarni ta'lim olishini ta'minlovchi ta'limning yangi shaklidir. 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklorasiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminasiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir. Inklyuziv ta'lim bu davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini taminlaydi.

Asosiy qism

Nogironligi bo'lgan bolalardagi imkoniyat va ulardagi yashirin iqtidorlari nuqsonlari sababli cheklanib qolgan. Ularning imkoniyatlari chegaralanib qolganligi oqibatida ular psixologik korreksion yordamga muxtoj. Nogiron bolalar bilan psixologik, profilaktik,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

korreksion, ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ishlarni olib borish, ularni ijtomiylashuvi, faol hayotga moslashishi, o’z imkoniyatlaridan samarali foydalanib jamiyatga qaysidir ma’noda foydasi tegadigan qilib voyaga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Har bir bolaning hech kim daxl qila olmaydigan huquqlaridan biri bu uning bilim olish huquqidir. Inklyuziv ta’limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko‘nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o‘rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga ilk yosh davridayoq ularning ta’lim tarbiyasiga erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta’limi boshlang‘ich va o‘rta-maxsus ta’limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning kasb-hunar ta’limi va oliy ta’limi ham amalga oshirilishi talab etadi. Chunki inklyuziv ta’lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir. Inklyuziv ta’lim tizimida o‘quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo‘lishi kerak. Bolaning maxsus ta’limga bo‘lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar inklyuziv tarzda o‘qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o‘qituvchilarning dars berishi talab etiladi.

Inklyuziv ta’lim berishda eng avvalo o’qituvchilar o’quvchilarning turli toifada ekanligi va ularning barchasi teng huquqli ekanligini hurmat qilishi lozim. Ma’lumki inklyuziv ta’limda o’quvchilarning iqtidori va qobilyatlariga qarab ta’limga yo’naltiriladi. Inklyuziv ta’lim bu jamiyatga qo’shilish bosqichi sifatida jamiyatdagi barcha a’zolarning bir-birlarini qabul qilinishi va ishtirok etishga yordam beradigan tarzda o’zgartirish demakdir. Inklyuziv ta’lim nafaqat alohida ta’limga muxtoj bolalar, balki sog’lom bolalar uchun ham rivojlangan, insonparvar va samarali ta’lim tizimini ilgari surishni o’z oldiga maqsad qilib olgan. Inklyuziv ta’limda bolalar bir-birlarini qanday bo’lsalar shundayligicha qabul qilishni o’rganishadi. Nogironligi bo’lgan bolalar esa sog’lom bolalar orasida ular bilan birgalikda ta’lim olishga rivojlanishga harakat qiladilar. Buning natijasida bolalarda o’ziga bo’lgan ishonch, qat’iyat, bilim olishga bo’lgan qiziqish, matonat kabi irodaviy sifatlar yanada rivojlanadi. Ular o’zlarini jamiyatga, davlatga kerak ekanliklarini his qiladilar. Talim-tarbiya jarayonlari bu bevosita maktab jamoasi, o’qituvchilarining pedagogik mahorati o’z kasbining jonkuyar va fidoiyligiga bog’liq. Inklyuziv ta’limga jalb

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

qilingan o'quvchilarning ota-onalarga ularning farzandlariga ta'lim berish va ularni jamiyatning bir bo'lagi ekanligini tushuntirish, va bu ishonchni ular ongiga yetkazish kerak.

Xulosa

Xulosa o'rnida inklyuziv ta'limni maktablarda tadbiq qilishning natijasi imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olishiga, rivojlanishiga, o'ziga bo'lgan ishonchini ortishiga va shu bilan birga jamiyatimizdagi insonlar ongini bunday boalalarga nisbatan munosabatlarini o'zgartirishga katta imkoniyat eshiglarini ochadi. O'quvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatlarini o'rganish taxlil qilish mezonlarini ishlab chiqish jamiyatning rivoji va ta'lim-tarbiya jarayoning sifatini yanada rivojlantirishga va mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday imkoniyatlar imkoniyati cheklangan o'quvchilarga o'z iqtidorini namoyon etib yaratilgan imkoniyatlardan to'laqonli va unumli foydalanishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Raxmonova V.R Defektologiya asoslari.-T.:2012

2. Крыжановская Л.М Психологическая коррексия в условиях инклюзивнога образования. Пособие для психологов и педагоговю – М.<Владос>, 2013. 83-б.

3. Nurmuxammedova L.Sh. Abidova D. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash yo'llari. -T.:2008

4. Sodiqova G.A., Nurkyeldiyeva D.A. Rivojlanishi orqada qolgan bolalar diagnostikasi (ma'ruzalar matni). – T. : 2001

5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'Lim To'G'Risida"Gi Qonuni. 2020 Yil 23 Sentyabr.O'Rq-637-Son Https://Lex.Uz/Docs/5013007

6. 2020-2025 Yillarda Xalq Ta'Limi Tizimida Inklyuziv Ta'lim Inklyuziv Ta'limni Rivojlantirish Konsepsiyasi. O'Z.Res.Prezidenti. 13.10.2020y Pq 4860-Son

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

MATRITSALAR NAZARIYASIDA DETERMINANTLAR VA ULARNING ALGEBRAIK XOSSALARI.

Ko‘charov Aloviddin Anvar o‘g‘li

Abdusattorov Abdulhakim Abdusamat o'g'li

Jo‘rayev Sherzod Chaqmoq o‘g‘li

Termiz iqtisodiyot va servis Universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada matritsalar nazariyasining muhim tushunchalaridan biri bo‘lgan determinantlar va ularning asosiy algebraik xossalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Determinant tushunchasining kelib chiqishi, uning matritsa elementlari bilan bog‘liqligi hamda chiziqli algebra masalalarini yechishdagi ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, determinantlarning qo‘shish, ko‘paytirish, satr va ustunlar bilan bog‘liq xossalari, ularning chiziqli tenglamalar sistemalarini yechish, matritsaning teskari matritsasini aniqlash va rang (rank) tushunchasi bilan bog‘liqligi ilmiy asosda izohlanadi. Maqolada determinantlarning nazariy xususiyatlari bilan bir qatorda, ularning amaliy qo‘llanilishi ham umumlashtirilgan holda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari determinantlar tushunchasini chuqurroq anglash va uni matematik hamda amaliy masalalarda samarali qo‘llashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar : Determinant, matritsa, algebraik xossalar, chiziqli algebra, teskari matritsa, chiziqli tenglamalar sistemasi, matritsa rangi, minor va algebraik to‘ldiruvchi.

Kirish

Hozirgi zamon matematika fanida chiziqli algebra muhim o‘rin tutib, u nafaqat nazariy masalalarni, balki fizika, iqtisodiyot, muhandislik, axborot texnologiyalari va boshqa ko‘plab sohalardagi amaliy muammolarni yechishda keng qo‘llaniladi. Chiziqli algebra asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan matritsalar murakkab jarayonlarni ixcham va qulay shaklda ifodalash imkonini beradi. Matritsalar bilan bog‘liq fundamental tushunchalardan biri esa determinant hisoblanadi. Determinant tushunchasi dastlab chiziqli

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

tenglamalar sistemalarini yechish jarayonida paydo bo‘lib, keyinchalik mustaqil nazariy ahamiyat kasb etdi. Determinantlar yordamida matritsaning teskari mavjudligini aniqlash, chiziqli tenglamalar sistemasining yechimga ega yoki ega emasligini baholash, shuningdek, vektorlar sistemasi chiziqli bog‘liq yoki bog‘liq emasligini tekshirish mumkin. Shu sababli determinantlar matritsalar nazariyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Determinantlarning algebraik xossalari, xususan, satr va ustunlar bo‘yicha o‘zgarishlar, ko‘paytma va qo‘shishga nisbatan xatti-harakatlari hamda ularning minor va algebraik to‘ldiruvchilar bilan bog‘liqligi matematik tahlilda muhim ahamiyatga ega. Ushbu xossalarni chuqur o‘rganish chiziqli algebra masalalarini soddalashtirish va umumlashtirish imkonini beradi. Mazkur maqolada determinant tushunchasining nazariy asoslari va ularning asosiy algebraik xossalari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi determinantlarning matematik mohiyatini ochib berish, ularning nazariy va amaliy ahamiyatini asoslash hamda chiziqli algebra fanini o‘rganishda determinantlar rolini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqot usullari va metodlar

Mazkur tadqiqot determinantlar nazariyasini va ularning algebraik xossalarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda asosan nazariy tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida chiziqli algebra fanida qabul qilingan fundamental tushunchalar, ta’riflar va teoremalar tizimli ravishda o‘rganildi hamda ilmiy mantiq asosida umumlashtirildi. Tadqiqotda birinchi navbatda analitik metoddan foydalanildi. Ushbu metod orqali determinant tushunchasining mohiyati, uning matritsa elementlari bilan bog‘liqligi hamda algebraik xossalari bosqichma-bosqich tahlil qilindi. Determinantlarning satr va ustunlar bo‘yicha o‘zgarishiga oid xossalari, shuningdek, ularning ko‘paytma va qo‘shish amallariga nisbatan xatti-harakatlari matematik tahlil yordamida izohlandi. Shuningdek, tadqiqotda deduktiv metod qo‘llanilib, umumiy nazariy qoidalardan kelib chiqib, determinantlarga oid aniq xossalar va natijalar asoslab berildi. Mazkur yondashuv determinantlarning asosiy teoremalari va ularning isbotlarini mantiqiy ketma-ketlikda bayon etishga imkon berdi. Determinantlarning amaliy ahamiyatini ochib berish maqsadida taqqoslash metodidan ham foydalanildi. Bu metod yordamida turli o‘lchamli matritsalar determinantlari o‘rtasidagi farqlar, shuningdek, determinant xossalarining chiziqli tenglamalar sistemalarini yechishdagi roli solishtirma tarzda ko‘rib chiqildi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Bundan tashqari, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari orqali determinantlarga oid nazariy bilimlar yagona ilmiy tizimga keltirildi. Ushbu metodlar determinantlar va ularning algebraik xossalarini yaxlit holda tushunishga, shuningdek, ularni chiziqli algebra doirasida izchil o‘rganishga xizmat qildi. Natijada qo‘llanilgan tadqiqot usullari determinantlar nazariyasining ilmiy asoslarini ochib berish, uning algebraik xossalarini mantiqiy va tushunarli shaklda bayon etish hamda mazkur tushunchaning nazariy va amaliy ahamiyatini asoslash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

Ushbu tadqiqot doirasida determinantlar va ularning asosiy algebraik xossalari nazariy jihatdan tahlil qilindi hamda ularning amaliy qo‘llanilishi misollar orqali asoslab berildi. O‘rganish jarayonida determinantlarning matritsa xossalarini aniqlashdagi o‘rni va matematik masalalarni yechishdagi ahamiyati yaqqol namoyon bo‘ldi.

Avvalo, determinantning asosiy ta’rifi va uning kichik o‘lchamli matritsalar uchun hisoblanishi ko‘rib chiqildi. Ikki o‘lchamli matritsa uchun determinant quyidagicha aniqlanadi:

$A = \begin{vmatrix} a & b \\ c & d \end{vmatrix}$

$\det(A) = ad - bc$

Misol 1.

Quyidagi matritsaning determinantini hisoblaymiz:

$A = \begin{vmatrix} 2 & 3 \\ 1 & 4 \end{vmatrix}$

$\det(A) = 2 \cdot 4 - 3 \cdot 1 = 8 - 3 = 5$

Bu natija determinant nolga teng emasligini ko‘rsatadi, ya’ni ushbu matritsa teskari matritsaga ega va unga mos chiziqli tenglamalar sistemasi yagona yechimga ega bo‘ladi. Keyingi tahlilda determinantlarning muhim algebraik xossalaridan biri — satr (yoki ustun)larni almashtirish xossasi o‘rganildi. Agar matritsaning ikkita satri o‘rin almashtirilsa, determinant ishorasi o‘zgaradi.

Misol 2.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

$A = \begin{vmatrix} 1 & 2 \\ 3 & 4 \end{vmatrix} \rightarrow \det(A) = 1 \cdot 4 - 2 \cdot 3 = -2$

Satrlarni almashtiramiz:

$B = \begin{vmatrix} 3 & 4 \\ 1 & 2 \end{vmatrix} \rightarrow \det(B) = 3 \cdot 2 - 4 \cdot 1 = 2$

Bu yerda $\det(B) = -\det(A)$ ekanligi aniqlanadi.

Shuningdek, determinantlarning yana bir muhim xossasi — bir satr (yoki ustun) elementlarini songa ko‘paytirish determinantni ham shu songa ko‘paytirishga olib kelishidir.

Misol 3.

$A = \begin{vmatrix} 1 & 2 \\ 3 & 4 \end{vmatrix} \rightarrow \det(A) = -2$

A matritsaning birinchi satrini 3 ga ko‘paytiramiz:

$B = \begin{vmatrix} 3 & 6 \\ 3 & 4 \end{vmatrix}$

$\det(B) = 3 \cdot \det(A) = 3 \cdot (-2) = -6$

Tadqiqot davomida bir xil yoki proporsional satrlarga ega bo‘lgan matritsaning determinanti nolga teng bo‘lishi ham tahlil qilindi.

Misol 4.

$A = \begin{vmatrix} 2 & 4 \\ 1 & 2 \end{vmatrix}$

Bu yerda ikkinchi satr birinchi satrning 1/2 qismiga teng.

Shuning uchun: $\det(A) = 2 \cdot 2 - 4 \cdot 1 = 4 - 4 = 0$

Natija shuni ko‘rsatadiki, bunday matritsalar teskari matritsaga ega emas va ularga mos chiziqli tenglamalar sistemasi cheksiz yoki yechimga ega emas bo‘lishi mumkin.

Uch o‘lchamli matritsalar uchun determinantni hisoblashda minor va algebraik to‘ldiruvchi tushunchalaridan foydalanildi.

Misol 5.

$A = \begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 0 & 1 & 4 \\ 5 & 6 & 0 \end{vmatrix}$

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Birinchi satr bo‘yicha yoyamiz:

$$\det(A) = 1\cdot\begin{vmatrix} 1 & 4 \\ 6 & 0 \end{vmatrix} - 2\cdot\begin{vmatrix} 0 & 4 \\ 5 & 0 \end{vmatrix} + 3\cdot\begin{vmatrix} 0 & 1 \\ 5 & 6 \end{vmatrix}$$

Hisoblaymiz:

$$\det(A) = 1\cdot(1\cdot 0 - 4\cdot 6) - 2\cdot(0\cdot 0 - 4\cdot 5) + 3\cdot(0\cdot 6 - 1\cdot 5)$$

$$\det(A) = 1\cdot(-24) - 2\cdot(-20) + 3\cdot(-5)$$

$$\det(A) = -24 + 40 - 15 = 1$$

Bu natija determinantlar orqali murakkabroq matritsalarni ham samarali tahlil qilish mumkinligini ko‘rsatadi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida determinantlarning algebraik xossalari matritsa nazariyasida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ular yordamida matritsalarning asosiy xususiyatlarini aniqlash, chiziqli tenglamalar sistemalarini tahlil qilish va matematik modellarni soddalashtirish mumkin.

Xulosa

Mazkur maqolada matritsalar nazariyasining muhim tushunchalaridan biri bo‘lgan determinantlar va ularning asosiy algebraik xossalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida determinant tushunchasining mohiyati, uning matritsa elementlari bilan bog‘liqligi hamda chiziqli algebra doirasidagi o‘rni yoritib berildi. O‘rganish natijasida determinantlarning satr va ustunlar bilan bog‘liq xossalari, xususan, satrlarni almashtirishda ishoraning o‘zgarishi, satr yoki ustunni songa ko‘paytirish determinant qiymatiga ta’siri hamda chiziqli bog‘liq satrlar mavjud bo‘lganda determinantning nolga teng bo‘lishi asoslab berildi. Shuningdek, determinantlar yordamida matritsaning teskari mavjudligini aniqlash va chiziqli tenglamalar sistemalarining yechimga egaligini baholash mumkinligi misollar orqali ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari determinantlar nazariyasi nafaqat matematik jihatdan muhim ekanligini, balki uning amaliy masalalarni yechishda ham samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu maqolada bayon etilgan tahlillar determinant tushunchasini chuqurroq o‘zlashtirishga, shuningdek, chiziqli algebra fanini o‘rganishda nazariy bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anton, H., Rorres, C. Elementary Linear Algebra. New York: Wiley, 2014.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

2. Lay, D. C., Lay, S. R., McDonald, J. J. Linear Algebra and Its Applications. Pearson Education, 2016.

3. Strang, G. Introduction to Linear Algebra. Wellesley-Cambridge Press, 2016.

4. Axmedov, M., Rasulov, A. Chiziqli algebra va analitik geometriya. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

5. Kreyszig, E. Advanced Engineering Mathematics. John Wiley & Sons, 2011.

6. Hoffman, K., Kunze, R. Linear Algebra. Prentice Hall, 2004.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

TO‘SIQSIZ TURIZMNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Nurullayeva Malika Samadjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi

mlknurullaevaa@gmail.com
ORCID: 0009-0000-1871-4528

Annotatsiya: Mazkur maqolada to‘siqsiz (accessible) turizmning zamonaviy turizm tizimidagi o‘rni, ahamiyati va dolzarbligi keng qamrovda tahlil qilingan. Tadqiqotda dunyo miqyosida nogironligi bo‘lgan shaxslar sonining ortib borishi va ularning oila a’zolari bilan birgalikda global aholining muhim qismini tashkil etishi turizm bozorida katta, biroq yetarlicha o‘zlashtirilmagan salohiyat mavjudligini ko‘rsatib beradi. Maqolada to‘siqsiz turizm tushunchasi inklyuziv va universal yondashuv sifatida yoritilib, uning faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun emas, balki keksalar, homilador ayollar, yosh bolali oilalar va vaqtinchalik harakatlanish chekloviga ega shaxslar uchun ham muhimligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, turist, sayohat, to‘siqsiz turizm, inklyuziv turizm, barqaror rivojlanish, nogiron sayohatchilar, nogironlar huquqlari, BMT.

Dunyo miqyosida taxminan bir milliarddan ortiq kishi nogironlik bilan yashaydi. Nogironlik bevosita ta’sir etayotgan shaxslarni (turmush o‘rtoq, farzandlar, vasiylar va boshqalaq) hisobga olinganda, bu ko‘rsatkich ikki milliarddan ortiq kishiga yetadi. Bu esa o‘z o‘rnida dunyo aholisining deyarli uchdan bir qismini tashkil etadi. Ushbu demografik holat nogironligi bo‘lgan shaxslarni qamrab olish siyosatining muhim ijtimoiy va iqtisodiy qanchalik ahamiyatli ekanligini ta’kidlaydi. Sayohat va turizm sharoitida esa, aholining ushbu qismi ulkan va o‘sib borayotgan turizm bozorining bir qismini tashkil etadi. Biroq, o‘zining ko‘lamiga qaramay, bu bozor qismi infratuzilmaning yetishmasligi, yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmasligi, yetarli axborot almashinuvi yo‘qligi va yetarli tajriba kamligi kabi to‘siqlar tufayli sezilarli darajada oqsamoqda.

To‘siqsiz turizm deganda barcha insonlarning turistik tajribada ishtirok etish va undan boshqalaq bilan teng asosda bahramand bo‘lish qobiliyati tushuniladi. Shuni ta’kidlash

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

kerakki, to‘siqsizlik ehtiyojlari faqat doimiy nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan cheklanmaydi. Qariyalar, harakatlanish imkoniyati cheklanganlar, sensor yoki kognitiv cheklovlarga ega odamlar, homilador ayollar, yosh bolali oilalar va vaqtinchalik nogironlar ham sayohat paytida qulaylikdagi qiyinchiliklariga duch kelishadi. Demak, to‘siqsiz turizmni turizmning maxsus shakli sifatida emas, balki inklyuziv va universal tushuncha sifatida tushunish lozim. To‘siqsiz turizm - bu turistik yo‘nalishlar, mahsulotlar, xizmatlar va atrof-muhitning jismoniy cheklovlar, nogironlik yoki yoshidan qat’i nazar, barcha odamlar uchun mavjud bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan uzluksiz va dinamik jarayondir. Bunga transport tizimlari, joylashtirish kabi davlat hamda xususiy turistik obyektlar va xizmatlar kiradi. To‘siqsiz turizmni rivojlantirish hamkorlikda va ko‘p tomonlama yondashuvni talab qiladi.

Hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, sayyohlik agentliklari, turoperatorlar, transport ta’minotchilari va xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlari, xususan, nogironligi bo‘lgan shaxslar va ularning vakillik tashkilotlari (nogironlar tashkilotlari) bilan hamkorlikda ishlashlari joiz. Samarali sayyohlik tajribasi o‘zaro bog‘liq xizmatlarning murakkab zanjiriga asoslanadi, jumladan, axborot olish, shaharlararo va mahalliy transport, yashash joyi, ovqatlanish, xarid qilish va dam olish tadbirlari. Ushbu zanjirning biron nuqtasidagi muvaffaqiyatsizlik turizmdagi ishtirokni sezilarli darajada cheklashi yoki butunlay to‘xtatishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada, to‘siqsiz turizmning ta’siri nafaqat individual sayohatchilarga, balki butun jamiyatga ham ta’sir qiladi. Turizmni rivojlantirishda qulaylik tamoyillarini joriy etish orqali jamiyatlar o‘zlarining ijtimoiy va iqtisodiy qadriyatlarini mustahkamlaydi, inklyuziyani rag‘batlantiradi. Shunday qilib, to‘siqsiz turizm inklyuzivlik va adolat tomonidan kengroq ijtimoiy o‘zgarishlar uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi.

Turizmda qulaylikning ahamiyati inson huquqlari va rivojlanishning xalqaro me’yorlarida mustahkamlab qo‘yilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2006-yil dekabr oyida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasi ushbu majburiyatning tamal toshi hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasining 9-moddasi a’zo davlatlarga nogironlarning jismoniy muhit, transport, axborot, kommunikatsiya texnologiyalari va jamiyat uchun ochiq bo‘lgan boshqa obyektlar va xizmatlardan teng foydalanishini ta’minlash bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish majburiyatini yuklaydi. Bu

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

barcha sohalarda, shu jumladan turizm mashg'ulotlari jarayonida to‘siq va g‘ovlarni aniqlash va bartaraf etishni o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasining 30-moddasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning madaniy hayotda, dam olishda, hordiq chiqarishda va sportda ishtirok etish huquqi to‘g‘ridan-to‘g‘ri e’tirof etilgan va shu bilan davlatlarning turizm va hordiq chiqarishdan foydalanishni ta’minlash majburiyati mustahkamlangan. Ushbu qoidalar to‘siqsiz turizmni ixtiyoriy tashabbus sifatida emas, balki inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqqa muvofiq huquqiy va axloqiy majburiyat sifatida belgilaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2013-yilda bo‘lib o‘tgan nogironlik va rivojlanish bo‘yicha muhim yig‘ilishida nogironlik va rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik rasman tan olindi va nogironlikni global rivojlanish kun tartibiga integratsiya qilish bo‘yicha harakatlarning asosiy yo‘nalishi sifatida nogironlikdan foydalanish imkoniyati belgilandi. O‘sha yili BMT Bosh kotibi shaharlar va aholi punktlarini hamma uchun qulay qilish zarurligini ta’kidlab, qulaylik inklyuziv shahar rivojlanishining zaruriy sharti ekanligini ta’kidladi.

2030- yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibining qabul qilinishi to‘siqsiz turizmning dolzarbligini yanada kuchaytirdi. Barqaror rivojlanish maqsadi (BRM 11) shaharlar va aholi punktlarini inklyuziv, xavfsiz va barqaror qilishga chaqiradi. Ushbu maqsad turizm bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u universal dizayn, arzon va barqaror transport tizimlari, inklyuziv urbanizatsiya, shuningdek, jamoat va yashil maydonlardan adolatli foydalanishga e’tibor qaratadi. Birlashgan Millatlar turizm tashkiloti (UN Tourism) ning 2030-yilga borib xalqaro sayyohlar soni taxminan 1,8 milliardga yetishi haqidagi prognozini hisobga olsak, jamiyatning barcha qatlamlarining to‘liq ijtimoiy va iqtisodiy ishtirokini ta’minlash uchun turizmni rejalashtirishda qulayliklarni joriy etish juda muhimdir. Ushbu xalqaro majburiyatlarga qaramay, nogironligi bo‘lgan shaxslar sayohat qilishda hali ham ko‘plab to‘siqlarga duch kelishmoqda.

Ushbu to‘siqlar ko‘pincha sayohat tajribasini qiyin, qimmat, mashaqqatli yoki umuman imkonsiz qiladi. Keng tarqalgan muammolar qatoriga qulaylik darajasining pastligi, malakali xodimlarning yetishmasligi, maxsus transport vositalari, moslashtirilgan mehmonxona xonalar va jamoat qulayliklaridan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi kiradi. Qo‘shimcha to‘siqlar qatoriga mavjud diqqatga sazovor joylardagi xizmatlar

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

to‘g‘risida yetarli axborot yo‘qligi, shuningdek, uskunalarni ijaraga olish imkoniyatining kamligini kiritsa bo‘ladi. Ushbu to‘siqlarning umumiy ta’siri nafaqat harakatchanlik va ishtirokni cheklaydi, balki sayohatlarga butunlay to‘sqinlik qiladi, ijtimoiy istisno va tengsizlikni kuchaytiradi.

Foydalanish imkoniyati mas’uliyatli va barqaror rivojlanish siyosatining asosiy tarkibiy qismidir. Bu ham inson huquqlari imperativi, ham katta iqtisodiy imkoniyatdir. To‘siqsiz turizm nogironlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydali bo‘lsa-da, uning ijobiy ta’siri kengroq aholiga ham ta’sir qiladi. Universal loyihalash tamoyillarini qabul qilish hamma uchun adolatli va barqaror foydalanishni ta’minlaydi. Universal dizayn barcha foydalanuvchilarga turizm obyektlari va xizmatlaridan uzluksiz va munosib foydalanish imkonini berish orqali imtiyozli yoki ajratilgan rejimdan tashqariga chiqadi. Ushbu yondashuv xizmat ko‘rsatish sifatini, mijozlarning qoniqishini va uzoq muddatli barqarorlikni oshiradi, shu bilan birga qimmatga tushadigan qayta jihozlash yoki ixtisoslashtirilgan turar-joylarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi.

To‘siqsiz turizm faqatgina imkoniyati cheklangan insonlar uchun dolzarbgina emas. Sayyora aholisi keksaygani sayin harakatchanlik, sensor yoki kognitiv cheklovlarni boshdan kechirish ehtimoli ortadi. Qulaylikka yo‘naltirilgan rivojlanish odamlar ulg‘aygan sari ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishni davom ettirishlarini ta’minlaydi. Bundan tashqari, to‘siqsiz muhit sayohat tajribasini sezilarli darajada yaxshilagan holda homilador ayollar, vaqtinchalik jarohat olganlar va yosh bolali oilalar uchun qulaylik yaratadi. To‘siqsizlik bilan bog‘liq infratuzilma va xizmatlarni taqdim etishni takomillashtirish inklyuziv hamjamiyatni rivojlantirishga yordam beradi. Turizm va ijtimoiy hayotda kengroq ishtirok etish imkonini beruvchi arzon turizm mahalliy hamjamiyatlarda hayot sifatini, ijtimoiy birdamlikni va iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, to‘siqsiz turizm inson huquqlari, ijtimoiy inklyuziya va barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim chorrahasidir. To‘siqlarni olib tashlash va turizmni rejalashtirish va amaliyotiga kirish imkoniyatini joriy etish orqali jamiyatlar barcha uchun qadr-qimmat, tenglik va ishtirokni ta’minlagan holda muhim ijtimoiy va iqtisodiy imtiyozlarni ochib berishi mumkin. Global turizm kengayishda davom etar ekan, qulaylik tamoyillarini joriy etish nafaqat maqsadga muvofiq, balki hozirgi va kelajak avlodlarga xizmat qiladigan inklyuziv va barqaror turizm tizimlarini yaratish uchun ham zarurdir.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations. *Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD)*. New York: United Nations, 2006.
2. UN Tourism. *Accessible Tourism and Inclusive Destinations*. Madrid: UN Tourism, 2022.
3. World Health Organization (WHO). *Global Report on Health Equity for Persons with Disabilities*. Geneva: WHO, 2022.
4. United Nations. *Disability and the Sustainable Development Goals: Progress and Challenges*. New York: United Nations, 2023.
5. OECD. *Tourism Trends and Policies 2022*. Paris: OECD Publishing, 2022.
6. Darcy, S., McKercher, B., & Schweinsberg, S. (2020). From tourism and disability to accessible tourism: A perspective article. *Tourism Management*, 76.
7. Buhalis, D., & Michopoulou, E. (2021). Information-enabled tourism destinations for all. *Journal of Destination Marketing & Management*, 19.

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

ANTIBIOTIKLARGA QARSHI CHIDAMLILIK MUAMMOSI VA YANGI DAVOLASH STRATEGIYALARI

Ilmiy rahbar: **Alimova Komila Dekanovna**
E-mail: komiladekanovna13@gmail.com
Tel: +998 99-081-59-26.
Mualliflar: Zokirjonova Muslima Saidjon qizi
TDTU stomatologiya fakultet 2-kurs talabasi
E-mail: @zokirjonovamuslima739gmail.com
Tel: +998(94)6674310
Musurmonov Jamoliddin Faxriddin o‘g’li
TDTU Davolash ishi fakulteti 2-kurs talabasi,
E-mail: jamoliddin216624@gmail.com
Tel:+998941120624

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada zamonaviy tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biri - antibiotiklarga qarshi chidamlilikning kuchayib borishi va undan kelib chiqayotgan epidemiologik, klinik hamda iqtisodiy oqibatlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda mikroorganizmlarning antibiotiklarga moslashish mexanizmlari, global miqyosdagi tendensiyalar, shuningdek, infektsiyalarga qarshi yangi davolash strategiyalari ko‘rib chiqiladi. Xususan, fage terapiya, antimikrob peptidlar, CRISPR asosidagi gen yo‘naltirilgan antimikrob yondashuvlar, immunoterapiya va sun’iy intellekt yordamida yaratilayotgan yangi antibiotiklar samaradorligi o‘rganiladi. Maqola ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar, statistik ma’lumotlar va klinik tajribalar asosida ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari antibiotiklarga chidamlilikka qarshi kurashda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: antibiotiklarga chidamlilik, antimikrob rezistentlik, MRSA, yangi antibiotiklar, fage terapiya, antimikrob peptidlar, AI-antibiotiklar, global sog‘liqni saqlash.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется одна из наиболее актуальных проблем современной медицины – рост резистентности к антибиотикам – и связанные с этим

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

эпидемиологические, клинические и экономические последствия. В исследовании рассматриваются механизмы адаптации микроорганизмов к антибиотикам, мировые тенденции, а также новые стратегии лечения инфекций. В частности, изучается эффективность новых антибиотиков, созданных с использованием фаговой терапии, антимикробных пептидов, генно-направленных антимикробных подходов на основе CRISPR, иммунотерапии и искусственного интеллекта. Статья основана на научных исследованиях в этой области, статистических данных и клиническом опыте. Результаты исследования указывают на необходимость комплексного подхода к борьбе с антибиотикорезистентностью.

Ключевые слова: антибиотикорезистентность, устойчивость к антимикробным препаратам, MRSA, новые антибиотики, фаговая терапия, антимикробные пептиды, AI-антибиотики, глобальное здравоохранение.

ABSTRACT

This article analyzes one of the most pressing problems of modern medicine - the increasing resistance to antibiotics - and the epidemiological, clinical and economic consequences arising from it. The study examines the mechanisms of adaptation of microorganisms to antibiotics, global trends, as well as new treatment strategies for infections. In particular, the effectiveness of new antibiotics created using phage therapy, antimicrobial peptides, CRISPR-based gene-directed antimicrobial approaches, immunotherapy and artificial intelligence is studied. The article is based on scientific research in this area, statistical data and clinical experiences. The results of the study indicate the need for an integrated approach to combating antibiotic resistance.

Keywords: antibiotic resistance, antimicrobial resistance, MRSA, new antibiotics, phage therapy, antimicrobial peptides, AI-antibiotics, global health.

KIRISH

Antibiotiklarga qarshi chidamlilik (AQCh) so‘nggi o‘n yilliklarda global sog‘liqni saqlash tizimi uchun eng jiddiy tahdidlardan biriga aylandi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti AQChni "insoniyat duch kelayotgan eng xavfli biotibbiy muammolardan biri" deb e’lon qilgan. Dunyo bo‘yicha har yili 1,27 milliondan ortiq insonning bevosita antibiotiklarga chidamli infeksiyalar sabab vafot etayotgani, 2050-yilga kelib bu ko‘rsatkich

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-12

10 milliondan oshishi mumkinligi bashorat qilinmoqda. Ushbu muammo nafaqat sog‘liqni saqlash tizimiga, balki iqtisodiyotga ham jiddiy zarar yetkazadi — ko‘plab mamlakatlarda AQCh sabab yillik zarar milliardlab dollarga baholanadi[1].

Antibiotiklarga chidamlilikning kuchayishiga noto‘g‘ri va nazoratsiz dori ishlatish, hayvonchilikda keng qo‘llanish, gigiyena pastligi, dori-vasitalarning sifatsizligi hamda yangi antibiotiklar ishlab chiqarilishining sekinlashuvi sabab bo‘lmoqda. Bunday sharoitda nafaqat mavjud antibiotiklarni oqilona qo‘llash, balki infeksiyalarga qarshi mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish zarurdir.

Ushbu maqolada antibiotiklarga chidamlilikning biologik va epidemiologik jihatlari, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili, qo‘llanilayotgan metodologiyalar hamda so‘nggi yillardagi innovatsion davolash strategiyalari chuqur yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Antibiotiklarga chidamlilik bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar mikroorganizmlarning qarshilik mexanizmlarini to‘rt asosiy guruhga ajratadi: dori moddasini parchalaydigan fermentlar sintezi, hujayra membranasining o‘zgarishi, dori chiqarib yuboruvchi efflyuks nasoslarining kuchayishi va maqsadli oqsillarning mutatsiyaga uchrashidir. Adabiyotlarda β-laktamaza, karbapenemaza, metitsillinga chidamli Staphylococcus aureus (MRSA), vankomitsinga chidamli enterokokklar (VRE) kabi bakteriyalar eng xavfli patogenlar sifatida ta’kidlanadi[2].

Metodologik jihatdan tadqiqot davomida quyidagilar qo‘llaniladi:

Adabiyotlarni tizimli tahlil qilish — PubMed, Scopus, Web of Science bazalaridan olingan oxirgi 10–12 yil ichidagi ilmiy maqolalar o‘rganildi.

Statistik ma’lumotlar tahlili — WHO, ECDC va CDC hisobotlaridagi global ko‘rsatkichlar solishtirildi.

